На методах анализа строятся теории ограничений (Theory of Constraints, TOC), канбан-метод (kanban), как инструмент в IT-менеджменте; скрам-методология (scrum) в разработках цифровой продукции и др.

В результате проведенного анализа можно сделать выводы и дать рекомендации по улучшению хозяйственной деятельности предприятия, которые следуют из расчетов и моделей прогнозирования. Причем данные, которыми располагает предприятие, используются непосредственно, а отдельные участки информации, с пустыми, не связанными между собой массивами данных с отсутствующими, но значимыми данными, проходят обработку в последующих звеньях автоматизированного проектирования

информации. В этих звеньях учитываются неопределенность, риск, компенсируется, восполняется недостающая информация, генерируются новые данные. Применение информационных технологий в региональной экономике, прежде всего, имеет целью переход к электронным формам документооборота между предприятиями, и контролирующими органами, между органами государственной власти различных уровней; в построении рациональной структуры обмена информацией внутри каждого субъекта хозяйствования. Информационные технологии являются средством организации работы по обработке информации и исследованию информационных процессов не только на уровне предприятия. Современный этап развития экономики характеризуется необходимостью развития перспективных направлений науки и техники и повышением эффективности производства с целью доведения качества продукции до мировых стандартов. Для решения этой задачи руководству предприятий нужна оперативная достоверная информация о фактическом состоянии производства, потребностях в ресурсах, ситуации на рынке и т. д. Использование информационных технологий зависит от специфики деятельности объекта. Безусловно, если у пользователя возникает необходимость автоматизировать на практике дополнительный участок обработки экономической информации с использованием соответствующих информационных технологий, ему необходимо описать постановку задачи (определить, какие документы и справочники используются и какова их структура, построить или описать алгоритм преобразования входной информации в выходную, которые необходимо выполнить для вычисления экономических показателей. Необходимо определить информационное обеспечение задачи, выбрать программное обеспечение и методы обработки информации и наладить решения задачи на компьютере.

Важность и значительная роль информационных технологий в развитии экономики предприятий является неоспоримым. Ведь её применение обеспечивает повышение эффективности управления предприятием на всех уровнях, способствует расширению взаимодействия между предприятиями на счет свободного и оперативного доступа к информации. IT помогают принимать экономически важные решения, а также непосредственное участие в процессе эффективного управления инновационной, хозяйственной, предпринимательской и функциональной деятельностью предприятия, а также просчитать и спрогнозировать

результаты экономического развития предприятия и на их основе принять верное управленческое решение по выявлению проблем и перспективой ее дальнейшего развития.

Оценка перспектив внедрения информационных технологий позволит формировать правильную реальную оценку новых возможностей предприятия, с целью повышения ее конкурентоспособности. Путем внедрения информационных технологий, рассматривать средства изменения отношений предприятия с потребителями, поставщиками, разрабатывать стратегию внедрения конкретных информационных технологий для организации определенного типа ее деятельности предприятия и рынка в целом, обосновать необходимые меры для поддержания заданного уровня надежности в конкретных участках деятельности предприятия при использовании информационных технологий, разрабатывать собственный план по внедрению нужной информационной технологии с учетом реакции внешней среды и, в частности, конкурентов.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ВА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

**Д.Омонуллаев ТАТУ-БГУИР талабаси,
Н.М.Мамадова,
Илмий раҳбар, ТАТУ-БГУИР
қўшма факультет декани**

Бизга маълумки, бугунги кунда халқаро глобаллашув шароитида иқтисодий тараққиётнинг янги босқичига бевосита рақамли иқтисодиёт ва сунъий интеллектни ривожлантириш ҳисобига эришиб боришини бутун дунё эътироф этмоқда. Халқаро тажрибадан ҳам маълумки, иқтисодиётни рақамлаштириш кўп жиҳатдан ижтимоий-иқтисодий барқарорликни таъминлашнинг муҳим мезони сифатида таъкидлаш лозим. Шу ўринда таъкидлаш керакки, истиқболда рақамли иқтисодиётсиз ривожланиш ҳам юксалиш ҳам йўқ, шунинг учун ҳам ушбу масалани теран англаган ҳолда фақат илмий-назарий ва амалий жиҳатдан тадқиқотларни янада кучайтириш талаб этилади. Аввалом бор рақамли иқтисодиёт тушунчасининг иқтисодий категория сифатида мазмун моҳиятига ва унинг

амал қилиш хусусиятларига ҳам алоҳида тўхталиб ўтиш жоиздир. Демак, ҳозирги кунда рақамли иқтисодиёт тушунчаси ҳақида турли ёндашувлар мавжуд. Рақамли иқтисодиёт – бу иқтисодий, ижтимоий ва маданий алоқаларни рақамли технологияларни қўллаш асосида амалга ошириш тизимидир. Баъзида у интернет иқтисодиёти, янги иқтисодиёт, замонавий иқтисодиёт ёки вебиқтисодиёт деган терминлар билан ҳам ифодаланади. Бундан ташқари рақамли йўқ нарсадан бошлаб яратилиши лозим бўлган қандайдир бошқача иқтисодиёт эмас. Балки замонавий янги технологиялар, платформалар ва бизнес моделлари яратиш ҳамда уларни кундалик ҳаётга жорий этиш орқали мавжуд иқтисодиётни янги тизимга ўтказиш демакдир. Яқин тарихга назар ташлайдиган бўлсак, ХХІ асрнинг 90 йилларида америкалик дастурчи Николас Негропonte “Рақамли иқтисодиёт” атамасини амалиётга киритди. Ҳозирги кунда бу атамани бутун дунёдаги сиёсатчилар, иқтисодчилар, журналистлар, тадбиркорлар томонидан - деярли барча қўлламоқда. Бу борада, биринчи бўлиб 2016 йилда Бутунжаҳон банки дунёдаги рақамли иқтисодиётнинг аҳволи ҳақида илк марта маъруза эълон қилди. Рақамли иқтисодиёт инсонларнинг турмуш даражасини сезиларли даражада оширади, бу унинг асосий фойдасидир. Илмий адабиётларда ҳозирги замон “Янги рақамли иқтисодиёти” турли хил атамалар билан номланади. Масалан, “постиндустриал иқтисодиёт” (Д.Белл), “ахборотлашган иқтисодиёт” (О.Тоффлер), “мегаиктисодиёт” (В.Кувалдин), “ахборот ва алоқага асосланган иқтисодиёт” (И.Ниинилуто), техноиктисодиёт ёки рақамли иқтисодиёт” (Б.Гейц), “билимларга асосланган иқтисодиёт” (Д.Тапскотт). Рақамли иқтисодиёт терминига маҳаллий иқтисодчи олимлар томонидан таъриф берилган. Жумладан, академик С.С.Ғуломовнинг фикрича “Рақамли бизнес бу жисмоний ва рақамли дунёларни бирлаштирадиган янги бизнес-моделлар пайдо бўлишидир.”⁷ Рақамли иқтисодиёт – бу жамият неъматларини ишлаб чиқариш, тақсимлаш ва истеъмол қилиш жараёнларида электрон ҳамда ахборот-коммуникацион технологияларини кенг жорий этишни кўзда тутадиган иқтисодиётдир. Рақамли иқтисодиётда бошқарув жараёни (профессional кадрлар орқали) – ўзаро алоқаларни бошқаришнинг компьютерли тизими бўлиб, инсониятнинг ўсиб бораётган эҳтиёжларини қондириш борасида электрон

⁷ Саатова Л., РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ- ЗАМОНАВИЙ ИҚТИСОДИЁТНИНГ ПОЙДЕВОРИ //«Инновацион иқтисодиёт: муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари». Халқаро илмий-амалий анжумани илмий мақолалар тўплами (1-қисм). – Қарши. «Intellekt» nashriyoti, 2021- 73-74 бет.

маълумотлардан фаол фойдаланиш бўйича кенг қўламли ишларни олиб боради. Масалан, унда тизим фаолиятини башорат қилиш, режалаштириш, ташкил қилиш, ижро этиш, назорат қилиш ва мувофиқлаштириш кўзда тутилган. Яъни, мамлакатни ривожлантириш йўлларини ишлаб чиқиш ва ҳаётга тадбиқ қилиш учун маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш асосида халқ хўжалиги мажмуини бошқаришнинг умумий интеграллашган тизими бўлиши лозим. Рақамли иқтисодиётнинг белгилари юқори даражада автоматлаштирилганлик, электрон хужжат алмашинуви, бухгалтерлик ва бошқарув тизимларининг электрон интеграциялашуви, маълумотлар электрон базалари, SRM (мижозлар билан ўзаро муносабат тизими) мавжудлиги, корпоратив тармоқлар кабилардир. Рақамли иқтисодиётда тўловлар учун харажатлар камаяди (масалан, банкка бориш учун йўлқира ва бошқа ресурслар тежалади), товарлар ва хизматлар ҳақида кўпроқ ва тезроқ маълумот олинадди, рақамли дунёдаги товар ва хизматларнинг жаҳон бозорига чиқиш имкониятлари катта, фидбек (истеъмолчи фикри)ни тез олиш ҳисобига товар ва хизматлар жадал такомиллаштирилади. Рақамли маълумотлар қимматбаҳо иқтисодий ресурс ҳисобланса-да, у рақамли тафаккурга айланганидагина фойда келтиради. Рақамли иқтисодиёт кириб келиши билан рақамли платформалар яратиш ва тез суръатларда ўсиб бораётган рақамли маълумотларни монетизация қилиш муаммолари вужудга келмоқда. Бунда қиймат ярата олиш йўлларини, мазкур жараёнлардаги тўсиқларни бартараф этиш воситаларини аниқлаш муҳимдир. Бу қийматни яратиш ва тарқатиш салоҳиятини, қийматни янгилаш, бошқариш ҳамда қийматни қўлга киритиш шаклларини тушуниш имконини беради. Замонавий тараққиётнинг кейинги истиқболида катта ҳажмли маълумотлар билан ишлаш технологиялари (Big Data), сунъий интеллект, нейротехнологиялар, квант технологиялари, буюмлар интернетини, робототехника ва сенсорика, рақамли электрон платформалар, булутли ва мобил технологиялар, виртуал ва қўшимча реаллик технологиялари, краудсорсинг, блокчейн технологиялари, криптовалюталар, 3Д-технологиялари сингари рақамли технологиялар ҳал қилувчи аҳамият касб этмоқда.⁸

Умуман олганда бугунги кунда Янги Ўзбекистонни барпо этишда иқтисодий тараққиётнинг истиқболли.

⁸ Раимова М., Махатов С., ЎЗБЕКИСТОНДА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ//«Инновацион иқтисодиёт: муаммо, таҳлил ва ривожланиш истиқболлари». Халқаро илмий-амалий анжумани илмий мақолалар тўплами (1-қисм). – Қарши. «Intellect» nashriyoti, 2021- 81 бет.

Олимларнинг фикрига кўра сун'ий интеллект инсоннинг мантикий ва ижодий функцияларини бажарувчи интеллектуал сун'ий тизимдир, ва хулоса қилиб айтишимиз мумкинки, сун'ий интеллект ҳозирги ахборот асрида ниҳоятда долзарб бўлиб, инсоният сун'ий интеллект орқали ХХI асрнинг глобал муаммоларига илм-фанда янги имкониятларни кашф этиш йўли билан ижобий ечимларни топади. Шунингдек, бу тиббиёт, та'лим, энергетика, қишлоқ хўжалиги, шаҳарсозлик ва бошқа барча соҳаларда сифатли хизмат кўрсатиш имкониятларини оширади. Бугунги кунда, мамлакатимизда сўнгги йилларда ахборот технологияларини ривожлантириш, соҳа ва тармоқлар фаолиятига рақамли технологиялар жорий этилмоқда.

КАТТА НАЖМЛИ МА'LUMOTLAR BILAN ISHLASH

Ixxomova Arofatxon Shovkat qizi
TDIU magistranti

Annotatsiya: Hozirgi kunda juda ko'plab korxonalar hamda biznes strukturalar to'g'ri qarorlar qabul qilish va o'z strategiyalarini tuzish uchun ma'lumotlarning katta hajmda bo'lishining muhimligini tushuna boshladilar. Yangi texnologiyalar, Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi bilan raqamli ma'lumotlarni ishlab chiqarish doimiy ravishda o'sib bormoqda. "Big data" atamasi xarakteristikalarini (katta hajm, turli shakllar, qayta ishlash tezligi) o'ziga xos va tobora murakkab, kompyuterda saqlash va tahlil qilishni talab qiladigan kompaniyalar va shaxslar tomonidan ishlab chiqarilgan raqamli ma'lumotlarning elektron massasini anglatadi. Ushbu maqola Big Data tushunchasini, uning kontseptsiyalari, muammolari va g'oyalarini, shuningdek Big Data Analyticsning ahamiyatini aniqlashga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: Big data; Big data tahlili; Big data hususiyatlari va turlari.

Katta hajmli ma'lumot (Inglizcha: Big data) — katta hajmdagi ma'lumotlarga nisbatan qo'llanadigan termin hisoblanadi (odatda terabayt, ekzabayt va petabaytlar darajasida). Ushbu ma'lumotlarni amaldagi va yangi yaratilayotgan texnologiyalar yordamida to'plash, taqsimlash, o'zgartirishlar kiritish, tahlil qilish, saqlash va vizual shaklda tasvirlash imkoni bo'lishi kerak. Ma'lumotlar miqdorining tez o'sishiga so'nggi yillarda kuzatilayotgan texnologik taraqqiyot va buning natijasi hisoblanmish mashina tomonidan

yaratilayotgan ma'lumotlarning ko'payib borishi sababchidir. RFID-texnologiyasining keng tarqalishi, elektron transaksiyalarning moliya sohasida keng qo'llanilishi, ilmiy-tadqiqot muassasalarining to'plagan natijalari, web-texnologiyalarining keng tarqalishi, telekommunikasion tizimlardagi protokollar shular jumlasidandir. Big Data aslida ilmiy-tadqiqotga aloqador sohalarda avvaldan ham mavjud bo'lgan bo'lsa-da, lekin so'nggi yillardagina ushbu fenomen ko'proq tilga olinadigan bo'ldi. Buning sababi shundaki, katta miqdordagi ma'lumotlarni tahlil qilish endi iqtisodiy tashkilotlar tomonidan ham keng qo'llanila boshlanishi va buning oqibatida ma'lumotlar tahlilining raqobatbardoshlikni oshirish va samaradorlikni kuchaytirish kabi muhim masalalarda asosiy o'rinni egallaganidir. Big Data odatiy Bosh Informasion Mutaxassis

(Chief Information Officer - CIO) uchun qo'shimcha vazifalar va talablar yaratishdan tashqari, yangi Ma'lumot Boshqaruvchisi (Data Steward) va Ma'lumot bo'yicha mutaxassis (Data Scientist) kabi kasblarning paydo bo'lishiga olib keldi. Yangi texnologiyalar, qurilmalar va aloqa vositalarining tezkor rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning keng miqyosda yoyilishi ta'sirida insoniyat tarafidan ishlab chiqilayotgan ma'lumotlar miqdori keskin tarzda oshib bormoqda. Insoniyat yaralgan vaqtdan 2003-yilgacha to'plangan ma'lumotlar 5 milliard gigabayt miqdoriga teng deb hisoblanadi va bu ma'lumotlar diskka yozilgan holatda butun bir futbol maydonini egallashi mumkin bo'ladi.

Ushbu miqdordagi ma'lumotlar 2011-yilda har ikki kunda yaratilgan bo'lsa, 2013-yilga kelib, insoniyat tomonidan 5 milliard gigabayt ma'lumot har 10 daqiqada yaratilmoqda. Bu o'z navbatida, fanda yangi atama — katta hajmli ma'lumotlar (Big Data) tushunchasining yaralishiga sabab bo'ldi. Bu turdagi katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlashda, hozirda yangidan-yangi algoritm va texnologiyalar ishlab chiqilmoqda va amaliyotda keng qo'llanilmoqda.

Atrofimizdagi milliardlab to'planib qolgan ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va ulardan samarali foydalanish orqali ma'lum holat yoki obyekt to'g'risida tarixiy, joriy va kelajak vaqt uchun muhim bo'lgan bilimlarga ega bo'lishimiz mumkin. Buning uchun dastlab, ushbu ma'lumotlarning manbasini aniqlash muhim amallardan biri hisoblanadi. «Katta hajmli ma'lumotlar» tushunchasi katta o'lchamdagi ishlarni bajara oladigan operatorlarga nisbatan ishlatiladi. Bu asrlar davomida o'rnatilgan tartibni o'zgartirib yuboradi va bizning fundamental bilimlarimizni, qaror qabul qilishni shubha ostiga qo'yadi. Haqiqiy evolyutsiya bu ma'lumotlarni chiqarib beradigan kompyuterlarda emas, balki, ma'lumotlarning o'zlarida va biz ularni to'g'ri qo'llay olishimizdadir. Google bir kunda bir petabaytdan ortiq ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Ushbu ko'rsatkich AQSH kongressi kutubxonasida nashr qilinadigan materiallardan

100 barobar ko‘proq. Atiga 10 yil avval mavjud bo‘lmagan kompaniya — Facebook, soatiga 10 milliondan ortiq yangi rasmlar joylanishi bilan faxrlanishi mumkin. 800 millionta Googlening YouTube xizmati foydalanuvchilari oyiga har soniyada bir soatdan ko‘p videolar joylashtiradi.

Bizni o‘rab turgan ma‘lumotlar haqiqiy hajmining jadalligini, o‘shini hisoblashni ko‘p odamlar baholashga harakat qilishgan. Har xil narsalarni hisoblashgani uchun, ular har xil muvaffaqiyatlarga erishishdi. Eng to‘liq tadqiqotni Annenberg nomidagi Janubiy Kaliforniya universiteti qoshidagi kommunikatsiyaga ixtisoslashgan maktabdan Martin Gilbert olib bordi. U hamma ishlab chiqilgan, saqlangan, yuborilgan narsalarni hisoblashga harakat qildi. Bu faqat kitoblar, rasmlar, elektron xatlar, raqamli musiqa va videolar emas, balki video o‘yinlar, qo‘ng‘iroqlar va avtomobil navi-gatsion tizimlari hamdir. Undan tashqari u ommaviy axborot vositalari, televideniya va radioning auditoriya kattaliklarini ham hisobga olgan. Uning hisoblariga ko‘ra, 2007-yilda qariyb, 2,25 zettabayt ma‘lumot yuborilgan va saqlangan. Bu ko‘rsatkich 20 yil avvalgisidan (435 ekzabayt) 5 barobar ko‘proq.

Agar ommaviy axborot vositalaridan tashqari saqlanayotgan ma‘lumotlar ko‘rib chiqilsa, qiziq tendensiyalar paydo bo‘ladi. 2007-yil-da 300 ekzabayt saqlangan ma‘lumotlarning 7% analog formatda (qog‘oz hujjatlar, kitoblar, fotosuratlar), qolganlari esa raqamli formatda bo‘lgan. 2000-yilda bo‘lsa raqamli formatda saqlanadigan ma‘lumotlar soni dunyodagi saqlanadigan ma‘lumotlarning atiga bir chorak qismini tashkil etar edi. Qolgan 3 chorak ma‘lumotlar esa qog‘oz hujjatlarda, plyonkalarda, plastinkalarda, magnit plastinkalarda va boshqa tashuvchilarda bo‘lgan. 2013-yilga kelib, butun dunyoda saqlanayotgan ma‘lumotlar 1.2 zettabaytni tashkil etdi va ulardan sonli bo‘lmagan ma‘lumotlar atiga 2 foizni tashkil etdi. Dunyoda katta ma‘lumotlardan katta hajmdagi ma‘lumotlarni tahlil qilish, ba‘zi hollarda esa hammasini qayta ishlash mumkin. Hamma ma‘lumotlardan foydalangan holda biz aniq natijaga ega bo‘lishimiz mumkin va kichik hajmdagi ma‘lumotlar chegaralangandagi kamchiliklarini ko‘rishimiz mumkin.

MAXSUS IQTISODIY ZONALAR FAOLIYATINI YANADA TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKT OMILIDAN FOYDALANISH

Abduqaxorov Bekzod O'tkir o'g'li
Toshkent moliya instituti talabasi

Annotatsiya: Maqolada maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirishda, investitsion muhitni sog'lomlashtirishda sun'iy intellekt omilidan foydalanish, ekologik muammolarni oldini olish borasida "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini qo'llash masalalari ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, investitsion muhit, "Yashil iqtisodiyot", katalizator, katta ma'lumotlar (big data)

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning sun'iy intellekt omilidan foydalanish dunyo miqyosida rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu jumladan, mamlakatimizda ham iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlarining bosqichma-bosqich raqamlashtirilib borishini misol qilib keltirsak bo'ladi. Sun'iy intellekt atamasiga tushuncha beradigan bo'lsak, unga iqtisodiyot fanlari doktori, professor T.Teshabayev hamda akademik S.Gulyamov tomonidan quyidagicha ta'rif berilgan: "Tizimning tashqi ma'lumotlarni tahlil qilish va sharhlash, mustaqil o'rganish va qo'yilgan muammolarni hal qilish uchun olingan bilimlardan foydalanish qobiliyati"⁹. Jahon tajribasidan ma'lumki mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish sezilarli darajada samarasini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham investitsiya faoliyatini yanada rivojlantirish, investitsion muhitni sog'lomlashtirish kabi masalarning yechimi sifatida maxsus iqtisodiy zonalar omilini aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini yanada takomillashtirish borasida bir qator vazifalar amalga oshirib borilmoqda. Bunga misol qilib 2008 yildan 2021 yilgacha bo'lgan davrda maxsus iqtisodiy zonalar tarkibiga kiruvchi erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) hududlarida 2,4 milliard AQSh dollarlik jami 448 ta loyihalar amalga oshirilgani, umumiy summadan 764,6 mln AQSh dollarni to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil etganligi, loyihalar hisobiga 34 mingga yaqin yangi ish o'rinlari yaratilganligini hamda ushbu loyihalarning eng yirigi Angren EIZ (730,7 mln AQSh dollarlik 73 ta loyiha), "Urgut" EIZ (312,9 mln

⁹ Teshabayev T.Z., Gulyamov S.S., Xayitmatov O'.T., Ayupov R.X. "Raqamli iqtisodiyot va dasturlash asoslari". Izohli lug'at. – "Iqtisod-moliya"

AQSh dollarlik 55 ta loyiha), "Navoiy" EIZ (282,8 mln AQSh dollarlik 53 ta loyiha) va "Buxoro-agro" EIZda (325,1 mln AQSh dollarlik 112 ta loyiha) amalga oshirilganligini ko'rsatsak bo'ladi.¹⁰

Hozirda iqtisodiyotning yetakchi sanoat tarmoqlarida barcha ko'rsatkichlar ijobiy natijalarni ko'rsatgani bilan bir qatorda, ekologiyaga bevosita va bilvosita salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Shu sababli ham "...Milliy iqtisodiyotni isloh qilish borasida tashqi savdo, soliq va moliya siyosatini liberallashtirish, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash va xususiy mulk daxlsizligini kafolatlash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda hududlarni jadal rivojlantirishni ta'minlash..." maqsadida joriy qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"¹¹ 28.01.2022 sanadagi PF-60-son Farmoniga muvofiq "Yashil iqtisodiyot" texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 foizga qisqartirish choralari ko'rish masalalari belgilab qo'yilgan. Bu borada sun'iy intellekt omilidan foydalanish mamlakatda iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashuvini jadallashtirishda "katalizator" vazifasini bajaradi. Shu bilan bir qatorda yuqori innovatsion texnologiyalarni yaratish uchun zamin yaratib beradi.

Raqamli iqtisodiyotning jahon hamjamiyatidagi natijalari tahliliga ko'ra 2025-yilga kelib dunyo raqamli iqtisodiyoti 23 trln AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Jumladan, uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi joriy 17,1% dan 24,3% ga oshishi ko'zda tutilgan. Shu bilan birga bulut texnologiyasidan foydalanadigan korxonalar soni 85%, sun'iy intellektdan – 86%, raqamli katta ma'lumotlar (big data)dan – 80% ni tashkil qilishi ham ta'kidlab o'tilgan.¹²

Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, iqtisodiyot tarmoqlarini xususan maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatida rentabellik ko'rsatkichini oshirish, investitsion muhitini sog'lomlashtirish maqsadida raqamli iqtisodiyot tarkibiga kiruvchi sun'iy intellekt omilini qo'llash o'z samarasini berishini kuzatishimiz

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari. Manba: <https://mift.uz/uz/menu/svobodnye-ekonomicheskie-zony-uzbekistana-itogi-2020-goda-i-perspektivy-razvitiya-na-2021-god>

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 sanadagi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/-5841063>

¹² Teshabayev T.Z., Gulyamov S.S., Xayitmatov O'.T., Ayupov R.X. "Raqamli iqtisodiyot va dasturlash asoslari". Izohli lug'at. – "Iqtisod-moliya"

mumkin. Shuningdek maxsus iqtisodiy zonalar tarkibiga kiruvchi texnopark, texnopolislar faoliyatini takomillashtirishda muhim rol o'ynashini ham aytish joizdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022 - 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" 28.01.2022 sanadagi PF-60-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. Teshabayev T.Z., Gulyamov S.S., Xayitmatov O'.T., Ayupov R.X. "Raqamli iqtisodiyot va dasturlash asoslari". Izohli lug'at. – "Iqtisod-moliya"
3. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma'lumotlari. Manba: <https://mift.uz/uz/menu/svobodnye-ekonomicheskizony-uzbekistana-itogi-2020-goda-i-perspektivy-razvitija-na-2021-god>
4. J.Karimqulov B.Abduqaxorov "O'zbekistonda maxsus iqtisodiy zonalarini raqamli iqtisodiyot orqali rivojlantirish yo'nalishlari" "Logistika va iqtisodiyot" ilmiy elektron jurnali 4-son

INSTITUTIONAL INVESTORLAR FAOLIYATIDA ROBO-MASLAHATCHILARDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Omonov Sardor O'lmasovich
TMI tayanch doktoranti

Mamlakatimizda moliya institutlari, moliya bozori ishtirokchilari, ayniqsa, institutsional investorlar sifatida investitsiya fondlari, tijorat banklari va sug'urta kompaniyalari faoliyatida moliyaviy texnologiyalardan foydalanish moliyaviy operatsiyalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Xususan, kapital bozorini rivojlantirish, institutsional investorlar kapitallari va xizmatlari, shuningdek, aholi jamg'armalarini kapital bozoriga keng ko'lamda jalb qilishda robo-maslahatchilardan foydalanish bugungi kunda samarali yo'llardan biri hisoblanadi.

Robo-maslahatchilardan investitsiya faoliyatida foydalanish institutsional investitsiyalarni boshqarishning bir usuli sifatida ham qaraladi. Strategiyalarni boshqarish bo'yicha miqdoriy yondashuvlar investitsiya banklari va institutsional investitsiya menejerlari tomonidan qo'llanilib kelinadi, biroq robo-maslahatchilar xizmatlari institutsional darajadagi pulni samarali boshqarish imkoniyatini beradi

Robo-maslahatchilar algoritmlar va qoidalarga asoslangan raqamli


investitsiya bo'yicha maslahat va portfelni boshqarish xizmatlarini taklif etadi. Robo-maslahatchilarning eng keng tarqalgan imkoniyatlari quyidagilar¹³:

1. Iqtisodiy samaradorlik. Robo-maslahatchilar, asosan, ETF (exchange trade fund) deb ataladigan passiv indeks fondlaridan foydalanadilar. Passiv investitsiyalar va ma'lum bir ma'lumot indeksini takrorlash orqali robo-maslahatchilar qimmat aktiv mablag'lardan qochishga va ijobiy ko'rsatkichlarga erishishga harakat qiladi.

2. Obyektivlik. Algoritmalar ma'lum bir xususiyatlar asosida investitsiya portfelini shakllantirish uchun mijozning ma'lumotlaridan foydalanadi. Ushbu g'oya shoshilinch xulosalardan qochish va shu bilan insonlar uchun xos bo'lgan investitsiya harakatlaridan qochish maqsadida qilingan.

3. Shaffoflik. Robo-maslahatchilar shaffof narxlar bilan standartlashtirilgan investitsiya xizmatlarni taklif qilishadi. Xarajatlar internetda e'lon qilinadi va har qanday vaqtda ularga kirish mumkin.

Robo-maslahatchilar sohasida juda ko'p kompaniyalar mavjud bo'lib, foydalanuvchi o'z ehtiyojlaridan kelib chiqib eng mos keladigan robo-maslahatchini tanlashi bir muncha qiyinchilik tug'diradi. Quyida robo-maslahatchini tanlashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar keltirib o'tilgan (1-rasm).



1-rasm. Robo-maslahatchilarni tanlashda e'tibor qaratish lozim bo'lgan jihatlar¹⁴

¹³ Cam-Duc Au, Philippe Krahnhof. The Role of Robo-Advisors in the German Banking Market - Critical Analysis on Human versus Digital Advisory Services. // Conference Paper, May 2020. <https://www.researchgate.net/publication/342549761>

¹⁴ <https://investadisor.com/what-is-robo-advisor-investing/> - investitsiya va investitsiya faoliyati ishtirokchilari to'g'risida ma'lumot taqdim etuvchi rasmiy veb-sayt;

Barcha robo-maslahatchilar ham foydalanuvchiga to'g'ri kelavermaydi. Shuning uchun bunday holat foydalanuvchini xavotirga solmasligi lozim. Foydalanuvchi o'zining moliyaviy holatidan va portfelidan kelib chiqqan holda robo-maslahatchilarni tanlashlari zarur.

Robo-maslahatchilar global moliyaviy inqirozdan keyin moliyaviy texnologiyalar bo'yicha startap (fintech start-up) sifatida ish boshlagan bo'lsalarda, so'nggi yillarda ular juda ommalashmoqda, ayniqsa, an'anaviy moliya institutlari o'zlarining robo-maslahat xizmatlarini taklif qila boshladilar. Masalan, AQShning eng yirik brokerlik kompaniyalaridan biri Charlz Shwab (Charles Schwab) 2015-yilda "Intelligent Portfolios" nomli robo-maslahat xizmatini ishga tushirdi. Shuningdek, 2015-yilda dunyodagi eng yirik aktivlar boshqaruvchi kompaniya BlackRock Future Advisor robo-maslahat kompaniyasini o'ziga qo'shib oldi. Shuningdek, robo-maslahat xizmatlari o'zlarining avtomatlashtirilgan maslahat xizmatlarini taklif qila boshlagan Bank of America va Wells Fargo singari bank gigantlarining ham e'tiborini tortganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin¹⁵.

Institutsional investorlar faoliyatida robo-maslahatchilarning o'zni bo'yicha olib borilgan tahlillar asosida quyidagilarni ta'kidlashimiz mumkin. Institutsional investorlarning rivojlanishi kapital bozorini samarali shakllantirishga imkon beradi. O'z navbatida, institutsional investorlar faoliyat samaradorligini oshirishda zamonaviy texnologiyalar va nou-xaularni, shu jumladan, robo-maslahatchilarni qo'llash ijobiy natijalarga erishishda yordam beradi. Shuningdek, robo-maslahatchilar turli investorlar va aholi mablag'larini keng qamrovda jalb qilish uchun qulay imkoniyatlarga ega, chunki arzon va qulay xizmat, ishonchli boshqaruv, past darajadagi risk hamda uncha katta bo'lmagan moliyaviy resurs bilan investitsiya faoliyatini boshlash imkoniyati robo-maslahatchilarning asosiy afzalliklari hisoblanadi. Ba'zida robo-maslahatchilarning institutsional investorlar bilan raqobatga kirishishi ham kapital bozorini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, rivojlanayotgan mamlakatlar kapital bozorida institutsional investorlar faoliyatini rivojlantirishda robo-maslahatchilar amaliyotidan samarali foydalanish uchun xalqaro tajribani o'rganish va uning o'ziga xos xususiyatlarini milliy amaliyotga moslashtirish zarur.

¹⁵ Facundo Abraham, Sergio L.Schmukler, Jose Tessada. Robo-Advisors: Investing through Machines. // Research & Policy Briefs, World Bank Group. No. 21, February 2019; <http://documents1.worldbank.org/curated/en/275041551196836758/pdf/Robo-Advisors-Investing-through-Machines.pdf>

TIJORAT BANKLARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI

**Raimberdiyev Samandar,
Toshkent moliya instituti talabasi**

Tijorat banklari bank tizimining muhim bo'g'ini bo'lib, kredit resurslarining asosiy qismi shu bankarda yig'iladi va bu banklar huquqiy, jismoniy shaxslarga xizmatlarini ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari bank tizimining Markaziy bankdan keying ikkinchi pog'onasi hisoblanadi. Bank tizimi orqali bozor iqtisodiyoti sharoitida, iqtisodiyotni boshqarishning moliyaviy sohasida markaziy bo'g'in sifatida bo'ladi. Bozor iqtisodiyotida hukumron mavqega ega bo'lgan, tovar, pul muomalasini boshqarish va u orqali tushum xo'jalik faoliyatini boshqarish muammosini olg'a suradi.

Darhaqiqat, tijorat banklari tomonidan sun'iy intellektni qo'llagan holda ko'rsatilayotgan barcha xizmatlarning tezkorligi, sifati va shaffofligi bugungi kun talabidir. Endilikda an'anaviy bank xizmatlari o'rnini to'la egallayotgan zamonaviy masofaviy bank xizmatlarining turli ko'rinishlari aynan shu tezlik, sifat va ishonchni ta'minlayotgani hech kimga sir emas. Zamonaviy bank xizmatlari mijozlarga yanada kengroq qulaylik yaratgan holda ularning imkoniyatlari oshirilishiga xizmat qiladi.

2021 - yilning 17 - fevral kuni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi¹⁶. Qarorda sun'iy intellekt texnologiyalarining qaysi sohalarda qay tarzda qo'llanilishi ko'rsatib o'tilgan, xususan, bank sohasida esa tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vazifasi belgilangan.

Xususan, tijorat banklari xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash va xalqaro to'lovlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida bank kartalarida 3D-Secure xizmatlari joriy qilingan.

¹⁶ <https://strategy.uz/> - "Taraqqiyot strategiyasi" markazi rasmiy veb – sayti.

3D SECURE – kartadan onlayn tarzda to'lov amalga oshirilganda (shopping qilishda, xizmatlar uchun to'lovni amalga oshirishda, hamyonni to'ldirishda) foydalaniladigan olti belgili parol. Bunday xizmatning bo'lishi kartani internet tarmog'ida ruxsat berilmagan to'lovdan himoya qiladi.

Shu bilan birga, «On-Line» rejimida ishlovchi «Uzkart-EMV» milliy banklararo plastik kartochkalar to'lov tizimini joriy etishni jadallashtirish maqsadida tijorat banklarida tegishli dasturiy-apparat majmualari ishga tushirildi hamda EMV texnologiyasiga moslashgan terminallar joriy qilindi. Bu ishlar natijasida, 2016-yil 1-yanvar holatiga respublika bo'yicha barcha tijorat banklari tomonidan onlayn rejimida ishlaydigan 8 426 280 ta bank plastik kartalari muomalaga chiqarilishiga erishildi¹⁷.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, zamonaviy bank tizimi sun'iy intellektdan foydalanib moliyaviy xavfsizligini ta'minlagan holda quyidagi qulayliklarni yaratishi mumkin:

- to'lovlarni amalga oshirishning uzluksizligini va shaffofligini ta'minlaydi;
- tijorat banklari o'rtasidagi vakillik hisobvaraqlari doirasidagi hisob-kitoblarni optimallashtirilishi va jadallashtirilishiga imkon yaratadi;
- mablag'larni to'lovchi va mablag'larni oluvchilar o'rtasidagi hisob-kitoblarning real vaqt rejimida amalga oshirilishi orqali to'lovlarning aniqlik va ishonchlilik darajasi oshirilishini ta'minlaydi;
- har bir bosqichda ma'lumotlarning ishonchliligini nazorat va monitoring qilinishini ta'minlaydi;
- jismoniy shaxslar uchun masofadan turib, o'z hisobvaraqlarini boshqarish tizimlari orqali bir hisobvaraqdan ikkinchi hisobvaraqqa real vaqt rejimida pul mablag'larini ko'chirish imkoniyatini beradi.

¹⁷ <https://uba.uz/> - O'zbekiston banklari assotsatsiyasi rasmiy veb - sayti.

SUN'IY INTELLEKTNI IQTISODIYOTDA QO'LLASH ASOSLARI.

Alaxonova Nafisa Luqmonxon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti jizzax
filiali Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kus talabasi yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya: Ushbu maqolam sun'iy intellektning iqtisodiyotda qanday ahamiyatga egaligi, sun'iy intellektning bugungi kunda mamlakatimizda tutgan o'rni va mamlakat iqtisodini rivojlantirishda sun'iy intellektning ahamiyatini bilib olish uchun yordam beradi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jahonhamjamiyati, iqtisodiy o'sish, avtomatlashtirish, rivojlangan mamlakat iqtisodiyoti.

Sun'iy intellekt bugungi kunda jahon mamlakatlarida juda rivojlangan soha bo'lib turli korxonalar va tashkilotlar sun'iy intellektdan o'z tashkilotlarining foydasi uchun juda samara bilan foydalanishmoqda. Bunga misol qilib biz tesla kompaniyasini ham olishimiz mumkin. Hammaga mashhur tesla kompaniyasi bugungi kunda sun'iy intellekt bo'yicha jahonda yetakchi mamlakatdan biri hisoblanadi.

Sun'iy intellektning mehnat bozorlarga ham ta'siri katta. Agar haqiqatdan ham sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirish kabi texnologiyalar butun dunyo bo'ylab teng tarqalgan bo'lsa iqtisodiyotda bo'sh ish o'rni yaratiladi shuningdek bir tomondan ish joylarini yuq qilishi ham mumkin. Shu bilan birgalikda aytib o'tish kerakki hozirgi kunda Bruegel tadqiqot markazining prognozlariga qaraganda Yevropa ittifoqidagi ish o'rinlarining 54% ga yaqini xavf ostida hisoblanadi. 20 yil ichida korxonalarning avtomatlashishi ehtimoli katta. Lekin bu bir jihatda juda katta muvaffaqiyatlarga va mamlakatning rivojlangan va yuqori iqtisodli mamlakatga olib chiqishi ham mumkin.

Biz yana jahonhamjamiyatlarining tadqiqotlarini o'rganishimiz natijasida ham bugungi kunda sun'iy intellektning samarasini ko'rishimiz mumkin.

Pricewaterhouse Coopers (PwC) tadqiqotlariga ko'ra sun'iy intellekt rivojlanishi va iqtisodiyotga kirib borishi bilan yalpi ichi mahsuloga 14% gacha oshishi mumkinligi tahmin qilingan.

Bundan tashqari sun'iy intellektning rivojlanishi va iqtisodiyotga kirib borishi bilan raqamli hisobotlarning inqilobi, raqamlashtirilgan iqtisodiyot,

avtomatlashgan iqtisodiyot shuningdek mahsulot va xizmatlarning xususiylashishiga olib keladi.

Sun'iy intellekt bugungi dunyoda juda ham samarali yechim bo'lsada lekin bazi tomondan iqtisodiyotga zarar yetkazishi ham mumkin. Negaki sun'iy intellekt mamlakatga kirib kelib rivojlanar ekan bazi firma korxonlarda ish haqining ishchilarga nisbatan pasayishiga va bir tomondan norozichilika olib kelishi ham mumkin. Hozir rivojlangan mamlakatlar bunday muammolarni hisobga olgan holda o'z mamlakatlarida bunday holat bo'lmasligi uchun chor a tadbirlar ko'rgan holda sun'iy intellektning rivojlanishiga katta ahamiyat berishmoqda. Biz ham rivojlangan mamlakatlar singari sun'iy intellektga katta ahamiyat borib mamlakat iqtisodiyotini yanada rivojlantirib katta natijalarga erishishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gries T. and Naudé W., Artificial Intelligence, Jobs, Inequality and Productivity: Does Aggregate Demand
2. www.eprs.ep.parl.union.eu (internet)
3. www.europarl.europa.eu/thinktank (internet)
4. European Political Strategy Centre, The age of artificial intelligence, EPSC Strategic Notes, March 2018.
5. Institute of Labor Economics, Discussion paper No 12005, November 2020

SUN'IY INTELLEKTNING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

Sabirova Dildor Arifovna
TDIU Sirtqi bo'lim "Menejment va marketing"
kafedrasida katta o'qituvchisi

Sun'iy intellekt (SI) tizimi insonning fikrlash jarayonini kompyuterda simulyatsiya qiluvchi dasturiy ta'minot tizimidir. Bunday tizimni yaratish uchun muayyan masalalarni hal qiladigan yoki muayyan sohada qarorlar qabul qiladigan shaxsning fikrlash jarayonining o'zini o'rganish, bu jarayonning asosiy bosqichlarini ajratib ko'rsatish va ularni kompyuterda takrorlaydigan dasturiy vositalarni ishlab chiqish lozim.

Sun'iy intellektning asosiy rivojlanish yo'nalishi - ***bilimlarni taqdim etish va bilimga asoslangan tizimlarni ishlab chiqish*** hisoblanadi. U bilimlarni taqdim etish modellarini ishlab chiqish, ekspert tizimlari yadrosini tashkil etuvchi bilimlar bazalarini yaratish bilan bog'liq. So'nggi paytlarda ushbu yo'nalish bilimlarni olish hamda tizimlashtirish modellari va usullarini ham o'z ichiga oladi va shu bilan birga bilimlar muhandisligi bilan birlashmoqda. Odatda sun'iy intellekt shaxmat, shashka (v.b.lar) kabi o'yinli intellektual vazifalarini o'z ichiga oladi.


Keyingi yo'nalish - ***tabiiy til interfeyslarini ishlab chiqish va mashina tarjimasi***. 1950-yillarda sun'iy intellektidagi eng mashhur tadqiqot mavzularidan biri mashina tarjimasi sohasi bo'ldi. Bu sohadagi birinchi kompyuter dasturi ingliz tilidan rus tiliga tarjimon dasturi hisoblanadi. Biroq, unda qo'llanilgan so'zma-so'z tarjima g'oyasi samarasiz bo'lib chiqdi. Bugungi kunda bunday muammolarni hal qilish uchun tabiiy tildagi xabarlarini tahlil qilish va sintez qilishni o'z ichiga olgan va bir nechta bloklardan iborat bo'lgan murakkabroq model qo'llaniladi.

Sun'iy intellektning birlamchi, an'anaviy yo'nalishlaridan biri- ***tasvirni aniqlashdir***. Bu erda ob'ektni aniqlash uchun har bir ob'ektga belgilar matritsasi taqdim etiladi. Ushbu yo'nalish neyrokibernetika bilan chambarchas bog'liq. Bunday yo'nalish kompyuterlarning yangi arxitekturasi kabi belgili va mantiqiy ma'lumotlarni qayta ishlashga asoslangan yangi apparatli yechimlarni va arxitekturalarini ishlab chiqish bilan shug'ullanadi. Ushbu sohadagi so'nggi ishlanmalar asosan neyrokompyuterlarga bag'ishlangan.

Yana bir yo'nalish - ***aqli robotlar yo'nalishi***. **Robot** - bu inson mehnatini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan elektromexanik qurilma. Robotlarni yaratish g'oyasi juda qadimiydir (masalan, "golemlar" haqidagi o'rta asr afsonalarini misol keltirish mumkin). Robot so'zining o'zi 1920-yillarda paydo bo'lgan va chex yozuvchisi **Karel Chapek** tomonidan "**RUR**" (chex. "Rossumovi univerzální roboti", "Rossum universal robotlari") hikoyasida o'ylab topilgan edi. Bugungi kunda World Robotics 2021 hisobotlari bo'yicha dunyoda yiliga 3 milliondan ortiq sanoat robotlari ishlab chiqilmoqda.¹⁸

¹⁸ <https://ifr.org/ifr-press-releases/news/robot-sales-rise-again>

Dunyoda sanoat robotlarini yillik o`rnatish 2019-2020 yillar¹⁹ (2021-2024 yillar prognoz)



Qattiq boshqaruv sxemasiga ega robotlar. Deyarli barcha zamonaviy sanoat robotlari ushbu guruhga tegishli bo`lib, aslida dasturlashtiriladigan manipulyatorlar hisoblanadilar.

Sensor qurilmali adaptiv robotlar. Robotning adaptiv avtomatik boshqaruv tizimi axborot tizimidan keladigan teskari aloqa signallari asosida harakatlanish tizimining qo'zg'alishlarini boshqarish qonuniyatini ishlab chiqish uchun qo'llaniladi.

O'z-o'zini tashkil etuvchi yoki aqlli robotlar. Bu robototexnika rivojining asosiy, yakuniy maqsadidir. Aqlli robotlarni yaratishdagi asosiy muammo bu mashinaning ko'rish muammosidir.

Maxsus dasturiy ta'minot kabi yo'nalish doirasida hisoblashdan tashqari muammolarni hal qilish uchun maxsus tillar ishlab chiqilmoqda. Bular - Lisp, Prolog, SmallTalk, Refal va boshqalar. Ushbu tillar ma'lumotlarni belgili (simvulli) qayta ishlashga asoslangan. Bulardan tashqari intellektual tizimlarning dasturiy paketlari - sun'iy intellekt amaliy dasturiy vositalari yaratiladi. Bugungi kunda **"bo'sh ekspert tizimlari"** - **"qobiqlar"**ni yaratish ommalashgan. Ularni kerakli bilimlar bazalari bilan to'ldirib, turli ekspert tizimlarini yaratish mumkin.

¹⁹ Отчет о промышленных роботах World Robotics 2021, Франкфурт, 28 октября 2021г., <https://ifr.org/free-downloads>

Sun'iy intellektning faol rivojlanayotgan yana bir sohasi - bu *ta`lim va o'z-o'zini o'qitishdir*. Ushbu yo'nalish ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirish asosida avtomatik tarzda to'planadigan bilimlarga, misollar asosidagi (yoki induktiv) ta`lim hamda tasvirlarni aniqlashning an'anaviy usullariga asoslangan modellar, usullar va algoritmlarni o'z ichiga oladi.

Internetning paydo bo'lishi "sun'iy intellekt" ilmiy yo'nalishining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi va aksincha. Internetda SI texnologiyalarining quyidagi mavjud va istiqbolli ilovalarini qayd etish mumkin:

- portallar, yirik onlayn-do'konlar va boshqa murakkab veb-tizimlarni boshqarish;
- ma'lumotlar paketlarini tarmoq bo'ylab uzatishda marshrutizatsiya;
- axborot uzatish kanallarining yuklanishini prognozlash va optimallashtirish;
- tarmoq robotlarini boshqarish va boshqalar.

Tarmoq robotlari (spayderlar) aqlli agentlar bo'lib, ular veb- sahifalarga berilgan ko'plab havolalar to'plamidan (URL) rekursiv ravishda Internet resurslarini chetlab o'tadilar va ma'lum bir to'xtash sharti bajarilmaguncha, olingan hujjatlardan yangi manbalarga havolalarni olish to'xtaydi. Bundan tashqari, ko'rsatilgan veb- resurslarga tashrif buyuradigan va ularda joylashtirilgan ma'lumotlarni avtomatik ravishda yuklab oladigan maxsus dasturiy modullar ham tarmoq robotlari deb ataladi.

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ – ТЕХНОЛОГИК РИВОЖЛАНИШ АСОСИ

Азизова М.И.

“Электрон тижорат ва рақамли иқтисодиёт” кафедраси доценти

Сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишни кенгайтириш, рақамли маълумотларни йиғиш, сақлаш ва қайта ишлаш тизимини такомиллаштириш мақсадида ҳозирда юртимизда ушбу соҳада малакали кадрларни тайёрлаш, мазкур йўналишдаги илмий-лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда. Ўз навбатида сунъий интеллектни илм-фанга жорий этиш учун малакали кадрлар сонини ошириш талаб этилади. Негаки айнан ўз касбининг устаси бўлган мутахассислар барча жабҳаларга сунъий интеллект кириб боришида

асосий омил бўлади. Ҳозирда юртимизда шу йўналиш бўйича “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект” ихтисослиги олий малакали кадрларнинг илмий ва илмий-педагогик мутахассисликлар номенклатурасига киритилди ва унинг паспорти яратилди. Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети ҳамда Рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантириш илмий-тадқиқот институтида “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект ихтисослиги” бўйича олий таълимдан кейинги таълим институти очилди.

Сунъий интеллект соҳасида илмий-техник тадқиқотлар ва инновацион ишланмаларни қўллаб-қувватлаш доирасида умумий қиймати 15,1 млрд. сўм бўлган, давомийлиги 2021 – 2024 йилларга мўлжалланган 9 та лойиҳа амалга оширилмоқда.

Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан ҳар йили ўтказиладиган Халқаро инновацион ғоялар ҳафталиги “Innoweek.uz-2021” доирасида эса жорий йилнинг 24 ноябрида “Сунъий интеллект – технологик ривожланиш асоси” мавзусида халқаро конференция ўтказилиши режалаштирилган.

Сунъий интеллект ҳаётимизга кириб келмоқда, аммо унинг ўзи нима деган савол туғилиши табиий. Шу боис сунъий интеллект ҳақида айрим маълумотларни эътиборингизга ҳавола этамиз.

Сунъий интеллект формат ҳам, функция ҳам эмас. Қисқа қилиб айтганда, сунъий интеллект муайян вазифаларни бажаришда инсон хатти-харакатига тақлид қилишга қодир бўлган тизим ёки технология бўлиб, олинган маълумотлардан фойдаланиб аста-секин мукамаллашиб боради. Умуман олганда сунъий интеллект формат ҳам, функция ҳам эмас, балки бу жараён бўлиб, маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш кабиларни ўз ичига олади.

Сунъий интеллект ҳақида сўз борар экан, унинг бизнесдаги ва ахборот технологиялардаги ўрнини таҳлил қилиш лозим. Сунъий интеллектнинг ушбу йўналишларга секин-асталик билан кириб бориши, сунъий интеллект воситаларининг сони ошишини таъминлайди.

“Сунъий интеллект” деганда кўпчилик роботларнинг турли соҳаларга жалб қилинишини тушунади. Аммо сунъий интеллект атамаси роботларнинг инсон билан ўрин алмашишини англамайди. Унинг асосий мақсади инсон қобилиятлари ва имкониятларининг чегараларини кенгайтиришдир. Шунинг учун бу каби технологиялар қимматли бизнес ресурси ҳисобланади.

Авваллари “сунъий интеллект” атамаси фақат одамлар бажариши мумкин бўлган, масалан, мижозларга хизмат кўрсатиш ёки шахмат ўйнаш вазифаларни бажариш учун қўлланилган. Шунингдек, компьютер технологияларини чуқур ўрганишга ҳам сунъий интеллект сифатида қаралган. Лекин мижозларга хизмат кўрсатиш, турли онлайн ўйинлар ва компьютер технологияларини чуқур ўрганиш кабилар сунъий интеллект технологияларининг кичик қисми ҳисобланади. Тўғри, сунъий интеллект технологиялари одамлар бажарадиган вазифаларни автоматлаштириш орқали самарадорликни оширишга ёрдам беради. Бироқ эндиликда унинг камрови кенгаймоқда, ҳозирда сунъий интеллект билан одамларнинг характерини, ўқувчиларнинг қобилиятларини, ходимнинг ишга бўлган қарашларини аниқлаб олиш мумкин.

Сунъий интеллект соҳасида ўтган асрнинг ўрталаридан бошлаб тадқиқот ишлари бошланган. Инглиз математиги ва криптографи Алан Тюринг (1912-1954) мазкур йўналишда илк тадқиқот муаллифи ҳисобланади.

Хусусан, 1950 йили технологиялар имкониятлари инсонларни ақл жиҳатдан ортда қолдириши ҳақида саволларга асосланган мақола чоп этилган. Унинг муаллифи Алан Тюринг эди. Кейинчалик олим ўзининг номи билан аталган “Тюринг тести” тартибини ишлаб чиқди.

Мақола чоп этилганидан сўнг сунъий интеллект соҳасида янгидан-янги тадқиқотлар амалга оширилди. Ушбу давр мобайнида олим қарашларини ўзгартирмаган ҳолда фикрлашда инсондан фарқ қилмайдиган машиналар ҳақида ҳам турли фикрлар билдира бошлаган.

XX асрнинг 80-йиллари сунъий интеллект – кашфиёт дея эътироф этила бошлади. Олимлар ушбу йўналишда дарсликлар ишлаб чиқа бошладилар.

Шундан сўнг сунъий интеллектга эътибор кучайди. Йирик компаниялардан тортиб то ҳарбий муассасаларгача мазкур соҳани молиялаштира бошлади. Натижада янги технологиялар сони ошиб, рақобат кучайди, сунъий интеллект воситалари мукаммаллашиб борди.

Ҳозирда сунъий интеллектнинг соҳаларга жорий этилиши учун турли сабаблар келтирилмоқда, улардан учта энг асосийсини келтириб ўтамыз. Биринчиси, арзон нархлардаги юқори самарали ҳисоблаш ресурслари. Иккинчиси, таълим учун катта ҳажмдаги маълумотларнинг мавжудлиги. Сунъий интеллект маҳсулининг аниқ прогнозларни амалга ошириши учун у катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаши керак.

Ушбу омил сабаб турли воситалар, хусусан, маълумотларни сақлаш ва қайта ишлашнинг оддий ҳамда арзон воситалари, турли хил алгоритмлар яратилди.

Учинчиси, сунъий интеллект маҳсулотлари рақобатбардошликни мустаҳкамлайди. У компаниялар харажатларини ва хавфларни камайтириши, бозорга чиқиш имкониятини кенгайтириши ҳамда бошқа фойдали омиллар учун кўплаб воситаларни таклиф қила олади. Натижада сунъий интеллект жорий этилган компаниялар рақобатга анчайин чидамли бўлади.

Аммо барча соҳаларда бўлгани каби ушбу турдаги инновацияларни жорий этишда ҳам қатор қийинчиликлар мавжуд. Хусусан, малакали кадрларнинг етишмаслиги ҳамда уни жорий этиш учун маълумотларнинг камлиги. Сабаби маълумотлар қанчалик кўп бўлса, сунъий интеллект башоратларининг аниқлиги шунчалик юқори бўлади.

Сунъий интеллект инфратузилмани мониторинг қилиш, катта ҳажмдаги маълумотларни тўплаш ва қайта ишлаш, техник ҳамда тиббий диагностика тизимлари, шахсий таълим траекторияларини яратиш, хулқ-атвор таҳлиллари қилишга имкон беради. Сунъий интеллект бу чангютгичлардан космик станцияларга қадар бўлган ечимларнинг бутун спектридир.

Жорий йилда “Gartner” аналитик компанияси сунъий интеллект технологиялари ҳали ҳам ривожланиш босқичида экани ва тўлиқ ривожланган бозор ҳали узок шаклланиши ҳақидаги тадқиқотни чоп этди.

Хулоса қилиб айтганда, мутахассисларнинг фикрига кўра, кўплаб корхона ва ташкилотлар сунъий интеллектнинг соҳавий муаммоларни ҳал қилишда кўмак беришини хоҳлашади. Ушбу компаниялар сунъий интеллект воситаларини кенгайтириб, хавфларни олдиндан билиш ва барча жараёнларни прогнозларга асосланган ҳолда бошқаришни истайди.

Эндиликда тадқиқотчилар олдида янада мураккаб вазифалар турибди. Хусусан, интернет тараққиёти, технологик муаммоларни бартараф этиш, рақамли иқтисодиёт учун янги воситалар яратиш лозим. Шунингдек, ўзбекистонлик тадқиқотчиларнинг энг асосий вазифаларидан бири эса сунъий интеллектнинг илм-фанга жорий этилишида яқиндан кўмак беришидир.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАЪСИРИ

Юлдошева Ш.А.

**Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
ассистенти, мустақил изланувчи**

Турсунова Ф.З., Инатова Г.О.

**Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти
иқтисодиёт факультети талабалари**

Жаҳон тажрибасидан келиб чиққан ҳолда дунёнинг ривожланган мамлакатларида илм-фан ва ахборот-коммуникация технологиялари жадал тараққий этиб бораётган бугунги шароитда давлат ва жамият бошқаруви, иқтисодиёт, саноат, ижтимоий ҳимоя, таълим, тиббиёт, бандлик, қишлоқ хўжалиги, муҳофаза, хавфсизлик, туризм ва бошқа соҳаларда замонавий ахборот технологиялари ва сунъий интеллект имкониятларидан кенг фойдаланиш одатга айланиб бормоқда. Ўзбекистонда ҳам ахборотлаштириш ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш орқали 2030 йилга қадар инновацион тараққий этган етакчи давлатлар қаторидан ўрин эгаллаш устувор вазифа сифатида белгиланган. Мамлакатимизда ўтган “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да ахборот технологиялари ва рақамлаштириш борасида жиддий ўзгаришлар амалга оширилиб, бир қатор муҳим дастурлар қабул қилинди. Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Рақамли иқтисодиёт ва электрон ҳукуматни кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ҳамда “Аҳолига давлат ижтимоий хизматлари ва ёрдам тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорлари ва бошқа норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар мамлакатимизда рақамлаштиришни жадаллаштириш ва ижтимоий-иқтисодий соҳаларга замонавий технологияларни жорий қилишга имконият яратишга йўналтирилган ҳамда аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш борасида моддий қўллаб-қувватлаш ва тизимга АКТни жорий қилиш борасида салмоқли ишлар амалга оширилди. Жумладан, эҳтиёжманд оилалар, аёллар ва ёшлар билан ишлаш бўйича “Темир дафтар”, “Аёллар дафтари”, “Ёшлар дафтари” каби янги тизим жорий этилди. “Саховат ва кўмак” умумхалқ ҳаракати доирасида 800 мингдан зиёд эҳтиёжманд оиллага 1 трлн. сўмдан ортиқ моддий ёрдам кўрсатилди.

Шунингдек, “Темир дафтар”га киритилган эҳтиёжманд оилаларнинг 16 ёшга тўлмаган болаларига, ногирон ва боқувчисини йўқотганлик пенсияси ёки нафақасини олувчи оилаларнинг 16 ёшга тўлмаган жами 845 минг нафардан ортиқ болаларининг ҳар бирига 500 минг сўмдан, жами 422 млрд. сўм бир марталик ёрдам тўловлари тўлаб берилди. Ижтимоий нафақа олувчиларнинг сони эса 2 баробарга оширилиб, 1,2 млн. нафарга етказилди. Шу билан бирга сўнгги йилларда ахборотлаштириш ва илғор технологияларни турли соҳаларда тадбиқ этиш борасида чора-тадбирлар натижасида Ўзбекистонда АКТ ва сунъий интеллект соҳасида ўзига хос салоҳият асослари яратилди. Бу борада Инновацион ривожланиш вазирлиги ва вазирлик тизимидаги ташкилотлар, АКТ бўйича илмий тадқиқот марказлари, олий таълим муассасалари ва уларнинг иқтидорли битирувчилари ҳамда технопарклар, хусусий сектордаги бир қатор ташкилотлар фаолиятини алоҳида эътироф этиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги ПФ-6079-сонли Фармони билан ташкил қилинган “Рақамли Ўзбекистон – 2030” Стратегиясини амалга ошириш бўйича мувофиқлаштириш комиссияси Дастурни ҳамда сунъий интеллект технологияларини тадбиқ этиш ва қўллаш билан боғлиқ бошқа ташаббусларни комплекс мувофиқлаштириш юзасидан жавобгарлик юклатилиб, етакчи хорижий мутахассислар ва компанияларни жалб қилган ҳолда яқин ва узоқ истиқболга мўлжалланган Сунъий интеллектни ривожлантириш стратегиясини тасдиқлаш мақсадида сунъий интеллект соҳасида илмий тадқиқотлар ва инновацион ишланмаларни молиялаштириш ҳамда сунъий интеллект технологияларини қўлловчи илмий тадқиқотлар ва инновацион ишланмаларни мақсадли молиялаштиришнинг амалга оширилиши рағбатлантиришнинг бир туридир.

Замонавий сунъий интеллект турли амалларни бажаришга мўлжалланган алгоритм ва дастурий тизимлардан иборат бўлиб, инсон онги бажариши мумкин бўлган бир қанча вазифаларни ахборот базасига киритилган маълумотлар асосида амалга оширади. Сунъий интеллект мураккаб таҳлиллар ва катта маълумотлар билан ишловчи дастурларни ўз ичига олиб, мантиқли изчил мулоҳаза қилиш ҳамда тавсия бериш қобилиятига эга “ақлли” технология ҳисобланади. Мутахассислар томонидан сунъий интеллектга тўртинчи саноат инқилобининг асоси сифатида қаралмоқда. Иқтисодчи олимларнинг фикрича, аҳолини

ижтимоий ҳимоя қилишнинг асосини ижтимоий ёрдам, ижтимоий суғурта ва бандлик билан боғлиқ дастурлар ташкил қилади.

Сунъий интеллект асосида ишловчи касбий-малакавий мослик бўйича дастурнинг Ўзбекистон шароитида қўлланилиши норасмий секторда банд бўлган, айниқса, бир марталик иш бозорларидаги иш қидирувчиларнинг бандлигини таъминлашга ва уларни ижтимоий ҳимоя билан қамраб олишга имкон беради. Дастлабки босқичда сунъий интеллект технологияларини мобил қурилмалардан фойдаланиш мумкин бўлган дастурлар орқали таклиф қилиб, норасмий сектордагиларни кунлик ва мавсумий ишларга жалб қилиш, уларнинг бандлигини таъминлаш мумкин.

Айниқса, Ўзбекистонда тадбиркорлик субъектларининг фаолиятини сунъий интеллект технологияси асосида трансформация қилишни молиялаштиришга кўмаклашиш, иш жойларини сақлаб қолиш мақсадида ходимларнинг малакасини ошириш ва қайта тайёрлашга кетган сарф-харажатларни субсидиялаш дастурини ишлаб чиқиш, сунъий интеллект ечимларини ишлаб чиқиш ва ўз фаолиятида жорий қилиш бўйича тадқиқотлар ва ишланмаларни (R&D) рағбатлантирувчи чоралар кўриш сунъий интеллект ривожланишининг иқтисодиётга таъсирини янада оширади деб ўйлаймиз.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ – ИҚТИСОДИЁТ ВА ТЕХНОЛОГИК РИВОЖЛАНИШНИНГ ПОЙДЕВОРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти доценти, и.ф.н.

Ибрагимов И.Ҳ., Абиддинов Б.Б.

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти талабалари

Тарихдан илм-фаннинг ривожига назар ташлайдиган бўлсак, сунъий интеллект соҳасида ўтган асрнинг ўрталаридан бошлаб тадқиқот ишлари бошланган. Инглиз математики ва криптографи Алан Тюринг 1912-1954 йилларда яшаган бўлиб, мазкур йўналишда илк тадқиқот муаллифи ҳисобланади. Хусусан, 1950 йили технологиялар имкониятлари инсонларни ақл жиҳатдан ортда қолдириши ҳақида саволларга асосланган мақола чоп этилган бўлиб, унинг муаллифи Алан Тюринг эди. Кейинчалик олим ўзининг номи билан аталган “Тюринг тести” тартибини ишлаб чиқди.

Мақола чоп этилганидан сўнг сунъий интеллект соҳасида янгидан-янги тадқиқотлар амалга оширилди. Ушбу давр мобайнида олим қарашларини ўзгартирмаган ҳолда фикрлашда инсондан фарқ қилмайдиган машиналар ҳақида ҳам турли фикрлар билдира бошлаган.

“Сунъий интеллект” атамаси 1956 йилга келиб пайдо бўлди. Шу йилнинг ёзида АҚШнинг Дартмут университетида сунъий тафаккур масалалари бўйича анжуман бўлиб ўтди. Унда Клод Шеннон (Bell Laboratories), Натаниел Рочестер (IBM), Герберт Саймон (Карнеги университети), Тренчард Мур (Принстон университети), Жон Маккарти (Дартмут университети), Марвин Мински (Гарвард университети) каби олимлар иштирок этган. Ушбу анжуманда маъруза қилган америкалик информатика соҳасидаги олим Жон Маккарти (1927-2011) “Artificial Intelligence” (“Сунъий тафаккур”) атамаси муаллифи сифатида тарихга ном қолдирди.

XX асрнинг 80-йиллари сунъий интеллект - кашфиёт дея эътироф этила бошлади. Олимлар ушбу йўналишда дарсликлар ишлаб чиқа бошладилар. Шунингдек, 1997 йилда шахмат бўйича Жаҳон чемпиони Гарри Каспаровни мағлубиятга учратган машҳур шахмат дастури - “Deep Blue” яратилди. Шу йилларда Японияда нейрон тармоқлари асосида 6-авлод компьютер лойиҳаси ишлаб чиқиляётган эди. Шундан сўнг сунъий интеллектга эътибор кучайди. Йирик компаниялардан тортиб ҳарбий муассасаларгача мазкур соҳани молиялаштира бошлади. Натижада янги технологиялар сони ошиб, рақобат кучайди, сунъий интеллект воситалари мукамаллашиб борди.

“Сунъий интеллект” деганда кўпчилик роботларнинг турли соҳаларга жалб қилинишини тушунади. Аммо сунъий интеллект атамаси роботларнинг инсон билан ўрин алмашишини англатмайди. Унинг асосий мақсади инсон қобилиятлари ва имкониятларининг чегараларини кенгайтиришдир. Шунинг учун бу каби технологиялар қимматли бизнес ресурси ҳисобланади.

Авваллари “сунъий интеллект” атамаси фақат одамлар бажариши мумкин бўлган, масалан, мижозларга хизмат кўрсатиш ёки шахмат ўйнаш вазифаларни бажариш учун қўлланилган. Шунингдек, компьютер технологияларини чуқур ўрганишга ҳам сунъий интеллект сифатида қаралган. Лекин мижозларга хизмат кўрсатиш, турли онлайн ўйинлар ва компьютер технологияларини чуқур ўрганиш кабилар сунъий интеллект технологияларининг кичик қисми ҳисобланади. Тўғри, сунъий интеллект

технологиялари одамлар бажарадиган вазифаларни автоматлаштириш орқали самарадорликни оширишга ёрдам беради. Бироқ эндиликда унинг камрови кенгаймоқда, ҳозирда сунъий интеллект билан одамларнинг характери, ўқувчиларнинг қобилиятларини, ходимнинг ишга бўлган қарашларини аниқлаб олиш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳолига давлат ижтимоий хизматлари ва ёрдам тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорида кўзда тутилган “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизимида ҳам замонавий технологиялар қатори сунъий интеллект имкониятларидан самарали фойдаланиш лозим. Маълумки, эндиликда ижтимоий нафақаларни тайинлаш тўғрисидаги аризаларни кўриб чиқиш ва уларни тайинлаш тартиб қоидалари “ягона реестр” воситасида амалга оширилади. “Электрон ҳукумат” тизимининг таркибий қисми сифатида “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” идоралараро интеграцион платформа вазифасини бажариб, тегишли идоралар томонидан таъминланган маълумотлар базасини сунъий интеллект технологияси орқали юритиш мумкин.

Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 2020 йилдаги асосий натижаларга мўлжалланган устувор вазифалар юзасидан Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида 2021 йилдан бошлаб “Ижтимоий реестр” ишга туширилиши, эҳтиёжманд оилаларга 30 дан зиёд ижтимоий хизматларни электрон кўрсатиш имкони яратилиши ва янги тизим “Темир дафтар”лар билан ўзаро интеграция қилиниши кўрсатиб ўтилган бўлиб, амалда жорий қилинди.

Ўзбекистонда янги технологиялар, яъни сунъий интеллектнинг ижтимоий ҳимоя дастурлари ва бошқа соҳаларга кенг жорий қилиниши давлат ва хусусий секторда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишни рағбатлантириб, мамлакатда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ҳамда ҳар бир соҳага инновацияларни киритиш имкониятларини оширади. Шу билан бирга замонавий илм-фан ютуқларидан самарали фойдаланилишига олиб келади.

Хулоса ўрнида таъкидлайдиган бўлсак, сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишни кенгайтириш, рақамли маълумотларни йиғиш, сақлаш ва қайта ишлаш тизимини такомиллаштириш мақсадида ҳозирда юртимизда ушбу соҳада малакали кадрларни тайёрлаш, мазкур йўналишдаги илмий-лойиҳаларни қўллаб-қувватлаш бўйича қатор ишлар амалга оширилмоқда. Ўз навбатида сунъий интеллектни илм-фанга жорий

этиш учун малакали кадрлар сонини ошириш талаб этилади. Бугунги кунда мамлакатимизда сунъий интеллект иқтисодиёт ва технологик ривожланишнинг пойдевори ҳисобланиши ҳар томонлама ўринлидир.

SUN'IY INTELEKTNI IQTISODIYOTNING TURLI SOXALARIDA QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

**Ziyaev J.X. TMI talabasi,
Raximov N.R. TMI dotsenti, i.f.n.**

Ushbu maqolada, mualliflar sun'iy intellektni respublikamizning iqtisodiyotini turli soxalarida qo'llashda va uni amaliyotda tadbiq qilish bo'yicha o'ziga xos xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan taxlil qilingan.

Sun'iy intellekt deganda, binigchi galda bizning miyamizga insonning mantiqiy va aql bilan fikrlash jarayonlari va funksiyalarini immitatsiya qiladigan maxsus intellektual sun'iy tizim tushunchasi paydo bo'ladi. Ammo sun'iy intellektni to'liq anglash uchun «aqli bo'lgan mashinalarni yaratish» degan tushunchaning o'zi yetarli emas. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday mashinaga nisbatan qo'llanishi mumkin.

Sun'iy intellektning o'ziga xos ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va ular alternativ yechimlar orasidan eng maqbul variantni tanlab olishda to'g'ri qaror qiqara olish qobiliyatidir.

Ko'pchilik sun'iy intellekt atamasini eshitganda, birinchi navbatda ko'z oldiga robotlar keladi. Ammo robotlar sun'iy intellektning kichik bir ko'rinishi hisoblanadi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanib borgan sari, xamda insonlarning talablari ortib borgan sayin sun'iy intellektni belgilaydigan oldingi ko'rsatkichlar eskirib o'z dolzarbligini yo'qotib bormoqda. Xususan, kompyuter yordamida matematik hisob-kitoblar asosida modellashtirish va immitatsiyani amalga oshirish, bugungi kunda kompyuterning bir funksiyasi sifatida qaraladi.

Bugungi kunga qadar jahon mamlakatlari tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha yettita xalqaro, ellikdan ortiq milliy strategiya qabul qilingan.

Bu yoʻnalishda Oʻzbekistonda ham katta qadam tashlandi va sunʻiy intellekt sohasida qonunchilikdagi boʻshliq toʻldirildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan Oʻzbekiston innovatsion rivojlanish strategiyasi va Ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasi doirasida mamlakatda sunʻiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan meʼyoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Ushbu hujjatda sunʻiy intellektni ilmiy-innovatsion rivojlantirishning asoslarini ishlab chiqish, mutaxassis kadrlar va olimlar yetishib chiqishi uchun shart-sharoit yaratishga alohida urgʻu berilgan. Innovatsion rivojlanish vazirligi sohadagi ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qoʻllab-quvvatlash uchun masʼul etib belgilangan.

Sunʻiy intellekt sohasida ilm-fan va milliy innovatsion ishlanmalar ekotizimini yaratish maqsadida Raqamli texnologiyalar va sunʻiy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi hamda “Innoweek” innovatsion gʻoyalar haftaligi doirasida “Sunʻiy intellekt — texnologik rivojlanish asosi” mavzusida xalqaro konferensiya tashkil etiladi. Shuningdek, “Raqamli texnologiyalar va sunʻiy intellekt” doktorantura ixtisosligi tashkil etilib, stajyor-tadqiqotchilar hamda tayanch doktoranturada tahsil olish uchun har yili 5 kishilik kvota ajratiladi.

Tabiiyki, ushbu chora-tadbirlarni hamda sunʻiy intellekt sohasida ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni amalga oshirish uchun mablagʻ zarur. Buning uchun Innovatsion rivojlanish va novatorlik gʻoyalarini qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasida hisob raqami ochiladi va startap loyihalarni jamoaviy moliyalashtirish, yaʼni “kraudfanding” mexanizmlari joriy etiladi.

Bundan tashqari, qishloq xoʻjaligi, transport, energetika, sogʻliqli saqlash kabi tarmoqlarga sunʻiy intellekt texnologiyalarini oʻz ichiga olgan innovatsion loyiha va yechimlar joriy etiladi. Bularning barchasi, oʻz navbatida, Sunʻiy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qoʻllash, raqamli maʼlumotlardan foydalanish imkoniyatini hamda ularning yuqori sifatini taʼminlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

Ayrim davlatlarda robot-hamshiralar, haydovchisiz transport vositalari, buyurtmani yetkazib beruvchi dronlar xizmatidan foydalanish yoʻlga qoʻyilgan. Pandemiya davrida yesa bunday ixtirolar oʻz samarasini berdi.

Yurtimizda ham soʻnggi yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, soha va tarmoqlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, “aqli dasturlar”ning qoʻllanish sohasini kengaytirish boʻyicha davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qator huquqiy hujjatlar qabul qilinayotgani sir emas.

Ushbu tashabbuslarning yana bir amaliy isboti sifatida Yoshlar ishlari agentligi, Yoshlar ittifoqi va Loyihalar boshqaruvi markazi hamkorligida O‘zbekistonda Sun’iy intellekt hamjamiyati tashkil etildi. Sun’iy intellekt imkoniyatlarini muhokama qilish, loyihalar yaratish va uni rivojlantirish bo‘yicha ish olib boruvchi hamjamiyatning tashabbuskori yosh startapchi Ulug‘bek Ismatov bo‘lib, uning fikricha, xalqaro bozorda sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar va loyihalarga talab kundan-kunga oshib bormoqda. Bu yo‘nalishda O‘zbekistonda ham loyihalar ko‘p. Ushbu hamjamiyat esa yurtimizdagi ana shunday sun’iy intellektlarni turli sohalarda tatbiq etish va ularni xalqaro bozorga olib chiqishga ko‘maklashishni maqsad qilgan.

Sun’iy intellektni rivojlantirishda oliy ta’lim muassasalarining o‘rni yildan-yilga ortib bormoqda. 2019 yil yakuni bo‘yicha Xitoy Xalq Respublikasi o‘zining oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalari bilan dunyo mamlakatlari ichida dastlabki 10 talikda yetakchilikni qo‘lga kiritdi. Keyingi o‘rinlarni Koreya, AQSh, Yaponiya va Yevropa davlatlari egallagan. Umuman, dunyoda sun’iy intellektga talab va uning qo‘llanilish sohasi ham ortmoqda.

Mamlakatimizda ham so‘nggi yillarda axborot texnologiyalarini rivojlantirish, soha va tarmoqlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, «aqli dasturlar»ning qo‘llanilish sohasini kengaytirish bo‘yicha davlatimiz rahbari va hukumatimiz tomonidan qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi va ijro etilmoqda.

Foydalanilgan ma’nbalar:

- 1) [ehttps://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--ozbekiston-texnologik-rivojlanishining-asosi](https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--ozbekiston-texnologik-rivojlanishining-asosi)
- 2 <https://oyina.uz/uz/posts/1880>
- 3) <https://oz.sputniknews-uz.com/>

MAMLAKATIMIZ IQTISODIYOTINI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING ROLI VA AXAMIYATI XAQIDA (BANK SOXASI MISOLIDA)

**Sh.Adhamov TMI talabasi,
N.R. Raximov TMI dotsenti,i.f.n.**

Hozirgi paytda butun dunyo mamlakatlarining shiddat bilan rivojlanayotganiga guvoh bo'lmog'damiz, buning asosiy omili ularning iqtisodiyotni turli soxalarini raqamlashtirish va bu jarayonda keng ko'lamda su'niy intellektni tadbiiq qilinishidadir. Bugungi globallashuv davrida, axborot kommunikatsiya texnologilarining jadal rivojlanishi bizning hayotimizda ko'plab yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu esa, shubhasiz, kundalik turmush tarzimizga aylanishga ulgurgan – sun'iy intellektga bevosita bog'liq.

Sun'iy intellekt deganda, ko'pchilikning ko'z oldiga insonlardek gaplasha oladigan, ularning o'rniga barcha yumushlarni bajara oladigan yordamchilar keladi. Ammo bu nisbatan kengroq tushuncha. Aslida, mobil qurilmalardagi dasturlar : google – tarjimon, lug'atlar, turli xil o'yinlar va hokazolar ham sun'iy intellektga yaqqol misol bo'la oladi. Faqat ularning qamrovi kichikroq bo'lib, ma'lum bir yo'nalishdagina bizga yordam bera oladi. Mobil qurilmalardagi google – tarjimon bizga til o'rganishda katta yordam berganidek, iqtisodiyot uchun mo'ljallangan dasturlar ham undagi ko'plab muammolarga yechim bo'la oladi.

Darhaqiqat, sun'iy intellekt iqtisodiyotning deyarli barcha sohalariga kirib bordi va qisqa fursat ichida uning ajralmas qismiga aylandi desak, xato qilmagan bo'lamiz. Ularning integrallashuvi natijasida yangi tushuncha – “ Raqamli iqtisodiyot “ atamasi vujudga keldi.

Iqtisodiyotning rivojlanishi, taraqqiy etishi uning “ qon tomiri “ bo'lgan bank tizimi bilan o'lchanadi. Bank – moliya tizimiga sun'iy intellektning tadbiiq qilinishi uni misli ko'rilmagan yangi pog'onaga olib chiqdi. Insonlarning vaqtlarini tejash, ularga uzoq masofalardan turib tranzaksiyalarni amalga oshirishga imkon yaratish, ortiqcha ovoragarchiriklarsiz ko'plab to'lovlarni tez fursatda belgilangan joyga yetkazish maqsadida ishlab chiqilgan dasturlar kutilganidan ham ortiq samara berdi. Shu kabi dasturlarning ba'zilar bilan qisqacha tanishib o'tamiz :

SMS banking – bu bank mijozlariga masofadan xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan va mijozlarning bank bilan SMS – xabarnoma

almashinishiga asoslangan dasturiy majmua. “ SMS – banking “ dasturiy majmuasi doirasida mijoz mobil telefoniga sms – xabarnoma olish orqali o‘z hisob raqamlaridagi mablag‘ harakatini tun-u kun nazorat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi v bu turli xil firibgarlar tomonidan kartadagi pul noqonuniy yechib olinishini oldini oladi.

Mobil banking – internet tarmog‘i yordamida mobil telefon orqali bank xizmatlaridan foydalanishning zamonaviy usuli. Ya’ni avvalgiladan farqli ravishda, turli xil kreditlarni elektron olish yoki omonatlarni osongina onlayn qo‘yish imkoni mavjud.

Bunga qo‘shimcha qilib, Click, Apelsin, Oson, Payme va yana bir nechta misollarni keltirishimiz mumkin. Statistik ma’lumotlarga murojaat qiladigan bo‘lsak, davlatimiz hududida birgina Click ilovasidan 2 mln dan ziyod aholi foydalanadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, bu ilovalar biz uchun juda zarur²⁰.

Raqamli texnologiyalar eng katta yutug‘i – tashkiliy, moliyaviy va inson harajatlarini tejash orqali iqtisodiy samaradorlikni keskin ravishda oshirish imkoniyati. Shu o‘rinda raqamli texnologiyalardan turli soha tarmoqlarda keng foydalansa bo‘ladi. Yurtimiz uchun eng dolzarb bo‘lgan shunday sohalardan biri qishloq xo‘jaligidir. Mazkur sohada hozirgi paytgacha katta ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Jumladan, 2020- yilda Andijon viloyatidagi qishloq xo‘jaligi yerlari va ularda yetishtirilayotgan ekinlar holatini tezkor va aniq baholash maqsadida sun‘iy yo‘ldosh ma’lumotlaridan foydalanish bo‘yicha tajriba loyihasi amalga oshirildi. Ushbu loyihaning maqsadi “ sun‘iy intellekt “ texnologiyalari yordamida yerlarni Andijon viloyati sharoiti uchun moslashtirish hamda qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari holatini sun‘iy yo‘ldosh tasvirlari tahlili natijasida aniqlash orqali ob’ektiv baholashdir. Loyiha doirasida Andijon viloyatining jami 6 ta maydonlari tanlab olinib, vektor formatida “ Monterra “ onlayn ” platformasiga joylashtirildi.

Shu loyiha doirasida o‘rganilgan tumanlar:

Andijon		Toshkent		Samarqand		Buxoro	
Buloqboshi	Marhamat	Yuqori chirchiq		G‘alaba	Zarbuloq	Qorako‘l	Olot
117 ga	76,1 ga	Paxta 70 ga	G‘alla 110 ga	60 ga	52 ga	43 ga	36 ga

Sanoatda esa mahsulot kesish uchun mo‘ljallangan grafikli lazer uskunalari yo‘lga qo‘yildi. Ular yordamida mahsulot ishlab chiqarishdagi resurslar sarfi ancha kamayadi. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, bu sun‘iy intellekt inson omilidan farqli ravishda xom – ashyoning eng optimal yechimini aniqlagan holda, kamroq

²⁰ Internet ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

chiqindi chiqaradi. Uning yordamida esa resurslar iqtisodiyotning boshqa sohalari uchun qo‘shimcha quvvat sifatida sarflanadi yoki tejab qolinadi.

Bu sohada qator yutuqlarga erishilgan bo‘lsada, hali amalga oshirilishi kerak bo‘lgan islohotlar o‘z navbatini kutib turibdi. Sun‘iy intellektning iqtisodiyotga kengroq jalb qilish yuzasidan hukumatimiz tomonidan bir qator qonunlar imzolanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022-yilning 28 – yanvarida “ 2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston Taraqqiyoti Strategiyasi to‘g‘risida ” gi PF-60 – sonli farmoni imzolandi. Yetti ustuvor yo‘nalishdan iborat bu farmonning 3-bandida milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Bundan ko‘rinib turibdiki, sun‘iy intellekt va iqtisodiyot integratsiyasi masalasini davlat ahamiyati darajasiga ko‘tarmas ekanmiz, yuqori iqtisodiy taraqqiyot ko‘rsatkichlariga ega bo‘la olmaymiz. Bu esa ulkan iqtisodiy salohiyatga ega bo‘lgan rivojlangan mamlakatlar safiga qo‘shilishga intilayotgan Yangi O‘zbekiston uchun eng zarur omildir.

SUN'IY INTELEKTNING IQTISODIYOTGA TA'SIRI

Sharifjonov Javoxirbek Shuxratjon o‘g‘li
Toshkent moliya instituti Iqtisodiyot fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun‘iy intellekt haqida umumiy tushuncha, uning bugungi kundagi ahamiyati, iqtisodiy salohiyati, savdoda qo‘llanilishi va sun‘iy intellektning mehnat bozoriga ta‘siri atroflicha yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Sun‘iy intellekt, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, telekommunikatsiya, dasturiy ta‘minot, iqtisodiy o‘shish, innovatsiya, robototexnika, avtomatlashtirish, kognitiv ko‘nikmalar.

Kelajakni bashorat qilish mo‘jiza emas, bu sun‘iy intellekt.

(Dave Waters)

Sun‘iy intellekt — informatikaning alohida sohasi bo‘lib, odatda inson ongi bilan bog‘liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o‘rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug‘ullanadi. Sun‘iy intellekt (SI) kompyuterlarga o‘zlarining tajribalarini o‘rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo‘lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. Bugungi kunda butun dunyoda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng ko‘lamda

rivojlanmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari davlatning iqtisodiy tizimini yuritishning asosiy kuchi bo'lib: telekommunikatsiya, dasturiy ta'minotni ishlab chiqish kabi sohalarda yangi ish joylarni tashkil qiladi, hamda yangi axborot-kommunikatsiya atrofida paydo bo'layotgan ta'lim va o'qitish kabi xizmatlar sohasiga yangi dasturiy ta'minotni yaratmoqda. Xususan axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasi o'laroq sun'iy intellekt tizimlari rivoji va insoniyat hayotida tutgan o'rni kunsayin kengayib bormoqda. Hozirgi kunda juda ko'p rivojlangan davlatlarda bu sohani takomillashtirishga alohida urg'u berilyapti. Sababi globallashtirish jarayonida ko'p ma'lumotlar elektron tarzda qabul qilinmoqda. Juda ko'p ma'lumotlarga egamiz, lekin ularni tahlil qilishga inson idroki ojizlik qiladi. Shuning uchun ham sun'iy intellektga yuzlanilmoqda.

Tadqiqotlarning aksariyati SI muhim iqtisodiy ta'sirga ega bo'lishini ta'kidlaydi. Accenture kompaniyasi tomonidan dunyo iqtisodiy mahsulotining 0,5% dan ortig'ini ishlab chiqaradigan 12 ta rivojlangan iqtisodiyotni qamrab olgan tadqiqotlar 2035 yilga borib sun'iy intellekt global iqtisodiy o'sishning yillik sur'atlarini ikki baravar oshirishi mumkinligini bashorat qilmoqda. SI bu o'sishni uchta muhim usulda boshqaradi. Birinchidan, bu innovatsion texnologiyalar hisobiga mehnat unumdorligining kuchli o'sishiga olib keladi (40% gacha). Ikkinchidan, sun'iy intellekt yangi virtual ishchi kuchini yaratadi va muammolarni hal qilish va o'z-o'zini o'rganishga qodir. Uchinchidan, iqtisodiyot turli tarmoqlarga ta'sir ko'rsatadigan va yangi daromad manbalarini yaratadigan innovatsiyalarning tarqalishidan ham foyda ko'radi.

PricewaterhouseCoopers (PwC) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotga ko'ra, sun'iy intellektning jadal rivojlanishi va o'zlashtirilishi natijasida 2030 yilga kelib global YaIM 14 foizgacha (15,7 trillion AQSh dollari ekvivalenti) oshishi mumkin. Hisobotda raqamli inqilobning navbatdagi to'liqini "Internet of Things" (IoT) dan olingan ma'lumotlar yordamida paydo bo'lishini taxmin qilmoqda, bu hozirgi "Odamlar interneti" tomonidan yaratilgan ma'lumotlardan bir necha baravar ko'p bo'lishi mumkin. Bu standartlashtirish va natijada avtomatlashtirishni kuchaytiradi, shuningdek, mahsulot va xizmatlarni shaxsiylashtirishni kuchaytiradi.

McKinsey Global instituti 2030 yilga kelib kompaniyalarning taxminan 70 foizi SI texnologiyasining kamida bitta turini o'zlashtirishini kutmoqda, yirik kompaniyalarning yarmidan kamrog'i esa to'liq assortimentni qo'llaydi. McKinsey hisob-kitoblariga ko'ra, sun'iy intellekt 2030 yilga borib taxminan 13 trillion AQSh dollari miqdorida qo'shimcha iqtisodiy mahsulot ishlab chiqarishi

mumkin, bu esa global YaIMni har yili taxminan 1,2 foizga oshirishi mumkin. Bu, asosan, mehnatni avtomatlashtirish va mahsulot va xizmatlarda innovatsiyalarning ortishi bilan almashtirishdan kelib chiqadi.

Sun'iy intellektning savdoda qo'llanilishi. Sun'iy intellect masalalari bilan shug'ullanadigan Facebook laboratoriyasi muhandislari 2017 yilning iyunida insonlar bilan savdolasha oladigan bot bo'yicha ma'lumotlarni oshkor qildilar. Quartzning yozishiga ko'ra, tizimni o'rnatish jarayonida Amazon Mechanical Turk onlayn kraudsorsing platformasi yordamida yig'ilgan 5,8 mingta real insonlarning dialoglaridan foydalanilgan. Dialoglarni tahlil qilgan holda bot nafaqat muloqotlar olib borishni o'rgandi, balki kerak bo'lganda yolg'on gapirishni ham epladi. Muhandislarning fikrlaricha, sun'iy intellect nafaqat o'zi qiziqadigan narsalargagina e'tibor qaratdi, balki boshqa ma'lumotlarga ham qiziqqa boshladi. Haridor bilan muloqotni tugatganidan so'ng, bot boshqa muammolarga ham qayta oladi. Ammo muhandislar bot yolg'on gapirishni insonlararo suhbat vositasida o'rgandimi yoki bu tasodifiy ravishda o'z-o'zicha o'rganish natijasida ro'y berdimi, buni aniq bila olmadilar.

SIning mehnat bozorlariga ta'siri. Agar haqiqatan ham sun'iy intellekt, robototexnika va avtomatlashtirish kabi texnologiyalar iqtisodiyot bo'ylab keng qo'llanilsa, ish o'rinlari yaratiladi (bu tarqatish tufayli paydo bo'ladigan yoki gullab-yashnagan tarmoqlarda talab natijasida), shuningdek, ish o'rinlari yo'q qilinadi. Bruegel tahliliy markazining prognozi ogohlantiradiki, Yevropa Ittifoqidagi ish o'rinlarining 54 foizi 20 yil ichida kompyuterlashtirish ehtimoli yoki xavfiga duch keladi. Ta'sir yanada nozikroq bo'lishi mumkin va tadqiqotchilar o'rtasida iqtisodiyot tarmoqlari bo'ylab ishchi kuchining sezilarli siljishi, ish o'rinlarining tabiati va mazmunidagi o'zgarishlar bilan birga qayta malaka oshirishni talab qilishi mumkin. Bundan tashqari, Ish polarizatsiyasi ehtimoli bor: odatda oddiy qo'lda va kognitiv(aqliy) ko'nikmalarni talab qiladigan kam haq to'lanadigan ishlar sun'iy intellekt va avtomatlashtirish bilan almashtirilishining eng yuqori xavfiga ega, odatda odatiy bo'lmagan kognitiv ko'nikmalarni talab qiladigan yaxshi maoshli malakali ishlarga talab yuqori bo'ladi.

Sun'iy intellekt bizning hayotimiz va iqtisodiyotimizda tobora muhim rol o'ynaydi va bizning dunyomizga turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatmoqda. Uning foydalariga ega bo'lish uchun jahon miqyosidagi raqobat shiddatli va global liderlar - AQSh va Osiyo - sahnaga chiqdi.

Ko'pchilik sun'iy intellektni samaradorlik va iqtisodiy o'sish mexanizmi sifatida ko'radi. Bu ishlar samaradorligini oshirishi va katta hajmdagi

ma'lumotlarni tahlil qilish orqali qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Bu, shuningdek, yangi mahsulotlar va xizmatlar, bozorlar va tarmoqlarni yaratishga, shu bilan iste'mol talabini oshirishga va yangi daromad oqimlarini yaratishga yordam beradi.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt iqtisodiyot va jamiyatga juda jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasidagi tafovutni kengaytirishi va ma'lum ko'nikmalarga ega bo'lgan ishchilarga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirishi va boshqalarni ortiqcha qilish mumkin; bu oxirgi tendentsiya mehnat bozori uchun keng qamrovli oqibatlariga olib kelishi mumkin. Mutaxassislar, shuningdek, uning tengsizlikni kuchaytirish, ish haqini pasaytirish va soliq bazasini qisqartirish imkoniyatlari haqida ogohlantirmoqda.

Ushbu xavotirlar o'z kuchini saqlab qolgan bo'lsa-da, tegishli tahminlar yuzaga keladimi yoki qanchalik ko'p bo'lishi haqida aniq dalillar yo'q. Yevvropaning Ittifoqi global raqobatda o'z mavqegini oshirish va SIning o'z iqtisodiyoti va fuqarolariga foyda keltiradigan yo'lga yo'naltirish salohiyatiga ega. Bunga erishish uchun u birinchi navbatda o'zining kuchli tomonlaridan foydalanadigan va a'zo davlatlar resurslarini eng samarali tarzda birlashtirishga imkon beradigan umumiy strategiyani ishlab chiqishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kuzmanova, G. B., Kuzmanova, N. N. (2021). Umumiy o'rta ta'lim maktab.
2. Matematika darslarida o'rganiladigan konsentratsiyaga va aralashmaga doir matnli masalalarni yechishni ba'zi tadbirlari. *Ekonomika i sotsium*, 5(84).
3. PricewaterhouseCoopers, Sun'iy intellektning makroiqtisodiy ta'siri, 2018 yil fevral.
4. Evropa siyosiy strategiyasi markazi, sun'iy intellekt asri, EPSC Strategik eslatmalari, 2018 yil mart.
5. Gries T. va Naude V., Sun'iy intellekt, ish o'rinlari, tengsizlik va mahsuldorlik: yalpi talab muhimmi?, Mehnat iqtisodiyoti instituti, munozara qog'ozi № 12005, 2018 yil noyabr.
6. OECD, Raqamli iqtisodiyot istiqbollari 2017, oktyabr 2017.
7. McKinsey Global instituti, AI chegarasidan eslatmalar - Aining jahon iqtisodiyotiga ta'sirini modellashtirish, muhokama hujjati, 2018 yil sentyabr.
8. R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva Raqamli iqtisodiyot asoslari(2020)

SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA IQTISODIY MASALALARNI YECHISH ISTIQBOLLARI

Usmanova Aziza Alisherovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktoranti

Sun'iy intellektni turli sohalarda qo'llash hozirda dunyo olimlari oldidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Bugungi kunda ushbu texnologiyalarni iqtisodiy muammolarni yechish borasida ilk qadamlar qo'yilgan.

Sun'iy intellekt terminologiyasi ilk marotaba 1956-yilda Djon Makkarti tomonidan Darmut universitetining konferensiyasida keltirilgan bo'lsa ham, sun'iy intellekt texnologiyasini iqtisodiy muammolarning yechimini topishda qo'llash 21-asrdagina boshlangan. Sun'iy intellekt – bu inson ongi va idrokini talab qiluvchi vazifalarning maxsus texnologiyalar orqali bajarilish qobiliyati. Ushbu vazifalarni bajarishda aniqlik va tezlik doirasida sun'iy intellekt inson intellektidan ham o'tib ketishi mumkin.

Hozirgi zamonda olimlar Sanoat 4.0 davri deb atashmoqda va ushbu yangi davrning poydevori sifatida sun'iy intellekt ko'rilmogda. Jadal rivojlanayotgan davrimizda turli shakldagi ma'lumotlar (strukturalashgan va strukturalashmagan) katta hajmlarda shakllanmogda (Big Data), va ushbu katta hajmdagi ma'lumotlardan kerakli ma'lumotlarni olib foydalanish uchun sun'iy intellekt texnologiyalari foyda keltiradi. Bundan tashqari, sun'iy intellektidan kambag'allik darajasini o'lchash va uni qisqartirish, qishloq xo'jaligini rivojlantirish, savodsizlikka chek qo'yish, ta'lim sifatini yaxshilash, tibbiyot, shahar infrastrukturasi yaxshilash hamda moliyaviy inklyuzivlikni ta'minlashda foydalanish samaradorligi o'rganilmogda.

Vinsentning fikricha, 2050-yilgacha dunyo aholisining soni yana 2 milliardga oshadi, ammo ekin maydonlari esa atigi 5 foizga ko'payar ekan²¹. Shu sababli, qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish juda muhim. Buning uchun esa bu sohaga sun'iy intellekt texnologiyasini keng tatbiq etish kerak. Hozirda rivojlangan mamlakatlarda bu borada qator ishlar amalga oshirilgan: yerlarning hosildorlik darajasini baholash, o'simliklarning kasalliklarini aniqlash, tuproqni to'g'ri o'g'itlashda sun'iy intellekt texnologiyasidan faol foydalanilmogda.

Moliya sohasida ham sun'iy intellekt ayniqsa banklarda keng joriy etilgan. Bu texnologiyalar bankrotlikni bashorat qilish, mijozlarning kredit reytingini

²¹Vincent, D.R.; Deepa, N.; Elavarasan, D.; Srinivasan, K.; Chauhdary, S.H.; Iwendi, C. Sensors drove ai-based agriculturerecommendation model for assessing land suitability. Sensors 2019, 19, 3667

tuzish, qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarishda keng qo'llanilmoqda²². Hindistonda soliq tekshiruvlarini amalga oshirish uchun sun'iy intellektdan foydalanilgan. Bunda, intellektual tizimga qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha ma'lumotlar bazasi yuklangan va shu baza asosida sun'iy intellekt yordamida insofsiz soliq to'lovchilar aniqlangan.

Yuqorida keltirilgan izlanishlardan kelib chiqib, sun'iy intellektni O'zbekistonda joriy qilish bo'yicha quyidagi yo'nalishlardagi ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi:

- davlat tomonidan kambag'allik darajasini hisoblash va uni qusqartirish;
- agrar xo'jaligi sohasida tuproq sifatini baholash va oshirish;
- banklarda mijozlarning kredit reytingini tuzish;
- tibbiyotda tashxis qo'yish va davolash;
- ta'lim mazmunini har bir talabanning o'ziga xos ehtiyojlariga moslashtirish va b.

Sun'iy intellekt yordamida iqtisodiy masalalarni yechish hali nisbatan yangi va istiqbolli mavzulardan biri hisoblanadi. Jahon olimlarining tajribalaridan kelib chiqqan holda, ushbu texnologiyalarni O'zbekiston iqtisodiyotiga joriy qilish yalpi ichki mahsulotning o'sish darajasini oshirib, kambag'allik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi, bu esa o'z navbatida xalq farovonligini oshirishning muhim omillaridan biri bo'ladi.

O'ZBEKISTONDA SOLIQ SOXASINI RAQAMLASHTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI.

Raximov N.R., TMI dotsenti, i.f.n.

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini jadal rivojlanishi, uning imkoniyatlarini iqtisodiyotning barcha soxalariga jalb qilish, xamda ulardan maqsadli va samarali foydalanish zaruriyatini keltirib chiqardi. Jumladan, bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining asosiy vazifalari faqat axborotlarni qayta ishlash bilan chegaralanib qolmasdan, balki bilimlar bazasiga asoslangan su'niy intellekt asosida ma'lumotlarga ishlov berish, xamda

²²Mhlanga, D. Industry 4.0 in finance: The impact of artificial intelligence (ai) on digital financial inclusion. Int. J. Financ. Stud.2020, 8, 45

to'g'ri, ishonchli va tezkor axborotlarga asoslangan boshqaruv qarorlarini chiqarishdan iboratdir.

Su'niy intellekt bu inson ongini, tafakkurini va fikrlash jarayonini kompyuter texnologiyalari asosida imitatsiya qilish, modellashtirishdir. Xozirgi paytda, xar kandy xo'jalik yurituvchi su'bektlarda juda ko'p miqdorda axborotlar xajmi mavjud va ular muayyan davrda aylanadi. Va o'z-o'zidan ma'lumki bunday katta xajmdagi axborotlar oqimini qayta ishlash foydalanuvchidan, ya'ni insondan juda katta mashaqqatli aqliy mexnat talab qilinadi. Undan tashqari, bu katta xajmidagi axborotlarni qayta ishlash va ularga ishlov berish bilan bir qatorda to'g'ri qaror qabul xam o'ta murakkab va ma'suliyatli vazifadir.

Bizning Respublikamizda su'niy intellektni rivojlantirish va uni iqtisodiyotning turli soxalariga tadbiiq qilish maqsadida bir nechta qarorlar va farmoyishlar qabul qilinib, su'niy intellektni rivojlantirish bo'yicha xuquqiy-normativ baza yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo'lga qo'yish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga muvofiq maxsus rejim IT-parkning alohida bo'g'ini bo'lib, u yerda alohida huquqiy yengilliklar yaratiladi va yuridik shaxslar va ilmiy tashkilotlar tomonidan dasturiy mahsulotlar tajribadan o'tkaziladi va amaliyotga joriy qilinadi.

Ushbu maqolada, iqtisodiyotning muxim soxalaridan biri bo'lgan soliq soxasini islox qilishda va uni raqamli iqtisodiyot bo'yicha transformatsiya qilishda su'niy intellektni qo'llash bo'yicha nazariy taxlillar va ular asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Oxirgi besh yilda, bizning respublikamizda soliq soxasida isloxatlar zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan su'niy intellekt tamoyillariga mos ravishda olib borilmoqda va jadal rivojlanmoqda. Bunda asosiy ko'rsatkich sifatida soliq auditi, kameral va sayyor tekshiruvlarni aniqlashda inson omilini, ya'ni tekshirish bo'yicha qaror qabul qilishda inson ishtirokini cheklashga yoki minimallashtirishga qaratilganini aloxida e'tirof etish kerak.

Yuqorida keltirilgan vazifalarni basharishda, ya'ni soliq soxasini transformatsiya qilishda bugungi kunda bir qancha zamonaviy axborot texnologiyalari va su'niy intellektga mo'ljallangan axborot tizimlari va dasturiy vositalar ishlab chiqilib soxaga tadbiiq qilindi. Jumladan, soliq xisobotlarini topshirish bo'yicha my.soliq.uz portali to'liq modernizatsiya qilinib boshqa

axborot tizimlari bilan to'liq integratsiya qilindi. Bundan tashqari, elektron schet fakturalar va boshqa xujjatlar bilan ishlashga mo'ljallangan bir nechta elektron xujjatlar aylanish tizimlari yaratildi va ular yagona elektron platformada integratsiyalashgan muxitda bog'landi.

E-aktiv, E-ijara tizimlari korxonalar va tashkilotlardagi mavjud tovar-moddiy zaxiralar to'g'risidagi ma'lumotlar, xamda ularning qaysi tashkilotdan ijaraga joy olib faoliyat ko'rsatayotganligi to'g'risida ma'lumotlarni integratsion jarayon asosida olish imkoniyatini yaratadi. Undan tashqari korxonalar va tashkilotlarning faoliyatini inson omilisiz monitoring qilish tizimi "taxlikaviy taxlil" tizimi joriy qilingan bo'lib, bu tizim orqali korxonalar va tashkilotlarning xo'jalik va moliyaviy faoliyatlari bo'yicha xisobotlar inson ishtirokisiz taxlil qilinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki soliq soxasiga su'niy intellekt texnologiyalariga asoslangan axborot kommunikatsiya vositalarini qo'llash soxani yanada rivojlantirishga turtki bo'ladi.

ELEKTRON TIJORATDA SUN'IY INTELEKTNING O'RNI VA QO'LLANILISHI

**Azizova M.I., Ilmiy rahbar,
Abdumannanova X., TMI talabasi**

Oracle korporatsiyasi sun'iy intellekt sohasida bir qator innovatsiyalarni taqdim etib, marketing, savdo, elektron tijorat va mijozlarga xizmat ko'rsatish mutahassislariga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Real vaqt rejimida iste'molchilarning hatti-harakatlarini tahliliy tahlil qilish: sotuvchilarga ma'lumotlarning mijozning hayoti davomida qanday ishlatilishini qayta ko'rib chiqish va aniqlashga imkon beradi .

Oracle Infinity va Oracle CX majmualarning yordamidan foydalangan holda marketologlar ajratilgan ma'lumotlarni yo'qotish va xulq-atvor ma'lumotlari asosida real vaqt rejimida analitik ma'lumotlarni taqdim etish orqalimijozlar bilan uzoq muddatli va foydali munosabatlarini o'rnatish mumkin.

Oracle CX Cloud majmuaning imkoniyatlari:

- Kuchli va kengaytiriladigan loyallik (sodiqlik) platformasi: marketologlar shaxsiy sodiqlik dasturlari bilan foydalanuvchilarni jalb qiladi va

qondiradi.

- Sun'iy intellekt yordamida marketing boshqarish mexanizmlari: maktublarning ochilishi, jo'natish vaqtning optimal uyg'unlashuvini avtomatik aniqlanishi, bog'lanish aloqalari, aniq mijozga yuboriladigan maktubning mazmuni asosida mijozlarning hayotiy davrning qiymati va konversiyasi ko'rsatkichlarini oshirishga yordam beradi.

- Reklama optimallashtirish: turli xil brauzerlarda va turli xil qurilmalarda bir xil foydalanuvchi tajribasini taqdim etish, shuningdek, foydalanuvchilarning xulq-atvori va KPI - ni to'g'ri kuzatish (*Key Performance Indicator* - turli xil qurilmalarda sinab ko'rish va mavjud mijozlarni shaxsiylashtirish orqali muayyan faoliyatdagi yoki muayyan maqsadlarga erishishdagi muvaffaqiyat ko'rsatkichi).

- Reklama kampaniyalarning takomillashgan ishlanmasi: Oracle Responsysga reklama kampaniyasini ishlab chiqarishga yo'naltirish va Oracle Content va Experience Cloudga saqlanadigan eng mos kontentni tez va oson baholaydi.

Savdo jarayonlarda sun'iy intellekt

Sun'iy intellekt asosida *tijorat ma'lumotlarini to'plash* vositalari: sotish jarayonini soddalashtirish va tarixiy ma'lumotlarni tahlil qilish orqali prognozlarni optimallashtirish, shu bilan birga prognozlashda ham, mavjud imkoniyatlarni baholashda ham qo'llaniladigan kuchli analitik ma'lumotni olish uchun, yutish / yo'qotish holatlaridagi hatti-harakatlar modellari eng samarali keyingi qadamlar yoki takliflarni aniqlash uchun imkon beradi.

Bitimlarni boshqarish uchun sun'iy intellekt: butun savdo jarayonida sotib olish to'g'risida ohirgi paytda qaror qabul qilish datovarlarni sodda va aniq grafik ko'rsatmalar bilan yetkazib berish orqali narxlarni optimallashtirish va bitim ehtimolini oshirish uchun SI-dan foydalangan holda savdo guruhlariga daromadni ko'paytirishga imkon beradi.

Murakkab hududiy kvotalarni shakllantirish vositalari: tuzilishi murakkab bo'lgan joylarda ishlaydigan savdo bo'limlar shuningdek, asosiy mijozlarga ega bo'lgan biznes-bo'linmalar operatsiyalarini tartibga soladi (savdo bo'limi manfaatlarini kesishish joylarda), va sotuvchining kvota, real vaqtda qimmatli tahliliy ma'lumotlar bilan ta'minlash va rivojlanish prognozlari haqida ma'lumotlarni taqdim etadi.

Virtual yordamchi: Ovozli yoki matnli buyruqlarni qo'llab-quvvatlash orqali ko'p ishlatiladigan CRM so'rovlariga kirishni osonlashtiradi. Bundan

tashqari, virtual sotuvchi foydalanuvchi obyektlari va atributlarini qo'llab-quvvatlaydi, shuningdek, re-jalashtirilgan tadbirlar, vazifalar haqida eslatib, push-bildirishnomalarni yuborishi mumkin va savdo bilan bog'liq maqbul harakatlarni taklif qiladi.

Tadbirlar samaradorligi axborot taqdimotlari: savdo va marketing bo'limlar o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtiradi, potensial mijozlarni baholashni avtomatlashtirish va hududiy marketing tashabbuslar va tadbirlarni bir maromda tashkil etish uchun ABM – marketing (asosiy mijozlar bilan ishlash strate-giyasi) chegaralaridan chiqish imkonini beradi.

Elektron tijoratda sun'iy intellekt

Sun'iy intellektga asoslangan qidiruv : ular brendlar uchun iste'molchilarning taxminlarini oldindan ko'rish va mijozning qidiruv tajribasini shaxsiylashtirishga imkon beradi, bunda qidiruvni oshirish, buyurtmachilarning o'rtacha miqdori va qidirish savdosini to'plangan ma'lumotlar asosida samaradorligini oshirish (*savdo-sotiq bilan bog'liq savdo tizimini optimal-lashtirish, savdo-sotiqni rag'batlantirish*).

Sun'iy aql asosida yangi mijozlarni jalb qilish imkoniyati: pochta va Internet orqali olingan ma'lumotlarni o'rtasida, internet-kampaniya, pochta maktablari va raqamli reklama kanallari yordamida "bog'liqligini" ta'minlaydigan yangi mijozlarni jalb qilish uchun vaqtni haftalardan bir necha soatgacha kamaytirib, maqsadli reklamaning aniq o'naltirilganligi yordamida konversiya ko'rsatkichlarini oshiradi, reklama byudjetini optimal-lashtiradi.

ISV hamkorlari uchun yangi integratsiya darajalari: texnologik sheriklarga SaaS- dan ustunlik qilish va raqamli innovatsiyalar orqali elektron tijorat platformalarini kengaytirish va bozorga chiqish vaqtini qisqartirish bo'yicha standartlashtirilgan integratsiya modellarini joriy qilish imkonini beradi.

Mijozlarga xizmat ko'rsatishda sun'iy aql

Virtual yordamchi: bilimni boshqarish strategiyasini takomillashtiradi tez-tez so'raladigan savollar javob berib turadi, oldingi muloqot mazmun-mohiyati va tarixini saqlab call-markaz xodimga servis talablarni yo'naltirish vazifasini bajaradi, tahlil va monitoring qilish uchun interfeys orqali qimmatli ma'lumotlar taqdim etadi.

Video chat imkoniyatlari: korporativ darajada yuqori sifatli video mashg'ulotlarini ta'minlaydi, mijozlarni qo'llab-quvvatlash uchun tanish vositalarni, vazifa va boshqaruv vositalari yagona platformasida yaratilgan mijozlarga xizmat ko'rsatish kanallarini va videoni integratsiyasini tartibga soladi.

Sun'iy intellekt kompaniyalarga mijozlar tajribasini boshqarish va biznesni o'zgartirish tashabbuslarini boshqarishda yanada oqilona yondashuvni tanlash imkoniyatini beradi. Birlam- chi ma'lumotlarni, tajriba va natija birlashtiruvchisinalgan biznes- platformani taklif etib, mijozlarga IT – tizimlarni sodda- lashtirishga yordam beradi va innovatsion mijozlar tajribasini va aniq ish natijalarini taqdim etadi.

SUN'IY INTELLEKTNI IQTISODIYOTDA QO'LLASH ASOSLARI.

**Azizova M.I, ilmiy rahbar.
Turopova Sh., "Bank ishi va audit" talabasi**

Sun'iy intellekt insonga o'xshash funksiyalarni bajaradigan mashinalarni tavsiflashda qo'llaniladigan atama hisoblanadi. Bu funksiyalarga o'rganish, tushunish, fikr yuritish va o'zaro ta'sir qilish kabi jarayonlar kiradi. Ular turli shakllarda bo'lishi mumkin, shu jumladan sun'iy intellekt zamonaviy jamiyatlarning yashash tarzini tubdan o'zgartirishi mumkin. Bugungi kunda aqlli smartfonlar foydalanuvchilar uchun turli funksiyalarni bajaradi, bundan tashqari barcha tesla avtomobillari bir biriga ulangan va ular sun'iy intellektda ishlaydi. Sun'iy intellekt shuningdek bugungi kunda iqtisodiyotda ham o'z tasirini o'tkazmay qo'ygani yuq. Xodimlar ish va daromat uchun sun'iy intellekt nimani anglatishini bilishga tobora ko'proq qiziqishmoqda. Bunday hodisalar bilan korxonalar ham qiziqib taqdim etilayotgan imkoniyatlardan foydalanish yo'llarini topishga intilishmoqda. Biz jahon standart lariga ko'z tashlasak ham shuni ko'rishimiz mumkinki bugungi kunda sun'iy intellektga bo'lgan talab ancha tez sur'atlar bilan o'smoqda. Bundan ko'rinib turibdiki jahon tadqiqotlarida sun'iy intellekt muhim iqtisodiy ta'sirga ega ekanligini tasdiqlaydi. Misol uchun biz hozir jahon kompaniyalaridan biri bo'lgan Accenture konsalting kompaniyasini tadqiqotlarini olishimiz mumkin. Bunda kompaniya tomonidan 12 ta rivojlangan iqtisodiyotni qamrab olgan va birgalikda ishga tuhsiriladigan ya'ni 2035 yilga borib sun'iy intellekt ikki barobar ko'payishi va shu bilan birga dunyo iqtisodiy mahsulotining 0.5% dan ortig'ini ishlab chiqaradi. Sun'iy intellekt jahon hamjamiyat tashkilotlari tomonidan uchta asosiy usulda boshqariladi:

Birinchi dan innavatsion texnologiyalar hisobiga mehnat unumdorligini kuchli oshirishga olib kelish, ishchi kuchi bilan bog'liq vaqtni yanada samarali boshqarish imkonini beradi.

Ikkinchi dan sun'iy intellekt yangi virtual ishchi kuchini yaratadi, adabiyotlarga esa bu "aqlli avtomatlashtirilgan" iborasi bilan qo'llaniladi.

Uchinchi dan esa iqtisodiyotda turli tarmoqlar va yangi daromad manbalarining yaratilishiga olib kelishi.

Sun'iy intellekt bizning hayotimizda va iqtisodiyotimizda tobora muhim rol o'ynaydi va allqachon mavjud. Sun'iy intellekt bugungi kunda biuzning dunyoyimizga turli yo'llar bilan ta'sir etmoqda. Hattoki butun jahon ledirlari ham o'z foydalari uchun sun'iy intellekt dan juda samarali foydalanib mamlakatlarini rivojlantirib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. PricewaterhouseCoopers, The macroeconomic impacts of artificial intelligence, February 2018.
2. European Political Strategy Centre, The age of artificial intelligence, EPSC Strategic Notes, March 2018.
3. Gries T. and Naudé W., Artificial Intelligence, Jobs, Inequality and Productivity: Does Aggregate Demand
4. Matter?, Institute of Labor Economics, Discussion paper No 12005, November 2018.

With the growing use of big data analytics and ML techniques, bank management needs to use a more robust approach to monitor and manage the risks of using AI models including: (i) organisation and governance; (ii) model life cycle management; (iii) model validation; (iv) model risk assessment; and (v) performance tracking.

AI in banking is maturing, bringing the potential for higher-complexity solutions that generate positive ROI across business segments. Adoption of AI solutions in banking has become more mainstream: A majority of financial services companies say they've implemented the technology in business domains like risk management (56%) and revenue generation through new products and processes (52%), per the Cambridge Centre for Alternative Finance and the World Economic Forum. As AI gains popularity in banking, financial institutions (FIs) are building on their existing solutions to solve increasingly complex challenges.




Figure 2. Key elements of a model-risk management framework addressing AI risks

Most banks (80%) are highly aware of the potential benefits presented by AI and machine learning, per an OpenText survey of financial services professionals. In fact, many banks are planning to deploy solutions enabled by AI: 75% of respondents at banks with over \$100 billion in assets say they're currently implementing AI strategies, compared with 46% at banks with less than \$100 billion in assets, per a UBS Evidence Lab report seen by Insider Intelligence. Certain AI use cases have already gained prominence across banks' operations, with chatbots in the front office and anti-payments fraud in the middle office the most mature.

Banks can use AI to transform the customer experience by enabling frictionless, 24/7 customer service interactions — but AI in banking applications isn't just limited to retail banking services. The back and middle offices of investment banking and all other financial services for that matter could also benefit from AI.

- Front- and middle-office AI applications offer the greatest cost savings opportunity across digital banking.

- Banks are leveraging algorithm on the front end to smooth customer identification and authentication, mimic live employees through chatbots and voice assistants, deepen customer relationships, and provide personalized insights and recommendations.

- AI is also being implemented by banks within middle-office functions to assess risks, detect and prevent payments fraud, improve processes for anti-money laundering (AML) and perform know-your-customer (KYC) regulatory checks.

- The winning strategies employed by banks that are undergoing an AI-enabled transformation reveal how to best capture the opportunity. These strategies highlight the need for a holistic AI strategy that extends across banks' business lines, usable data, partnerships with external partners, and qualified employees.

- Artificial intelligence (AI) will help increase the efficiency of banks in Uzbekistan. The key is to gradually delegate large amounts of routine work to AI solutions. This has the advantage of freeing up thousands of manual labor hours as well as that of improving the consistency and quality of services a bank can offer. This includes the incorporation of chatbots to act as financial advisors, analyzing customer income and expenditures to offer ways of saving money.

- For Uzbekistan, the introduction of AI into the banking sector will require numerous practical difficulties, especially in determining the right balance of how AI can be used to benefit both the bank and the customer. But before Uzbekistan can even begin introducing AI in the banking sector, it must first improve the necessary conditions that will allow it to thrive. These include developing appropriate algorithms, improving client databases and converting customer data into convenient formats. To do this, Uzbek banks will need to work closely with FinTech companies to determine how AI can best benefit them while weighing all the potential risks involved with such a change.

СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ЁРДАМИДА ЭКОЛОГИК МУАММОЛАРНИ ХАЛ ҚИЛИШ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ

Шерқузиёв Мамадиёр

Тошкент молия институти ф-м.ф.н., доцент

Мирзалиев Санжар Махаммаджон ўғли

Тошкентдаги Турин политехника университети доценти

Садинов Азиз Зиядуллаевич

Тошкент давлат иқтисодий университетини

(2-курс докторанти)

Сунъий интеллект ёрдамида инновацион стратегияни ишлаб чиқиш ва амалга оширишга бўлган ёндашувларни такомиллаштириш жараёнида, ташкилий тузилмалар, ҳамда ташкилотнинг кадр, ахборот ва ресурс салоҳиятидан фойдаланиш сифатини ошириш асосида инновацияларни бошқариш усул ва услублари таҳлилига алоҳида эътибор қаратилади. Аммо, инновацион жараёнлар самарадорлигини ошириш имконини берувчи ҳар қандай тадбирлар, албатта, рақобатдош маҳсулот ишлаб чиқариш ва ундан даромад олишга йўналтирилган бўлади.

Объектив инновацион стратегияни танлаш ва инновацияларни бошқариш муаммоларини ҳал этишнинг асосий шартлари қуйидагилар бўлиши мумкин (1.1-расм).

Амалиётда эса мазкур шартларни бажариш, инновацион стратегиянинг муайян турини танлашдан олдин, реал вазият ва потенциал имкониятлар тўғрисида ахборотга эга бўлиш учун, ишлаб чиқариш фаолиятининг асосий жиҳатларини мажмуавий таҳлилни талаб қилади. Бундай таҳлилнинг схематик кўриниши 1.2-расмда кўрсатиб ўтилган.

Ўтказилган тадқиқотлар асосида ишлаб чиқарилишга таклиф этилаётган маҳсулотнинг ёки кўрсатиладиган хизматларнинг рақобатдошлиги тўғрисида хулоса чиқарилади ва уни ишлаб чиқаришга йўналтириш ёки йўналтирмаслик тўғрисида қарор қабул қилинади ва аниқ режа асосида самаранинг қуйидаги турлари фарқланади 1.3-расмда кўрсатиб ўтилган.

Инновацияларни молиялаштириш манбалари ва ҳарқандай маҳсулотдан керакли маҳсулот олиш ва молиялаштириш базасини шакиллантириб олиш керак.


Ишлаб чиқариш (хизмат кўрсатиш) фаолиятининг асосий жиҳатларини таҳлил босқичлари (энг рақобатдош маҳсулот бўйича инновацион стратегияни танлаш)

1.1-расм.



Корхонада инновациялар муваффақиятини баҳолаш алгоритми

1.2-расм.



Ноаниқлик даражалари ва инновацион цикл босқичларининг ўзаро алоқаси

1.3-расм.

Ҳисобга олинган натижа ва харажатларга боғлиқ ҳолда самаранинг куйидаги турлари фарқланади.

Инновацион самара турлари

Самара тури	Омиллар, кўрсаткичлар
1. Иқтисодий	Кўрсаткичлар, инновацияни амалга ошириш билан белгиланадиган қиймат ифодасига эга барча натижалар ва харажатларни ҳисобга олади.
2. Илмий-техник	Янгилик, оддийлик, фойдалилик, дидга мослик, ихчамлик.
3. Молиявий	Кўрсаткичларни ҳисоблаш молиявий кўрсаткичларга асосланади.
4. Ресурс	Кўрсаткичлар, ишлаб чиқариш ҳажми ва у ёки бу ресурс турининг истеъмолига инновациянинг таъсирини кўрсатади.
5. Ижтимоий	Кўрсаткичлар, инновацияни амалга оширишнинг ижтимоий натижаларини ҳисобга олади.
6. Экологик	Шовқин, электрмагнит майдон, ёруғлилик, вибрация, зарарли газлар, оғир металлар. Кўрсаткичлар, инновациянинг атроф муҳитга бўлган таъсирини ҳисобга олади.

Хулоса

1. Сунъий интеллект ёрдамида инновациявий жараёнларни бошқаришнинг самарали тизимини яратиш, зарурий ишлаб чиқариш корхоналарни иқтисодий ва назарий ишланмалар мавжудлигини талаб қилади. Бу ерда, тегишли тушунчаларни таърифлаш зарурияти муаммоси алоҳида туради. Унинг таркибига умумий бошқарувнинг усул, услуб ва воситалари билан бир қаторда, фақатгина инновациявий бошқарув тизимида самарали бўлган ўзига хос элементлар ҳам кириши лозим.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Jel'nikov V. Kriptografiya ot papirusa do kompyutera. M.: ABF, 1997. – 336с.
2. Barichev S. Kriptografiya bez sekretov. M.: "DIALOG-MIFI", - 1995.

3.Савченко Н.К., Шакирова Ю.К. Электронная коммерция инновационная форма ведения бизнеса// Молодой ученый.-2017.-№5 – С.235-238.

4.Абдуллаев М.Қ., “Қорхоналарнинг ривожланиб бориш ва ахборот-коммуникация технологияларни куллашнинг ўзига хос хусусиятлари”

Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар илмий электрон журнал №3.2018 йил май-июнь

google.ru

HOW ARTIFICIAL INTELLIGENCE BECOMES AN EFFECTIVE BUSINESS TOOL

Gulyamov S.S.

Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

Mirzanova N.M. doctoral student of the

Department of E-commerce and Digital Economy

of the Tashkent Financial Institute

New technological paradigms have focused on the development of economic systems based on information technologies, which have now grown into an independent type of economic activity. The emergence of new supercomputers capable of increasing volumes of large volumes at a high speed, the miniaturization of electronic equipment, innovative software products that arise in the context of the rapid development and spread of IT in almost all types of economic activity, including engineering, transport, communications, coastal, housing and communal services. - farming. The complexity and non-triviality of a number of tasks that need to be solved when organizing the control of various systems have led to the need to create special devices capable of self - learn in the process of work, choose the best ways to achieve the goal, monitor the external environment, control the parameters of the system, make certain decisions and perform other operations and actions characteristic of a person.

Such systems have received the definition of artificial intelligence (AI). Computers and software products made it possible to implement the functions inherent in a person in a machine. AI is most often understood as a direction in computer science and information technology, the task of which is to recreate reasonable reasoning and actions with the help of computer systems and other artificial devices [1]. Modern production and technological processes are based on the analysis and processing of large amounts of data and solutions this task in the usual ways requires an appropriate cost of resources.

The desire to gain competitive advantages motivates large and medium-sized corporations to implement systems with elements of artificial intelligence (AI) in their production and management systems.

One of the new technologies, but not yet introduced into circulation, is an application from Yandex to determine the emotions and interests of a person. This is an excellent lie detector, and, therefore, the technology can be introduced into the personnel security system of an enterprise, because a fraudster “give himself away” without having time to get a job.

At the same time, IT development is negatively impacted on the one hand on the one hand, government authorities, on the other hand, criminal structures that, using fraudulent schemes, withdraw the income of shadow business from taxation.

The introduction of artificial intelligence is an innovative solution to reduce the costs of an organization for routine operations, analyze large amounts of data, based on labor-intensive complex algorithms that increase the accuracy of forecasts.

In addition, AI helps to reduce legal risks and the cost of paying fines by checking and screening out “toxic” counterparties. But nevertheless, like any innovative product, there are also inhibitory factors - regulatory support for the development of this service market.

Questions about licensing, ensuring the confidentiality of personal information and personal information; enforcement of professional ethics remain open. Solving these problems will significantly reduce the time for introducing AI into enterprise management systems, increase the competitiveness of domestic industry and the service sector in the domestic and global markets.

References:

1. Osipov G. S. Methods of artificial intelligence. – M.: Fizmatlit, 2011. – 296 p.
2. World IT market. [Electronic resource] URL: <http://www.tadviser.ru/a/53627> (date of access: 04/11/2019).
3. AI: do not miss the opportunity. [Electronic resource] URL: <https://www.pwc.ru/ru/press-releases/2017/artificial-intelligence-enlargement.html> (date of access: 04/11/2019).
4. Forecasts of Tractica on the development of technologies until 2025. [Electronic resource] URL: <https://iot.ru/promyshlennost/sem-prognozov-tractica-o-razvitiy-technologiy-do-2025-goda> (date of access: 03/15/2019).

2-секция.

**РАҚАМЛИ ТРАНСФОРМАЦИЯДА
СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИНГ РОЛИ**

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIYAVIY HISOBOTNING TRANSFORMATSIYASI

Ilxamov Sh.I., TDIU professori, DSc.

Bugungi kunda dunyoning yetakchi mamlakatlari globallasuv va fan-texnika taraqqiyoti sharoitidan kelib chiqib, iqtisodiyotda raqamli texnologiyalarni joriy etishga, hamda ulardan keng va samarali foydalanishga e'tibor qaratishmoqda.

Shuningdek, ko'pgina mamlakatlarda milliy standartlar bo'yicha moliyaviy hisobot tayyorlash mumkin, keyinchalik moliyaviy hisobotning xalqaro standartarga o'tishni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadida zarur tuzatishlar kiritish mumkin. Bu jarayon "transformatsiya" deb ataladi.

O'zbekiston Respublikasi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.04.2015 y. PF-4720-son "Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 17.01.2019 y. PQ-4124-son "Kon-metallurgiya tarmog'i korxonalarini faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 apreldagi PQ-4265-sonli «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qarori bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartarga muvofiq yillik moliyaviy hisobotlarni chop etish va uning tashqi auditini audit bo'yicha xalqaro standartlarga (AXS) muvofiq o'tkazishni nazarda tutadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartar talablariga muvofiq moliyaviy hujjatlar transformatsiyasi milliy standartlarga muvofiq tuzilgan hisobotlar asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonni buxgalteriya hisobi obektlarini tasniflash va baholash elementlarini tuzatish orqali amalga oshirish mumkin. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartarga muvofiq tayyorlangan hisobot mahalliy kompaniyalarga xorijiy kompaniyalar bilan shu jumladan qarz mablag'larini olish uchun umumiy til topishga yordam beradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartarlardan foydalanish buxgalteriya hisobi standartlarini uyg'unlashtirish orqali butun dunyoda qo'llanilayotgan moliyaviy hisobotlarning bir xilligiga yordam beradi. Uyg'unlashtirishning

mohiyati turli mamlakatlar hisob tizimining moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari tamoyillariga mos kelishini ta'minlashdan iborat.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, xuddi shu kompaniya uchun Belorussiya va G'arb standartlariga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot sezilarli darajada farq qiladi. Kompaniya rahbarlari xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlangan moliyaviy hisobot yanada samarali boshqarish uchun zarur ekanligini tan oladi, shu bois yuzlab Belorussiya tashkilotlari allaqachon Moliyaviy hisobotning xalqaro standartar bo'yicha hisobot tayyorlamoqda.

G'arb standartlariga muvofiq hisobot tayyorlash zarurati aynan xorijiy banklar va investorlar bilan ishlaydigan kompaniyalarda paydo bo'ladi. Xorijiy moliyalashtirishni jalb qilishda bu tashkilotlar foiz stavkalarining kamayishiga tayanishi mumkin, chunki bu holda investor kredit stavkasiga qo'yadigan risklarni xolisona baholash imkoniga ega. Bundan tashqari, hozirgi vaqtda ko'plab kompaniyalar xalqaro loyihalarda ishtirok etish uchun Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar bo'yicha hisobot tuzishdan manfaatdor. Shu bilan birga, odatda, ushbu loyihalarning shartlari G'arb standartlariga muvofiq tuzilgan shartnomalarning ishonchliligini auditorlik xulosasi bilan tasdiqlanishini ta'minlaydi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartar formatidagi hisobotlarni tuzishning bir necha usullari mavjud. 1) Parallel hisobi –Buxgalteriya hisobi bir vaqtning o'zida O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq amalga oshiriladi; 2) Kombinatsiyalangan usul – Keyingi tuzatishlar bilan milliy buxgalteriya standartlari bo'yicha buxgalteriya hisobidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartar bo'yicha buxgalteriya hisobiga davriy translyasiyasi; 3) Hisobot transformatsiyasi – Moliyaviy hisobotning xalqaro standartar bo'yicha hisobot ko'rsatkichlari tuzatishlar kiritish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga muvofiq hisobot asosida tuziladi.

Biznesni rivojlantirish bilan bog'liq xalqaro integratsiyaning o'sishi turli mamlakatlarda qo'llaniladigan moliyaviy hisobotlarda axborotni shakllantirish va taqdim etish tamoyillarining aniq va bir xilligiga muayyan talablarni qo'yadi. Milliy korxonalarda "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi qonun qabul qilingan 1996 yildan boshlab, moliyaviy hisobotning xalqaro standartar bo'yicha moliyaviy hisobot shaklida o'z faoliyati to'g'risida axborotni shakllantirish zarurligi paydo bo'ldi.

So'nggi yillarda tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshiruvchi va xorijiy investitsiyalarni jalb qiluvchi korxonalar ko'payib bormoqda. Shu bilan birga,

korporativ boshqaruvning zamonaviy usullarini joriy etish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramay, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini amalga oshirishga, xorijiy investorlar uchun zarur axborot muhitini ta'minlashga to'sqinlik qiluvchi qator tizimli muammolar qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, moliyaviy hisobotning xalqaro standartarni joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirish ishlarini va moliyaviy hisobotning xalqaro standartarini joriy etish monitoringini olib boradi.

2021 yil 1 yanvardan boshlab moliyaviy hisobotning xalqaro standartarga muvofiq ixtiyoriy ravishda moliyaviy hisobot tayyorlaydigan tadbirkorlik sub'ektlari buxgalteriya hisobining milliy standartlariga muvofiq moliyaviy hisobot topshirishdan ozod etiladi.

Aksionerlik jamiyatlari, banklar, sug'urta tashkilotlari, ustav kapitalida davlat ulushi bo'lgan xo'jalik yurituvchi sub'ektlar, yirik soliq to'lovchilar sifatida tasniflangan yuridik shaxslar 2021 yilning 1 yanvaridan boshlab buxgalteriya hisobini tashkil etadilar va 2021 yil natijalaridan boshlab moliyaviy hisobotlarni faqat moliyaviy hisobotning xalqaro standartar asosida tayyorlaydilar. 2021 yil 1 yanvariga kelib Respublika buxgalterlari va auditorlari jamoat birlashmalarini jalb qilgan holda ularni moliyaviy hisobotning xalqaro standartar bilan uyg'unlashtirish maqsadida buxgalteriya hisobining milliy standartlari qayta ko'rib chiqiladi. 2020 yilning 1 oktyabriga kelib moliyaviy hisobotning xalqaro standartar bo'yicha moliyaviy hisobotlarga moslashtirilgan soliq hisobotining yangi shakllari qayta ko'rib chiqiladi va ishlab chiqiladi hamda buxgalteriya qonunchiligini buzganlik uchun, shu jumladan moliyaviy hisobotlarni kech tayyorlash va chop etish uchun ma'muriy javobgarlik choralarini kuchaytirish bo'yicha takliflar beriladi. Moliyaviy hisobotlarni shakllantirishda moliyaviy hisobotning xalqaro standartarlardan foydalanish amaliyoti moliyaviy hisobotning xalqaro standartar formatida moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etish jarayonini amalga oshirishning turli yo'llarini paydo bo'lishiga olib keldi.

Shu munosabat bilan moliyaviy hisobotning xalqaro standartarlarning bilimlari korxonalar hisobotlarini xalqaro standartlarga muvofiq tuzishda sizga yordam beradi, bu esa sizni mehnat bozoridagi eng mashhur mutaxassislardan biriga aylantiradi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar transformatsiyasi - ilgari milliy standartlarga muvofiq tayyorlangan hisobot moddalariga Moliyaviy hisobotning

xalqaro standartlarga muvofiq zarur tuzatishlar (o'zgartirishlar)ni kiritishdan iborat jarayondir. Ushbu tartib hisobot sanasida amalga oshirilishi lozim.

Hisobot transformatsiyasi - bu milliy moliyaviy hisobot moddolari va balans moddalarining Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlar bo'yicha ko'rsatkichlarga o'tishini ko'rsatuvchi jadvallar majmuidir. Bu tartibning asosiy kamchiligi parallel hisob yuritish mumkin emasligidir. Shunga ko'ra hisobot sanalari oraliq'idagi davrda rahbariyat yoki manfaatdor shaxslarga zudlik bilan axborot taqdim etish mumkin emas. Bundan tashqari, transformatsiyadan keyin olingan hisobot biroz noto'g'ri. Xatolarning umumiy riski parallel hisobga qaraganda biroz yuqori va xato 10-50%.

Hisobot transformatsiyasi bilan shug'ullanuvchi mutaxassis metodikani mustaqil tanlashi va tartibning bosqichlarini aniqlashi mumkin. Tanlov bevosita hisobni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari, moliyaviy-xo'jalik faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari, vaqt resurslarining mavjudligi (moliyaviy va inson), hisob siyosati va hisobotning batafsil darajasi kabi subektiv omillarga bog'liq. Afsuski, transformatsiyani amalga oshirishga yagona yondashuv yo'q, shuning uchun har bir buxgalter va iqtisodchi individual algoritmi ishlab chiqishi kerak. Bundan tashqari, hisobotni Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarga transformatsiya qilish uchun qo'llaniladigan metodika va bosqichlarni tanlashga yo'l qo'yiladi.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA XALQARO STANDARTLAR BO'YICHA MOLIYAVIY HISOBOTNI TAYYORLASHNI AVTOMATLASHTIRISH

**Ilxamov Sh.I. – TDIU professori, DSc.,
Tylyaganova M.Sh. – TMI tayanch doctoranti**

Hozirgi kunda raqamli iqtisodiyotning dunyo miqyosida tutgan o'rni va uning rivojlanish tendensiyalari tobora ortib bormoqda. Misol uchun, ma'lumotlar oqimi ko'lamining o'zgarishi internet protokoli (IP) ga asoslangan global trafik hajmining 1992 yilda kuniga 100 gigabaytni tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilda bu ko'rsatkich sekundiga 89000 Gb dan oshdi. Bu ma'lumotlar raqamli iqtisodiyot rivojlanishining dastlabki bosqichiga tegishli ekanini hisobga olsak, uning rivojlanishi sur'ati to'g'risida tasavvur hosil qilish qiyin emas. Prognozlarga ko'ra, 2022 yilga kelib global IP-trafik hajmi sekundiga 150700

Gb ga yetadi, bu Internet tarmog'ida yangi foydalanuvchilarning ko'payishi va Internetning yanada kengayishi natijasida amalga oshadi²⁶.

Jahon miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, raqamli iqtisodiyotning rivojlanish geografiyasida ikki mamlakat yetakchi o'rinni egallab turibdi. Bular AQSH va Xitoy. Bu mamlakatlarga blokcheyn texnologiyasi bilan bog'liq bo'lgan barcha patentlarning 75 foizi, "Internet of Things (Narsalarinterneti)"ga²⁷ sarflanadigan xarajatlarning 50 foizi va bulutli hisoblash ochiq texnologiyalari global bozorining 75 foizidan ortig'i to'g'ri keladi. Eng diqqatga sazovor tomoni shundaki, ular dunyodagi 70 ta eng yirik raqamli platformalarning bozor kapitallashuvining 90foizini nazorat qilishadi. texnologiyalarda global ustunlikka intilishning oqibatida yuzaga keladi. AQSH va Xitoyning YAIM hajmi bo'yicha jahonda birinchi va ikkinchi o'rinlarni egallab turganligini e'tiborga olsak, raqamli texnologiyalarning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda strategik ahamiyatga ega ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilish mumkin.

Hozirgi paytda kompyuterlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida raqamli iqtisodiyot hayotimizning har bir jabhasiga: sog'liqni saqlash, ta'lim, internet-banking, hukumatga daxldor bo'lmoqda.

Hisobotlarni tayyorlashda MHXS dan foydalanayotgan korxonalar soni ortib borayotgani tufayli uni tayyorlash jarayonini zamonaviy texnika vositalaridan foydalanish orqali avtomatlashtirishning dolzarbligi ortib bormoqda. Ta'kidlash lozimki, hisobotni tayyorlashni avtomatlashtirish nafaqat hisobotlarni tayyorlash vaqtini qisqartirish, balki inson omili bilan bog'liq ma'lumotlarni kiritish bosqichidagi xatolar sonini sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

So'nggi paytlarda MHXS bo'yicha hisobotlarni tayyorlashni avtomatlashtirish dasturlariga talab ortib bormoqda. Biroq, MHXS bo'yicha hisobotlarni tuzish uchun bozorda hali keng tarqalgan dasturiy mahsulot mavjud emas. Buning asosiy sababi shundaki, uning yaratilishi muayyan qiyinchiliklar va alohida tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq.

²⁶ BMT savdo va rivojlanish konferensiyasi. Raqamli iqtisodiyot bo'yicha hisobot (2019). https://unctad.org/en/PublicationsLibrary/der2019_overview_ru.

²⁷ Internet of Things, Iot – qurilmalarni kompyuter tarmog'iga birlashtiradigan va ularga dasturiy ta'minot, amaliy dasturlar yoki texnik vositalardan foydalangan holda ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish, qayta ishlash va boshqa obyektlarga uzatish imkonini beradigan texnologiy.

MHXS bo'yicha hisobotlarni tayyorlashni alohida firmalarning jadvali muharrirlari, ma'lumotlar bazalari va murakkab dasturiy mahsulotlari yordamida avtomatlashtirish mumkin.

Eng keng tarqalgan va arzon variant - jadval muharrirlari (masalan, MS Excel) yordamida milliy hisobotni transformatsiya qilishdir. MS Excelda transformatsiya modeli har bir balans moddasi hamda foyda va zarar to'g'risidagi hisobot bo'yicha batafsil analitik izohlarni o'z ichiga oladi. Analitik jadvallarga buxgalteriya hisobi ob'ektlari yoki operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar (BHMS bo'yicha axborot va MHXS bo'yicha turli tasniflash mezonlari) keltirilgan. So'ngra formulalar va tasniflar asosida yakunlarni qayta hisoblab chiqish va ularni MHXSga moslashtirish. Bunday jadvallarning soni juda katta. Muhim nuqta MHXS bo'yicha buxgalteriya hisobi ob'ektlarini to'g'ri tasniflash imkonini beruvchi batafsil ma'lumotni kiritishdir.

Bu vazifaning murakkabligi korxonada faoliyati ko'lamini va turlariga, shuningdek, zarur kiruvchi axborot hajmiga bog'liq. Analitik jadvallarni to'ldirish ishlari asosan qo'lda olib boriladi. Excel shakllari ma'lumotlarni to'ldirish uchun turli bo'limlar xodimlari o'rtasida taqsimlanadi: buxgalteriya asosiy vositalar, zaxiralar, qarzlilar va boshqalar bo'yicha ma'lumot beradi, kredit bo'limi kreditlar va qarzlilar bo'yicha ma'lumot beradi, yuridik bo'lim ko'chmas mulk ob'ektlari (binolar va er uchastkalari) to'g'risida ma'lumotlar beradi.

Bo'limlarning har biri kiritilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish uchun ma'lum algoritmlarni o'z ichiga olgan tegishli shaklni to'ldiradi. To'ldirilgach, analitik izohlar hisobotlarni tayyorlaydigan buxgalteriya bo'linmaga yuboriladi. Bu bo'linmada ma'lumotlar umumiy faylga birlashtiriladi. So'ngra olingan ma'lumotlar asosida MHXSning buxgalteriya hisobi moddalarini bo'yicha birlamchi taqsimot qilinadi. Analitik jadvallar tayyor bo'lganda va ulardagi ma'lumotlar qayta hisob-kitob qilinganda BHMS bo'yicha hisobot qiymatlarni MHXS gacha etkazish uchun tuzatuvchi qaydlar qilish kerak. Bunday qaydlar aniqlik uchun alohida varaqda amalga oshiriladi.

Milliy hisobotni xalqaro hisobotga yakuniy o'zgartirish gorizontall transformatsiya modelida amalga oshiriladi. U balans moddalarining rejasi hamda foyda va zararlar to'g'risidagi hisobot bo'lib, o'zaro munosabatlarda ko'rish uchun bir varaqqa joylashtiriladi. Modelga BHMS dan dastlabki transformatsiya natijalari, barcha tuzatish provodkalari ketma-ket va chet el valyutasiga o'tkazish bilan birga MHXS bo'yicha yakuniy natija kiradi.

Hisobot uchun analitik izohlarni to'ldirish bo'yicha ayrim ishlar avtomatlashtirilishi mumkin. Buyurtmachining talabiga binoan dasturchilar MS

Excelga buxgalteriya tizimlaridan ma'lumotlarni muntazam olib kirish modullarini ishlab chiqadilar. Bunday olib o'tish avtomatik ravishda debitorlik va kreditorlik qarzdorligi, zaxiralar nomenklaturasi va miqdori va x.k. haqida batafsil ma'lumotni shakllantirish uchun imkon beradi. Bu MHXS bo'yicha hisobotlarni tayyorlash uchun sarflanadigan vaqtni biroz kamaytiradi.

Shuningdek, transformatsiya uchun maxsus dasturiy ta'minot ishlatiladi, unda milliy buxgalteriya hisobi va provodkalarini g'arbdagilarga muvofiqligini sozlash Excelga nisbatan yanada qulay formatda, misol uchun, ""1C:Korxonalar 8.3" platformasi uchun GAAP" (tuzuvchi - "PiBi" kompaniyasi), Transformation ToolKit ("Finako") va boshqalar amalga oshirilishi mumkin. Bunday tizimlar valyuta hisobini qo'llab-quvvatlaydi va bir qator tuzatishlarni amalga oshirish imkonini beradi, masalan:

- xalqaro hisobot hujjatlarida hisobdagi bazasidan hisobvarag'i bo'yicha summani tegishli hisob raqamiga o'tkazish;

- hisob bo'yicha faqat debet yoki faqat kredit aylanmasini parallel hisob tizimiga o'tkazish;

 - analitik hisobga olgan holda hisobni o'tkazish;

 - provodka turi bo'yicha hisobvaraqni o'tkazish (masalan, "Kontragent A-yuridik shaxs B");

 - provodka majmui bo'yicha hisobvaraqni o'tkazish ("Avans to'lovi");

 - hisobdagi aylanma mablag'larni ma'lum bazaga mutanosib ravishda parallel hisobdagi hisobvaraqlar guruhiga o'tkazish va boshqalar.

Sho'ba korxonalarining murakkab tuzilishiga ega bo'lgan o'rta va yirik kompaniyalar uchun boshqa transformatsiya texnologiyasi ko'proq mos keladi - ma'lumotlar omborlari yordamida (masalan, "Kontur. MHXS bo'yicha hisobot" tizimi). Bunday dasturiy mahsulotlar ikki qismdan iborat: sanoat ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi (MBBT) va undan foydalanish uchun interfeys dasturi. Bu tizimlarda ma'lumotlar bilan ishlashning asosiy bosqichlari MS Excel dasturi bilan ishlashning oldindan bayon qilingan bosqichlariga o'xshaydi, chunki transformatsiya usuli dasturiy ta'minotning bajarilishiga bog'liq emas. Ma'lumotlar bazasini boshqarish tizimi foydalanuvchi sozlamalariga muvofiq tartibga solingan, ular o'rtasidagi yaxlitlik va munosabatlarni buzmaganda deyarli cheklanmagan hajmdagi axborotlarni saqlashi mumkin.

MS Exceldan farqli ravishda ma'lumotlar omborini faqat dasturchi yoki vakolatli tahlilchi sozlashi mumkin. Ko'p foydalanuvchilik bilan kirish, tizimdagi huquqlar doirasini farqlash muammolari avtomatik tarzda hal qilinadi.

Ma'lumotlar omborlari asosida MHXSda hisobot transformatsiyasi tizimini joriy etish MS Excelda avtomatlashtirishdan ko'proq xarajat qiladi.

Shunday qilib, MHXS bo'yicha hisobot tayyorlash usulini tanlash undan keyingi foydalanish maqsadlariga, zarur tuzish davriyligiga, mutaxassislarning malakasiga, vaqt va moliyaviy xarajatlarga bog'liq. MHXS bo'yicha hisobotlarni tayyorlashni avtomatlashtirish loyihasining samaradorligi olingan foydalarni qilingan xarajatlar bilan taqqoslash orqali baholanadi. Ustuvorliklarni belgilash har bir kompaniya uchun individual va bu masalada muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, xalqaro standartlarga muvofiq buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish loyihasi barcha avtomatlashtirish loyihalari uchun bir xil qiyinchiliklar bilan tavsiflanadi: nazorat va ish yukining ortishi tufayli xodimlar qarshiligi, texnik topshiriqni ishlab chiqishdagi qiyinchiliklar, qo'shimcha uskunalarni sotib olish zarurati va boshqalar.

Xalqaro standartlarga muvofiq hisobotni tayyorlash usulidan qat'iy nazar uni amalga oshirish uchun, milliy buxgalteriya operatsiyalari yoki operatsiyalar guruhlarini xalqaro buxgalteriya qoidalariga muvofiq o'tkazish qoidalarini ishlab chiqish yoki barcha hisobot turlarini tayyorlash imkonini beradigan keng analitik ishlar bilan yagona hisob rejasini ishlab chiqish uchun ham zarur. Standartni muayyan xo'jalik operatsiyalarga nisbatan, ayniqsa, aniq xususiyatlarga ega bo'lgan tarmoqlarda (masalan, qurilishda) talqin qilish ko'pincha mutaxassislar uchun ham qiyinchiliklarga olib keladi. Bu esa loyihaga malakali yuqori haq to'lanadigan mutaxassislarni jalb etishni taqozo etadi.

РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТ

**Илхомова Арофатхон Шовкат кизи
Мустақил тадқиқотчи**

Замонавий жамиятда ахборот ва у билан боғлиқ билимларнинг яратилиши, йиғилиши, тарқалиш ва нисбатан қадрсизланиш суръатлари кескин ортиб кетганлиги кузатилмоқда. Сўнги ўн йилликдага ахборотлаштириш соҳасидаги технологик инқилоб ахборот хажмларининг олдинги даврларда тасаввур қилиб бўлмайдиган тезлик билан ортишига олиб келди. Аммо ҳар қандай ахборотлар ҳам фойдали билимга

айланавермайди ҳамда иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш учун хизмат қилмайди.

Замонавий жамиятнинг муаммосиахборотларнинг етишмаслиги билан эмас, балки амлий мақсадларда фойдаланиш имконияти бўлган маълумот ва билимларни ажратиб олишдан иборатдир. Замонавий техника ва ахборот технологияларининг ривожланиши ва ҳаётнинг барча жабҳаларига тадбиқ этилиши жамиятнинг институционал муҳитига таъсир қилмоқда. Натижада иқтисодий ўсиш манбаига айланаётган билимларга асосланган соҳаларнинг аҳамияти ва ўрни ўсиб бормоқда.

Ахборот ва маълумотларнинг аҳамияти ортиб бораётганлиги жон бошига ЯИМ ёки меҳнат унумдорлиги каби анъанавий макроиқтисодий кўрсаткичларда ўз аксини топмаган.

Жамиятда ахборот хажмлари тез суръатлар билан ошиб бормоқда. Агар ўткан аср бошларида инсонлар асосан маълумотлар етишмаслиги муаммосига дуч келишган бўлса, бугун вазият тубдан узгарди. Маълумотларни ишлаб чиқариш ва қайта ишлаш технологиялари такомиллашди.

Бозор иқтисодиётининг ривожланиши янги босқичи куйидаги омиллар билан характерланади: техник ва технологик ривожланишнинг тезлашуви, меҳнат жараёнларини автоматлаштириш, ахборот секторидаги хизмат кўрсатиш соҳасида талаб ва тақлифнинг ортиши, меҳнат унумдорлиги ва харажатларга таъсир қилиб ишлаб чиқаришда ишлатиш имконияти булган янги турдаги ресурсларнинг вужудга келиши.

Глобал ахборот майдонида бўлиб ўтаётган мазкур жараёнлар Ўзбекистон Республикасидаги амалга оширилаётган жамиятни демократлаштириш ва янгилаш, мамлакатни модернизация ва ислоҳ этиш, пировард натижада, кучли фуқаролик жамиятини барпо этиш жараёнлари билан ҳаммаҳангдир. Шу сабабли ҳам республикамизда миллий ахборотлаштириш тизимини шакллантириш, жамият ва ҳаёти бошқарувнинг барча жабҳаларига замонавий ахборот технологиялари, компьютер техникаси ва телекоммуникация воситалари оммавий равишда жорий қилиш ва улардан фойдаланиш, фуқароларнинг ахборотга бўлган эҳтиёжларини тўлароқ қондириш ва жаҳон ахборот ресурсларидан фойдаланиш имкониятларини кенгайтириш асосий вазифа ҳисобланади. Ахборотлаштириш соҳасидаги давлат сиёсати ахборот ресурслари, ахборот технологиялари ва ахборот тизимларини ривожлантириш ҳамда

такомиллаштиришнинг замонавий жаҳон тамоилларини ҳисобга олган ҳолда миллий ахборот тизимини яратишга қаратилган.

Ҳозирги пайтда санаб ўтилган ўзгаришлар жамият тараққиётида янги босқич ахборотлашган жамият юзага келаётганлигидан далолат беради. Ахборотлашган жамиятда ахборот ва билимлар ҳал қилувчи соҳага, уларни яратувчи муассасалар: оммавий ахборот воситалари, илмий текшириш муассасалари, олий ўқув юртлири ва уларни назорат қилувчилар ҳал қилувчи кучга айланмоқда. Умуман олганда, кўпчилик олимлар томонидан қабул қилинган таърифларга кўра, АЖ кўпчилик аъзолари ахборотни ва унинг энг юқори шакли бўлган билимларни ишлаб чиқариш, сақлаш, қайта ишлаш, қўллаш ҳамда муомалага киритиш билан машғул бўлувчи жамият эканлиги тан олинган.

АЖнинг асосий белгилари сифатида эса қуйидагилар ажратилади:

Жамият ҳаётида ахборот, билим ва ахборот технологиялари ахамиятининг ортиши,

Ахборот коммуникация технологиялари, ахборот маҳсулотлари ва хизматлар билан шуғулланувчилар сонининг ҳамда уларнинг ялпи ички маҳсулотдаги улушларининг сезиларли ортиши;

Телефония, радио, телевидение, интернет тармоғи ҳамда анъанавий ва электрон оммавий ахборот воситаларини қўллаш асосида жамиятнинг ахборотлаштириш даражасининг ортиши;

Инсонларнинг ўзаро самарали муносабатларга киришиши, уларнинг дунё ахборот ресурсларидан кенг фойдаланиши ҳамда жамият аъзоларининг ахборот маҳсулотлари ва хизматларга бўлган эҳтиёжларини қондирувчи глобал ахборот маконининг яратилиши;

Электрон демократия, ахборот иқтисодиёти, электрон давлат, электрон ҳукумат, рақамли бозор, электрон иқтисодий ва ижтимоий тармоқларнинг ривожланиши.

Шу билан бир қаторда бугунги кунда шаклланаётган глобал трансчегаравий ахборот макони қуйидаги ижтимоий ҳаётга таъсир ўтказувчи хусусиятларга ҳам эга: шаффофлик, инсонларнинг кенг қамраб олиниши, алоҳида ахборот қатламлари орқали исталган инсонга ёки ижтимоий гуруҳларга таъсир ўтказа олишнинг амалий имкониятлари мавжудлиги, ахборот таъсирлари ўтказилаётганлигини дарҳол аниқлаш ҳамда уларнинг салбий оқибатларини олдини олишлишнинг мураккаблиги намоён бўлади.

Юкоридаги таъкидларни умумлаштирган ҳолда, бугунги кунда ахборотлашган жамият шаклланиши фуқаролик жамияти ривожланишининг зарурий шarti эканлигини ҳамда мамлакатимзда ушбу йўналишга алоҳида эътибор берилаётганлигини таъкидлашимиз мумкин.

RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIDA SUN'İY INTELLEKTNI O`RNI

**Maqsudov A.M.
Toshkent moliya ishtituti**

Sun'iy intellekt nima? Sun'iy intellekt (SI) kompyuterlarga o'zlarining tajribalarini o'rganish, berilgan parametrlarga moslashish va ilgari faqat odamlar uchun mumkin bo'lgan vazifalarni bajarish imkonini beradi. SIni amalga oshirishning ko'p holatlarida - kompyuter shaxmatchilaridan tortib uchuvchisiz transport vositalarigacha - chuqur o'rganish va tabiiy tillarni qayta ishlash imkoniyati juda muhimdir. Ushbu texnologiyalar tufayli kompyuterlarga katta miqdordagi ma'lumotlarni qayta ishlash va ulardagi naqshlarni aniqlash orqali muayyan vazifalarni bajarishga "o'rgatish" mumkin.

Sun'iy intellektning rivojlanish tarixi " Sun'iy intellekt" atamasi 1956 yilda paydo bo'lgan, ammo bugungi kunda SI texnologiyasi ma'lumotlar hajmini ko'paytirish, algoritmlarni takomillashtirish, hisoblash quvvatini va ma'lumotlarni saqlash vositalarini optimallashtirish fonida haqiqiy mashhurlikka erishdi.

O'tgan asrning 50-yillarida boshlangan SI sohasidagi birinchi tadqiqot muammolarni hal qilish va ramziy hisoblash tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan edi. 60-yillarda bu sohada AQSh Mudofaa vazirligi qiziqish uyg'otdi: AQSh harbiylari insonning aqliy faoliyatini simulyatsiya qilish uchun kompyuterlarni o'qitishni boshladi.

Masalan, mudofaa vazirligining Ilg'or tadqiqot loyihalari agentligi (DARPA) 1970-yillarda bir qator virtual ko'cha xaritalarini loyihalarini yakunladi. Va DARPA mutaxassislari Siri, Alexa va Cortana paydo bo'lishidan ancha oldin 2003 yilda aqli shaxsiy yordamchilarni yaratishga muvaffaq bo'lishdi. Ushbu ishlar zamonaviy kompyuterlarda, xususan, qarorlarni qo'llab-quvvatlash tizimlarida va inson imkoniyatlarini kengaytirish uchun ishlab chiqilgan aqli qidiruv tizimlarida qo'llaniladigan avtomatlashtirish va rasmiy mantiqiy tamoyillar uchun asos bo'ldi. Garchi SI ko'pincha ilmiy fantastika

filmlari va romanlarida ilmiy qudratli robotlar sifatida tasvirlangan bo'lsa-da, dunyo miqyosida o'z kuchini egallagan, SI texnologiyasini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, SIIlar unchalik qo'rqinchli va aqlli emaslar. Aksincha, sun'iy intellektni rivojlantirish ushbu texnologiyalarga iqtisodiyotning barcha sohalarida haqiqiy foyda keltiradi. Sog'liqni saqlash, chakana savdo va boshqa sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish misollari quyida keltirilgan.

Har bir mamlakat uchun makroiqtisodiy barqarorlik, aholi ish ta'minlash va ishsizlik kamaytirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda XXI asrda raqamli iqtisodiyot har bir soha va yo'nalishga kirib kelmoqda. Bu ma'lum ma'noda mehnat bozorining talab va taklifiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Raqamli inqilob bizning hayotimizni va jamiyatimizni misli ko'rilmagan tezlik va misli ko'rilmagan miqyosda o'zgartiradi, bu esa ulkan imkoniyatlar va ulkan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Yangi texnologiyalar barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishga katta hissa qo'shadi, shular qatorda ijobiy natijalarga erishish imkoniyatlarini yaratib beradi.

Dunyo iqtisodiyotining globallashuvi va texnologik rivojlanish sharoitida O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishini raqamli iqtisodiyotsiz jadal o'sishini tasavvur qilish qiyin.

O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyot rivojlantirish bo'yicha ko'plab ishlar qilinmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2019 yil 18 mayda "Raqamli iqtisodiyot va «Elektron hukumat» tizimi infratuzilmalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori mamlakatda raqamli iqtisodiyotni, zamonaviy axborot texnologiyalarini davlat boshqaruvida tatbiq etishni rivojlantirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlashni huquqiy kafolatidir. Ushbu hujjatlar iqtisodiyotning orqada qolgan tarmoqlarini, ularni amalga oshirish darajasi bo'yicha aniqlaydi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanish zarurligini, raqamlashtirish ta'sirini o'rganish maqsadlari, ishlab chiqarishga yangi texnologiyalarni joriy etish kerakligi ko'rsatmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning fan sifatida rivolanishida xorijiy olimlarning ilmiy ishlari (E. Brignolfsson, R. Bucht, M. Kastells, T. Mesenburg, N. Negro Ponte, M. Skilton, R. Stou, D. Tapskot, R. Xiks va boshqalar), rus tadqiqotchilar (I.P. Boyko, S.Yu. Glazyev, A.V. Zubareva, M.L. Kalujskiy, V.L. Makarov, R.V. Meshcheryakova, D.E. Namiota, A.A. Petrova, S.A. Plugotarenko, E.B. Starodubtseva, E.V. Ustyujanina, A.A. Engovatova, T.N. Yudina va boshqalar), yurtimiz olimlari Q.X. Abdurahmonov, T.F. Bekmurodov, A.N. Aripov, S.S.

G'ulomov, B.Yu. Xodiev, R.X.Alimov, B.A.Begalov, A.A.Musaliev, A.Abduq'afarov, A.Abduvaxidov, D.M.Rasulev, O.T.Kenjaboiev, Q.Alimov, R.A.Dadabaeva va boshqalar o'z hissalarini qo'shishdi hamda raqamli iqtisodiyot muammolarini o'rganish va axborot bazasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Yangi texnologiyalar, ayniqsa, sun'iy intellekt, muqarrar ravishda mehnat bozorida sezilarli o'zgarishlar bilan bog'liq, jumladan, ayrim sohalarda ish o'rinlarini qisqartirish va ommaviy miqyosda boshqalarga yangi imkoniyatlar yaratishga olib keladi. Bunda yollanma ishchilarning strukturaviy ishsizligi paydo bo'ladi. Bunda ma'lum vaqt oralig'ida yollanma ishchilar yangi kasb tayyorgarligi uchun bilim va ko'nikmalarini oshiradi. Raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi ish kuchini ko'p talab qiladigan mehnat turlarini mehnat bozorida chiqarib tashlaydi va yangi mehnat(ish) turlarini paydo qiladi. Raqamli iqtisod turli xil yangi bilim va ko'nikmalarni, asosan, yangi ijtimoiy himoya choralari va sifat jihatidan yangi ish va dam olish o'rtasidagi munosabatlar shakllantiradi. Innovatsion ta'lim tizimi kadrlar sifatiga, innovatsion iqtisodiyot esa raqamli iqtisodiyot kabi ishsizlikka ta'sir ko'rsatadi. Eng avvalo raqamli iqtisodiyot ta'limni rivojlantirish uchun nafaqat ta'lim jarayoniga, balki ushbu jarayonni tashkil etish usullarini o'rganishga, shuningdek, hayot davomida ta'lim xizmatlaridan universal foydalanishni ta'minlashga qaratilgan katta vositachidir.

Raqamli texnologiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini to'liq ochib berish, istalmagan oqibatlardan qochish uchun imkon qadar tezroq xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kerak.

O'zbekiston iqtisodiyotni raqamlashtirishning dastlabki bosqichidir. Samarali o'tish nafaqat infratuzilma va umuman davlatning tayyorgarligini, balki raqamli iqtisodiyot va davlatning axborot xavfsizligini ta'minlash uchun ishonchli zamin yaratishni talab qiladi.

Xitoy raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushi 30%ni, Buyuk Britaniya YaIMdagi ulushi 12,5 %ni, O'zbekistonni esa YaIMdagi ulushi 1%ni ham tashkil qilmayapti. Chunki O'zbekistonda mehnat bozorida hali ham eski mehnat turlari hali saqlanib kelinmoqda.

Axborot kommunikasiya rivojlantirish ko'rsatkichi bo'yicha 170 ta davlatlar orasida 103 o'rinni turubmiz. O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish muammolari rivojlanayotgan mamlakatlar duch keladigan umumiy muammolarga o'xshashdir.

Raqamli iqtisodiyotni mehnat bozorida kirib kelishida quyidagilar muammolar mavjud, bular.

- Asosiy muammolardan biri telekommunikatsiya infratuzilmasi va kommunikatsiyasining pastligi. AKTga investitsiyalarning kamligi (2017 yildagi

umumiy investitsiyalarning 2,8%) tufayli respublikada bazaviy aloqa stantsiyalarining zichligi juda pastligicha qolmoqda (1600 aholiga 1 ta baza stantsiyasi). Bundan farqli o'laroq, Qozog'istondagi bunday minora 643, Rossiyada esa 235 aholiga AKT ehtiyojlarini qondiradi. Bu esa internet va uyali aloqa xizmatlari raqamli iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi va raqamli tafovutni kengayishiga olib keladi. MDH davlatlari bilan taqqoslaganda, 2019 yilda O'zbekistonda internetning o'rtacha tezligi (mobil va qo'zg'almas keng polosali) taxminan ikki baravar past.

- Raqamli ko'nikmalarning etishmasligi raqamli transformatsiyaga jiddiy to'siq bo'lishi mumkin. Bu kadrlar muammosi bilan bog'liq jarayondir.

- Internetning haddan tashqari qimmatligi, internet tarmog'ining yetarli darajada ta'minlanmaganligi va internetning past o'tkazish qobiliyati monopollashtirilgan telekommunikatsiya sanoatining natijasidir. Bu yerda internet xizmatlari bo'yicha xorijiy kompaniyalarni jalb etilishi lozim.

Raqamli texnologiyalar keng tarqalgan takomillashtirish vositasi bo'lishi kerak hamda jamiyatning barcha sohalarida:

- ijtimoiy muammolarni hal qilish;
- davlat, biznes va aholi o'rtasidagi aloqalarni soddalashtirish;
- mehnat faolligini oshirish,
- kasbiy vakolatlarni kengaytirish;
- yangi iste'mol tovarlarini yaratish va boshqalar.

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishining asosiy omili, shubhasiz, to'plangan inson kapitalining tashuvchisi bo'lgan, kelgusida rivojlanish va takomillashtirishga tayyor bo'lgan yuqori ma'lumotli odamlar bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivojlantirish va mehnat bozorida texnika taraqqiyoti, yangi texnologiyalar joriy etilish orqali ish o'rinlari yaratilish oqibatida zamon talablariga javob beradigan bo'lajak kadrlarning etishtirishimiz lozim.

Buning uchun Janubiy Koreya elektron ta'lim tizimi asosida O'zbekistonda ham elektron milliy tizimi yaratish, bu tizim orqali esa maktabgacha ta'lim muassalarida, xalq ta'lim muassalarida, akademik litseylarda va oliy ta'lim muassalarida o'z qamroviga olish kerak.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlantirish natijasida yasharin iqtisodiyotni kamayishiga, mehnat bozorida yangi kasb turlarini paydo bo'lishiga hamda soliq tushumlari oshishiga o'z hissasini qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta

- ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 fevraldagi “Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.
 3. Головенчик, Г.Г. Цифровая глобализация как новый этап развития мировой экономики / Г.Г. Головенчик // Стратегические направления социально-экономического и финансового обеспечения развития национальной экономики : материалы II Междунар. науч.-практ. конф., Минск, 27–28 сентября 2018 г. / редкол. : В.В. Пузиков [и др.]. – Минск : Право и экономика, 2018. – С. 194–195.
 4. Цифровая экономика: монография / Арчакова С.Ю., Свиридова С.В., Сироткина Н.В., Шкарупета Е.В. и др.; / под ред. проф. Н.В. Сироткиной. М.: Научная книга, 2019. 424 с. (26,5 п.л./ доля автора 6,25 п.л.).
 5. Q.X.Abdurahmonov Raqamli iqtisodiyot: Janubiy Koreya tajribasi va undan O‘zbekistonda foydalanish istiqbollari.”Biznes-ekspert” jurnali. No‘mer: №4(124)-2018.
 6. Потехина И.П. Системный экономический рост: воздействие информационно-коммуникационного фактора // Психология и экономика. 2012. Том 2.
 7. Dahlman C., Mealy S., Wermelinger M. (2016) Harnessing the Digital Economy for Developing Countries. Paris: OECD. Available at: <http://www.oecd-ilibrary.org/docserver/download/4adffb24-en.pdf> (accessed 1 June 2018).

RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAROITIDA MAKROIQTISODIY DASTURLARNI ISHLAB CHIQUISH

Qaxxorova D.Sh.
Mustaqil tadqiqotchi

Zamonaviy taraqqiyot jarayonlari iqtisodchi kadrlardan makroiqtisodiy nazariya va eng zamonaviy makroiqtisodiy konsepsiyalar bilan yaxshi tanish bo'lishni, makroiqtisodiy tahlil malakasiga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi. Shu sababli ham makroiqtisodiy jarayonlarning kechishi qonuniyatlarini, makroiqtisodiy muammolarni, makroiqtisodiy siyosat yuritgan holda ularni yechish yo'llarini turli modellar vositasida mantiqiy izchillikka amal qilgan holda o'rganish dolzarb vazifadir.

Global tovar bozorlaridagi noaniqlik va beqaror vaziyatni, ko'plab yirik mamlakatlarda iqtisodiy o'sish sur'atlari pasaygani hamda boshqa jiddiy tahdidlarni e'tiborga olib, Davlat o'z iqtisodiy siyosatini qanday murakkab sharoitlarda amalga oshirishi kerakligini yaxshi anglaydi.

Shuning uchun makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha o'zini oqlagan chora-tadbirlar va mexanizmlardan foydalanish masalalari ustuvor vazifa sifatida saqlanib qoladi.

Technologists – tashkilotning birinchi darajali vazifasi deb raqamli transformatsiyalashni qabul qilish.

Bunda infratuzilmani shakllanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya jarayonlari Telekommunikatsiya, mediakompaniya, bank, sug‘urta, transport, turizm, chakana savdo va ta’limda keng joriy etilmoqda. Farmasevtika, ximiya, ishlab chiqarish, energetika va qazilma boyliklarni ishlash sohalarida kam joriy etilgan.

Raqamli iqtisodiyotning bir qancha afzalliklari hamda ijobiy tomonlari mavjud. Masalan, axborot-kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi inson uchun eng qimmatbaho bo‘lgan vaqtni tejashga, undan unumli foydalanishga ko‘maklashishi mumkin. Biron bir kitobning chop etilgan

ko‘rinishini sotib olish shu kitobning elektron formatini sotib olishdan qimmatroqqa tushadi. Bundan ko‘rinadiki, biz axborot- kommunikatsion texnologiyalarining rivojlanishi orqali pul mablag‘larimizni ham qisman tejab qolishimiz mumkin. Kommunal to‘lovlarni amalga oshirish uchun banklarda soatlab navbat kutib turishimizga hojat qolmaydi, istalgan joydan turib, istalgan ishni amalga oshirishimiz mumkin bo‘ladi. Uyda o‘tiradigan yoki yosh bolali ayollarimiz uchun ham bu ancha qo‘l keladi. Ular uy yumushlarini bajargan holda, uylaridan chiqmay turib, onlayn savdo bilan shug‘ullanib, pul topish imkoniyatiga ega bo‘lishlari mumkin. Bundan tashqari, ushbu texnologiyalardan ta‘lim sohasida ham unumli foydalanish mumkin bo‘ladi. O‘quvchi va talabalarning davomatini nazorat qilish, darslarni o‘zlashtirish natijalari hamda yutuqlaridan xabardor bo‘lish imkoniyati tug‘iladi.

Raqamli iqtisodiyotga o‘tish albatta, ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga, kompaniyalar raqobatbardoshligining o‘shishiga, ishlab chiqarish xarajatlarining kamayishiga, yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga, yangi zamonaviy kasblarning paydo bo‘lishiga ta‘sir etmay qolmaydi. Qisqacha qilib aytganda, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi hayotimizni ijobiy tomonga o‘zgartirishi mumkin.

Elektron hukumatga doir elementlarni tatbiq etish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash O‘zbekistonning yaqin istiqboldagi taraqqiyot rejasidan mustahkam o‘rin olgan. Bu, birinchi navbatda, elektron hujjat almashish ulushini yanada oshirish va davlat xizmatlarining muayyan qismini Davlat xizmatlari markazlari orqali bosqichma-bosqich elektron shaklga o‘tkazish vazifalariga tegishlidir. Telekommunikatsiya infratuzilmasi bu jarayonda muhim vazifani bajaradi.

Raqamli iqtisodiyotga bo‘lgan qiziqish jamiyat va iqtisodiyotda ro‘y bergan jiddiy o‘zgarishlar tufayli sezilarli darajada o‘sdi. Zamonaviy texnologiyalar va platformalar mijozlar, hamkorlar va davlat tashkilotlari bilan shaxsiy muloqotni minimallashtirish hisobiga korxonalar va jismoniy shaxslarga xarajatlarni qisqartirishga yordam berdi, shuningdek, o‘zaro muloqotni yanada tez va oson yo‘lga qo‘yishga imkoniyat yaratdi. Natijada tarmoq resurslariga asoslangan, raqamli yoki elektron iqtisodiyot paydo bo‘ldi.

Hozir butun dunyo bo‘ylab yangi servislar va biznes modellarni yaratish uchun IT instrumentlardan foydalanadigan eski va yangi kompaniyalar aksariyat sohalarda yetakchi bo‘lgan kompaniyalarga kuchli raqobat tug‘dirmoqda. Prognozlarga ko‘ra, yaqin yillarda makroiqtisodiyot «lean production», addiktiv, nano va biotexnologiya mezonlariga tayanadigan ishlab chiqaruvchilarga qattiq

bog'liq bo'lishi kutilmoqda. Shu munosabat bilan oqilona boshqaruv uchun zarur hisoblangan axborot ko'lami ham ortib boradi, ishlab chiqarish va fuqarolar muloqoti, biznes va davlat organlarini boshqarish tuzilmasi esa jiddiy o'zgarishlarni boshdan kechiradi. Quyidagilar bunda ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyot yo'liga bosqichma-bosqich chiqish uchun asosiy shart va omillar sifatida ko'rsatilmoqda: axborotlashtirish va davlat boshqaruvi organlari hamda munitsipal xizmatlarni integratsiyalash hisobiga elektron hukumat va raqamli shahar konsepsiyalarini tatbiq etish;

- yangi texnologik avlodagi mahsulotlarni yalpi ishlab chiqarish (pilotsiz avtomobillar va boshqalar singari);
- o'ziga xos bezak va qurilish materiallari yordamida «aqli» va ekologik uylarni barpo etishga oid g'oyalarni amalga oshirish;
- outsorsing, o'zini band etish va boshqalar orqali bandlikning muqobil shakllarini keng targ'ib qilish;
- muayyan vazifalarni bajarish uchun ishchi-frilanserlarni izlashga xizmat qiladigan professional tarmoqlarni yaratish.

Yuqoridagilar barchasi biznesga ishlab chiqarish va boshqaruvda mahsulot va elektron xizmatlar integratsiyalanadigan zamonaviy platformalar yordamida xarajatlarni qisqartirishga imkoniyat beradi. Birinchi galda bu masala xizmatlar buyurtmasi integratsiyasi, resurslardan birgalikda foydalanish, kontragentlarni tanlash, elektron savdoni yuritish, to'lovlar va boshqalarga tegishlidir.

IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASIDA SUN'IY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Meyliyev Obid Raxmatullaevich
Toshkent Moliya Instituti dotsenti (PhD)
Raxmatullayeva Sevinch Doniyor qizi
Toshkent Moliya Instituti talabasi

Bugungi kunda iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida barcha jabhalarda bo'lgani kabi sun'iy intellektni rivojlantirish sohasida ham islohotlarining zamon talabiga mos holda amalga oshirilishi o'zining dolzarb ahamiyatini kasb etmoqda.

Raqamli iqtisodiyotga o'tish zamon talabi va O'zbekistonni yaqin yillarda rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Yangi avlod raqamli

texnologiyalari – sun’iy intellekt, robototexnika, internet, simsiz aloqa texnologiyalari va boshqalarning paydo bo‘lishi tufayli oxirgi vaqtda biznes va ijtimoiy sohadagi faoliyat modellarini o‘zgartirishning navbatdagi to‘lqini avj olmoqda³³.

So‘nggi 20 yillikda jahon mamlakatlari o‘rtasida ilm-fan jadal va shiddat bilan rivojlanib sun’iy intellekt asosida yuqori texnik va texnologik “qurollanish” avj olmoqda. Tadqiqotlar va tahliliy ma’lumotlar axborot texnologiyalar va sun’iy intellekt yaqin kelgusi yillarda global iqtisodiy o‘rnatishning asosiy “yoqilg‘isi” va dunyo YaIMning asosiy qismini tashkil etishini ko‘rsatmoqda. Insoniyat sun’iy intellekt orqali XXI asr global muammolariga ilm-fan yordamida yangi imkoniyatlarni kashf etishi orqali ijobiy yechimlar topishi bilan bir qatorda tibbiyot, ta’lim, energetika, qishloq xo‘jaligi, shaharsozlik va boshqa sohalarda sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatlariga erishadi.

Jahon Intellektual Mulk Tashkiloti tomonidan sun’iy intellekt sohasidagi texnologiyalarning rivojlanishi bo‘yicha ilk bor 2019 yilda ilmiy tahliliy ma’lumotlar nashr etildi. Unga ko‘ra sun’iy intellektni rivojlantirish uch toifaga bo‘lgan xolda tahlil etilgan:

birinchi toifa, mashinaviy o‘rganish, mantiqiy dasturlash. sun’iy intellekt sohasida olingan patentlarning uchdan bir qismi (134 777 ta) sun’iy intellektning mashinaviy o‘rganish texnikasiga to‘g‘ri keladi.

ikkinchi toifa, sun’iy intellektning funksional qo‘llanilishi bo‘lib, o‘z tarkibiga robototexnika, tabiiy tilni qayta ishlash, bashoratli tahlil, kompyuter yordamida ko‘rishni qamrab oladi

uchinchi toifa, sun’iy intellektning iqtisodiyot tarmoqlarida qo‘llanilishi bo‘lib, unda jami patentlar sonining 15 foizini tashkil etgan telekommunikatsiya sohasi yetakchilik qilmoqda. Shuningdek, 12 foizi tibbiyot va tabiiy fanlar sohasidagi tarmoqlarga to‘g‘ri keladi. Ro‘yxat bank tizimi, sanoat, qishloq xo‘jaligi va shaharsozlik sohalari bilan yakunlanadi³⁴

2020yilda O‘zbekistonda sun’iy intellektni rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqildi. Strategiyaning maqsadi – sun’iy intellekt sohasida milliy ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda yo‘lga qo‘yish hamda ta’limni samarali isloh etishdan iborat. O‘zbekistonda sun’iy intellektni 3 bosqichda rivojlantirish rejalashtirildi:

³³ Rasulova D.V., Qarshiboeva A.G‘. Biznes sohasini raqamlashtirish – biznes ko‘nikmalarining asosi

³⁴ www.uzbridge.eyuf.uz


1-bosqich. 2021–2022 yillar – sun’iy intellektni rivojlantirishning fundamental asoslarini rivojlantirish va maqsadli tizimlashtirish.

2-bosqich. 2023–2025 yillar – sun’iy intellekt sohasida kadrlar malakasi va intellektual salohiyatini halqaro raqobat maydonida sifat jihatidan oshirish va nufuzini ko‘tarish

3-bosqich. 2026–2030 yillar – O‘zbekistonda yuqori rivojlangan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish.

O‘z navbatida bu 3 bosqich quyidagilarni o‘z ichiga oladi: sun’iy intellektni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo‘nalishlarida ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda tashkil etish, SI sohasida ta’lim tizimini samarali isloh etish hamda ilmiy tadqiqot va ta’limda xalqaro hamkorliklarni jadallashtirish. Shuningdek, ishlab chiqarishda raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlash va tadbirkorlarning innovatsion faolligini oshirish. Ustuvor yo‘nalishlarda yangi ilmiy-tadqiqot va rivojlantirish markazlarini tashkil etish.

Biznes – ilm-fan – davlat integratsiya tizimini mustahkamlash orqali iqtisodiyot tarmoqlari muammolariga SI yordamida ratsional yechimlar to‘plamini taklif etish. Davlat boshqaruvining shaffof va samaradorligini oshirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini milliy qadriyatlar va umuminsoniy tamoyillar asosida to‘liq kafolatlaydigan o‘ziga xos bo‘lgan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish³⁵



1-rasm. O‘zbekistonning sun’iy intellekt sohasidagi ilmiy tadqiqot natijalari nashrlari soni³⁶

³⁵ www.kun.uz

³⁶ www.uzbridge.eyuf.uz

2020 yil may oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan sun'iy intellekt sohasida chop etilgan ilmiy maqolalar bo'yicha taqdim etgan tahliliy ma'lumotlarga ko'ra, sun'iy intellekt sohasida chop etilgan maqolalar soni O'zbekistonda – 1996 – 2014 yillar oralig'ida o'rtacha 3,02 ta, 2015 yilda 4,67 ta, 2016 yilda 8,67 ta, 2017 yilda 12,7 ta, 2018 yilda 6 ta, 2019 yilda 42 va 2020 yilda 22 tani tashkil etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, respublikamiz tijorat banklarining raqamli transformatsiyasini amalga oshirishda raqamli texnologiyalar orqali yaratiladigan yanada samarali biznes modellarni joriy etish, sun'iy intellekt va ulkan ma'lumotlar tahlilidan foydalanib, bank xizmatlarini taqdim etish bo'yicha qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish, open banking orqali nobank institutlar va turli moliyaviy xizmatlarni taklif etuvchi platformalar bilan integratsiyasini kuchaytirishga e'tiborni qaratish zarur³⁷.

Sun'iy intellekt sohasida o'sish va rivojlanish bo'lishi uchun, fikrimcha, sun'iy intellekt texnologiyalarini modellashtirish va joriy etish sohasida milliy tashkilotlarni tashkil etish, sun'iy intellekt bilan bog'liq bo'lgan loyihalar bilan shug'ullanuvchi tashkilot, kompaniyalar bilan kelishuvlar tuzish, ulardan ish o'rganish, malakali kadrlar yetishtirilishi va sun'iy intellektni rivojlantirish va undan foydalanish masalalarini hal qilishga qaratilgan ko'plab startaplar ochilishi kerak.

ТУРИЗМГА САЙЁҲЛАРНИ ЖАЛБ ҚИЛИШДА РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

З.Р.Давлатова
ТМИ, ўқитувчиси

Ҳозирги вақтда дунё иқтисодиёти глобаллашувининг шароитида, рақобат даражаси ошиши ҳамда ишлаб чиқариш диверсификациясининг кучайиши таъсирида туризм соҳасининг имкониятларидан кенгрок фойдаланиш, аҳоли бандлиги ва даромадлари даражасини ошириш, халқаро ва ички туризмни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 27 ноябрдаги 960-сон «Халқаро хунармандчилик фестивалини ўтказишнинг ташкилий чора-

³⁷ Bank faoliyatiga raqamli moliyaviy texnologiyalarni joriy etish istiqbollari

тадбирлари тўғрисида»ги қарори ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада ҳизмат қилади. Ўзбекистонга кирувчи туристларни жалб қилиш ҳамда туризм соҳасини ривожлантиришга қаратилган кўплаб лойиҳалар мавжуд, лекин туризм соҳасида ҳунармандчилик қай даражада ривожланганлигини кўрсатиб берадиган мезонлар йўқ. Шу билан биргаликда ҳунармандчилик маҳсулотларининг савдо тизимида онлайн савдо улушини оширишга ҳизмат қиладиган ва ҳунармандчиликни тарғиб қилиш орқали туризм жозибадорлигини ҳамда маҳсулот савдосини оширишга олиб келадиган лойиҳалар зарур. Ўзбекистонда миллий ҳунармандчилик маҳсулотларига уникал QR-код қўйиш орқали маҳсулотлар ва ҳизматлар савдосини ошириш ҳамда ҳорижий сайёҳларни жалб қилишнинг кўп функцияли ахборот платформасини яратишдан лозим. Бу борадаги вазифаларни самарали амалга ошириш туризм ривожланишининг ретроспектив жиҳатларини ўрганиш, касбий маҳорат ва иқтисодий саводхонликни ошириш, соҳада рақамли иқтисодиёт имкониятларидан самарали фойдаланишни тақозо этади. Шу сабабли миллий ҳунармандчилик маҳсулотларининг онлайн савдодаги улушининг ортишига, халқаро миқёсда миллий ҳунармандчилик маҳсулотлари ва туризм жозибадорлигини ошишига, кирувчи туристларнинг янада ошишига, иқтисодиётда туризм ўрнининг ва миллий ҳунармандчиликни янада ривожлантириш имконияти пайдо бўлади. Туризм соҳасида фаолият юритаётган ҳунармандлари маҳсулотларига уникал QR-код генерация қилиш дастурий таъминотини яратишида ахборот технологияларининг дастурий усулларида фойдаланиш ҳисобланади. Тўпланган маълумотлар базаси, матнни таҳлил қилиш, қайта ишлаш, сақлашга оид дастурлар ишлаб чиқиш долзарбдир. Миллий маҳсулотлар базасида яратилган электрон маълумотларда маҳсулотлар сотувини амалга ошириш механизми, истеъмолчилар учун реклама роликлари, туризм соҳасида фаолият юритувчи ташкилотлар билан боғланиш имкониятларини берадиган платформа шакллантириш зарур. Дунё бозорларида миллий ҳунармандчилик маҳсулотларини савдосининг талаб-таклифларини, маҳсулотларга бўлган қизиқишларни ўрганиб бориш имкони берувчи платформалар лозим.

Шунингдек унда қуйидаги босқичлар амалга оширилиши керак:

-туризм соҳасида фаолият юритаётган Ўзбекистон ҳунармандлари маҳсулотларига уникал QR-код генерация қилиш дастурий таъминоти яратилади;

-хунармандчилик маҳсулотлари сотуви амалга оширилганда ёки қайта скайнер қилинганда, истеъмолчининг маълумотлар базасини шакллантирилиши;

- статистик кузатувларни назорат қилувчи дастурий таъминот яратилади;

-туризм соҳасида фаолият юритувчи ташкилотлар билан боғланиш имкониятини берадиган тизим шакллантирилиши(интеграция);

-туризм соҳасида фаолият юритаётганлар иштирокидаги фестиваль, ярмарка ва кўргазмалар тўғрисидаги эълонлар такдим қилувчи маълумотлар базаси шакллантирилади;

- дунё бозорларида миллий маҳсулотларининг савдоси ва талаб-таклифлари, қизиқишлари статистик таҳлилини амалга оширишга эришиш;

- маълумотларни “булутли” технология асосида ҳавфсиз сақлаш ва улардан тезкор фойдаланиш имконияти яратиш;

Хулоса қилиб айтганда, янги дастурий таъминотларда соҳа вакилларига ўзларининг маҳсулотлари ҳақидаги маълумотларни жойлаштиришлари учун шахсий кабинет яратиш. Ҳар бир маҳсулотга уникал кодлаштирилган QR-код ёпиштириш, шунингдек, уникал код орқали муҳсулотни тўлиқ назорат қилиш, кодлар орқали тўловларни амалга ошириш модулини яратиш ҳамда булутли технология ёрдамида тизимни шакллантириш ва миллий маҳсулотлар классификаторини шакллантиришда 3D моделини яратиш лозим.

RAQAMLI IQTISODIYOTDA SUN'IIY INTELLEKTNING O'RNI

Mirzanova N.M.

TMI “Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot”

kafedrasi doktoranti

Bugungi kunda xalqaro iqtisodiy munosabatlar chuqur inqiroz holatini boshidan kechirmoqda, shu munosabat bilan diplomatik va savdo faoliyatini amalga oshirishga yondashuvlarni o'zgartirish zarurati paydo bo'lmoqda. Davlatlararo hamkorlikni qayta qurish uchun ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning bir qator yutuqlarini, masalan, xalqaro diplomatiya va savdo sohasida allaqachon qo'llanilayotgan sun'iy intellektni (SI) qo'llash eng samarali yo'l hisoblanadi.


Xususan, SI imkoniyatlaridan foydalangan holda qabul qilingan qarorlar Xitoyda voqealar rivojining diplomatik stsenariylarini ishlab chiqish uchun faol qo'llaniladi [3]. Xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt algoritmlaridan kengroq foydalanish savdo muzokaralariga nisbatan iqtisodiy diplomatiya doirasida amalga oshiriladi. Shuni ta'kidlash kerakki, rivojlanayotgan mamlakatlar uchun sun'iy intellekt imkoniyatlarini ochish ayniqsa muhimdir, chunki bu xalqaro shartnomalar tuzish imkonini beradi va o'zaro manfaatli va samarali savdo hamkorligini rivojlantirishga yordam beradi.

SI ni xalqaro diplomatiya sohasiga kiritish masalasi xalqaro xavfsizlik, uchuvchisiz tizimlardan foydalanish va tuzilgan bitimlar ijrosini kuzatish jarayonlari kabi yo'nalishlarda atroflicha o'rganildi. Biroq, xalqaro xavfsizlik muammolarini hal qilish bilan bir qatorda, SI mashinalari dasturlari iqtisodiy diplomatiya bilan bog'liq juda keng ko'lamli masalalar bo'yicha xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga yordam beradi [5]. Algoritmik, tekshiriladigan va shaffof SI mexanizmlaridan foydalanish mojarolar va nizolarni hal qilish jarayonida asosiy iqtisodiy manfaatdor tomonlar o'rtasidagi ishonch darajasini oshirishning muhim vositasiga aylanmoqda. Ushbu sohalarda SI tizimlarini birgalikda ishlab chiqishni amalga oshirish qo'llaniladigan protseduralar, printsiplar va yondashuvlarning ob'ektivligi va shaffofligi masalalarida davlatlarning da'volarini yumshatish imkonini beradi. Maqsad: amaldagi huquqiy tartibga solish doirasida sun'iy intellekt (SI) algoritmlarini qo'llash bo'yicha to'plangan tajribani tahlil qilish asosida xalqaro savdoda SI imkoniyatlaridan foydalanishning eng istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash. Ilmiy yangilik "sun'iy intellekt" atamasining genezisini o'rganish, "sun'iy intellekt" tushunchasi ta'rifini tushuntirish, to'plangan tajribani umumlashtirish, SI imkoniyatlarini sohaga kiritishning ijobiy va salbiy oqibatlarini aniqlashdadir. tashqi iqtisodiy faoliyat, shuningdek, xalqaro savdo sohasida sun'iy intellekt xizmatlaridan foydalanishning eng istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqishda. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, sun'iy intellektdan foydalanish xalqaro savdo sohasida qabul qilinadigan qarorlar sifatini, ikki tomonlama va ko'p tomonlama savdo muzokaralari uchun bashoratli stsenariylarni modellashtirish ishonchliligini oshirishi, shartnomalar va bitimlar matnlarini qayta ishlash vaqtini qisqartirishi mumkin. shuningdek, ma'lumotlarni yig'ish va qayta ishlash uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish.

Ishlab chiqarish, xo'jalik va tijorat faoliyatining turli sohalarida ilmiy-texnikaviy taraqqiyotning yuqori sur'atlari (STP) jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning shunday hodisasi paydo bo'lishi va rivojlanishiga

olib keldi, chunki "" deb nomlangan yangi iqtisodiy hodisaning paydo bo'lishi. sun'iy intellekt" [1]. "Intellekt" (lotincha intellectus dan tarjima qilingan) atamasi sezgi, idrok (tushunish, tushunish, tushuncha, aql) yoki aqlidir. Bu inson psixikasining yangi vaziyatlarga moslashish, tajriba asosida o'rganish va eslab qolish, mavhum tushunchalarni tushunish va qo'llash, atrof-muhitni boshqarishda o'z bilimlaridan foydalanish qobiliyatidan iborat bo'lgan sifatdir [5]. Aql-idrok - bu insonning barcha kognitiv qobiliyatlarini: sezish, idrok etish, xotira, tasvirlash, fikrlash, tasavvur qilish va boshqalarni o'zida mujassam etgan muammo va qiyinchiliklarni bilish va hal qilishning umumiy qobiliyati. [2] Shuni ta'kidlash kerakki, sun'iy intellekt tushunchasi kontseptual jihatdan yangi emas. Birinchi marta bu atama 20-asrning 50-yillari o'rtalarida, aniqrog'i 1956-yilda Dartmut universitetida bo'lib o'tgan konferentsiyada amerikalik kompyuter olimi J.Makkarti ushbu atamani bayon qilib, unga to'g'ri va keng qamrovli tushuncha bergan. ta'rif: "Sun'iy intellekt - bu aqlli mashinalar va kompyuter dasturlarini yaratish haqidagi fan" [2, 4] (Afanasev, 2019; Clauberg, 2020). Biroq, birinchi haqiqiy texnologik natijalarni olish jarayoni bir necha o'n yillar davom etdi. SI tizimlarini yaratish doirasidagi ilmiy ishlar va tadqiqotlar bir vaqtning o'zida bir nechta olim va mutaxassislar tomonidan amalga oshirildi. Shunday qilib, 1980-yillarning boshlarida. J. Barr (hisoblash nazariyasi sohasidagi mutaxassis, IBM Research tadqiqotchisi) va E.A. Feygenbaum (o'quv jarayoni modeli va algoritmlari muallifi, Stenford universiteti, AQSh) sun'iy intellektning quyidagi ta'rifini ishlab chiqdi: "Sun'iy intellekt - bu aqlli kompyuter tizimlarini, ya'ni biz an'anaviy ravishda bog'laydigan imkoniyatlarga ega bo'lgan tizimlarni ishlab chiqadigan informatika sohasi. inson ongi bilan - tilni tushunish, o'rganish, fikr yuritish, muammolarni hal qilish qobiliyati va boshqalar. [3] (Vorontsova va Lukonina, 2020). Bugungi kunda SI tizimi odatda neyron tarmoqlardan foydalanadigan kompyuter dasturlari bilan ajralib turadi, ularning birlashtiruvchi o'ziga xos xususiyati mashinaning fikrlaydigan odamning qaror qabul qilish algoritmlariga o'xshash muayyan muammolarni hal qilish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt inson hayotida qo'llaniladigan har qanday turdagi dasturiy ta'minotga qo'llanilishi mumkin bo'lgan juda keng tushuncha bo'lib, turli xil muammolarni o'rganish, rejalashtirish va hal qilish algoritmlarini o'z ichiga oladi [2] (Kitzmann, Yatsenko, Launer, 2021). Boshqacha qilib aytganda, SI - bu ekspert tizimlari va virtual agentlarning samarali ishlashi uchun o'zaro bog'liq va tez rivojlanayotgan jarayonlar va texnologiyalar majmuasidir [2, 3] (Afanasev, 2019; Bykov, 2020).

"Sun'iy intellekt" tushunchasining ta'rifi: bu bilimlarning turli sohalarida olib borilgan bir qator ilmiy tadqiqotlarning integratsiyalashgan mahsulotidir [5]. Sun'iy intellekt kontseptsiyasi ko'plab ilmiy fanlar va tadqiqot yo'nalishlarining integratsiyasi mahsulidir, bu toifaning bir nechta ta'riflari mavjud, shu munosabat bilan bugungi kunda sun'iy intellekt ko'pincha qaror qabul qilishning turli xil kompyuter modellari sifatida tushuniladi. va optimallashtirish jarayoni. Ushbu ishda sun'iy intellekt deganda raqamli kompyuter algoritmining odatda aqlli mavjudotlar (odamlar) hayoti bilan bog'liq bo'lgan aniq vazifalarni bajarish qobiliyati tushunilishi kerak. Ushbu ta'rif insonga xos bo'lgan, masalan, aks ettirish, fikr yuritish, tahlil qilish, tizimlashtirish, sharhlash va tajribadan o'rganish qobiliyati kabi intellektual jarayonlarning mavjudligi bilan tavsiflangan turli tizimlarni ishlab chiqish loyihalariga taalluqlidir. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, sun'iy intellekt (SI) inson miyasidagi neyron aloqalar ishining taxminiy ko'rinishi bo'lib, chuqur mashinani o'rganish va virtual haqiqat algoritmlaridan foydalanish kabi texnologiyalar va jarayonlar komplekslari bilan aniqlangan. "Sun'iy intellekt" tushunchasining yagona umume'tirof etilgan ta'rifi yo'qligi va kontseptual va kategorik apparatlar va terminologik tasniflarning to'liq ishlab chiqilmaganligiga qaramay, ko'plab sanoati rivojlangan mamlakatlar hukumatlari yangi axborot jamiyatiga o'tish ostonasida. ilg'or axborot texnologiyalari va texnologik konvergensiyaning rivojlantirish maqsadida katta hajmdagi kapital qo'yilmalarni amalga oshirmoqda. Amerikaning International Data Corp konsalting kompaniyasining hisob-kitoblariga ko'ra, 2019-yilda jahon iqtisodiyotida sun'iy intellekt tizimlarini rivojlantirish qiymati qariyb 35,8 milliard dollarni, jumladan, SI dasturiy platformalari va sun'iy intellekt ilovalari uchun 13,5 milliard dollarni tashkil qilgan [1]. Tractica Omnia konsalting kompaniyasi prognozlariga ko'ra, 2025 yilga borib jahon iqtisodiyotida sun'iy intellekt tizimlari uchun dasturiy ta'minotni sotish hajmi 2018 yildagi 10 milliard dollarga nisbatan 126 milliard dollardan oshadi. 1-rasmda dasturiy ta'minotni sotish prognozi ko'rsatilgan. 2025 yilgacha sun'iy intellekt tizimlarining ishlashi uchun sun'iy intellekt tizimlari uchun. 1-rasm. Sun'iy intellekt uchun dasturiy ta'minotni sotish hajmini prognoz qilish, milliard AQSh dollari. Grafikda keltirilgan ma'lumotlar sizga trend chizig'ini olish va uzoq muddatda sun'iy intellekt uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotni joriy etish hajmini bashorat qilish imkonini beradi:



1-rasm. Sun'iy intellekt uchun dasturiy ta'minotni sotish hajmini prognoz qilish, Dasturiy ta'minotni sotish hajmi milliard AQSh dollarida.

Grafikda keltirilgan ma'lumotlar sizga trend chizig'ini olish va uzoq muddatda sun'iy intellekt uchun ishlab chiqilgan dasturiy ta'minotni joriy etish hajmini bashorat qilish imkonini beradi:

a) eksponentsial tendentsiya:

$$y = 32,177e^{0,2822x}, (1)$$

bu erda y - SI dasturiy ta'minotini sotish hajmi, milliard AQSh dollari;


e - natural logarifmning asosi, matematik doimiysi taxminan 2,72;

x - ko'rib chiqilayotgan vaqt davri, birliklar;

b) polinom tendentsiyasi:

$$y = 0,9286x^2 + 15,729x + 23,65. (2)$$

2-rasmda 1-formuladan foydalangan holda hisob-kitoblar asosida 2030 yilgacha sun'iy intellekt uchun dasturiy ta'minotni sotish hajmini bashorat qilish uchun grafik ko'rsatilgan.



2-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan davrda sun'iy intellekt xizmatlari uchun dasturiy ta'minotni sotish hajmini prognoz qilish. Dasturiy ta'minotni sotish hajmi milliard AQSh dollarida.

Grafikda ko'rsatilganidek, 2030 yilga borib xalqaro diplomatiya sohasida sun'iy intellekt maqsadida turli xil dasturiy ta'minot xizmatlarini sotish 540 milliard AQSh dollaridan oshishi mumkin.

Ushbu standartlar aqlli robot tizimlari (shu jumladan uchuvchisiz transport vositalari) va odamlar o'rtasida samarali aloqani ta'minlash uchun mo'ljallangan [6] (Ermakova, Kovyazin, 2002). Inson va aqlli tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir bir-birining niyatlarini bashorat qilish va ushbu prognoz asosida keyingi harakatlarni aniqlashdan iborat. Bundan tashqari, xulq-atvorni bashorat qilish tizimlari yashirin jinoiy niyatli odamlarni aniqlash uchun ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

[1]Uzialko A. C. How Artificial Intelligence Will Transform Business // Business New Daily. –<https://www.businessnewsdaily.com/9402-artificial-intelligence-business-trends.html>

[2]What is ITTI? Intelligent Tech + Trade Initiative. – itti-global.org

[3]Troyjo M. We Should Make AI and Blockchain Boost Global Trade. –
–http://www.huffingtonpost.com/entry/we-should-make-ai-and-blockchain-boost-global-trade_us_59cf7646e4b0f58902e5cc65

[4]Rethinking Trade & Finance, International Chamber of Commerce. 2017. –<https://iccw-bo.org/publication/2017-rethinking-trade-finance>

[5]Meltzer Joshua P. The impact of artificial intelligence on international trade. –[https:// tradevistas.org/the-impact-of-artificial-intelligence-on-international-trade](https://tradevistas.org/the-impact-of-artificial-intelligence-on-international-trade)

3-секция

**МОЛИЯ, БАНК ВА ИҚТИСОДИЁТНИНГ
БОШҚА СОҲАЛАРИДА СУНЪИЙ
ИНТЕЛЛЕКНИНГ ЎРНИ ВА
ҚЎЛЛАНИЛИШИ**

BANK SEKTORINING ASOSIY MUAMMOLARI.

Aliyev Diyorjon Xasanjon o'g'li
Toshkent moliya insitutining “Buxgalteriya
hisobi va auditi” fakulteti talabasi

***Anotatsiya:** Mazkur maqolada bank sektoridagi asosiy muammolari yoritilgan va ularni O‘zbekiston sharoitida rivojlantirishda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarning natijalari ifodalangan. Shuningdek, maqolada mazkur masala yuzasidan muallif tomonidan shakillantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.*

Markaziy bank va Moliya vazirligi tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda bank sektorini uzoq muddatli rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Bundan tashqari, Moliya vazirligi tuzilmasida davlat ishtirokidagi tijorat banklarini isloh qilishni muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etilgan. 2021 yilda O‘zbekistondagi ko‘plab tijorat banklari transformatsiya jarayonidan o‘tishi bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Moliya vazirligi xabariga ko‘ra, bugungi kunda bank sektorining asosiy muammolari quyidagilardan iborat:

- Davlat resurslariga yuqori bog‘liqlik va imtiyozli kreditlarning yuqori ulushi - umumiy portfelining 60 foizdan ortiq;
- Moliyaviy barqarorlikning yetarli emasligi - 2017-2019 yillarda yuqori likvidli aktivlarning ulushi 23 foizdan 11 foizgacha kamaydi;
- Xavflarning yuqori konsentratsiyasi - davlat ishtiroki mavjud har bankning top-10 qarz oluvchilari ulushiga umumiy kredit portfelining 36 foizi to‘g‘ri keladi;
- dominant o‘rni - aktivlarning 85 foizi;
- Moliyaviy xizmatlarning past darajadagi mavjudligi - kreditlarning faqat 19 foizi jismoniy shaxslarga to‘g‘ri keladi (dunyoda - 40 foiz).

Prezident «2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida»gi farmoni imzoladi.

Bildirilishicha, strategiya 4ta asosiy vazifani hal qilish imkonini beradi. Bular:

- Bank tizimi samaradorligini oshirish;

- Uning moliyaviy barqarorligini ta'minlash;
- Sektorda davlat ulushini kamaytirish;
- Xizmatlar ko'lamini va sifatini yaxshilash.

Bugungi kunda O'zbekiston bank tizimi yuqori konsentratsiyasi bilan ajralib turadi: barcha bank aktivlarining 86% hali davlatga, 70% esa 5 ta davlat banklari (Milliy bank, Asaka bank, Sanoat qurilish bank, Ipoteka bank va Agro bank) ga qarashli. Shuningdek, kreditlarga nisbatan davlat ulushi bo'lgan bank omonatlarining ulushi 31,5 foizni tashkil etishi qayd etildi. Taqqoslash uchun, xususiylar banklarda bu ko'rsatkich 100% ga teng.

Mamlakatimizda bank-moliya tizimini mustahkamlash va sifat jihatidan yaxshilashga, shuningdek tijorat banklarining iqtisodiyotni harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo'lishiga hamda ularning yirik investitsiya institutlariga aylanishiga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki mamlakatimizning moliyaviy-iqtisodiy barqarorligi ko'p jihatdan bank-moliya tizimining samarali faoliyatiga bog'liqdir.

Shuni takidlash joizki, respublikamizda yirik banklarning kapitallashuv darajasini oshirish ko'pgina xorij mamlakatlari amaliyoti bo'yicha asosan banklarning likvidlik ko'rsatkichini saqlab turishga emas, balki banklarning investitsiyaviy faolligini kuchaytirishga, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarning ustuvor yo'nalishlarini qayta tiklash va kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan kreditlash hajmini oshirish qaratildi.

Banklarining investitsiya faoliyatini yanada kengaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, shuningdek mamlakatimiz iqtisodiyotiga ichki va tashqi investitsiyalarni jalb etishda respublikamizda shakllanib borayotgan qimmatli qog'ozlar bozori salohiyatidan keng foydalanish, borasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

- Tijorat banklari umumiy kapitali hajmini yanada oshirish bo'yicha tegishli choralarni ko'rish va borada o'rnatilgan parametrlarni bajarish;

- tijorat banklari aktivlarini, shu jumladan kredit portfellarining yanada o'sishini va sifatini yaxshilashni ta'minlash maqsadida bank tavakkalchiliklarini baholash va boshqarishda chuqur omilli tahlilni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini joriy qilish;

- banklarda investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish sifatini, shu jumladan, ekspertiza jarayonlarining shaffofligini oshirish va unda barcha potensial omillar va xatarlarni inobatga olish borasida ta'sirchan choratadbirlarni amalga oshirish.

- banklarning uzoq muddatli resurslarini ko'paytirish borasida bank depozitlari, depozit sertifikatlari va korporativ obligatsiyalarining yangi turlarini joriy etish va amaldagi turlarini ularning muddatlari, summasi, valyuta turlari va to'lash usullari bo'yicha yanada takomillashtirish;

- progressiv fond dastaklarini, shu jumladan kommulyativ aktsiyalar, konvertatsiyalanadigan obligatsiyalar, ipoteka sertifikatlari, hosilaviy va garov qimmatli qog'ozlarni emissiya qilish va muomalaga chiqarish ko'lamini kengaytirish;

- aktivlar sekyuritizatsiyasini tartibga soluvchi huquqiy bazani takomillashtirish, Bunda "moliyaviy pufaklar" paydo bo'lishini oldini olish maqsadida ushbu faoliyat ustidan prudentsial nazoratni kuchaytirish, sekyuritizatsiyalanayotgan aktivlar shaffofligini oshirish hamda ularning ta'minlanganlik darajasiga e'tibor berish;

- potentsial investorlar uchun axborot shafofligi darajasini oshirish maqsadida tijorat banklari va shakllanib borayotgan fond bozorlarining boshqa emitentlarining ish yuritish amaliyotiga xalqaro standartlarni kompleks ravishda joriy etish;

- tijorat banklari qimmatli qog'ozlari ikkilamchi bozorini faollashtirish, subordinar qarzning hajmlarini kengaytirish;

- shakllanib borayotgan qimmatli qog'ozlar bozorlarining investitsion-moliyaviy infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida emission va anderrayting sindikatlar, reyting va kollektorlik agentliklar, birgalikdagi investitsiyalash institutlarini tashkil etishda banklar ishtirokini yanada faollashtirish;

- garov ob'ekti hisoblangan qimmatli qog'ozlar ro'yxatini kengaytirish va bu ro'yxatni muntazam e'lon qilib borish;

- chaqirib olinmaydigan depozit sertifikatlari muomalasini yo'lga qo'yishni tashkillashtirish, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash;

- Tijorat banklari kapitallashuv darajasini yanada oshirish, resurs bazasini mustahkamlash va diversifikatsiyalash, aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning bo'sh pul mablag'larini uzoq muddatli depozitlarga jalb etishni yanada faollashtirish;

- Tijorat banklari faoliyatini tartibga solish va nazorat qilish tizimini Bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining yangi tavsiyalari asosida yanada takomillashtirish, banklar faoliyatini baholashda xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan me'yorlar, mezonlar va andozalarni joriy etish;

- Tijorat banklarining investitsion faoliyatini yanada kuchaytirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda texnik va texnologik qayta jihozlash

loyihalarini kreditlash hajlarini oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni moliyaviy qo'llab-quvatlashni kengaytirish, shuningdek hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash davlat dasturlarini amalga oshirish jarayonlaridagi ishtirokini yanada kengaytirish;

- Banklar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini yanada kengaytirish hamda sifatini yaxshilash, masofadan turib xizmat ko'rsatish vositalaridan on-layn rejimida ishlayotgan mijozlar sonini oshirish;

- Tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalardan foydalanishning qulayligi va samaradorligini yanada oshirish, xususan, Internet orqali to'lovlarni amalga oshirish tizimini yanada rivojlantirish;

- Bank menejmenti sohasida zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash borasida tegishli ishlarni amalga oshirish;

- Bank-moliya sohasida ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilashga qaratilgan choralarni amalga oshirish;

- Bank faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasini yanada takomillashtirish hamda uni xalqaro talab va tamoyillarga muvofiqligini ta'minlash;

Foydalanilgan adabiyotlar: "<http://cbu.uz>" sayti

BANK SOHASIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINIG O`RNI.

Tulaganova Muyassar SHovkat qizi
TMI tayanch doktoranti:

Annotatsiya. Yangi texnologiyalar, elektron xizmatlar bizning kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Jamiyat kundan-kun axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga tobora ko'proq qaram bo'lib borayotganligini hisobga olib, ushbu texnologiyalarni himoya qilish va ulardan foydalanish milliy manfaatlar uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega va juda muhim mavzuga aylanmoqda. Shuning uchun zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish davr talabi va taqozosidir.

Kalit so`zlar: Bank, axborot, texnologiya, electron, moliya, kredit, kommunikatsion.

Bugungi kunda har bir kunimiz mamlakatimiz iqtisodining rivojlanishida muhim omil bo'luvchi yangiliklarga boy bo'lmoqda, jumladan, jahon bank-moliya tizimining jadal sur'atlarda rivojlanib borishi natijasida iqtisodiyotning muhim tarmog'idan biri hisoblangan bank sohasida ham yangi zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalari (AKT) dan foydalanishga yanada ko'proq ehtiyoj sezilmoqda.

So'nggi o'n yil O'zbekiston uchun o'ziga xos "o'zgarishlar davri" bo'ldi. Mamlakatimizda bozor aralash iqtisodiyotini shakllantirishga qaratilgan keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunda kuchli va barqaror rivojlanayotgan bank tizimini yaratish muhim ro'l o'ynaydi. Mamlakatimiz bank sektori uchun mustaqillik davri monobank tizimidan bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan yangi, zamonaviy bank tizimini yaratishga, universal bank tizimini shakllantirishga o'tish davri edi.

Mustaqillikning so'nggi yillarida O'zbekistonda to'liq ishlaydigan bank tizimini yaratish va rivojlantirish bo'yicha quyidagi qadamlar qo'yildi: - mamlakatning mustaqil Markaziy banki tashkil etildi, unga pul muomalasini tartibga solish, tijorat banklari tizimini shakllantirish, shuningdek to'lov tizimini yaratish vazifalari yuklatildi; - to'laqonli milliy valyuta - so'm muomalaga chiqarildi, bu mustaqil bank tizimini shakllantirishda muhim bosqich bo'ldi; - Qonunchilik bazasi sifat jihatidan takomillashtirildi, jumladan ikkita qonun: "O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida" va "Banklar va bank faoliyati to'g'risida".

Shunday qilib, 90-yillarning oxiriga kelib mamlakatda har tomonlama barqaror bank tizimi vujudga keldi, xalqaro standartlarga muvofiq zamonaviy bank nazorati samarali faoliyat ko'rsatdi va bank faoliyatini tartibga solish mexanizmi yaratildi. So'nggi yillarda bank tizimini liberallashtirish va isloh qilishga qaratilgan qator dasturiy hujjatlar qabul qilindi. Bundan tashqari, hujjatlar bank faoliyatini liberallashtirishga tizimli va bosqichma-bosqich yondoshishga asoslangan.

Bugungi kunda O'zbekistonga zamonaviy bank infratuzilmasiga ega samarali bank tizimini yaratish vazifasi qo'yilmoqda. Amalga oshirilayotgan bank tizimini isloh qilish dasturi banklarni xususiylashtirish jarayonini jadallashtirish, banklarning kapitaliga qo'shimcha tashqi va ichki investitsiyalarni jalb etish, ularning faoliyatini tijoratlashirish, tadbirkorlik tuzilmalarining banklarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish va investorlarning banklarga bo'lgan ishonchini oshirish orqali uni

erkinlashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilab beradi. Xususi kapitalga ega yangi banklar tarmog'ini rivojlantirish O'zbekiston bank sektorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Hozirda muvaffaqiyatli bank faoliyatining asosiy omillaridan biri bu axborot texnologiyalaridan foydalangan holda doimiy ravishda innovatsiyalarni joriy etishdir. Ilmiy-texnik taraqqiyot innovatsion jarayon kontseptsiyasi, raqobatning kuchayishi va eng yangi axborot texnologiyalaridan faol foydalanish tijorat banklarini o'z faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishga munosabatlarni o'zgartirishga undaydi. Texnologik, moliyaviy va tashkiliy yangiliklarning joriy etilishi dinamik o'zgaruvchan voqelik sharoitida raqobatbardosh bo'lib qolishni ta'minlaydi, bank faoliyati yangi axborot texnologiyalarini joriy etish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. Yangi hisoblash platformalariga o'tish uchun dasturiy ta'minot, kompyuter va telekommunikatsiya uskunalari sarmoya kiritib, banklar xarajatlarni kamaytirishga va muntazam ishlarni tezlashtirishga va raqobatda etakchilik qilishga intilishadi.

Shubhasiz, bizning respublikamizda mijozlar bilan ishlashning yangi usullari sezilarli darajada rivojlanmoqda, ammo bu yo'nalishda faqat dastlabki qadamlar qo'yildi va bu sohada rivojlanish uchun juda katta joy mavjud. Faoliyatning o'zgaruvchan sharoitlariga muvofiq har qanday tijorat banki moliya bozorining to'laqonli ishtirokchisi sifatida ichki tashkiliy innovatsion jarayonlarning tashabbuskori bo'lib, o'zini o'zgartirishga majbur bo'ladi. Agar yaqin vaqtgacha har qanday iqtisodiy rivojlangan mamlakatda bank xizmatlari bozori ishtirokchilar iqtisodiy va qonuniy ravishda haddan tashqari raqobatdan himoya qilingan oligopoliya bo'lgan. Biroq, qisqa vaqt ichida yangi iqtisodiyotning jadal rivojlanayotgan texnologiyalari bank biznesida mavjud bo'lgan raqobatdagi ko'plab iqtisodiy to'siqlarni yo'q qildi.

Kredit tashkilotlari an'anaviy bozor ishtirokchilari va telekommunikatsiya kompaniyalari yoki global tarmoqdagi xizmat ko'rsatuvchi provayderlar tomonidan raqobatni kuchaytirmoqda. An'anaviy banklar o'z turlaridan tashqari, nafaqat tezkor, ambitsiyali va harakatchan moliya tashkilotlari, balki biznesning yana bir toifasi - texnologik, boy va global bo'lib, mijozlar bazasi uchun shiddatli kurash olib bormoqda.

Darhaqiqat, tijorat banklari tomonidan axborot texnologiyalarini qo'llagan holda ko'rsatilayotgan barcha xizmatlarning tezkorligi, sifati va shaffofligi bugungi kun talabidir. Endilikda an'anaviy bank xizmatlari o'rnini to'la egallayotgan zamonaviy masofaviy bank xizmatlarining turli ko'rinishlari aynan shu tezlik, sifat va ishonchni ta'minlayotgani hech kimga sir emas. Zamonaviy

bank xizmatlari mijozlarga yanada kengroq qulaylik yaratgan holda ularning imkoniyatlari oshirilishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakat iqtisodiyotining qon-tomiri hisoblangan bank tizimini yanada isloh qilish, uning barqarorligini oshirish, yuqori xalqaro reyting ko'rsatkichlariga erishishning ustuvor yo'nalishlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalangan holda zamonaviy naqd pulsiz hisob-kitoblar mexanizmlarini joriy etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar banklarimiz tomonidan mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati, to'lov intizomi va madaniyatini yangi bosqichga ko'tarilishini ta'minlash bilan birga, barcha iqtisodiy tarmoqlar taraqqiyotini mustahkamlashga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING YANGI BOSQICHIDA MOLIYA-BANK TIZIMINI INNOVATSION BOSHQARISHNING ASOSIY TENDENSIYALARI

Kaxxarova Dilnoza Shavkatovna
Prognozlashtirish va makroiqtisodiy
tadqiqotlar instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada bank tizimini yanada mustahkamlash, aholiga bank xizmatlarini yaxshilash, pulning qadrsizlanishini oldini olish va tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida kam foizli kredit ajratish va talabalar uchun ham shunday imtiyozli kreditlar berish kabi dolzarb masalalar ta'kidlab o'tilgan.

Kalit so'zlar. Bank tizimi, bank qonunchiligi, jamg'armalar, foizlar, kreditlar

Аннотация. В статье подчеркивается необходимость дальнейшего укрепления банковской системы, улучшения банковских услуг населению, предотвращения девальвации денег и предоставления кредитов под низкие проценты для поддержки предпринимателей, а также предоставления льготных кредитов студентам.

Ключевые слова. Банковская система, банковское законодательство, Сбережения, проценты, кредиты

Annotation. The article highlights the need to further strengthen the banking system, improve banking services to the population, prevent the

devaluation of money and provide low-interest loans to support entrepreneurs, as well as the provision of such soft loans for students.

Keywords. Banking system, banking legislation, Savings, interest, loans

Respublikamizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mamlakatimiz katta yutuqlarga erishib kelmoqda. Bu erishilayotgan yutuqlarda, albatta, mahalliy hududlarning moliyaviy sohadagi olib borayotgan ishlari katta ahamiyatga egadir.

O'zbekiston banklari milliy iqtisodiyotga ta'sir etuvchi qudratli tuzilmaga aylanish uchun rivojlanishning uzoq evolyutsion, ya'ni tadrijiy yo'lini bosib o'tishiga, anchagina mashaqqatlarni bartaraf etirishiga to'g'ri keldi. Buni esa bir necha bosqichlar misolida ko'rishimiz mumkin.

Eng avvalgi bosqich milliy valyutani muomalaga kiritish uchun asos yaratilgan va ikki pag'onali bank tizimining poydevori qurilgan 1991-1994-yillarni o'z ichiga oladi. Aynan shu vaqtdan boshlab Markaziy bankning pul-kredit siyosatini yuritish, valyutaga oid ishlarni tartibga solish, bank faoliyatini boshqarish va samarali to'lov tizimini yaratish bo'yicha faoliyat to'laqonli ravishda milliy valyutaning barqarorligini ta'minlashga qaratildi.

1995-yil bank qonunchiligini takomillashtirish davri bo'lgani bilan ajralib turadi. Tarixiy muhim hujjat –“O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki to'g'risida”gi Qonun nafaqat bank tizimining huquqiy asosini boyitdi, balki O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yangi, alohida maqomi va vakolatlarini, asosiy maqsad-vazifalarini aniq-ravshan belgilab berdi. Shu bilan bir qatorda, mazkur yilda aholiga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, kredit va deposit bozorlarida raqobat muhitini shakllantirish uchun zarur sharoitlar yaratildi. Banklarning kapital hajmiga jalb etiladigan aholi jamg'armalari miqdorini cheklovchi qoida bekor qilingach, bank muassasalarining imkoniyatlari sezilarli darajada kengaydi va raqobat kuchaydi. 1994-yil boshida aholi jamg'armalarining 98,5 % Xalq banki, 1,5% esa boshqa banklar hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, shu yil oxiriga kelib tijorat banklarining hissasi oshib, bu ko'rsatkich 12,8 % ga yetdi. Ko'rsatkichlarga bugungi ko'z nazari bilan qaraydigan bo'lsak, u juda yuqori – 90,3 % ni tashkil etmoqda.

1996-yil qabul qilingan “Banklar va bank faoliyati to'g'risida” gi Qonun ikkinchi darajali bank tizimi –tijorat banklari faoliyatining huquqiy asosini ancha mustahkamladi. Qarorlarni qabul qilish jarayonida rivojlangan mamlakatlar moliya tizimi tajribalari asos qilib olindi.

1997-yil asosan bank sektorida xususiy kapital oqimini rag'batlantirishdan iborat bo'ldi. Bu jarayon asosan “Xususiy tijorat banklarini tashkil qilishni

rag`batlantirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi farmondan so`ng jadallashdi. Shu yilning mart oyidan yangi dasturiy ta`minot joriy etilib, barcha hisob-kitoblar avtomatik rejimda amalga oshirila boshlandi. Bu esa to`lovlarni respublika bo`ylab 15 daqiqa mobaynida, Toshkent viloyatining chekka joylarida 3 daqiqada amalga oshirish imkonini yaratdi.

1998-2000-yillarda barcha banklar Bazel tajribasiga muvofiq ish yurita boshladi. Valyuta bozorida xorijiy valyutalar savdosi mexanizmi yo`lga qo`yildi. Mazkur mexanizm vakolatli banklarning xorijiy valyutada talab va taklifdan kelib chiqib, o`z mijozlaridan shartnoma asosida erkin kurs bo`yicha valyutalar sotib olishini ko`zda tutadi.

2000-2010-yillar oralig`idagi kichik muddat katta o`zgarishlarga boy davr bo`ldi. Eng asosiysi, birinchi marta zamonaviy infratuzilmaga ega samarali bank tizimi tashkil etildi. Mazkur davrda O`zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov mamlakatimiz bank-moliya tizimini rivojlantirish, uning faoliyatini mustahkamlash va sifatini oshirish masalalariga asosiy e`tiborni qaratdi. Shu o`zgarishlar natijasida bu davr bank-moliya tizimining izchil rivojlanishida yangi bosqich sifatida qayd etildi.

O`zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining 2010-yil 16-noyabrdagi 1438-sonli “2011-2015-yillarda respublika moliya-bank tizimini yanada isloh qilishva barqarorligini oshirish hamda yuqori xalqaro reyting ko`rsatkichlariga erishishning ustuvor yo`nalishlari to`g`risida”gi qarorining qabul qilinishi, respublika bank tizimida yangidan sifat tuzulishini takomillashtirishga qaratilgan bosqichni boshlab berdi.

2016-yildan hozirgacha bo`lgan davr bank-moliya sohasida juda katta burilish yasadi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi № PF-4947-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasi”, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining “Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to`g`risida” gi 2017-yil 12- sentyabrdagi PQ-3270-sonli qarori, 2020-yil 12-mayda O`zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5992-sonli “2020-2025-yillarga mo`ljallangan O`zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi, O`zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish bo`yicha “Yo`l xaritasi” va strategiyani amalga oshirishning maqsadli ko`rsatkichlari tasdiqlandi.

Bu farmonlarda bank tizimini yanada mustahkamlash, aholiga bank xizmatlarini yaxshilash, pulning qadrsizlanishini oldini olish va tadbirkorlarni

qo`llab-quvvatlash maqsadida kam foizli kredit ajratish va talabalar uchun ham shunday imtiyozli kreditlar berish kabi dolzarb masalalar ta`kidlab o`tilgan.

Shuningdek, “Doing Business”ning so`nggi hisobotiga ko`ra, O`zbekiston iqtisodiyotni yaxshilashning 5 bosqichi bo`yicha eng yaxshi 10 mamlakat safiga kirdi. Bu, albatta, yaqin yillar ichida o`tkazilayotgan tub islohotlarni to`g`ri yo`naltirilganligidan darak beradi. Yaqin kelajakda-aniqroq aytadigan bo`lsak, 2030-yilga borib davlatimiz ham rivojlangan davlatlar qatoriga qo`shilishni rejalashtirgan. Bundan ko`rinib turibdiki, davlatimiz jahon hamjamiyati orasida nufuzli o`ringa ega bo`lishida, boshqa sohalar qatori moliya-bank sohasida ham bo`layotgan qator yangiliklanishlar o`z ko`zlagan maqsadini beradi,- deb bemalol aytishimiz mumkin.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 11-sentabrdagi qarori bilan asosiy stavka yillik 14 foiz darajasida belgilandi. Yillik inflyatsiya darajasi 2020-yil yakunida 11,1 foizni tashkil etdi. Jumladan, 2021 yilda esa 9-10 foiz atrofida bo`lishi kutilmoqda.

2017-2021 yillarda O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo`yicha Harakatlar strategiyasida ilg`or xalqaro tajribada qo`llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashning zaruriy shartlaridan biri ekanligi e`tirof etilgan. Shuningdek, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3272-sonli “Pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida”gi qarorida umumiy iqtisodiy, soliq-budjet va pul-kredit siyosati o`rtasidagi muvofiqlashtirish amaliyotini takomillashtirish, pul-kredit siyosatining likvidlikni berish va jalb qilish operatsiyalari bo`yicha qo`llanilayotgan foizli instrumentlardan foydalanishni kengaytirish kabi pul-kredit siyosatini takomillashtirish bo`yicha dolzarb vazifalar qo`yilgan.

Bizning nazarimizda monetar siyosatni takomillashtirish bilan bog`liq bo`lgan muammolar mavjud. Ulardan asosiylari, fikrimizcha, quyidagilardan iborat: Markaziy bank diskont siyosatining mavjud emasligi; Markaziy bank ochiq bozor operatsiyalari hajmining kichikligi; Markaziy bank majburiy zaxira stavkalarining yuqori ekanligi.

2020 yilda O`zbekiston Hukumati qimmatli qog`ozlarining emissiya hajmi 1,6 trln. so`mni tashkil etdi. O`z navbatida, davlat qimmatli qog`ozlari emissiya hajmi 2020 yilning 1 yanvar holatiga ko`ra respublika tijorat banklarining yuqori likvidli aktivlariga nisbatan atigi 3,4 foizni tashkil etdi¹⁵⁰.

Bu esa, kichik hajmdagi emissiya hajmi bo‘lib, Markaziy bankka ochiq bozor operatsiyalari hajmini sezilarli darajada oshirish imkonini bermaydi.

Xorijlik istisodchi olimlardan biri S.Moiseevning xulosasiga ko‘ra, hozirgi vaqtda ochiq bozor operatsiyalari taraqqiy etgan mamlakatlarda monetar siyosatning asosiy vositasi hisoblanadi. Ochiq bozor operatsiyalari markaziy banklarga o‘zining tashabbusi bilan bitimlar tuzish, ya’ni pulkredit operatsiyalarining vaqtini va hajmini belgilashda yanada moslashuvchan bo‘lish imkonini beradi.

Ta’kidlash joizki, Markaziy banklarning ochiq bozor operatsiyalari ilk marta yuzaga kelganida uning ob’ekti bo‘lib, faqat hukumat tomonidan chiqarilgan qimmatli qog‘ozlar hisoblanar edi. Yillar o‘tishi bilan inovatsion g‘oyalar asosida uning ob’ektlari soni ko‘paydi. Xususan, hozirgi davrda, depozit sertifikatlaridan (Niderlandiya, Daniya, Ispaniya markaziy banklari, Yevropa Markaziy banki), moliyaviy veksellardan (Angliya Markaziy banki, Shvesiya Riks banki, Germaniya Bundesbanki, Yaponiya Markaziy banki), korporativ obligatsiyalardan (Janubiy Koreya, Chili, Rossiya markaziy banklari) ushbu operatsiyalarning ob’ekti sifatida foydalanilmoqda.

Fikrimizcha, yuqorida qayd etilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. COVID-19 pandemiyasi sharoitida monetar siyosatning vositalaridan foydalanish amaliyotini takomillashtirish yo‘li bilan uning makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini oshirish uchun, birinchidan, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga birlamchi, ikkilamchi va mavsumiy diskont kreditlarini berish amaliyotini joriy qilish kerak; ikkinchidan, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini joriy likvidlilik darajasi 50 foiz va undan yuqori bo‘lgan tijorat banklarining obligatsiyalari va depozit sertifikatlarini ochiq bozor operatsiyalari ob’ektiga aylantirish orqali oshirish lozim;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentabrdagi “Pulkredit siyosatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3272-sonli qarori. www.lex.uz. Davlat qimmatli qog‘ozlari//www.cbu.uz (O‘zbekiston Respublikasining Markaziy banki). uchinchidan, Markaziy bankning tijorat banklarining 1 yildan ortiq muddatga jalb qilingan xorijiy valyutalardagi depozitlariga nisbatan majburiy zaxira stavkasini milliy valyutadagi depozitlarga o‘rnatilgan stavka darajasida belgilash kerak.

2. Likvidlilik darajasi yuqori bo'lgan tijorat banklarining obligatsiyalari va depozit sertifikatlarini ochiq bozor operatsiyalarining ob'ektiga aylantirilishi Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalari hajmini oshirish imkonini beradi.

3. Markaziy bankning tijorat banklari kreditlarining foiz stavkalariga ta'sir etish imkoniyatini oshirish uchun, birinchidan, inflyatsiyaning mo'tadil darajasiga (yillik darajasini 3 foizdan oshmasligiga) erishishni ta'minlash kerak; ikkinchidan, Markaziy bankning qayta moliyalash kreditlari (diskont krediti, lombard krediti, overdraft, muddatli kredit) berish amaliyotining uzluksizligini ta'minlash lozim; uchinchidan, davlat qimmatli qog'ozlarini to'g'ri REPO sharti bilan joylashtirish hajmini oshirish yo'li bilan tijorat banklariga depozitlar taklifiga ta'sir ko'rsatish zarur.

4. Fikrimizcha, Markaziy bankning ochiq bozor operatsiyalarini boshqa turdagi qimmatli qog'ozlardan, xususan, tijorat banklarining depozit sertifikatlari va uzoq muddatli obligatsiyalaridan ob'ekt sifatida foydalangan holda, yo'lga qo'yish lozim. Buning uchun yetarli imkoniyatlar, shart-sharoitlar mavjud. Ya'ni, to'lovga qobilligi va likvidligi talab darajasida bo'lgan tijorat banklari mavjud. Ikkinchidan, tijorat banklari depozit sertifikatlari va uzoq muddatli obligatsiyalarining katta hajmdagi emissiyasi mavjud.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, yuqorida keltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarning amalga oshirilishi shubhasiz monetar siyosatning rolini oshirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // "Xalq so'zi" gazetasi. 2020 yil 25 yanvar

2. Gulyamov S.S., Ayupov R.H, Abdullaev O.M., Baltabaeva G.R. Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar. - T.: TMI, "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2019.

3. UN E-Government knowledge base 2018

4. The Boston Consulting Group (BSG)

6. <http://mitc.uz/uz/news/view/1186>

7. <https://www.texnoman.uz/post/raqamli-iqtisodiyot-nima.html>

ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ

Эгамова М.Э.

PhD. и.о.доц кафедры «Финансы-кредит»

Банки владеют в современном мире уже не только деньгами, но еще и огромным массивом данных обо всех доходах и расходах своих клиентов. Когда платежи перешли в онлайн, а магазины научились отдавать развернутую информацию о совершенной покупке (а не только сумму чека), банки узнали все о потребительских привычках — например, какой вкус мороженого и в каком магазине вы предпочитаете. Возникает логичный вопрос: что делать с этой информацией — хранить как бесполезную или использовать для дополнительных услуг, чтобы создавать добавленную стоимость? Очевидно, что выгоднее второе.

На этом этапе банки приходят к необходимости внедрения искусственного интеллекта. Дело в том, что обработка таких объемов информации доступна лишь искусственному интеллекту, и именно на базе его алгоритмов банки смогут вскоре запустить целый набор новых сервисов. Как это может выглядеть на практике в гипотетическом примере с мороженым: банковское приложение на основе истории покупок и геолокации, а также интеграции со сторонними фуд-сервисами дает рекомендации по выбору в ближайшем кафе. Пользователь оплачивает покупку прямо в приложении. Банк наращивает число транзакций и замыкает на свое суперприложение большинство интересов пользователя.

В 2018 году банки заработали около \$41,1 млрд благодаря использованию искусственного интеллекта. В эту сумму входят как прямые доходы от внедрения таких технологий, так и объем сокращенных расходов и выгода от повышения эффективности работы финансовых организаций (по сравнению с тем, если бы они оставили те же процессы и инфраструктуру). Об этом свидетельствуют данные аналитиков IHS Markit, обнародованные 10 апреля 2019 года.




Рис 1. Прогноз по доходам банков от искусственного интеллекта в разных регионах, данные IHS Markit³⁸

По прогнозам специалистов, к 2030 году коммерческие ИИ-проекты принесут банкам в общей сложности \$300 млрд. Специалисты говорят, что искусственный интеллект совершает революцию в банковском секторе, выявляя мошенничество в финансовых операциях на основе заранее определенного набора правил.

Крупнейшим рынком использования ИИ-решений в банковском секторе остается Северная Америка: там компании заработали \$14,7 млрд на таких технологиях по итогам 2018 года. К 2030-му экономический эффект от внедрения искусственного интеллекта в регионе подскочит до \$79 млрд, прогнозируют аналитики.

Однако к 2024 году в лидеры вырвется Азиатско-Тихоокеанский регион, где банки заработают и сэкономят благодаря ИИ около \$50,6 млрд против \$11,5 млрд в 2018-м. К 2030 году показатель поднимется до \$98,6 млрд во многом благодаря спросу в таких странах, как Китай (включая Гонконг), Япония, Южная Корея и Сингапур

Однако внедрение технологий искусственного интеллекта в банковской отрасли несет и негативные последствия — сокращения рабочих мест и перераспределение кадров в связи с улучшением продуктивности работы финансовых компаний за счет ИИ-технологий. По прогнозам аналитиков, искусственный интеллект повлияет на десятки миллионов рабочих мест в глобальной финансовой индустрии. В США, например, это коснется 1,3 млн человек к 2030 году, а в Великобритании — 500 тыс.

Среди банковских служащих, на которых может повлиять

³⁸ https://www.tadviser.ru/index.php/Статья:Искусственный_интеллект_в_банках

распространение ИИ, в IHS Markit назвали кассиров, сотрудников отделов клиентского обслуживания, интервьюеров и клерков, финансовых менеджеров, контролеров и кредитных специалистов.

Несмотря на активное использование искусственного интеллекта зарубежными банками, большинство из них пока не успели внедрить его в свою работу на глобальном уровне. В отчете о цифровом банковском обслуживании осенью 2017 года подавляющее большинство финансовых учреждений отметило, что в той или иной мере использовало машинное обучение, но, как отмечают аналитики, лишь менее 20% вышли за рамки простейших методик работы с искусственным интеллектом.

Что касается Республики Узбекистан планируется сотрудничество с группой «Сбер», внедрение технологий искусственного интеллекта SubTech и RegTech для мониторинга за коммерческими банками, а также для анализа качества оказания банковских услуг, удаленной биометрической идентификации Face-ID. Было принято Постановление Президента №4996 от 17.02.2021 «О мерах по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта». В частности, в банковской сфере будет предусмотрено применение технологий искусственного интеллекта для повышения эффективности мониторинга за деятельностью коммерческих банков и упрощения выполнения ими регуляторных требований (SubTech и RegTech), а также для анализа качества оказания банковских услуг, удаленной биометрической идентификации (Face-ID) пользователей и оценки кредитных рисков. Мининфоком, АК «Алокабанк», АО «Национальный банк внешнеэкономической деятельности» совместно с Группой «Сбер» (Россия) ведет работу по налаживанию взаимодействия в сфере внедрения технологий искусственного интеллекта. Но пока что все это в планах, а на деле банки до сих пор используют традиционное обслуживание клиентов.

БАНК КРЕДИТЛАРИ ГАРОВ ТАЪМИНОТИ ВА УЛАРНИ БАҲОЛАШДА МОЛИЯВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ЎРНИ

**Абдикаримова Динара Рустамхановна –
PhD, доцент, ТМИ**


Банк кредитлари гаров таъминоти самарали шакллантириш, уларни баҳолаш фаолиятини ташкил этиш ҳамда кредитлар самарадорлигини оширишнинг асосий жиҳатларидан бири гаров ҳисобланади. Гаров кредит шартномасининг фоиз ставкаси, муддати, ҳажми ва ушбу кредитнинг ҳар қандай мумкин бўлган келишуви билан бирга белгиловчи хусусиятидир.

Халқаро амалиётда гаров банкларга иккита асосий муаммони ҳал қилишга ёрдам беради. Биринчидан, банк ўзининг потенциал йўқотишларини гаров билан чеклаши мумкин. Иккинчидан, гаров банклар ва қарз олувчилар ўртасидаги ахборот ассиметрияси муаммосини ҳал қилиши мумкин, бу эса қарз олувчиларнинг банклар учун мавжуд бўлмаган шахсий маълумотларидан келиб чиқади.

Биринчи муаммони ҳал қилиш учун гаровдан фойдаланиш мумкинлиги тушунарли, аммо бу жараёнда муайян муаммолар мавжудлигини таъкидлаш керак. Иккинчи вазиятда ахборот ассиметрияси муаммосини ҳал қилишда гаровга ёндашувларни иккита асосий оқимга бўлиш мумкин. Биринчидан, гаров банкларга қарз олувчининг молиявий аҳволи тўғрисида аниқ маълумот бериш воситаси сифатида ишлатилиши мумкин. Кредитга лаёқатлилиги тўғрисида шахсий маълумотларга эга бўлган юқори даромадли қарз олувчилар кредитни тўламай қолишлари ва гаров таъминотини йўқотиш эҳтимоли камроқ эканлигини билишади. Шу сабабли юқори молиявий аҳволга эга бўлган қарз олувчилар бошқа қарз олувчиларга қараганда кўпроқ кредит олишади.

Халқаро амалиётда қарз олувчилар ўзлари маъқул кўрган шартномани танлашлари мумкин ва улар юқори гаровни танлаш орқали юқори молиявий аҳволдаги қарз олувчи мақомига эга эканлигини эълон қилади. Гаров қарз олувчиларни фойда олишга қаратилган ҳаракатларга ёки кредитни тегишли инвестицияларга инвестиция қилишга ундайди. Умуман олганда, гаровни ахборот ассиметрияси муаммосининг ечими сифатида кўрадиган назариялар гаровнинг мавжудлиги ва қарз олувчининг таваккалчилиги ўртасида боғлиқлик мавжудлигини таъкидлайди.

Халқаро амалиётда компанияларнинг кредитга лаёқатлилигини баҳолаш учун молиявий технологиялардан фойдаланиш кредит бозорларида гаровга бўлган эҳтиёжни камайтириши мумкин. Шу соҳадаги халқаро ташкилотлардан бири бўлган Молиявий барқарорлик кенгаши (Financial Stability Board) томонидан ўтказилган 2019 йилдаги сўровномага кўра АҚШда кичик ва ўрта бизнес вакилларига берилган банк кредитларининг 90 фоизи гаровга қўйилган, Швейцарияда бу кўрсаткич 82 фоиз ва Канадада 65 фоиз бўлган. Кўпгина кичик ва ўрта бизнес вакиллари асосий ҳужжатларга эга бўлмаслик ҳолатлари кўп учрайдиган Хитойда бу кўрсаткич 53%ни ташкил этган. Молиявий технологияларнинг ривожланиши, айниқса, молиявий технологиялар билан шуғулланувчи компанияларнинг молиявий хизматларнинг турли молиявий хизматлар таклиф қилиши кичик ва ўрта бизнес вакиллари учун кредитларни баҳолашда тобора муҳим рол ўйнайди³⁹.



1-расм. Гаров таъминоти билан боғлиқ рисклар⁴⁰

1-расмда гаров билан боғлиқ рисклар тасвирланган. Банклар гаров билан кредит беришда бундай рискларни ҳисобга олишлари керак. Бундан ташқари рақамли технологиялар жараённинг самарадорлигини ошириш учун банк ишида гаров сифатида ёрдам беради.

Юқоридаги жиҳатларга қўшимча равишда айтишимиз мумкинки, банк кредитлари гаров таъминотини шакллантириш ва уларни баҳолаш амалиёти самарадорлигини оширишда ушбу фаолиятни тартибга солиш

³⁹ Leonardo Gambacorta, Yiping Huang, Zhenhua Li, Han Qiu. Data, Collateral, and Implications for the Credit Cycle. Dec 09, 2020; <http://voxcchina.org/show-3-208.html>

⁴⁰ www.ibankguru.com – information of formal website on Investment Banking; <https://www.ibankguru.com/attributes-of-a-good-collateral/#:~:text=In%20lending%20agreements%2C%20collateral%20is,terms%20of%20the%20loan%20agreement.>

механизмларининг ҳам аҳамияти катта ҳисобланади. Бугунги кунда халқаро даражадаги регуляторларнинг баъзи жиҳатлари маълум бир мамлакатлар учун мос келмаслиги мумкин. Бундай ҳолларда маҳаллий регуляторлар ва назоратчилар томонидан қўшимча механизмлар ишлаб чиқилиши мумкин. Бунда қуйидаги жиҳатларга эътибор қаратиш муҳим: молия тизимида ишлатиладиган гаров қийматлари тўғрисида маълумотлар базасини яратиш, баҳолаш усуллари ва даврийлигини инобатга олган ҳолда аниқроқ баҳолаш тизимини яратиш, гаровни баҳолаш учун ишлатиладиган дисконт ставкалари қоидаларини белгилаш ва тегишли молия бозори регуляторига баҳолаш соҳасида тўлиқ ёки қисман назоратни ўз ичига олган кенгроқ ваколат бериш шулар жумласидандир.

Гаров ва баҳолаш фаолиятини самарали ташкил этишда молиявий технологиялар, блокчейнга асосланган регистрлар томонидан қўллаб-қувватланадиган гаров билан ишлашнинг янги техникаси ва процедуралари гаровдан фойдаланишни янада самарали, арзонроқ ва хавфсизроқ қилади. Бу гаровдан фойдаланишни кенгайтиришга ва натижада кредит олиш имкониятига эга бўлган компанияларнинг ривожланишига имкон беради.

Бугунги кунда рақамли технологиялар иқтисодий соҳаларни ривожлантириш ҳамда банк иши ва гаровни баҳолаш учун фойдали ва самарали воситалардан бири ҳисобланади. Бундай технологиялардан тадбиркорлик субъектлари ва банкларнинг асосий мақсадларига эришиш учун фойдаланиш жуда муҳим, шунинг учун банклар кредит бериш ва гаровни баҳолашни рақамлаштириш йўллари излашлари керак.

ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ ДИВИДЕНД СИЁСАТИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШДА МОЛИЯВИЙ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ РОЛИ

**Кунаров Руслан Рустамович
Мустақил тадқиқотчи, ТМИ**

Халқаро амалиётда тижорат банклари дивидендларига таъсир кўрсатадиган бир қатор молиявий кўрсаткичларга алоҳида эътибор қаратилади. Мазкур кўрсаткичларни аниқлашда вақт ва маблағни тежаш учун молиявий технологиялардан самарали фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Шунингдек, молиявий кўрсаткичларни ўрганиш тижорат

банкларининг молиявий ҳолатининг бугунги ва келажакдаги ҳолатларини прогноз қилишга имкон беради. Бундай кўрсаткичларга активларни бошқариш кўрсаткичи, левереж кўрсаткичи, рентабеллик кўрсаткичи, баҳолаш кўрсаткичи, ўсиш суръати кабилар киради. Ушбу кўрсаткичларга қуйида тўхталиб ўтамиз (1-жадвал).

1-жадвал

Дивидендларга таъсир қилувчи кўрсаткичлар ва уларнинг қўлланилиши⁴¹

Кўрсаткичлар	Тури	Қисқартмаси	Қўлланилиши
Активларнинг даромадлиги	Боғлиқ	ROA	Молиявий самарадорликни ўлчаш учун
Капитал рентабеллиги	Боғлиқ	ROE	Молиявий самарадорликни ўлчаш учун
Дивиденд бўйича даромадлилик	Мустақил	DY	Дивиденд бўйича даромадлилик = акция учун тўланган дивидендлар / акция нархи
Дивидендларни тўлаш коэффиценти	Мустақил	DPR	Компания томонидан тўланган дивидендлар унинг даромадига нисбати
Жорий коэффицент	Мустақил	CRA	Жорий активлар жорий мажбуриятларга бўлинган ҳолда ўлчанади
Левереж коэффиценти	Мустақил	LRA	Жами қарзлар умумий активларга бўлинган ҳолда ўлчанади
Тижорат банки ҳажми	Мустақил	FSIZE	Жами активларнинг натурал логарифми

Тижорат банклари дивиденд сиёсатини таҳлил қилишда нуқоридагилардан ташқари яна бир қатор қуйидаги кўрсаткичларни ҳам инобатга олиш лозим⁴².

Фаолият ёки активларни бошқариш кўрсаткичлари. Бу даромад олиш учун активлардан фойдаланишда бошқарув самарадорлигини кўрсатади.

⁴¹ Raed KANAKRIYAH. Dividend Policy and Companies' Financial Performance. // Journal of Asian Finance, Economics and Business Vol 7 No 10 (2020) 531–541. <https://www.koreascience.or.kr/article/JAKO202029062616556.pdf>

⁴² Ўша жойда.

Фаолиятни баҳолаш учун бир қатор кўрсаткичлар қўлланилади. Жумладан, акцияларнинг айланмаси, сотиш даври, капитал айланмаси, асосий воситаларнинг айланмаси ва умумий активлар айланмаси ва бошқалар.

Леверезж кўрсаткичи ёки қарзни бошқариш. Бу банкнинг қарз орқали молиялаштириш даражасини билдиради. Мулкдорлар томонидан молиялаштиришдан кўра қарз орқали молиялаштириш воситаларини муваффақиятли қўллаш келажакда акциядорларга даромадни ошириш имконияти ошишини англатади. Ушбу кўрсаткич учун умумий қарзнинг жами активларга нисбати ва қарздорликнинг умумий молиявий капиталга нисбати қўлланилади.

Рентабеллик кўрсаткичлари. Булар банкнинг фойда олишдаги самарадорлигини баҳолайди. Агар банк етарли фойда олмаса, унинг келажакда хавф остида қолади. Ушбу рентабелликни баҳолаш учун ишлатиладиган кўрсаткичлар сотишдан соф фойда маржаси, инвестициялар рентабеллиги, ўз капиталининг рентабеллиги ва ҳар бир акцияга тўғри келадиган даромад кабилардир.

Баҳолаш кўрсаткичлари. Бу нисбатлар банк акцияларининг бозор қийматини оширишга қаратилган. Банк акцияларининг нархи битта акциянинг номинал қийматига боғлиқ. Бу коэффицентлар бир қанча кўрсаткичларга эга, жумладан, оддий акцияга тўғри келадиган акция баҳоси ва акциянинг номинал қийматига нисбатан бозор қиймати.

Ўсиш суръати. Банкнинг ўсиш даври миллий даромад ёки ялпи миллий маҳсулотнинг ўсиши ёки компания фаолият кўрсатаётган секторнинг ўсиши билан ифодаланадиган миллий иқтисодиётнинг ўсиши доирасида ўлчанади. Қўлланиладиган кўрсаткичлар соф даромаднинг ўсиши, оддий акцияга тўғри келадиган фойданинг ўсиши ва битта оддий акцияга тўғри келадиган дивиденднинг ўсиши кабилардир.

Хорижий тажрибалардан кўринадики, дивидендлар корпоратив бошқарувнинг қай даражада йўлга қўйилганлигини белгиловчи кўрсаткичлардан ҳисобланади. Самарали дивиденд сиёсати инвесторларнинг бир қатор хавотирларининг олдини олади, хусусан, доимий назоратни амалга ошириш ёки юзага келиши мумкин бўлган самарасиз инвестициялар ҳақида камроқ ташвишланишини англатади. Оқилона дивиденд сиёсати банк даромадларининг ўсишига, капиталга бўлган талабга ва ўз стратегиясини потенциал инвесторларга қай даражада еткази олишига боғлиқ. Гарчи нақд дивидендлар банк инвесторлари томонидан азалдан афзал кўрилсада, банкларда узоқ давом этган паст

депозит фоиз ставкалари ва банклар киритилган инвестициялар тобора кўпроқ фойда келтиради, деган тушунча дивидендларни тўлашнинг аҳамиятини оширди.

БУХГАЛТЕРИЯ ҲИСОБИНИ ЮРИТИШДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ ЎРНИ ВА ҚЎЛЛАНИЛИШИ

Кулибоев А.Ш.
ТМИ таянч докторанти

Ахборот технологиялари бухгалтерия ҳисобига XX асрда кириб келди. Биринчи UNIVAC маркали компьютер бухгалтерия соҳасида 1951 йилда қўлланилган бўлиб, шундан бошлаб дунёнинг етакчи иқтисодчи олимлари томонидан бухгалтерия ҳисобини автоматлаштириш бўйича узок йиллардан буён илмий тадқиқот ишлари олиб борилмоқда.

Тадқиқот натижаларига кўра ҳозирги кунга келиб, дунёдаги йирик ташкилотлар ва компаниялар ҳисоб ишлари тўлиқ автоматлаштирилган тартибда юритилишига эришди. Ахборот технологиялари соҳасида янги атамалар пайдо бўлди. Шулардан бири “сунъий интеллект” атамаси бўлиб, ҳозирги кунда барча соҳаларга татбиқ этилмоқда.

Сунъий интеллект (СИ) — информатиканинг алоҳида соҳаси бўлиб, одатда инсон онги билан боғлиқ имкониятлар: тилни тушуниш, ўргатиш, муҳокама қилиш, масалани ечиш, таржима ва шу каби имкониятларга эга компьютер тизимларини яратиш билан шуғулланади. Ҳозирда СИ турли амалларни бажаришга мўлжалланган алгоритм ҳамда дастурий тизимлардан иборат ва у инсон онги бажариши мумкин бўлган бир қанча вазифаларнинг уддасидан чиқа олади.

Сунъий интеллект ҳозирги ахборот асрида ниҳоятда долзарб бўлиб, инсоният сунъий интеллект орқали XXI асрнинг глобал муаммоларига илм-фанда янги имкониятларни кашф этиш йўли билан ижобий ечимларни топади. Шунингдек, бу тиббиёт, таълим, энергетика, қишлоқ хўжалиги, шаҳарсозлик ва бошқа барча соҳаларда сифатли хизмат кўрсатиш имкониятларини оширади.

Сунъий интеллект компанияларда бухгалтерия ҳисобини юритишга ҳам сезиларли таъсир кўрсатмоқда.

Вақт ва пул тежалаш орқали сунъий интеллектга асосланган бухгалтерия ҳисоби мутахассислари, ўзлари фаолият юритаётган компаниянинг рақобатбардошлигини сақлаб қолишга ҳамда ташкилотга энг яхши ходимлар ва мижозларни жалб қилишга ёрдам беради. Ҳар бир бухгалтерия мутахассислари компания харажатларини ва мажбуриятларини бажариш учун кетадиган вақтни имкон қадар қисқартиришга қизиқади. Бунинг учун мутахассислар компания мижозлари талаб қиладиган хизматларни ўз вақтида тақдим этишлари ва бизнесдаги бошқа мутахассислар билан рақобатлашиши учун улар сунъий интеллектдан фойдаланишни мукамал ўрганишлари керак.

Бухгалтерия ҳисобини юритишга янги технологияларни жорий қилиниши ушбу соҳа мутахассисларининг ишлаш усубини ўзгартиришга олиб келмоқда. Бу ўз навбатида компания билан ишлайдиган мижозларга ҳам ижобий таъсир қилмоқда.

Сунъий интеллектнинг бухгалтерия мутахассислари учун афзалликлари қуйидагилардан иборат:

- мутахассисларга ўз вазифаларини бажариш учун зарур бўлган вақтни кескин қисқартириш, компания мижозларига маслаҳат беришга кўпроқ вақт ажратиш имконини беради;
- бухгалтерия операцияларига сунъий интеллектни қўллаш орқали ҳисоб ишларининг сифати яхшиланади, хатолари камаяди;
- маълумотларни тақдим этиш имкониятлари яхшиланади;
- сунъий интеллект кўпинча молиявий масалаларнинг ҳолати ҳақида реал вақт режимида маълумот беради;
- кўп вақт талаб қиладиган ҳисоб ишларини тезлик билан бажаради.

Сунъий автоматлаштириш технологиясидан фойдаланган ҳолда бухгалтерия ҳисоби ҳужжатларини автоматик авторизация қилиш ва қайта ишлаш бир нечта ички бухгалтерия жараёнларининг яхши ишлашига олиб келади.

Юқоридагилардан хулоса қилиб шуни таъкидлаш мақсадга мувофиқки, сунъий интеллектни қўллаб-қувватлайдиган тизимлар ёрдамида бухгалтерлар ўз мижозлари билан муносабатларни ўрнатиш ва уларга ўзларининг танқидий фикрларини тақдим этиш ҳуқуқларига эга бўладилар.

BANK SOHASIDA SUN'IY INTELEKTNING QO'LLANILISHI

Ishanxodjayeva D.I.,
Ilmiy rahbar
Nosirova Mardona,
Bank ishi fakulteti talabasi

Sun'iy intellekt (AI) texnologiyasi deyarli har bir sohada muhim buzuvchiga aylandi va bank ishi bundan mustasno emas. Bank ilovalari va xizmatlarida sun'iy intellektning joriy etilishi sektorni mijozlarga yo'naltirilgan va texnologik jihatdan dolzarbroq qilib qo'ydi. Sun'iy intellektga asoslangan tizimlar samaradorlikni oshirish va inson agenti tushunib bo'lmaydigan ma'lumotlarga asoslangan qarorlar qabul qilish orqali banklarga xarajatlarni kamaytirishga yordam beradi. Shuningdek, aqlli algoritmlar bir necha soniya ichida anomaliyalar va soxta ma'lumotlarni aniqlashga qodir.

Business Insider hisoboti shuni ko'rsatadiki, banklarning qariyb 80 foizi sun'iy intellekt o'z sektoriga qanday foyda keltirishidan xabardor. Boshqa bir hisobotga ko'ra, 2023 yilga borib banklar sun'iy intellekt ilovalari yordamida 447 milliard dollar tejashlari kutilmoqda. Bu raqamlar bank va moliya sektori samaradorlik, xizmat ko'rsatish, samaradorlik va daromadlilikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun sun'iy intellektga shiddat bilan o'tayotganidan dalolat beradi

Sun'iy intellekt texnologiyalari biz yashayotgan dunyoning ajralmas qismiga aylandi va banklar ushbu texnologiyalarni o'z mahsulotlari va xizmatlariga keng miqyosda integratsiyalasha boshladilar.

Sun'iy intellekt banklarga onlayn moliya xavfsizligini yaxshilashga, tizimlaridagi bo'shliqlarni kuzatishga va xavflarni minimallashtirishga yordam beradi. AI mashinani o'rganish bilan birga firibgarlik harakatlarini osongina aniqlashi va mijozlarni, shuningdek banklarni ogohlantirishi mumkin.

Masalan, Daniyaning eng yirik banki Danske Bank o'zining eski qoidalarga asoslangan firibgarlikni aniqlash tizimini almashtirish uchun firibgarlikni aniqlash algoritmini joriy qildi. Ushbu chuqur o'rganish vositasi bankning firibgarlikni aniqlash qobiliyatini 50% ga oshirdi va noto'g'ri pozitivlarni 60% ga qisqartirdi. Tizim, shuningdek, ko'plab muhim qarorlarni avtomatlashtirdi va ba'zi ishlarni keyingi tekshirish uchun tahlilchilarga yubordi.

Banklar ko'proq ma'lumotga ega, xavfsizroq va foydali kredit va kredit qarorlarini qabul qilish uchun sun'iy intellektga asoslangan tizimlarni o'rnatishni boshladilar. Hozirgi vaqtda ko'pgina banklar jismoniy shaxs yoki

kompaniyaning kreditga layoqatliligini aniqlash uchun kredit tarixi, kredit ballari va mijozlar ma'lumotnomalaridan foydalanish bilan juda cheklangan.

Biroq, ushbu kredit hisobot tizimlari ko'pincha xatolar, haqiqiy dunyo tranzaktsiyalari tarixi yo'qligi va kreditorlarni noto'g'ri tasniflash bilan to'la ekanligini inkor etib bo'lmaydi.

Sun'iy intellektga asoslangan kredit va kredit tizimi kreditga layoqatliligini aniqlash uchun cheklangan kredit tarixiga ega bo'lgan mijozlarning xatti-harakatlari va naqshlarini ko'rib chiqishi mumkin. Shuningdek, tizim banklarga defolt ehtimolini oshirishi mumkin bo'lgan muayyan xatti-harakatlar haqida ogohlantirishlar yuboradi. Muxtasar qilib aytganda, bunday texnologiyalar iste'mol kreditining kelajagini o'zgartirishda asosiy rol o'ynaydi .

Bozor tendentsiyalarini kuzatish. Moliyaviy xizmatlardagi sun'iy intellekt banklarga katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga va so'nggi bozor tendentsiyalari, valyutalar va aksiyalarni bashorat qilishga yordam beradi. Mashinani o'rganishning ilg'or usullari bozor kayfiyatini baholashga va investitsiya variantlarini taklif qilishga yordam beradi.

Bank ishi uchun AI, shuningdek, aksiyalarga sarmoya kiritish uchun eng yaxshi vaqtni taklif qiladi va potentsial xavf mavjud bo'lganda ogohlantiradi. Yuqori ma'lumotlarni qayta ishlash qobiliyati tufayli ushbu rivojlanayotgan texnologiya qaror qabul qilishni tezlashtirishga yordam beradi va savdoni ham banklar, ham ularning mijozlari uchun qulay qiladi.

Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilishda bank va moliya institutlari har kuni millionlab operatsiyalarni qayd etadilar. Yaratilgan ma'lumotlarning hajmi juda katta bo'lganligi sababli, uni to'plash va ro'yxatdan o'tkazish xodimlar uchun juda katta vazifaga aylanadi. Bunday katta hajmdagi ma'lumotlarni hech qanday xatosiz tizimlashtirish va yozib olish imkonsiz bo'lib qoladi.

Mijoz tajribasi . Mijozlar doimo yaxshiroq tajriba va qulaylikni izlaydilar. Misol uchun, bankomatlar muvaffaqiyatli bo'ldi, chunki mijozlar banklar yopilganda ham pul o'tkazish va yechib olish bo'yicha muhim xizmatlardan foydalanishlari mumkin edi.

Ushbu darajadagi qulaylik faqat ko'proq innovatsiyalarni ilhomlantirdi. Endilikda mijozlar o'z uylarida turib, smartfonlari yordamida bank hisob raqamlarini ochishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellektni bank va moliya xizmatlariga integratsiyalash iste'molchilar tajribasini yanada oshiradi va foydalanuvchilar uchun qulaylik darajasini oshiradi. AI texnologiyasi mijozingizni bilish (KYC) ma'lumotlarini yozib olish va xatolarni bartaraf etish

uchun ketadigan vaqtni qisqartiradi. Bundan tashqari, yangi mahsulotlar va moliyaviy takliflar o'z vaqtida chiqarilishi mumkin. Shaxsiy kredit yoki kredit olish uchun ariza berish kabi holatlar AI yordamida avtomatlashtiriladi, ya'ni mijozlar butun jarayonni qo'lda bajarish bilan bog'liq qiyinchiliklarni bartaraf etishlari mumkin. Bundan tashqari, sun'iy intellektga asoslangan dasturiy ta'minot kredit berish kabi ob'ektlarni tasdiqlash vaqtlarini qisqartirishi mumkin. AI banking , shuningdek, mijozlar uchun muammosiz tajribani ta'minlab, hisoblarni xatosiz o'rnatish uchun mijoz ma'lumotlarini to'g'ri olishga yordam beradi.

БАНК СОҲАСИДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЕКТДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖ ТАЖРИБАСИ

**Шарапова Машхура Азадовна
ТМИ, “Молия-кредит” кафедраси доц. в.б.**

Интеллект инсонни ҳис қилиш, идрок этиш, хотира, тасвирлаш, фикрлаш, тасаввур қилиш каби қобилиятларини мужассам этган ҳолда муаммоларни ўрганиш ва ҳал қилиш қобилияти бўлса, сунъий интеллект - бу ақлли компьютер тизимларини, яъни инсон онги билан боғлайдиган имкониятларга эга бўлган тизимларни ишлаб чиқиш билан шуғулланадиган информатика соҳаси ёки бошқачароқ айтганда, ақлли машиналарни, айниқса ақлли компьютер дастурларини яратиш билан боғлиқ фан ва технологиядир.

Бугунги кунга келиб, сунъий интеллект авваллари тасаввур қилинганидек ақлли хатти-ҳаракатларга эга бўлган машиналарни ишлаб чиқиш, роботлар ясаш, дастурлаштириш каби масалалардан фарқли равишда фойдали сармояга айланиб, молия соҳасида фирибгарликларни аниқлаш, миждозларнинг кредит рейтинги, ресурсларни режалаштириш ва ҳисоботлар беришда кенг қўлланиб келинмоқда.

Хориж тажрибасига назар ташлайдиган бўлсак, сунъий интеллектдан фойдаланишда Россия банклари Европа ва ҳатто Америка банкларидан анча илгарилаб кетган десак хато бўлмайди. Маълумотларнинг киберхавфсизлиги учун масъул бўлган алгоритмлар фирибгарликни содир бўлишидан олдин аниқлаш имкониятига эга. Агар бирор киши кредит олса, сунъий интеллект ёрдамида уни кўпроқ параметрларни ҳисобга олган

холда мутахассисга қараганда тезроқ ва аниқроқ потенциал қарз олувчи сифатида баҳоланади.

Шунингдек, банклар кичик қарзлари бўлган миждозларга қўнғироқ қиладиган роботларни жорий қилишган. Автоматлаштириш натижасида 2019 йилда Алфа-Банк томонидан 7 та операцияни роботларга ўтказиш орқали олти ой ичида 20 миллион рублни тежаб қолинган. Агар сунъий интеллектга 30 тагача жараён ишониб топширилган бўлса, унда тўрт баравар кўпроқ - 85 миллион рублгача тежаш мумкинлиги башорат қилинган.

Банк фаолиятида жараёнларни автоматлаштириш ходимнинг эътиборсизлиги туфайли юзага келиши мумкин бўлган хатолардан ҳимоя қилиш имкониятини ҳам беради.

Молиявий бозорининг фаол иштирокчилари сифатида тижорат банклари ҳар доим харажатларни камайтириш, назорат қилиш механизмларини такомиллаштириш ва рақобатдош устунликни таъминлайдиган янги ғояларни аниқлашнинг янги усулларини излайдилар. Бугунги кунда маълумотларга асосланган технологияларнинг жадал ривожланиши билан уларнинг асосий эътибори машинани ўрганиш ва сунъий интеллект имкониятларига қаратилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4996-сон қарори билан Марказий банк, «Ўзбекистон Республикаси ташқи иқтисодий фаолият Миллий банки» АЖ, АТ «Алоқабанк» раҳбарларига банк соҳасида сунъий интеллект технологияларини қўллаш, хусусан тижорат банклари фаолиятини мониторинг қилиш самарадорлигини ошириш ва улар томонидан тартибга солиш талаблари (SubTech ва RegTech) бажарилишини соддалаштириш, шунингдек, банк хизматлари кўрсатиш сифатини таҳлил қилиш, фойдаланувчиларни масофадан биометрик идентификациялаш (Face-ID) ва кредит таваккалчиликларини баҳолаш учун сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишни йўлга қўйиш вазифаси топширилди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, молиявий сектор сунъий интеллектни қўллашнинг энг истикболли йўналишларидан бири бўлиб, бугунги кунда инновацион технология ёрдамида скоринг, қарзни ундириш каби операциялар самарали ташкил этилмоқда ва фирибгарликлар ўз вақтида аниқланмоқда. Бундай ютуқлардан фойдаланиш мақсадида

Ўзбекистонда ҳам бошқа соҳалар билан бир қаторда банк соҳасида сунъий интеллект технологияларидан фойдаланишга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКИЙ РОСТ

**Умиров А.Т.
ТМИ, PhD**

Мировое сообщество вступило в период цифровых трансформаций, которые коренным образом меняют все сферы жизни и деятельности людей. Одним из ключевых направлений цифровизации является развитие технологий искусственного интеллекта. Они представляют собой разнообразные приложения (программы) для компьютеров, которые «понимают» человеческий язык и выполняют функции виртуальных персональных помощников, могут играть в игры против людей и т.д. Искусственный интеллект включает также компьютерную робототехнику, которая видит, слышит и реагирует на сенсорные стимулы. Внедрение семейства технологий, основывающихся на принципах искусственного интеллекта, позволяет сокращать разрыв в информационном обеспечении и получении различных социальных услуг, а в некоторых случаях и превзойти человеческие возможности в разных областях деятельности. Например, системы компьютерного зрения, становясь все более точными, лучше, чем человек, обнаруживают заданные объекты среди массы подобных. Системы распознавания речи в состоянии анализировать разговоры по телефону и голосовым записям на уровне, соответствующем человеческим способностям. Распространяющиеся новые цифровые технологии оказывают все большее влияние на современную цивилизацию. Технологии искусственного интеллекта изменяют процессы в промышленности, энергетике, образовании, здравоохранении и банковской деятельности, а также влияют на мобильность населения. Прогнозируется, что технологии ИИ приведут в перспективе к значительным экономическим сдвигам, вызванным ростом производительности труда за счет использования машин, которые способны выполнять новые функции (беспилотные автомобили, продвинутые роботы, «умные» помощники для поддержки людей в их

повседневной жизни и т.д.) [Metz, 2017]. Предположительно, это ускоряет переход мировой экономики на путь устойчивого развития. Настоящая статья посвящена исследованию воздействия внедрения технологий искусственного интеллекта на глобальный экономический рост, рынок труда (занятость) и финансовую (банковскую) сферу.

Искусственный интеллект – размытое понятие, которое до сих пор не имеет общепринятого определения. Впервые термин «искусственный интеллект» (ИИ) был использован американским специалистом – основоположником информатики как науки – Дж. Маккарти в 1956 г. на Дартмутской конференции ученых-когнитивистов, целью которой было создание интеллектуальных машин, которые работают и принимают решения как люди. Он определял ИИ, как «способ сделать компьютер – контролируемого робота или программу, способную так же разумно мыслить, как человек» (цит. по [Вислова, 2020, с. 19]).

В исследовании Аналитической группы (Analysis Group, Inc.), финансируемой компанией Facebook, ИИ определяется как вычислительные устройства и системы, созданные таким образом, чтобы их можно было считать разумными, и включающие технологии, которые имитируют человеческие способности к обучению, выводам, пониманию сложного содержания, диалогу с людьми, а также улучшают когнитивные способности или заменяют людей в выполнении как рутинных, так и сложных задач. Диапазон развития ИИ определяет степень его влияния на мировую экономику: более ограниченное экономическое воздействие – так называемый слабый ИИ (weak AI), – или решение широкого круга задач, включая создание роботов с человеческими умственными способностями, что соответствует значительному экономическому воздействию, – сильный ИИ (strong AI) [Global economic impacts ..., 2016]. В другом исследовании ИИ определяется как искусственно созданный интеллект (подобный человеческому), который может изучать, рассуждать, планировать, воспринимать или обрабатывать естественный язык. ИИ разделяется на «узкий» (narrow AI) и «общий» (general AI). Первый предназначен для выполнения задач в определенной области (например, языковой перевод). Второй является гипотетическим и не зависящим от предметной области, но может обучаться и выполнять задачи в любой области. В настоящее время используется в основном узкий ИИ, который обеспечивает разработку новых алгоритмов и моделей в области компьютерной

информатики и определяется как машинное обучение (machine learning) [Global economic impacts ..., 2016].

По некоторым оценкам, глобальные экономические последствия, связанные с использованием, разработкой и внедрением ИИ, в период 2015–2025 гг. могут достичь суммы от 1,49 до 2,95 трлн долл. [Markoff, 2015]. Прогнозируется, что в этот период наиболее широкое распространение ИИ получит в следующих областях:

- автоматическое построение аналитических моделей с помощью алгоритмов, которые позволяют машинам работать без помощи человека. Возможные области применения – прогнозирование причинно-следственных связей на основе биологических данных, разработка новых лекарств и средств защиты от мошенничества, беспилотный транспорт;

- совершенствование обработки естественного языка, позволяющее компьютерам анализировать, понимать и генерировать язык для взаимодействия с людьми. Сферы приложений – расшифровка заключений, продиктованных врачами, автоматическое составление статей и переводов текстов и речи;

- создание виртуальных персональных помощников, которые напоминают и составляют расписание встреч для пользователей, ведут их личные финансовые счета и осуществляют поиск поставщиков различных услуг;

- распространение компьютерного зрения, которое преобразует объекты, сцены и действия в изображения. Подобные приложения включают предоставление описания объекта для незрячих и создание систем безопасности автомобиля, которые обнаруживают пешеходов и велосипедистов, а также карт местности (навигаторы).

Возникновение новых функций и услуг, основанных на моделях машинного обучения и ИИ, значительно влияет на социально-экономическое развитие стран, регионов и мирового сообщества в целом.

Таким образом использование технологий ИИ во многом определяет конкурентоспособность стран и уровень безопасности общества в ближайшем будущем. Вполне возможно, что экономическое влияние ИИ будет более сильным по сравнению с другими универсальными технологиями. Однако положительный эффект от применения ИИ, вероятно, появится не сразу. Следовательно, выгоды от первоначальных инвестиций в ИИ могут быть незаметны в краткосрочной перспективе. Вместе с тем, как показывают исследования, влияние ИИ на экономическое

развитие со временем будет усиливаться. В то же время есть риск увеличения технологического разрыва между теми, кто быстро перейдет к этим технологиям, и теми, кто их не принимает, а также между работниками, обладающими соответствующими навыками, и теми, кто таковыми не владеет. Поэтому преимущества ИИ, скорее всего, будут распределяться неравномерно. Более того, если разработка и внедрение этих технологий будет осуществляться нерационально, неравенство станет углубляться, разжигая различные социально-экономические конфликты внутри общества. Лидерам, определяющим политику внедрения ИИ, необходимо использовать методы долгосрочного стратегического планирования с целью преодоления негативных проявлений автоматизации и цифровизации производственных процессов. В то же время предприятиям, внедряющим ИИ, следует тесно сотрудничать с государственными органами для решения объемной задачи – подготовки и переподготовки кадров для работы с этими технологиями. В свою очередь, людям в данных условиях требуется постоянно совершенствовать собственные навыки, чтобы соответствовать новым видам занятости и потребностям динамично изменяющегося рынка труда.

Список литературы

1. Абдилдабекова М. Как искусственный интеллект влияет на бизнес // Капитал. Центр деловой информации. – 2020. – 29.07. – URL: <https://kapital.kz/tehnology/88823/kak-iskusstvennyu-intellekt-vliyayet-na-biznes.html> (дата обращения 14.03.2022).
2. Аналитический обзор мирового рынка робототехники // Сбербанк. – 2019. – 17.07. – URL: https://adindex.ru/files2/access/2019_07/273895_sberbank_robotics_review_2019_17.07.2019_m.pdf (дата обращения 16.03.2022)
3. Вислова А. Современные тенденции развития искусственного интеллекта // Известия Кабардино-Балкарского научного центра РАН. – 2020. – Вып. 2. – С. 14–30.
4. Греф признал потерю Сбербанком миллиардов рублей из-за искусственного интеллекта // Ведомости. – 2019. – 26.02. – URL: <https://www.vedomosti.ru/finance/news/2019/02/26/795134-gref> (дата обращения 23.03.2022).
5. Дадашев З.Ф., Устинова Н.Г. Сбербанк из-за перевода валютных сделок на алгоритмы не будет сокращать трейдеров // Экономические науки. – 2019. – № 18. – С. 53–57.

6. Ильин А.С., Панченко Г.М., Ковалёва М.В. Роль искусственного интеллекта в управлении // Academy. – 2018. – № 12 (39). – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-iskusstvennogo-intellekta-v-menedzhmente> (дата обращения 23.03.2022).

MOLIYAVIY SEKTORDA SUN'IY INTELEKT TEKNOLOGIYALARI VA UNING MOLIYAVIY EKOTIZIMNING O'ZGARISHIGA TA'SIRI

Saidaxror G'ulomov,
Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot kafedrası, i.f.d., professor
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi
O'ktam Mustafokulov,
TMI Elektron tijorat va raqamli iqtisodiyot kafedrası assistenti

ANNOTATSIYA:

Sun'iy intellekt texnologiyalarini moliya sanoatiga jadal joriy etish biznes landshaftining o'zgarishiga, o'rnatilgan biznes jarayonlari va biznes vazifalarini qayta formatlashiga olib keladi. Ushbu maqolaning maqsadi moliyaviy sektorda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanishning joriy amaliyotini ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu texnologiya ta'sirida moliyaviy ekotizimni o'zgartirish muammolarini aniqlash va tahlil qilishdir. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda moliyaviy sektorda sun'iy intellekt asosan investitsiyalar, kredit skoringi, normativ hujjatlarga muvofiqlikni tahlil qilish, bozorni o'rganish va mijozlarni qo'llab-quvvatlash kabi sohalarda qo'llaniladi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bilan bog'liq muammolar va xavflarning mavjudligi o'rta fintech kompaniyalari sonining qisqarish tendentsiyasini shakllantiradi,

KALIT SO'ZLAR:

sun'iy intellekt, moliya, raqamli texnologiyalar, raqamli platforma, onlayn xizmatlar, JEL-TASNIFI: E44, G21, G22, O32

Kirish

O'nlab yillar davomida sun'iy intellekt (AI) faqat futuristlar va fantast yozuvchilar uchun tadqiqot yoki ilhom manbai bo'lib kelgan. Biroq, so'nggi yillarda vaziyat keskin o'zgardi - texnologiyalarning rivojlanishi tufayli

hisoblash protsessorlari ma'lumotlarni tahlil qilish uchun yanada samaraliroq bo'ldi va ularning narxi endi ularni nafaqat ilmiy tadqiqotlarda, balki real biznes jarayonlarida ham qo'llash imkonini beradi. iqtisodiyotning turli tarmoqlarida [1] (Orlov, 2019).

Samaradorlik va samaradorlikda yutuq bo'ldi va ma'lumotlar to'plamlari aqlli algoritmlar iste'mol qiladigan "yangi moy" ga aylandi. O'rganish algoritmlari mashinani o'rganishning asosi bo'lib, u o'z navbatida AIning ajralmas qismi hisoblanadi.

Sun'iy intellekt va neyrotexnologiyalarga asoslangan yechimlarning jadal rivojlanishi ularga davlat va biznes tomonidan talabning ortishiga, jumladan, sun'iy intellektga asoslangan fintech startaplariga venchur kapital qo'yilmalarining keskin o'sishiga olib keldi. FinTech atamasi yangi biznes modellari, ilovalari, jarayonlari yoki mahsulotlarni yaratadigan texnologiyaga asoslangan moliyaviy innovatsiyalarga ishora qiladi, bu esa moliyaviy bozorlar va institutlarga va moliyaviy xizmatlar ko'rsatishga tegishli sezilarli ta'sir ko'rsatadi [2] (Giudici, 2018).

AI texnologiyalarining moliya sektorini o'zgartirishga ta'siri ko'plab ishlarda muhokama qilinadi. Deutsche Bank tadqiqotchilari o'z hisobotlarida yangi texnologiyalar ta'sirida an'anaviy bank tizimini raqamli ekotizimga aylantirish jarayonini o'rganadilar [3] (Dapp, Slomka, 2015). Ishlar [4, 5] (Li, Shin, 2018; Puschmann, 2017) fintech loyihalari uchun biznes modellarining har xil turlarini muhokama qiladi. Maqola [6] (Haddad, Hornuf, 2019) global fintech bozorining shakllanishi tendentsiyalarini o'rganishga bag'ishlangan. Ish [2] (Giudici, 2018) fintech sohasida risklarni boshqarishni o'rganishga bag'ishlangan. Mualliflarning ta'kidlashicha, fintech loyihalarini barqaror rivojlantirish uchun ularning iste'molchilar va investorlarga mumkin bo'lgan salbiy ta'sirini minimallashtirish zarur. [7] da (Jaksich, Marinc, 2019) bu ham qayd etilgan

Ushbu maqolaning maqsadi moliyaviy sektorda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanishning joriy amaliyotini ko'rib chiqish, shuningdek, ushbu texnologiya ta'sirida moliyaviy ekotizimni o'zgartirish muammolarini aniqlash va tahlil qilishdir.

Moliyaviy ekotizimda sun'iy intellekt texnologiyasidan foydalanishning zamonaviy amaliyoti

Yaqin vaqtgacha moliya sektori asrlar davomida an'anaviy konservativ sektor bo'lib kelgan. Moliyaviy industriyada sun'iy intellektdan foydalanishning bugungi jadal o'sishi biznes landshafti qanchalik tez o'zgarib borayotganini va

o'rnatilgan biznes jarayonlari va biznes vazifalari qanday qayta formatlanayotganini ko'rish imkonini beradi [8].

Moliyaviy muhitda qoidalar, algoritmlar va ma'lumot almashish sxemalarini tashkil etuvchi tarixan o'rnatilgan munosabatlar mavjud bo'lib, ular doirasida bank sektori ishtirokchilari o'rtasida ham, tashqi dunyo bilan ham o'zaro aloqalar amalga oshiriladi. Mualliflarning fikricha, bu omillarning kombinatsiyasi moliyaviy ekotizimni tashkil qiladi.

Moliyaviy institutlar kiruvchi ma'lumotlarni tahlil qilishda ko'plab qiyin savollarga duch kelishadi. AI texnologiyalari massivlar va ma'lumotlar shablonlari bilan ishlashda odamlarga qaraganda ancha samaraliroq.

Hozirgi vaqtda moliya sanoati sun'iy intellektdan beshta asosiy yo'nalishda foydalanadi [9]:

- sarmoya;
- kredit skoring - anderrayting;
- normativ talablarga muvofiqligi;
Ўзбекистонда янги технологиялар, жумладан, сунъий интеллектнинг ижтимоий ҳимоя дастурлари ва бошқа соҳаларга кенг жорий қилиниши давлат ва хусусий секторда замонавий ахборот технологияларидан фойдаланишни рағбатлантириб, мамлакатда рақамли иқтисодиётни ривожлантириш ҳамда ҳар бир соҳага инновацияларни киритиш имкониятларини оширади. Шу билан бирга, замонавий илм-фан ютуқларидан самарали фойдаланилишига олиб келади.

ЎЗБЕКИСТОНДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЕКТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА ҲУҚУҚИЙ БАЗАНИ МУСТАҲКАМЛАШ МАСЛАЛАЛАРИ

**Шарапова Машхура Азадовна
ТМИ, “Молия-кредит” кафедраси доц. в.б.**

Дунё мамлакатларида рақамли иқтисодиётни аҳамияти ортиб бораётган бир даврда Ўзбекистонда рақамли иқтисодиётни фаол ривожлантириш ва барча соҳаларда кенг жорий этиш бўйича чоратадбирларни амалга ошириш мақсадида ҳуқуқий базани мустаҳкамлашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Охирги 2 йил мобайнида давлат бошқаруви, таълим, соғлиқни сақлаш ва қишлоқ хўжалигида замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий қилиш ҳамда электрон ҳукумат тизимини такомиллаштириш, дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологияларининг маҳаллий бозорини янада ривожлантириш, республиканинг барча ҳудудларида IT-паркларни ташкил этиш, шунингдек, соҳани малакали кадрлар билан таъминлашга эришиш мақсадида бир қатор меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 5 октябрдаги “Рақамли Ўзбекистон -2030” Стратегиясини тасдиқлаш ва уни самарали амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПФ-6079-сон фармони билан тасдиқланган “*Рақамли Ўзбекистон — 2030*» Стратегиясида иқтисодиёт тармоқлари, ижтимоий соҳа ва давлат бошқаруви тизимининг жадал рақамли ривожланишини таъминлаш, шу жумладан электрон давлат хизматларини кўрсатиш механизмларини янада такомиллаштириш мақсадида ишлаб чиқилган бўлиб, рақамли инфратузилмани ривожлантириш, электрон ҳукуматни ривожлантириш, иқтисодиётнинг реал секторида рақамли технологияларни ривожлантириш, рақамли технологиялар миллий бозорини ривожлантириш, ахборот технологиялари соҳасида таълим бериш ва малака ошириш каби стратегик мақсадлар ва устувор йўналишлар ўз аксини топган.

2021 йил 17 февралда яна бир ҳужжат, Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида” ПҚ-4996-сон қарори имзоланди ва унга асосан Сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича 2021-2022 йилларда амалга ошириладиган тажриба-синов лойиҳалар рўйхати тасдиқланди. Жумладан,

➤ банк соҳасида: тижорат банклари фаолиятини мониторинг қилиш самарадорлигини ошириш ва улар томонидан тартибга солиш талаблари (SubTech ва RegTech) бажарилишини соддалаштириш, шунингдек, банк хизматлари кўрсатиш сифатини таҳлил қилиш, фойдаланувчиларни масофадан биометрик идентификациялаш (Face-ID) ва кредит таваккалчиликларини баҳолаш учун сунъий интеллект технологияларини қўллаш:

➤ молия соҳасида: бюджет харажатлари, пенсия, ижтимоий ва суғурта тўловлари, шунингдек, нафақа тўловларини таҳлил қилиш ва

самарадорлигини ошириш учун сунъий интеллект технологияларини қўллаш ;

➤ солиқ соҳасида: юридик шахсларнинг солиқ тушумларини таҳлил қилиш, солиқ тўловларидаги тафовутларни аниқлашда сунъий интеллект технологияларини қўллаш вазифалари ваколатли шахслар зиммасига юклатилди.

Сунъий интеллект технологияларига асосланган тажриба-синов ишларини амалга ошириш, дастурий маҳсулотларни ишлаб чиқиш ва хизматлар кўрсатиш билан боғлиқ фаолият юритувчи ташкилотлар учун зарурий ташкилий-ҳуқуқий шароит яратиш, дастурий маҳсулотларни тажрибадан ўтказиш ва амалиётга жорий қилиш жараёнида юзага келадиган ҳуқуқий муносабатларда енгиллик яратиш мақсадида 2021 йил 26 августда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Сунъий интеллект технологияларини қўллаш бўйича махсус режимни жорий қилиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-5234-сон қарори қабул қилинди ва махсус режим фаолиятининг муддати беш йил қилиб белгиланди.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, рақамли иқтисодиётни ривожлантиришнинг устувор йўналиши сифатида сунъий интеллект технологияларидан самарали фойдаланишни йўлга қўйилишида ҳуқуқий базани янада такомиллаштириш муҳим аҳамият касб этади.

ЎЗБЕКИСТОНДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЙўНАЛИШЛАРИ

Файзиева Ширин Шодмоновна

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти доценти, и.ф.н.

Азимов Р.Ж., Салимов С.С.

ҚарМII магистранлари

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги ПҚ-4996-сонли “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорининг қабул қилиниши мамлакатимизда сунъий интеллектнинг ривожланишига қонуний қадам бўлди. Қарорда кўрсатилганидек, “Рақамли Ўзбекистон - 2030” Стратегиясини ҳар томонлама амалга оширишга қаратилган илмий тадқиқотларни ташкил қилиш ҳамда иқтисодиёт тармоқлари, ижтимоий

соҳа ва давлат бошқаруви тизимида сунъий интеллект технологияларини жорий қилиш алоҳида асослар билан кўрсатиб ўтилган. Сунъий интеллект соҳасида фундаментал ва амалий - илмий тадқиқотларни олиб бориш, рақамли технологияларни ривожлантиришнинг илмий экотизимини шакллантириш, сунъий интеллект технологиялари асосида бошқарув ва ишлаб чиқариш жараёнларини автоматлаштириш бўйича инновацион маҳсулотларни ҳамда уларнинг моделлари, алгоритмлари ва дастурий таъминотини ишлаб чиқиш вазифалари белгиланди. Шунингдек, сунъий интеллект технологияларини ривожлантириш бўйича етакчи хорижий инновацион ва илмий муассасалар билан ҳамкорликни йўлга қўйиш ва қўшма лойиҳаларни амалга ошириш мақсадида Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети ҳамда Рақамли технологиялар ва сунъий интеллектни ривожлантириш илмий-тадқиқот институтида “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект ихтисослиги” бўйича олий таълимдан кейинги таълим институти ташкил этилди.

Институт юридик шахс мақомига эга давлат илмий ташкилоти бўлиб, Муҳаммад ал-Хоразмий номидаги Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги Ахборот-коммуникация технологиялари илмий-инновацион маркази ҳамда Мирзо Улуғбек номидаги Ўзбекистон миллий университети ҳузуридаги Интеллектуал-дастурий тизимлар илмий-амалий марказининг шартномалари ва мажбуриятлари бўйича ҳуқуқий вориси ҳисобланади.

Сунъий интеллект соҳасида таянч докторантура ва стажёр-тадқиқотчиликка жами 28 та мақсадли квоталар ажратилди. Бундан таянч докторантурага 14 та, стажёр-тадқиқотчиликка 14 та қабул квотаси ажратилди. Шунингдек, рақамли технологиялар ва сунъий интеллект йўналиши бўйича саралаб олинган 10 нафар ёш олимларнинг етакчи хорижий илмий ташкилотларга қисқа муддатли илмий стажировкаларга юборилиши белгиланди.

Мамлакатимизда 2021-2022 ўқув йилидан бошлаб грант асосида “Сунъий интеллект” йўналиши бўйича кадрлар тайёрлаш босқичма-босқич бошланадиган олий таълим муассасалари ва илмий ташкилотлар рўйхати тасдиқланиб, иқтисодиёт тармоқлари, ижтимоий соҳа ва давлат бошқаруви тизимида сунъий интеллект технологияларини амалий қўллаш бўйича ўқув курслари ва фанларини жорий қилиш кўзда тутилган олий таълим муассасалари белгиланди. Ҳар бир олий таълим муассасасига камида бир нафар етакчи хорижий эксперт ва олимни сунъий интеллект ва

уни қўллаш технологиялари соҳасида ўқитишда иштирок этиш учун жалб қилиш кўрсатилган. Хорижий экспертлар ва олимларни олий таълим муассасаларига жалб қилиш билан боғлиқ харажатлар уларнинг бюджетдан ташқари маблағлари ҳисобидан қопланиши ҳам ушбу соҳадаги имкониятлардан далолат беради.

Ҳозирги кунда Ўзбекистонда сунъий интеллект соҳасида илмий-техник тадқиқотлар ва инновацион ишланмаларни қўллаб-қувватлаш доирасида умумий қиймати 15,1 млрд. сўм бўлган, давомийлиги 2021 - 2024 йилларга мўлжалланган 9 та лойиҳа амалга оширилмоқда.

Инновацион ривожланиш вазирлиги томонидан ҳар йили ўтказиладиган Халқаро инновацион ғоялар ҳафталиги “Innoweek.uz” доирасида эса “Сунъий интеллект - технологик ривожланиш асоси” мавзусида халқаро конференциялар ўтказилди.

Дмак, бугунги кунда сунъий интеллект ҳаётимизга кириб келмоқда, аммо унинг ўзи нима деган савол туғилиши табиий.

Сунъий интеллект муайян вазифаларни бажаришда инсон ҳатти-харакатига тақлид қилишга қодир бўлган тизим ёки технология бўлиб, олинган маълумотлардан фойдаланиб аста-секин мукамаллашиб боради. Умуман олганда сунъий интеллект формат ҳам, функция ҳам эмас, балки бу жараён бўлиб, маълумотларни йиғиш, таҳлил қилиш кабиларни ўз ичига олади.

Сунъий интеллект ҳақида сўз борганда унинг бизнесдаги ва ахборот технологиялардаги ўрнини таҳлил қилиш лозим. Сунъий интеллектнинг ушбу йўналишларга секин-асталик билан кириб бориши, сунъий интеллект воситаларининг сони ошишини таъминлайди. Аммо барча соҳаларда бўлгани каби ушбу турдаги инновацияларни жорий этишда ҳам қатор қийинчиликлар мавжуд. Хусусан, малакали кадрларнинг етишмаслиги ҳамда уни жорий этиш учун маълумотларнинг камлиги каби муаммолар долзарб ҳисобланади. Чунки, маълумотлар қанчалик кўп бўлса, сунъий интеллект башоратларининг аниқлиги шунчалик юқори бўлади. Сунъий интеллект инфратузилмани мониторинг қилиш, катта ҳажмдаги маълумотларни тўплаш ва қайта ишлаш, техник ҳамда тиббий диагностика тизимлари, шахсий таълим траекторияларини яратиш, хулқ-атвор таҳлиллари қилишга имкон беради. Сунъий интеллект бу чангютгичлардан космик станцияларга қадар бўлган ечимларнинг бутун спектри бўлиб ҳисобланади.

“Gartner” аналитик компанияси сунъий интеллект технологиялари ҳали ҳам ривожланиш босқичида экани ва тўлиқ ривожланган бозор ҳали узок шаклланиши ҳақидаги тадқиқотни чоп этди. Компания мутахассисларининг фикрига кўра, кўплаб корхона ва ташкилотлар сунъий интеллектнинг соҳавий муаммоларни ҳал қилишда кўмак беришини хоҳлашади. Ушбу компаниялар сунъий интеллект воситаларини кенгайтириб, хавфларни олдиндан билиш ва барча жараёнларни прогнозларга асосланган ҳолда бошқаришни истайди.

Эндиликда тадқиқотчилар олдида янада мураккаб вазифалар турибди. Хусусан, интернет тараққиёти, технологик муаммоларни бартараф этиш, рақамли иқтисодиёт учун янги воситалар яратиш лозим. Шунингдек, ўзбекистонлик тадқиқотчиларнинг энг асосий вазифаларидан бири эса сунъий интеллектнинг илм-фанга жорий этилишида яқиндан кўмак беришидир.

Негаки айнан ўз касбининг устаси бўлган мутахассислар барча жабҳаларга сунъий интеллект кириб боришида асосий омил бўлади. Ҳозирда юртимизда ушбу йўналиш бўйича “Рақамли технологиялар ва сунъий интеллект” ихтисослиги олий малакали кадрларнинг илмий ва илмий-педагогик мутахассисликлар номенклатурасига киритилди ва унинг паспорти яратилди.

Сунъий интеллектнинг соҳаларга жорий этилиши учун турли сабаблар келтирилмоқда, улардан учта энг асосийсини келтириб ўтамиз.

1. Арзон нархлардаги юқори самарали ҳисоблаш ресурслари.
2. Таълим учун катта ҳажмдаги маълумотларнинг мавжудлиги.

Сунъий интеллект маҳсулининг аниқ прогнозларни амалга ошириши учун у катта ҳажмдаги маълумотларни қайта ишлаши керак. Ушбу омил сабаб турли воситалар, хусусан, маълумотларни сақлаш ва қайта ишлашнинг оддий ҳамда арзон воситалари, турли хил алгоритмлар яратилди.

3. Сунъий интеллект маҳсулотлари рақобатбардошликни мустаҳкамлайди. У компаниялар харажатларини ва хавфларни камайтириши, бозорга чиқиш имкониятини кенгайтириши ҳамда бошқа фойдали омиллар учун кўплаб воситаларни таклиф қила олади. Натижада сунъий интеллект жорий этилган компаниялар рақобатга анча чидамли бўлади.

Хулоса ўрнида фикр билдирадиган бўлсак, юқорида амалга оширилаётган ишлар Ўзбекистонда сунъий интеллектни ривожлантиришга доир йўналишларни белгилаш билан биргаликда

рақамли иқтисодиётнинг ривожланиши шароитида сунъий интеллектни ҳар томонлама такомиллашувига эришилади деб ўйлаймиз.

ЎЗБЕКИСТОНДА СУНЪИЙ ИНТЕЛЛЕКТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ

Йўлдошев Нуриддин Негматович

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти 2-курс магистранти

Яхшиева Нигина Ақром қизи,

қЭшимова Феруза Толмас қизи

Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти талабалари

Жаҳон иқтисодиётининг глобаллашув шароитида иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада, давлат бошқаруви тизимида сунъий интеллект технологияларини ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланиш кенг тарқалмоқда. Сунъий интеллектни ривожлантиришда ягона талаблар, жавобгарлик, хавфсизлик ва шаффофликни белгиловчи норматив-ҳуқуқий базани ишлаб чиқиш, аҳоли манфаатлари йўлида давлат хизматлари кўрсатиш сифатини яхшилаш, маълумотларни қайта ишлашда давлат органларининг самарадорлигини ошириш мақсадида сунъий интеллект технологияларидан кенг фойдаланиш масаласи долзарб ҳисобланмоқда.

Ҳозирги кунда “Рақамли Ўзбекистон - 2030” Стратегиясига мувофиқ ҳамда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, ушбу соҳада малакали кадрлар тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 17 февралдаги ПҚ-4996-сонли “Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарорида кўрсатилганидек, сунъий интеллект соҳасидаги илмий ишлар ва ишланмаларнинг инвестицион жозибадорлигини шакллантириш, шу жумладан товарларнинг (иш ва хизматларнинг) ички ва ташқи бозорларда рақобатбардошлигини ошириш, маҳаллий корхоналар ва мутахассисларнинг сунъий интеллект соҳасидаги ахборот ресурслари ва билимлардан фойдаланиш имкониятини таъминлаш, зарур таълим муҳитини ривожлантириш, қўшма халқаро тадқиқот фаолиятини амалга

ошириш, кадрлар тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш, республикамизнинг нуфузли рейтинглар ва индексларда позициясини яхшилаш мақсадида сунъий интеллект ва уни қўллаш технологиялари соҳасида халқаро ҳамкорликни ривожлантириш масалаларига атрофлича эътибор қаратилган.

Ўзбекистонда сунъий интеллект соҳасида инновацион ишланмаларнинг маҳаллий экотизимини яратишни яхшилаш мақсадида фойдали технологик ечимларни ишлаб чиқиш бўйича фундаментал ва амалий илмий тадқиқотларни ўтказиш ва уларни кейинчалик тижоратлаштиришни рағбатлантирувчи механизмларидан фойдаланиш, сунъий интеллект технологияларини қўлловчи дастурий таъминот ишлаб чиқувчиларига рақамли маълумотлардан фойдаланиш учун шароит яратиш, давлат органлари ва ташкилотларининг тегишли маълумотларини тезкор рақамлаштиришни таъминлаш йўлга қўйилмоқда. Асосий устувор йўналишларни назарда тутувчи сунъий интеллект технологияларини ўрганиш ва жорий этиш бўйича ишлаб чиқилган чора-тадбирлар дастурига мувофиқ сунъий интеллектни қўллашнинг асосий йўналишлари ва тамойилларини, шунингдек, яқин ва узоқ истиқболда ушбу соҳани комплекс шакллантириш учун шарт-шароитларни белгиловчи Сунъий интеллектни ривожлантириш стратегияси ишлаб чиқилган.

Ўзбекистонда истиқбол ривожланишни белгиловчи куйидаги устувор тармоқлар ва соҳаларда, шу жумладан Дастурий маҳсулотлар ва ахборот технологияларини жалб қилган ҳолда Сунъий интеллект технологияларини жорий этиш бўйича 2021-2022 йилларда амалга ошириладиган тажриба-синов лойиҳалар тузилган бўлиб, бунда ҳар бир соҳага алоҳида ёндошилганини кўрамиз.

Ўзбекистонда сунъий интеллект технологияларини қўллаш бўйича қишлоқ хўжалиги соҳасида - ерни масофадан зондлаш маълумотлари асосида тупроқ ва қишлоқ хўжалиги экинлари ҳолатини, шунингдек, қишлоқ хўжалиги техникаси, шу жумладан комбайнлар ишини мониторинг қилиш жараёнида;

банк соҳасида - тижорат банклари фаолиятини мониторинг қилиш самарадорлигини ошириш ва улар томонидан тартибга солиш талаблари (SubTech ва RegTech) бажарилишини соддалаштириш, шунингдек, банк хизматлари кўрсатиш сифатини таҳлил қилиш, фойдаланувчиларни масофадан биометрик идентификациялаш (Face-ID) ва кредит таваккалчиликларини баҳолаш учун;

молия соҳасида - бюджет харажатлари, пенсия, ижтимоий ва суғурта тўловлари, шунингдек, нафақа тўловларини таҳлил қилиш ва самарадорлигини ошириш учун;

солиқ соҳасида - юридик шахсларнинг солиқ тушумларини таҳлил қилиш, солиқ тўловларидаги тафовутларни аниқлашда сунъий интеллект технологияларини қўллаш; транспорт соҳасида - локомотивларни бошқариш жараёнида уларнинг ҳаракатини кузатиб бориш ва хавфли вазиятларда машинистларни огоҳлантиришда, жамоат транспорти ҳаракатини таҳлил қилиш ва уларнинг оптимал йўналишларини аниқлашда, шунингдек, автомобиль ҳаракатини ва транспортдаги тирбандликларни мониторинг қилишда;

энергетика соҳасида - энергия ресурсларини ишлаб чиқариш ва уларнинг истеъмолини прогноз қилишда, технологик ускуналар ишини оптималлаштиришда;

соғлиқни сақлаш соҳасида - инсон ўпкасининг компьютер томографияси таҳлили асосида пневмонияни аниқлаш ҳамда маммография таҳлили асосида кўкрак беши саратонига илк босқичда ташхис қўйиш учун;

фармацевтика соҳасида - бозорнинг дори воситалари ва тиббий буюмларига бўлган эҳтиёжларини таҳлил қилиш ва прогнозлаштиришда;

электрон ҳукумат соҳасида - электрон давлат ва молия хизматларини кўрсатишда фойдаланувчиларни масофадан туриб биометрик идентификациялаш (Face-ID) учун сунъий интеллект технологияларини қўллаш йўлга қўйилди.

Хулоса ўрнида таъкидлайдиган бўлсак, Ўзбекистонда сунъий интеллектни ривожлантириш шарт-шароитлари истиқбол учун хизмат қилади.

O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKTNING RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI TO‘G‘RISIDA.

**Muhiddinova U., TMI talabasi,
Raximov N.R., TMI dotsenti, i.f.n.**

Hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham sun‘iy intellekti rivojlantirish va uni iqtisodiyotning barcha sohalarda keng qo‘llash bo‘yicha ma‘lum bir ishlar amalga oshirilmoqda. Chet el tajribasi shuni ko‘rsatdiki, sun‘iy intellekt insonning mantiqiy va ijobiy fikrlash funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun‘iy tizim hisoblanadi. Sun‘iy intellektning ideal xususiyati - bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo‘lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir.

Su‘niy intellekti bizning respublikamizda rivojlantirish va uni iqtisodiyotning turli soxalariga tadbiiq maqsadida xukumat miqyosida bir nechta qarorlar qabul qilindi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan Sun‘iy intellekt texnologiyalarini qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus rejim tashkil etish va uning faoliyatini yo‘lga qo‘yish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomga muvofiq maxsus rejim IT-parkning alohida bo‘g‘ini bo‘lib, u yerda alohida huquqiy yengilliklar yaratiladi va yuridik shaxslar va ilmiy tashkilotlar tomonidan dasturiy mahsulotlar tajribadan o‘tkaziladi va amaliyotga joriy qilinadi.

Maxsus rejim ishtirokchisi bo‘lish uchun talabgorlar IT-parkning maxsus veb-platformasi orqali ariza topshiradi. Maxsus rejim ishtirokchilari o‘z xodimlari malakasini oshirish va qayta tayyorlashga sarflangan xarajatlari davlat tomonidan kompensatsiya qilinadi.

Shuningdek ishtirokchilarga tajriba-sinov loyihalarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ma‘lumot hamda hujjatlarni, shaxsga doir ruxsat berilgan ma‘lumotlarni vazirlik, idora va tashkilotlardan olish huquqi beriladi.

Yana bir muhim yangiliklardan biri O‘zbekistonda sun‘iy intellektning rivojlantirish bo‘yicha maxsus strategiyani ishlab chiqilganligi hisoblanadi. 2021-2022 yillarda O‘zbekistonda sun‘iy intellekti rivojlantirish strategiyasiga oid prezident farmoni loyihasi muhokamaga qo‘yildi. Ushbu strategiyaning maqsadi - sun‘iy intellekt sohasida milliy ilmiy tadqiqot ishlaridan foydalanishni yo‘lga qo‘yish hamda uni samarali isloh etishdan iborat.

O‘zbekistonda sun‘iy intellekti 3 bosqichda rivojlantirish rejalashtirilmoqda.

1-bosqich. 2021–2022 yillar – sun’iy intellektni rivojlantirishning fundamental asoslarini rivojlantirish va maqsadli tizimlashtirish;

2-bosqich. 2023–2025 yillar – sun’iy intellekt sohasida kadrlar malakasi va intellektual salohiyatini halqaro raqobat maydonida sifat jihatidan oshirish va nufuzini ko‘tarish;

3-bosqich. 2026–2030 yillar – O‘zbekistonda yuqori rivojlangan axborotlashgan jamiyatni shakllantirish.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda axborot-texnologiyalarini rivojlantirish, soha va tarmoqlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish, sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha hukumatimiz va davlatimiz rahbari tomonidan bir qancha huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda va ularning ijrosi ta‘minlanmoqda.

Sun’iy intellektning ko‘plab afzallik tomonlari bor. Ko‘plab mamlakatlar sun’iy ongdan foydalanishmoqda. Hatto ba’zi mamlakatlarda sun’iy ongni har qadamda, har qanday xizmat ko‘rsatish sohasida uchratishimiz ham mumkin. Mamlakatimizda ham sun’iy intellektdan «Bank sohasida», «Moliya sohasida», «Qishloq xo‘jaligi sohasida», «Transport sohasida», «Sog‘liqni saqlash sohasida» foydalanishni yo‘lga qo‘ymoqda.

Bizning fikrimizcha mamlakatimizda, sun’iy intellektni nafaqat yuqorida keltirilgan sohalarda rivojlantirish bilan birga, «Inson salomatligi uchun xavfli bo‘lgan tarmoqlarda» ham foydalanish maqsadga muvofiq. Chunki bu orqali ko‘plab insonlarning hayotini va ularni sog‘liqlarini saqlab qolish mumkin. Bu sun’iy intellektning eng kata afzalligi deb hisoblayman.

Mamlakatimizda sun’iy intellekt sohasida ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida umumiy qiymati 15,1 mlrd so‘m bo‘lgan, 2021-2024-yillarga bag‘ishlangan 9ta loyiha amalga oshirilmoqda. Sun’iy intellekt asta-sekin hayotimizning ajralmas bo‘lagiga aylanib bormoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilsak, xozirgi paytda bizning respublikamizda sun’iy intellektni rivojlantirishning umumiy konsepsiyasi va rivojlantirish strategiyalari ishlab chiqildi. Galdagi vazifa esa, ushbu soxa bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash, iqtisodiyotning turli soxalari bo‘yicha tayyorlanayotgan kadrlarda sun’iy intellektni o‘zlarini predmet soxalarida qo‘llash bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishini ta‘minlashdan iboratdir.

SUN’IY INTELLEKTNING MAQSADI, VAZIFALARI VA TUZILISHI

Ishanxodjayeva D.I.
Ilmiy rahbar
Abdumannanova X.
TMI talabasi

Sun'iy intellekt maqsadi inson miyaning asosiy funksiyasi hisoblanadigan mazmunli ma'lumotni qayta ishlashni talab qiluvchi harakatlarni bajara oladigan va hisob-kitobni talab qilmaydigan masalalarni hal qila oladigan texnik tizimlarni yaratish. Bu masalalarga teoremlarni isbotlash masalalari, o'yinli masala (masalan, shaxmat), bitta tildan boshqa tilga ugurish, musiqa yozish, ijtimoiy amaliyotning va fanning murakkab ijodiy muammolarni bartaraf etish. Sun'iy intellektning muhim vazifalardan biri inson belgilab qo'yadigan maqsadlarga erishish bo'yicha mustaqil bajara oladigan hali robotlar yaratish hisoblanadi va ularning harakatlarida o'zgarishlar kiritish.

Yaqindagina odamlar "sun'iy intellekt"ni gumanoidli android yoki kuchli superkompyuter sifatida tasavvur qilishgan. Bugungi kunda "sun'iy intellekt" deganda murakkab matematik algoritmlar va ilgari inson ishtirokini talab qiladigan vazifalarni bajarishi mumkin bo'lgan kompyuter tizimlari tushuniladi: o'qitish, vizual, eshitish qobiliyatini aniqlash, tasvir va videoga ishlov berish va boshqalar. Ehtimol, sun'iy intellekt va o'z-o'zini o'rganish algoritmlariga asoslangan boshqa tizimlar o'rtasidagi asosiy farqi bu mustaqil ravishda qaror qabul qilish va odamlar bilan aloqa qilish qobiliyatidir.

Sun'iy neyron tarmoqlari (SNT) – tirik organizmning asab hujayralari tarmoqlari bo'lgan biologik neyron tarmoqlarini tashkil etish va ishlash printsipiga asoslangan matematik modellar, shuningdek, ularning dasturiy yoki apparat ta'minoti. Ushbu tushincha miyada sodir bo'lgan jarayonlarni o'rganishda va ushbu jarayonlarni modellashtirishda qilishda paydo bo'ldi. Neyro tarmoq ishlash tamoyilini 1943-yilda Uorren Mak Kalkok va Uolter Pits yaratgan. Keyinchalik, o'quv algoritmlari ishlab chiqilgandan so'ng, olingan modellar amaliy maqsadlar uchun foydalanila boshlandi: muammolarni prognozlashda, shaklini aniqlashda, boshqaruv muammolarida va boshqalar.

Aqlli agent – kompyuter foydalanuvchisi tomonidan uzoq vaqt davomida belgilangan vazifani mustaqil ravishda bajaradigan dastur. Aqlli agentlar operatorga yordam berish yoki ma'lumot to'plash uchun ishlatiladi. Agentlar bajaradigan vazifalarning bir misoli – Internetda doimiy ravishda qidirish va kerakli ma'lumotlarni to'plash. Kompyuter viruslari, botlar, qidiruv robotlari – bularning barchasi aqlli agentlarga ham taalluqli bo'lishi mumkin. Bunday

agentlar qat'iy algoritmgaga ega bo'lib, "aqli" degan ma'noni anglatadi, moslashish va o'rganish qobiliyatiga ega.

Ekspertlar tizimi (ET) – muammoli vaziyatni hal qilish bo'yicha mutaxassis-ekspertni qisman almashtirishi mumkin bo'lgan kompyuter dasturi. Zamonaviy ET sun'iy intellekt tadqiqotchilari tomonidan XX asrning 70-yillarida ishlab chiqishi boshlandi va 80-yillarda tijoratlashtirildi.

Genetik algoritmi bu biologik evolyutsiyaga o'xshash mexanizmlar yordamida tasodifiy tanlab olish, birlashtirish va kerakli parametrlarni o'zgartirish orqali optimallashtirish va modellashtirish muammolarini yechishda ishlatiladigan evristik qidiruv algoritmi.

Sun'iy intellektning o'rganish modellari va usullari

Sun'iy intellekt (SI) tarixini tahlil qilib, fikrlashni *modellashtirish* kabi keng qamrovli yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin

Ko'p yillar davomida ushbu fanning rivojlanishi aynan shu yo'ldan bordi va hozirgi kunda u zamonaviy sun'iy intellektning eng rivojlangan sohalaridan biri hisoblanadi. Fikrlashni modellashtirish ramziy tizimlarni yaratishni o'z ichiga oladi, uning kirishida ma'lum bir vazifa qo'yiladi va chiqish vaqtida uning yechimi talab qilinadi. Odatda, taklif qilingan vazifa shakllangan bo'lsa, yani matematik shaklga aylantirilganda, yoki hal qilish uchun bir algoritmi bo'lmaydi, yoki bu ham murakkab, mehnat talab qiladi va hokazo. Bularga teorema, qaror qabul qilish va o'yin nazariyasi, rejalashtirish, dispetchirlik va bashorat qilish kiradi.

Tabiiy tillar bilan ishlash

Tabiiy tilni qayta ishlash muhim yo'nalish bo'lib, uning doirasida "inson" tilida matnlarni tushunish, qayta ishlash va generatsiya qilish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Xususan, bu yerda matnlarni bir tildan boshqasiga mashinali tarjima qilish muammosi hal qilinmagan. Zamonaviy dunyoda ma'lumotni ahtarish usullarini ishlab chiqish katta rol o'ynaydi. O'zining tabiatiboyicha Tyuring original testi bu yo'nalish bilan bog'liq.

Bilimlarni to'plash va ulardan foydalanish

Ko'pgina olimlarning fikriga ko'ra, aqlning muhim xususiyati o'rganish qobiliyatidir. Shunday qilib, bilimlar muhandisligi oddiy ma'lumotlardan bilimlarni olish, uni tizimlashtirish va ulardan foydalanish vazifalarini birlashtirgan holda birinchi o'ringa chiqadi. Ushbu sohadagi yutuqlar sun'iy intellekt tadqiqotlarining deyarli barcha sohalariga ta'sir qiladi.

Bu yerda ikkita muhim sohalarini ajratish kerak.

Ularning birinchisi – mashina ta'limi - ishlash jarayoniga mustqil ravishda

bilimni intellektual ishlab chiqarish tizimiga tegishli.

Ikkinchisi ekspert tizimlarini yaratish bilan bog‘liq – harqanday muammo bo‘yicha ishonchli xulosalar chiqarish uchun maxsus bilim bazalaridan foydalanadigan dasturlar .

Shakllarni aniqlash muammolarining katta sinfi mashinali o‘rganish sohasiga tegishli. Masalan, qo‘l yozuvini, nutqni aniqlash, matn tahlili. Ayniqsa, robototexnika bilan bog‘liq bo‘lgan kompyuterni ko‘rish qobiliyati ta’kidlash kerak.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В УЗБЕКИСТАНЕ.

*Мажидова Ирода Гайратовна,
ст. преподаватель кафедры «Электронная
коммерция и цифровая экономика», ТФИ
Абдулазизов Шухратбек,
студент ТФИ-ПГУ*

Аннотация

В данной статье были рассмотрены все пути развития искусственного интеллекта в Узбекистане в основном за 2021-2022года. В статье были перечислены такие пути развития искусственного интеллекта как создание IT-зоны, цели по развитию искусственного интеллекта, перечень пилотных проектов, подготовка специалистов по направлению искусственный интеллект.

Ключевые слова: искусственный интеллект, пилотный проект, условия для ускоренного внедрения.

Когда мы слышим словосочетание «искусственный интеллект» (ИИ), то перед нашими глазами отображается картина из наших бурных фантазий, картина будущего, где в мире господствует искусственный интеллект (машины, роботы, цифровые технологии, самые новейшие технологии), а человек подчиняется чёткой, организованной и надёжной работе всей бездушной системы. Однако это является плодом человеческих воображений и не стоит смотреть на искусственный интеллект с пессимистического ракурса. С учётом этического принципа «Не нанеси вред человеку» технологии ИИ несут больше выгоды и преимущества для

человечества. Как говорится в Министерстве инновационного развития, искусственный интеллект-это искусственная интеллектуальная система, выполняющая логические и творческие функции.Использование искусственного интеллекта открывает большие двери для развития в сфере финансов, науке, медицине, образования, технологии, сельского хозяйства, промышленной деятельности, градостроительства, энергетики, биотехнологии, нанотехнологии и других сферах.

И в Узбекистане начали обращать на это больше внимания по созданию условий для ускоренного внедрения технологий искусственного интеллекта.

Как в своих выступлениях отмечал Президент Ш.Мирзиёев, одной из важнейших задач последовательного всестороннего развития Узбекистана является широкое внедрение искусственного интеллекта.

В Узбекистане началось эффективное изучение и обращать внимания на искусственный интеллект. К примеру, 10 января 2018 года Постановлением Президента Кабинета Министров Республики Узбекистан №17 рассмотрен план по созданию ITPark.

И 24 июля 2019 года было открытие ITParkв Ташкенте. Создание стартапа-экосистемы и IT-зон; развитие фриланс и BPO; реформирование IT-образования; оказание маркетинговой, юридической, бухгалтерской и HR-поддержки для стартапов и IT-компаний.

После этого была утверждена программа мер по внедрению и изучению технологий искусственного интеллекта в 2021-2022 годах. И вместе с этим были поставлены цели по развитию искусственного интеллекта, выработка нормативно-правовой базы, применение искусственного интеллекта для улучшения государственных услуг, создание отечественной экосистемы инновационных разработок в области искусственного интеллекта с последующей их коммерциализаций, формирование инвестиционной привлекательности научных работ и разработок в области искусственного интеллекта, создание условий для разработчиков программного обеспечения с применением технологий искусственного интеллекта в доступе к цифровым данным, развитие международного сотрудничества в области искусственного интеллекта и технологий его применения, обеспечение доступа отечественных предприятий и специалистов к информационным ресурсам и компетенциям в области искусственного интеллекта.

Утверждён Перечень пилотных проектов по внедрению технологий ИИ, которые будут реализованы в 2021-2022 гг. в следующих сферах:

-в сельском хозяйстве в процессе мониторинга состояния почвы и сельхозкультур на основе данных дистанционного зондирования земли, а также работы сельхозтехники, в том числе комбайнов;

-в банковской сфере для повышения эффективности мониторинга за деятельностью коммерческих банков и упрощения выполнения или регуляторных требований (SubTech и RegTech), а также для анализа качества оказания банковских услуг, удалённой биометрической идентификации (Face-ID) пользователей и оценки кредитных рисков;

-в финансовой сфере для анализа и повышения эффективности бюджетных расходов, пенсионных, социальных и страховых выплат, а также пособий;

-в налоговой сфере для анализа налоговых поступлений юрлиц, выявления отклонений налоговых отчислений;

-в сфере транспорта в процессе управления локомотивами для отслеживания их передвижения и предупреждения машинистов при остальных ситуациях, анализа движения общественного транспорта и определения его оптимальных маршрутов, а также мониторинга автомобильного движения и транспортных пробок;

-в сфере энергетики для прогнозирования выработки и потребления энергоресурсов, оптимизации работы технологического оборудования;

-в сфере здравоохранения для диагностики пневмонии на основе анализа компьютерной топографии лёгких человека, а также рака молочной железы на ранних стадиях на основе анализа маммографии;

-в сфере фармацевтики для анализа и прогнозирования потребностей рынка в лекарственных средствах и изделиях медицинского назначения;

-в сфере электронного правительства для удаленной биометрической идентификации пользователей при оказании электронных государственных и финансовых услуг (Face-ID).

Министерства, в чьих сферах будут реализовываться пилотные проекты с применением ИИ, а также банки и крупные промышленные производители Узбекистана (АГМК, НГМК и «Узавтосаноат») создают Совместный альянс по развитию искусственного интеллекта. Все участники альянса консолидируют в его рамках средства (собственные, бюджетные, гранты, кредиты) в размере 200 млрд. сумов, которые направят на исполнение проектов.

Финансирование научных исследований и инновационных разработок в области ИИ будет осуществляться за счёт средств Фонда поддержки инновационного развития и новаторских идей через отдельно открываемый для этих целей расчётный счёт.

Создаётся научно-исследовательский институт развития цифровых технологий и искусственного при Мининфоком; департамент внедрения и развития технологий искусственного интеллекта в структуре центрального аппарата Мининфоком; совместный альянс по призванию искусственного интеллекта.

Мининфокому, Госкомитету по статистике до 1 сентября 2021 года поручено создать платформу цифровых данных, предоставляющую отечественным научным организациям и вузам, а также разработчикам и организациям в сфере информационных технология доступ к наборам государственных и иных данных для использования в программном обеспечении на основе ИИ.

Утверждены:

-Перечень высших образовательных учреждений и научных организаций, в которых с 2021/2022 учебного года поэтапно начинается подготовка кадров по направлению «Искусственный интеллект» на грантовой основе;

-Перечень вузов, в которых внедряются учебные курсы и предметы по прикладному применению технологий ИИ в отраслях экономики, социальной сфере и системе госуправления. Начиная с 2021/2022 учебного года в каждое высшее образовательное учреждение, определённое постановлением, будут привлечены ведущие зарубежные эксперты и учёные для их участия в обучении в области ИИ и технологий его применения. Также с 2021 года предусмотрено ежегодное целевое выделение квоты по 5 человек для обучения в базовой докторантуре и для стажеров-исследователей в этой области.

Как говорил министр по развитию информационных технологий и коммуникаций, на базе четырёх вузов готовят более 130 специалистов в области искусственного интеллекта.

В 15 вузах внедрены курсы и дисциплины по применению ИИ в области государственного управления и экономики. И это ещё не всё, постепенно внедряется подготовка кадров по направлению искусственный интеллект в вузах. Научным организациям и высшим образовательным заведениям выделено 77 (18-в магистратуре и 59-в бакалавриате) на

подготовку кадров по ИИ. Выделено ещё 30 квот на краткосрочные стажировки в России и в других странах в области ИИ.

Можно сделать вывод то, что за такой короткий период Узбекистан выходит на новый уровень развития искусственного интеллекта, создание новых кадров и специалистов по направлению искусственный интеллект, масштабные планы развития цифровых данных и искусственного интеллекта и внедрение искусственного интеллекта во все сферы трудовой деятельности.

Таким образом Узбекистан выходит на новый уровень и по конкурентоспособности, и по созданию специалистов искусственного интеллекта и в плане одного из самых развитых, модернизированных стран не только в Средней Азии но и в Европе.

Список использованной литературы.

1. Андреева, А. К. Оценка конкурентоспособности информационно-правовых продуктов и информационных услуг / А. К. Андреева // Теория и практика сервиса: экономика, социальная сфера, технологии. – 2012. – № 3 (13). –С. 147–154.

2. Архипова, М. Ю. Мониторинг и моделирование основных тенденций развития научной деятельности в России / М. Ю. Архипова, В. В. Власова // Статистика и Экономика. – 2014. – № 2 (6). – С. 384–389.

3. Мажидова И.Г. APPLICATION OF EXPORT AND INFORMATION AND CONSULTING SYSTEMS IN AUDITING COMPUTERIZATION / International Journal of Modern Agriculture / Volume 10 Issue 3, 2021

4. Muqaddas Jumaniyazova, Shakhida Mannanova, Gulshod Avalova WORLD EXPERIENCE OF DIGITAL PLATFORM DEVELOPMENT TRENDS/ Journal of Critical Reviews/ Issue 9, 2020 / 271-273

O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKTNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Yuldashov Rahmon Husanovich
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU “Axborot
texnologiyalari” kafedirasi katta o`qituvchisi.
Aktamov Muslimbek Azamat o`g`li
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU 2-bosqich magistranti**

“Raqamli O'zbekiston – 2030” Strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sun'iy intellekt deganda insonning mantiqiy va ijodiy funksiyalarini bajaruvchi intellektual sun'iy tizim tushuniladi. Ammo sun'iy intellektni to'liq anglash uchun «aqli bo'lgan mashinalarni yaratish» degan tushunchaning o'zi yetarli emas. Ushbu atama, shuningdek, o'rganish va muammolarni hal qilish kabi inson aqli bilan bog'liq xususiyatlarni namoyish etadigan har qanday mashinaga nisbatan qo'llanishi mumkin.

Sun'iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir.

Ko'pchilik sun'iy intellekt atamasini eshitganda, birinchi navbatda ko'z oldiga robotlar keladi. Ammo robotlar sun'iy intellektning kichik bir ko'rinishi hisoblanadi. Texnologiyalar rivojlanib borgan sari sun'iy intellektni belgilaydigan oldingi ko'rsatkichlar eskirib bormoqda. Xususan, kompyuter yordamida matematik hisob-kitoblarni amalga oshirish, bugungi kunda kompyuterning bir funksiyasi sifatida qaraladi.

Sun'iy intellekt va va boshqa kognitiv texnologiyalarning joriy etilish jarayoni jahon bo'ylab jadallashib bormoqda. Bugungi kunga qadar jahon mamlakatlari tomonidan sun'iy intellektni rivojlantirish bo'yicha yettita xalqaro, ellikdan ortiq milliy strategiya qabul qilingan. Bu yo'nalishda O'zbekistonda ham katta qadam tashlandi va sun'iy intellekt sohasida qonunchilikdagi bo'shliq to'ldirildi. Innovatsion rivojlanish vazirligi tashabbusi bilan O'zbekiston innovatsion rivojlanish strategiyasi va Ilm-fanni rivojlantirish konsepsiyasi

doirasida mamlakatda sun'iy intellektni rivojlantirishga qaratilgan me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi.

Ushbu hujjatda sun'iy intellektni ilmiy-innovatsion rivojlantirishning asoslarini ishlab chiqish, mutaxassis kadrlar va olimlar yetishib chiqishi uchun shart-sharoit yaratishga alohida urg'u berilgan. Innovatsion rivojlanish vazirligi sohadagi ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash uchun mas'ul etib belgilangan.

Yaqin kelajakda O'zbekistonda «Sun'iy intellekt» yo'nalishi bo'yicha qanday islohotlar kutilmoqda?

Loyihada quyidagi sohalarda sun'iy intellekt texnologiyalari qo'llanishi ko'zda tutilgan:

Qishloq xo'jaligi sohasida: yerni masofadan zondlash ma'lumotlari asosida tuproq va qishloq xo'jaligi ekinlari holatini, shuningdek, qishloq xo'jaligi texnikasi, shu jumladan, kombaynlar ishini monitoring qilishda;

Bank sohasida: tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish, shuningdek, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit risklarini baholashda;

Moliya sohasida: budget xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirishda;

Transport sohasida: avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda;

Sog'liqni saqlash sohasida: inson o'pkasining kompyuter tomografiyasi tahlili asosida pnevmoniyani aniqlash hamda mammografiya tahlili asosida ko'krak bezi saratoniga ilk bosqichda tashxis qo'yish uchun;

Bularning barchasi, o'z navbatida, Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini hamda ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga xizmat qiladi.

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Э.Улжаев,
Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат
техника университети профессори;
Ш.Н.Нарзуллаев
Ислом Каримов номидаги Тошкент давлат
техника университети докторанти (PhD).

Илм-фан ва ахборот-коммуникация технологиялари жадал ривожланиб, тўртинчи саноат инқилоби томон олиб бораётган глобаллашув даврида технологиялар инсон фаолиятининг барча соҳаларига чуқур кириб борган бўлса-да, инсон ва машина ҳалигача тенг ҳамкорлик асосида ўзаро алоқага тўлиқ киришгани йўқ. Дунёнинг ривожланган мамлакатларида давлат ва жамият бошқаруви, иқтисодиёт, ишлаб чиқариш, ижтимоий ҳимоя, таълим-фан, тиббий диагностика, кишлоқ хўжалиги, мудофаа ва хавфсизлик, туризм ҳамда кўплаб соҳаларга замонавий ахборот технологиялари ва сунъий интеллект имкониятларидан кенг фойдаланиш долзарб масалалардан бири ҳисобланади.

Мамлакатимизда ҳам сунъий интеллектуал технологияларни кенг жорий этиш мақсадида Президентимизнинг 17.02.2021 йилдаги «Сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш учун шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори қабул қилинди. Ушбу қарорда «Рақамли Ўзбекистон – 2030» Стратегиясига мувофиқ ҳамда сунъий интеллект технологияларини жадал жорий этиш ва уларни мамлакатимизда кенг қўллаш, рақамли маълумотлардан фойдаланиш имкониятини ва уларнинг юқори сифатини таъминлаш, ушбу соҳада малакали кадрлар тайёрлаш учун қулай шарт-шароитлар яратиш кўрсатиб ўтилган. Жумладан, сунъий интеллект технологиялари ёрдамида мамлакат иқтисодиётини ривожлантириш, глобал чақирувларга рационал ечимлар тўпламини таклиф этиш ва сунъий интеллект соҳаларида кадрларнинг илмий ҳамда интеллектуал салоҳиятини оширишда 2021-2022 йиллар учун Ўзбекистонда сунъий интеллектни ривожлантиришнинг тўртта асосий устувор йўналиши белгилаб берилган.

Сунъий интеллект одатда инсон онги билан боғлиқ имкониятлар: тилни тушуниш, ўргатиш, муҳокама қилиш, масалани ечиш, таржима ва

бошқа имкониятларни яратиш билан шуғулланади. Сунъий интеллект турли амалларни бажаришга мўлжалланган алгоритм ҳамда дастурий тизимлардан иборат ва у инсон онги бажариши мумкин бўлган бир қанча вазифаларни бажара олади.

Ҳозирги кунда технологик жараёнларни бошқаришнинг интеллектуал тизимларини қуришнинг кенг қамровли янги имкониятлари сунъий нейрон тармоқларини қўллаш орқали ривожланмоқда ҳамда тимсолларни таниш, башоратлаш ва диагностика, оптималлаштириш, шовқинлар таъсирида сигналларга ишлов бериш каби масалаларда кенг қўлланилмоқда. Бунинг натижасида катта ҳажмдаги маълумотларни сақлаш ва қайта ишлашда машинали ўқитишни ривожлантириш катта аҳамиятга эга. Сунъий нейрон тармоқлари бир қанча кириш ва чиқишлардан иборат бўлиб, ўзаро боғланган нейронлар тўпламидан ташкил топган ҳамда ночизиқли ўзгаришни амалга оширади. Кўп қатламли сунъий нейрон тармоқларидан фойдаланган ҳолда сунъий интеллектуал тизимларни чуқур ўқитиш (deep learning), сунъий интеллект муваффақиятининг асосидир.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. <https://lex.uz/docs/5297046>
2. Michael T., McGrath, Clíodhna Ni Scanail. Sensor Technologies. Apress Media. LCC, New York (NY). USA, 2014. – 321 p
3. N.R.Yusupbekov, R.A.Aliyev, R.R.Aliyev, A.N.Yusupbekov, Boshqarishning intellektual tizimlari va qaror qabul qilish. Toshkent: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2015. - 572 b.
4. M. A. Nielsen, Neural networks and deep learning. Determination Press, 2015.
5. E. Ulzhaev, Sh.N. Narzullaev, E.F. Khudoyberdiev, Sh.A. Sulaimonova, Algorithm of the process of creation of neural networks for measuring qualitative parameters of bulk materials. Proceeding of International Conference on Scientific Endeavors and opportunities, Telavi, Georgia, March, 2021, pp. 78-81.

RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH BOSQICHLARI

Srimbetova Dinara Anvarovna
“ET va RI” kafedrası o‘qituvchisi

Bugungi kunda Internetning rivojlanishi butun dunyodagi insonlar va kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Shu munosabat bilan jahon amaliyoti va O‘zbekiston tarixida ilk bor mamlakatimiz bo‘ylab “xalq qabulxonalari” tashkil etildi, prezident, bosh vazir, vazirlik va idoralar rahbarlarining virtual qabulxonalari ish boshladi, korrupsiyaga qarshi real kurash boshlandi, valyuta liberallasuvi va soliq islohoti amalga oshirildi, xalq manfaatlarini esa keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishning asosiy ustuvor yo‘nalishi va asosi bo‘ldi. O‘tgan yillar davomida erishilgan va kelajak rejalarini tahlil qilgan holda, bu faqat O‘zbekistonda ijobiy o‘zgarishlarning boshlanishi, deb aytish mumkin.

Mamlakatimizda ro‘y bergan ko‘plab ijobiy o‘zgarishlar, shuningdek, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi davrida mamlakatni rivojlantirish bo‘yicha bo‘lajak

rejalar haqida so‘z yuritilar ekan, 2020-2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasini raqamli o‘zgartirish Strategiyasini tayyorlash, qabul qilish va amalga oshirish muhim qadamlardan biridir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning hokimiyatga kelishi bilan O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy vaziyat sifat jihatidan o‘zgardi, tubdan o‘zgartirishlar va yangi O‘zbekistonni shakllantirish davri

boshlandi. Mamlakat “Xalq davlat idoralariga emas, balki davlat idoralari xalqqa xizmat qilishi kerak” shiori ostida o‘z taraqqiyotining yangi darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan ichki va tashqi siyosatning ochiqdilligi yo‘lida turibdi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda aniqlangan muammolarning tahlili asosida O‘zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiya infratuzilmasining hozirgi holatini hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo‘nalishlari, raqamli iqtisodiyotning milliy institutlarini jadal rivojlantirish maqsadida zarur tashkiliy, infratuzilma va normativ-huquqiy o‘zgarishlar taklif etildi.

Raqamli iqtisodiyotning mahalliy institutlarini shakllantirishning hozirgi bosqichida tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishning mahalliy tarmoqlarini

modernizatsiyalashda asossiz ma'muriy to'siqlarni barpo etishni istisno qilish uchun ta'qiqsiz tartiblarga rioya taklif etiladi.

O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish ushbu jarayonni amalga oshirishda davlat, biznes hamjamiyati va fuqarolik jamiyatining to'laqonli ishtirokida milliy farovonlikni ta'minlash uchun yangi iqtisodiy tuzum salohiyatini royobga chiqarishni o'z ichiga oladi. Davlat hayotining turli jihatlarini raqamlashtirishning hozirgi holati haqida so'z yuritar ekanmiz, ta'kidlash joizki, keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanishda muhim taraqqiyotga erishdi, Keyingi yillarda respublikada raqamli texnologiyalar eksportini oshirish, raqamli texnologiyalar bilan bog'liq biznes-modellarni rivojlantirishni rag'batlantirish va sohaga investitsiyalarni ko'paytirish maqsadida innovatsion raqamli ekotizimning bir qator elementlari ham yaratildi, startup-ekotizimi va startup-loyihalarni yaxshilash va ularni amalga oshirish bo'yicha "IT PARK" innovatsion markaz tashkil etildi va faoliyat yuritmoqda, dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki, yetakchi xorijiy sheriklar bilan birgalikda Webster universiteti (AQSh), Inha universitetlari (Koreya Respublikasi) va Amiti (Hindiston) raqamli texnologiyalar sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun Ta'lim dasturlarini amalga oshirish markazi ochildi. "Yashnobod" va "Xorazm" innovatsion texnoparklari faoliyatini amalga oshirmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning kelgusi davrida raqamli iqtisodiyotni (RI) rivojlantirish strategiyasi va dasturlari davlat rahbarlari va ilmiy jamoatchilik e'tiborida bo'lmoqda.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot jadal rivojlanmoqda. Shunday qilib, agar 1-iyun 2017-yil holatiga dunyoda 3,9 milliard Internet foydalanuvchisi mavjud bo'lsa, 31-mart 2021-yilda butun dunyo aholisi 7,875 milliard kishi bo'lganligini hisobga olgan holda dunyodagi Internet foydalanuvchilari soni 5,168 milliard kishiga yetdi.

Elektron tijoratning butun dunyo bo'ylab faol o'sish sur'atlarini hisobga olgan holda, O'zbekiston jahon bozorida elektron tijorat sohasida, xususan, xalqaro pochta va kuryer yuklarini yetkazib berish sohasida faoliyat yuritayotgan mahalliy kompaniyalar pozitsiyasini mustahkamlash uchun qo'shimcha choralar ko'rishi kerak. Mazkur sohani muvaffaqiyatli va barqaror rivojlantirish va uning vakillari faoliyatining asosiy omillaridan biri, tegishli professional mos muhit va infratuzilmani ta'minlashdan iborat. Ushbu infratuzilmani ijobiy natijalarga erishgan va iste'molchilar ishonchini qozongan, hamda uzoq vaqt davomida

mamlakatda xalqaro pochta va kuryer junatmalarini etkazib beradigan manfaatdor, mas'uliyatli va tajribali tashkilotlar tashkil qilishi mumkin.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Shunday qilib, Tafts universiteti (AQSh) qoshidagida Fletcher maktabi Mastercard bilan hamkorlikda "2017-yilda raqamli evolyutsiya indeksi" tadqiqotini taqdim etdi. Kompaniyalar mamlakatlar o'zlarining raqamli iqtisodlarini rivojlantirish jarayonida erishgan yutuqlarini, shuningdek, yangi imkoniyatlarning odamlarning kundalik hayotiga integratsiya qilish darajasini tahlil qildilar. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha etakchilar Singapur, Buyuk Britaniya, Yangi Zelandiya, BAA, Estoniya, Gonkong, Yaponiya va Isroildir. Ushbu mamlakatlardagi raqamli evolyutsiya darajasi rivojlanish vektorini tanlash uchun boshqa mamlakatlarga namuna bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning aniqlangan muammolari tahlili asosida O'zbekiston axborot texnologiyalari va kommunikatsiya infratuzilmasining hozirgi holatini hisobga olgan holda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishning ustuvor yo'nalishlari, raqamli iqtisodiyotning milliy institutlarini jadal rivojlantirish maqsadida zarur tashkiliy, infratuzilma va normativ-huquqiy o'zgarishlar taklif etildi.

Raqamli iqtisodiyotning yangi mahalliy institutlarini shakllantirishning hozirgi bosqichida mahalliy ishlab chiqarish tarmoqlari va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini modernizatsiya qilish uchun asossiz ma'muriy to'siqlarni barpo etishni istisno qilish uchun ta'qiqsiz tartibga rioya qilish taklif etilmoqda

Zamonaviy texnologiyalar davlat boshqaruvining yuqori texnologiyali raqamli platformasi muhitini yaratishga imkon beradi, bu inson omili va unga aloqador korrupsiya va xatolarni minimallashtirishni ta'minlaydi, statistik, soliq va boshqa hisobotlarni to'plashni avtomatlashtiradi, haqiqiy vaziyatni tahlil qilish asosida qaror qabul qilishni ta'minlaydi.

Davlat xizmatlarini ko'rsatish yagona raqamli bulut platformasi asosida, o'zaro hamkorlikning ochiq interfeyslari bilan quriladi va shu jumladan mustaqil yetkazib beruvchilarga ushbu platforma asosida ishlaydigan o'z ilovalarini yaratish orqali fuqarolarning davlat bilan o'zaro hamkorligini kengaytirish imkonini beradi.

Natijada yangi avlod iqtisodiyoti samaradorligini quyidagilar yordamida oshirish mumkin:

- inson omilini minimallashtirish va kontaktsiz

muloqot sxemasini yaratish orqali korrupsion komponentni minimallashtirish;

- intellektual agentlarni soliqqa tortish, mas'uliyat, identifikatsiya qilish va boshqalar uchun sub'ektlar bilan ta'minlash.;

- soliq yukini individual hisoblash bilan "aqli shartnomalar" tamoyili bo'yicha ishlaydigan intellektual agentlardan foydalanish orqali soliqqa tortishni optimallashtirish;

- byudjet xarajatlarining avtomatlashtirilgan ustuvorligi adaptiv modelini joriy etish;

- tashabbus byudjeti modellaridan keng foydalanish, shu jumladan, siyosiy qarorlarga ta'sir qilish usuli sifatida;

- davlat xizmatlarini o'zaro hamkor ochiq interfeyslarga ega bo'lgan yagona raqamli platforma orqali taqdim etish.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun davlatxususiy sheriklik formatini yanada rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot va innovatsion siyosatni innovatsiyalarning o'zgaruvchan tabiatiga, shuningdek, ijtimoiy va global muammolarga ko'proq moyil qilish, yangi bozorlarni rivojlantirish va hamkorlik va qo'shma ishlab chiqarish orqali qiymat yaratish muhim ahamiyatga ega.

Davlat fuqarolik jamiyatiga shaxsiy salohiyatni ro'yobga chiqarish va o'z hayotini boshqarish uchun yangi imkoniyatlar taqdim etishi kerak. Buning uchun davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilishni ta'minlash, foydalanuvchilarga qulay elektron hukumat xizmatlarini ishlab chiqish, davlat organlari bilan oddiy va xavfsiz tarzda muloqot qilish imkoniyatini ta'minlash lozim.

СВЯЗЬ ЭКОНОМИКИ С ИСКУССТВЕННЫМ ИНТЕЛЛЕКТОМ В ЭПОХУ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

Сримбетова Динара Анваровна
ТФИ, преподаватель кафедры
«Электронная коммерция и цифровая экономика»

Аннотация

В этой статье рассматриваются идеи о том, как экономика связана с искусственным интеллектом. В целом как будет развиваться в современном обществе.

Ключевые слова: искусственный интеллект, общество, экономика.

Существует значительная неопределенность в отношении того, насколько сильно будут ощущаться эти последствия и как быстро они наступят. Вполне возможно, что искусственный интеллект не окажет значительного нового воздействия на экономику, так что в ближайшие годы будут наблюдаться те же основные тенденции в области рабочей силы, которые наблюдались в последние десятилетия — некоторые из которых являются положительными, а другие вызывают беспокойство и могут потребовать изменений в политике. На другом конце диапазона возможностей экономика может испытать большой шок, связанный с ускорением изменений на рынке труда, и значительно большим количеством работников, нуждающихся в помощи и переподготовке, поскольку их навыки больше не соответствуют требованиям рынка труда. Учитывая имеющиеся фактические данные, невозможно сделать конкретные прогнозы, поэтому политики должны быть готовы к целому ряду потенциальных результатов. Как минимум, некоторые профессии, такие как водители и кассиры, скорее всего, столкнутся с увольнением или реструктуризацией своих нынешних рабочих мест.

Поскольку последствия автоматизации, основанной на искусственном интеллекте, будут ощущаться во всей экономике, а области наибольшего воздействия может быть трудно, предсказать, политические меры должны быть нацелены на всю экономику. Кроме того, экономические последствия автоматизации, основанной на искусственном интеллекте, может быть трудно отделить от других факторов, таких как другие формы технологических изменений, глобализация, снижение

рыночной конкуренции и переговорной силы работников, а также последствия прошлых решений государственной политики. Даже если невозможно определить, в какой степени текущая трансформация экономики вызвана каждым из этих факторов, политические проблемы, вызванные сбоями, остаются и требуют широкого политического реагирования.

В тех случаях, когда возможно направить меры по смягчению последствий в особо пострадавшие места и сектора, следует применять эти подходы. Но в более общем плане в докладе предлагаются три широкие стратегии для устранения последствий автоматизации, основанной на искусственном интеллекте, для всей экономики:

- Инвестировать в ИИ и развивать его благодаря многочисленным преимуществам;

- Обучать и обучать американцев для работы в будущем;

- Оказывать помощь работникам в переходный период и расширять возможности работников для обеспечения общего роста.

В отчете подробно описывается, что можно сделать для реализации этих стратегий. Постоянное взаимодействие между правительством, промышленностью, техническими экспертами и экспертами в области политики и общественностью должно сыграть важную роль в продвижении страны к политике, способствующей всеобщему процветанию, раскрытию творческого потенциала американских компаний и работников, продвижению разнообразия и вовлечению технического сообщества в ИИ и обеспечению постоянного лидерства страны. В создании и использовании искусственного интеллекта.

Помимо этого отчета, предстоит проделать еще большую работу по дальнейшему изучению политических последствий искусственного интеллекта. В частности, искусственный интеллект создает важные возможности в области кибербезопасности и может улучшить системы обнаружения мошеннических транзакций и сообщений.

Цифровая экономика - это экономическая деятельность, обусловленная миллиардами ежедневных онлайн-соединений между людьми, предприятиями, устройствами, данными и процессами. Основой цифровой экономики являются гиперссылки, которые соединяют людей, организации и технические устройства на основе Интернета, мобильных технологий и Интернета вещей (IoT).

Новые технологии все чаще развиваются в глобальном масштабе. Взрывной рост социальных сетей, рынка смартфонов, широкополосного доступа в Интернет и искусственного интеллекта меняет мировое пространство. В настоящее время около 40% населения земного шара имеют доступ к Всемирной паутине. Использование цифровых технологий для продажи товаров и услуг, предоставления государственных услуг, образования граждан позволит всему обществу получать так называемые “цифровые дивиденды”, под которыми понимается рост национального благосостояния, материальной прибыли и прозрачности государственного управления.

Цифровые технологии меняют саму операционную модель компаний, особенно в банковском и телекоммуникационном секторах, повышая экономическую эффективность и выявляя новые рыночные возможности. Методы анализа больших объемов данных активно используются для получения новой информации и принятия эффективных и оптимальных управленческих решений. Это явление называется “цифровая экономика”.

Формируясь и развиваясь, цифровая экономика меняет традиционные представления о работе предприятий; о сотрудничестве между различными компаниями; об услугах, информации и продуктах, которые могут получить потребители.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЕКТА В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ

**Эрданова Севара,
старший преподаватель кафедры
«Иностранные языки», ТФИ**

«Сквозные» технологии — это перспективные технологии, радикально меняющие ситуацию на существующих рынках или способствующие формированию новых рынков. К сквозным технологиям цифровой экономики относятся: большие данные, нейротехнологии и искусственный интеллект, системы распределенного реестра (блокчейн), квантовые технологии, новые производственные технологии, промышленный интернет, компоненты робототехники и сенсорика,

технологии беспроводной связи, технологии виртуальной и дополненной реальностей.

Цифровые технологии полностью меняют устоявшуюся модель образования. Они позволяют учиться где угодно и когда угодно. Уже сейчас коммерческие и некоммерческие организации разрабатывают приложения, которые используют (и комбинируют) совершенно разные технические методы. Во-первых, студент никогда не заснет на уроке, потому что занятия интерактивные и это интересно. Во-вторых, использование ИИ дает возможность адаптивности и персонализации учебного процесса, чего невозможно достичь на традиционном уроке. В-третьих, система цифрового оценивания прогресса студента ИИ позволяет преподавателю быстро скорректировать курс обучения. Более того, ИИ позволяет оценить уровень знаний будущего студента и подобрать наиболее результативный формат обучения еще на начальном этапе.

Искусственный интеллект - один из основных прорывов, который повлияет на образование и, в частности, на изучение иностранного языка.

Работа с ИИ также очень полезна и для обучения преподавателей, поскольку можно отследить, из-за чего программа меняет план обучения, какие факторы учитывает и какой прогресс у студента в результате. Или, к примеру, подбор участников для командной работы.

Традиционные способы изучения нового языка в настоящее время считаются трудоемкими и требуют большого количества материала, тогда как цифровые приложения, которые используют ИИ, могут предоставлять индивидуальные возможности каждому «ученику». Приложения отслеживают ваши личные данные, предоставляют материалы, соответствующие вашему уровню, и в целом создают индивидуальный курс обучения.

Коммуникация между людьми работает с точностью до наоборот. Мы имеем доступ к огромному количеству общих знаний, однако в коммуникации эффективно используем только то, что имеет непосредственное отношение к конкретной ситуации взаимодействия. Мы реагируем спонтанно и гибко. ИИ не может этого сделать, потому что у него нет важной предпосылки: когнитивного сознания. Поэтому приложения с графическим интерфейсом для электронного обучения, вероятно, смогут вытеснить аналоговые учебники в обозримом будущем, но ИИ не заменит учителя. Приложения для электронного обучения не

заменяют аудиторное обучение, а представляют собой совершенно новый подход к самообучению.

Проблема с изучением иностранного языка состоит в том, что взаимодействие с агентной системой функционирует без сбоев только в том случае, если учащиеся вводят такие вопросы и ответы, которые разработчики системы смогли предвидеть. Но поведение людей непредсказуемо. Однако в реальной человеческой коммуникации присутствует спонтанность и гибкость реакций. Системы ИИ не способны к такому общению, поскольку у них нет саморефлективного сознания. Вне сценариев применения диалоги с чат-ботами и агентными системами становятся нестабильными, бессвязными, они подвержены сбоям и не могут служить моделью для изучающих иностранный язык. Более того, если не контролировать учебный процесс, то встает вопрос о том, кто будет нести ответственность за ошибки ИИ, которые могут навредить не только усвоению учебной программы, но чисто человеческим качествам студента. Ведь именно преподаватель — один из тех людей, которые формируют личность, отношение к каким-либо вещам и событиям и оказывают большое влияние на наше мировоззрение.

Искусственный интеллект в системе высшего образования – это одна из технологий цифрового обучения, стремящаяся копировать работу человеческого мозга, а потому способная выполнять простейшие задачи логического характера, вести общение с обучающимися, в том числе и на иностранных языках, моделировать различные профессиональные ситуации, обрабатывать большие объемы информации и воспроизводить запрашиваемые данные в кратчайшие сроки, что может значительно помочь субъектам образовательного процесса в выполнении рутинной работы

Использованная литература:

1. Паспорт национальной программы «Цифровая экономика Российской Федерации» (утв. президиумом совета при Президенте РФ по стратегическому развитию и национальным проектам. Протокол от 24 декабря 2018 года № 16).
2. Исаева Т.Е. Современный университет: изменение приоритетов // Философия образования. 2005. № 1 (12). С. 76–79

ОБУЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ С ПРИМЕНЕНИЕМ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА

*Мурадова Насиба, и.о.доцента кафедры
«Иностранные языки», ТФИ*

Будущее высшего образования неразрывно связано с развитием новых технологий и вычислительных мощностей интеллектуальных машин. В этой сфере достижения в области искусственного интеллекта (ИИ) открывают как новые возможности, так и порождают ряд проблем, которые могут коренным образом изменить управление и внутреннюю архитектуру высших учебных заведений

Информация и интеллект - это новая нефть и энергия XXI века. Чем доступнее знания, тем быстрее коммуникация, тем эффективнее таланты из разных уголков мира смогут взаимодействовать между собой для решения глобальных задач. Это означает осуществление построения модели структуры знаний по контенту обучения иностранным языкам, интеллигентных поисков, образовательных ресурсов, интеллектуального агента образовательного процесса, а также оценки и тестирования результатов обучения обучающихся, то есть контент обучения представляется через СМИ, с помощью интернета.

Если затрагивать проблему использования ИИ в производственной сфере, т. е. там, где обучающиеся вузов обычно проходят производственную практику, то в качестве примера можно обратиться к опыту работы наиболее крупных предприятий, обладающих всеми ресурсами для внедрения ИИ. Технологические гиганты, такие как Apple, Google, Microsoft и Facebook, в настоящее время конкурируют в области искусственного интеллекта и вкладывают значительные средства в новые приложения и исследования. К примеру, даже самые передовые решения от Google или Amazon по распознаванию речи, используемые для моделирования диалогов, не всегда с первого раза принимают сказанное студентом, заставляя несколько раз произносить какую-то фразу.

Дидактика использования чатов для самообучения на иностранном языке относительно хорошо изучена. Диалоговые системы следуют принципу простых чатов, которые предназначены для интуитивного общения на языке. Обучаемый может свободно осуществлять коммуникацию, например в рамках определенных ключевых слов. Теперь

представим, что нам нужно подсказать иностранцу, которого мы встретили по пути в магазин, направление к ближайшему банкомату на английском. В своей голове все мы разговариваем, как истинные англичане с изысканным подбором эпитетов, и как раз сейчас стоим и судорожно перебираем все возможные варианты, как это озвучить. В итоге вместо «Go straight and you will see the cash machine», мы говорим что-то типа «Go there!», тыкнув пальцем и, услышав «thank you», понимаем, что наша коммуникативная цель достигнута.

Применение «разговорных агентов» (чат-ботов) способных создавать ответы на входные предложения с учетом языковых норм и правил в образовательном процессе по иностранным языкам становится все более оправданным.

Преимущества внедрения искусственного интеллекта в электронное обучение могут быть поразительны. Проиллюстрируем эту мысль следующими примерами.

1. Индивидуализация и персонализация образования. Предполагается, что в группе с 15– 25 обучающимися преподавателю иностранного языка достаточно сложно найти правильный подход к каждому. Но благодаря использованию искусственного интеллекта при изучении нового языка можно учитывать потребности каждого отдельного студента.

2. Обеспечение мгновенной обратной связи. При изучении иностранных языков при помощи искусственного интеллекта обратная связь будет приходить быстро. Когда студенты много работают над важным тестом, ожидание результатов может быть напряженным. Когда через неделю они увидят свои ошибки, то уже не смогут вспомнить, как и почему их сделали.

3. Устранение страха перед неудачей. Но когда студенты делают ошибки, они получают низкие оценки, или, когда они не отвечают на вопросы, часто испытывают неловкость или даже страх перед тем, что скажет преподаватель.

4. Изменение роли преподавателя. ИИ не заставит преподавателей покинуть университет, но по-новому определит их роль. Вместо того чтобы быть «мудрецом на сцене», преподаватель станет проводником знаний, консультантом и помощником, а это означает, что технология будет выполнять за преподавателей ежедневные, рутинные обязанности, в то

время как у них высвободится время на общение и поддержку обучающихся.

В образовательном процессе такие простые и повторяемые работы заменяют искусственным интеллектом, как: (1) повторяемые (корректировать и дать домашние задания); (2) работы, требующие большой нагрузки (интегрировать опыт многочисленных преподавателей, найти оптимальный путь преподавания); (3) точно определяющие аспекты (индивидуальные характеристики и требования различных обучающихся, затруднительные моменты и камень препятствия в процессе изучения). Одновременно с помощью искусственного интеллекта сами преподаватели могут учиться дальше и повышать свою профессиональную грамотность, чтобы лучше заниматься образовательной деятельностью.

Использованная литература:

1. Есионова Е.Ю. Искусственный интеллект как альтернативный ресурс для изучения иностранного языка // Гуманитарные и социальные науки. 2019. № 3. С. 155–166.

2. Синяя книга «искусственный интеллект +образование»: сб. офиц. документов // Центр новейших инноваций по будущему образованию Пекинского педагогического университета. -2008. -С. 51.

СУНЬИЙ ИНТЕЛЛЕКТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Хайитматов У.Т., доц.

Ахмедова М.Н.

**Кадрлар малакасини ошириш ва
статистик тадқиқотлар институти, кат. ўқ.**

Тургунов О.У., ТДИУ асс.

2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси ва Ўзбекистон Республикасини 2019-2021 йилларда инновацион ривожлантириш стратегиясида келтирилган вазифалардан келиб чиққан ҳолда 2021-2022 йиллар учун Ўзбекистон Республикасининг Сунъий интеллектни ривожлантириш стратегиясининг мақсади - сунъий интеллект соҳасида илмий тадқиқот фаолиятларини жадал ва самарали олиб боришдан иборат. Республикада 2030 йилга қадар ахборот-

коммуникация технологиялари ва рақамли иқтисодий ривожлантириш орқали тараққий этган етакчи давлатлар қаторидан ўрин эгаллаш асосий вазифа сифатида белгиланган.

Сунъий интеллект (СИ) инсон онги билан боғлиқ имкониятлар: тилни тушуниш, ўргатиш, муҳокама қилиш, масалани ечиш, таржима ва шу каби имкониятларга эга компьютер тизимларини яратиш билан шуғулланади. Ҳозирда СИ турли амалларни бажаришга мўлжалланган алгоритм ҳамда дастурий тизимлардан иборат ва у инсон онги бажариши мумкин бўлган бир қанча вазифаларнинг уддасидан чиқа олади.

СИ нинг ёрқин намуналаридан бири – IBM Watson суперкомпьютери бўлиб, у ўз базасидан келиб чиқиб муайян тилда берилган саволларга жавоб беради. Шунингдек, кўпчиликнинг доимий ҳамроҳига айланиб улгурган мобил ёрдамчи Siri, фотосуратларни қайта ишловчи Prisma каби дастурларни СИнинг ютуқларидан бири сифатида қайд этиш мумкин. Ҳозирги кунга келиб сунъий интеллект кенг кўламда оммалашиб кундалик турмуш тарзимизнинг деярли барча жабҳаларини қамраб олмоқда. Масалан, Хитойдаги Иньчуань шаҳри аҳолисига банк карталарининг кераги йўқ. Ҳисоб-китоблар билан боғлиқ барча жараёнлар сунъий интеллект томонидан инсоннинг юз қиёфасини аниқлаштириш орқали амалга оширилади.

Маълумки, сунъий интеллект турли амалларни бажаришга мўлжалланган алгоритм ва дастурий тизимлардан иборат бўлиб, инсон онги бажариши мумкин бўлган бир қанча вазифаларни ахборот базасига киритилган маълумотлар асосида амалга оширади. Шунингдек, сунъий интеллект мураккаб таҳлиллар ва катта ҳажмдаги маълумотлар билан ишловчи дастурларни ўз ичига олиб, мантиқли изчил мулоҳаза қилиш ҳамда тавсия бериш қобилиятига эга “ақли” технология ҳисобланади. Мутахассислар томонидан сунъий интеллектга тўртинчи саноат инқилобининг асоси сифатида қаралмоқда.

Сунъий интеллектнинг қуйидаги 4 та турини ажратиш кўрсатиш мумкин:

1. Реактив машиналар. Мисол тариқасида 1990- йилларда жаҳон чемпиони Гарри Каспаровни ютган шахмат программаси билан жихозланган Deep Blue компьютерини келтириш мумкин. Deep Blue шахмат доскасидаги фигураларни таниб олиш ва прогноз қилиш хусусиятига эга компьютер ҳисобланади.

2. Чегараланган хотира. Сунъий интеллектнинг бу тизими келгусидаги ечимларни шакллантиришда олдинги тажрибалардан фойдаланишлари мумкин. Автоном транспорт воситаларида қарор қабул қилишнинг маълум бир функциялари шу тариқа ишлаб чиқилган. Олиб борилган кузатувлардан келгусида амалга ошириладиган ҳаракатлар тўғрисида ахборот олиш учун фойдаланилади. Бу кузатувлар доимий сақланмайди.

3. Ақл назарияси. Бу психологик мавзу бўлиб, бошқаларда қарор қабул қилишга таъсир қилувчи ўз эътиқодлари, истаклари ва ниятлари борлигини тушуниб етишга таалуқли термин ҳисобланади.

4. Ўз-ўзини англаб етиш. Сунъий онгнинг пайдо бўлиши ёзиш тизимларини яратиш ва квант даражасида ахборотларни деярли абадий сақлашни ўз ичига олади. Ўз-ўзини англайдиган машина ўзининг жорий ҳолатини тушунади ва бошқалар нимани ҳис қилаётганини аниқлаш учун маълумотлардан фойдаланиши мумкин.

Машинали ўқитиш - бу маълумотлар тўғрисидаги фан таркибига кирувчи кенг маънодаги мавзу ҳисобланади. Машинали ўқитиш доирасида компьютер тизимларини катта ҳажмдаги маълумотларга қандай ўқитиш жараёни ўрганилади. Компьютер тизимлари маълумотлардан фойдаланган ҳолда қарор қабул қилиш учун ўқитилиши мумкин, ҳамда ўқитиш тизими доимий равишда бу жараёни қўллаб-қувватловчи ва катта ҳажмдаги маълумотлар билан қарор қабул қилиш қобилиятини оширувчи узлуксиз жараён ҳисобланади. Машинали ўқитиш дастурий таъминотдан фойдаланмасдан натижаларни таҳлил қилиш ва прогноз қилиш имконини берувчи сунъий интеллектнинг бир тури ҳисобланади. Машинали ўқитиш атамаси кўпинча сунъий интеллект ўрнида ишлатилади, чунки бу ахборот технологиялари соҳасининг ривожланишига энг катта таъсир кўрсатадиган усул ҳисобланади. Тўғридан-тўғри қарор қабул қиладиган алгоритмлар ва қоидаларни ёзиш ёки компьютерни қоидалар, истиснолар ёрдамида белгиланган вазифаларни бажариш учун дастурлаштириш ўрнига, машинали ўқитиш компьютер тизимларини катта маълумотлар тўпламларидан фойдаланиш орқали қарор қабул қилишга ўргатади. Машинали ўқитиш ишлатиладиган маълумотлардаги шаблонларни ифодаловчи ва умумлаштирувчи моделларни яратиши ва ушбу моделларни янги ахборотларни шарҳлаш ҳамда таҳлил қилиш учун ишлатилиши мумкин. Машинали интеллект сунъий интеллектнинг янги тимсоли сифатида пайдо бўлади.

Машинали ўқитиш соҳасидаги етакчи тадқиқотчилардан бири Домингос ўз тадқиқотида машинали ўқитишни учта компонентнинг йиғиндиси деб ҳисоблайди: тақдим этиш, баҳолаш ва оптималлаштириш. Чуқур ўқитишда маълумотларни таҳлил қилиш учун сунъий нейрон тармоқлари қўлланилади. Сунъий нейрон тармоғи – бу математик модел, шунингдек, биологик нейрон тармоқларини - тирик организмнинг нерв хужайралари тармоқларини ташкил этиш ва фаолият юритиш тамойилига асосланган дастурий таъминот ёки аппарат тимсолидир. Ушбу тушунча мияда юз берадиган жараёнларни ўрганишда ва ушбу жараёнларни моделлаштиришда пайдо бўлди.

Сунъий нейрон тармоғининг дастлабки мақсади худди инсон мияси каби муаммоларни ҳал қилиш эди. Бироқ вақт ўтиб, эътибор биологиядан четга чиқадиган муайян вазифаларни бажаришга қаратилди. Сунъий нейрон тармоғи турли вазифаларни ечишда, жумладан, компьютерли кўриш, нутқни таниб олиш, компьютерли таржима қилиш, ижтимоий тармоқларни филтрлаш, видеоўйинлар ва тиббий диагностика учун ишлатилади.

Айтиш мумкинки, сунъий интеллект инсон билим ва кўникмаларини айлантиришга қодир бўлган дастурий мажмуа бўлиб, режалаштириш, муаммоларни ҳал қилиш, маслаҳат бериш, шунингдек, вазифаларни бажариш жараёнида ўрганиш ва ўз ишларини яхшилашни амалга оширади. Инсон фикрлаши миянинг нейрон хужайраларига асосланган бўлиб, сунъий интеллект эса нейрон тармоқлари асосида амалга оширилади. СИ дан фойдаланиш ҳар қандай жараённи автоматлаштирибгина қолмай, балки уни инсон, ташкилот ёки ишлаб чиқаришнинг муайян вазифасига мувофиқ олиб бориш имконини беради.

MAMLAKATIMIZDA SUN'IY INTELLEKT TEKNOLOGIYALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

**Sharipov Narzullo G'ulomovich
Toshkent moliya instituti "Elektron tijorat va
raqamli iqtisodiyot" kafedراسи o'qituvchisi,**

Hozirgi kunda mamlakatimizda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida ushbu sohada malakali kadrlarni

tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Sun'iy intellekt muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funksiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Sun'iy intellekt haqida so'z borar ekan, uning biznesdagi va axborot texnologiyalardagi o'rnini tahlil qilish lozim. Sun'iy intellektning ushbu yo'nalishlarga sekin-astalik bilan kirib borishi, sun'iy intellekt vositalarining soni oshishini ta'minlaydi. "Sun'iy intellekt" deganda ko'pchilik robotlarning turli sohalarga jalb qilinishini tushunadi. Ammo sun'iy intellekt atamasi robotlarning inson bilan o'rin almashishini anglatmaydi. Uning asosiy maqsadi inson qobiliyatlari va imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirishdir. Shuning uchun bu kabi texnologiyalar qimmatli biznes resursi hisoblanadi.

Avvallari "sun'iy intellekt" atamasi faqat odamlar bajarishi mumkin bo'lgan, masalan, mijozlarga xizmat ko'rsatish yoki shaxmat o'ynash vazifalarni bajarish uchun qo'llanilgan. Shuningdek, kompyuter texnologiyalarini chuqur o'rganishga ham sun'iy intellekt sifatida qaralgan. Lekin mijozlarga xizmat ko'rsatish, turli onlayn o'yinlar va komp'yuter texnologiyalarini chuqur o'rganish kabilar sun'iy intellekt texnologiyalarining kichik qismi hisoblanadi. To'g'ri, sun'iy intellekt texnologiyalari odamlar bajaradigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali samaradorlikni oshirishga yordam beradi. Biroq endilikda uning qamrovi kengaymoqda, hozirda sun'iy intellekt bilan odamlarning xarakterini, o'quvchilarning qobiliyatlarini, xodimning ishga bo'lgan qarashlarini aniqlab olish mumkin.

Hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o'tamiz. Birinchisi, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. Ikkinchisi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt mahsulining aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi.

Uchinchisi, sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. U kompaniyalar xarajatlarini va xavflarni kamaytirishi, bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirishi hamda boshqa foydali omillar uchun ko'plab vositalarni taklif qila oladi. Natijada sun'iy intellekt joriy etilgan

kompaniyalar raqobatga anchayin chidamli bo'ladi.

Ammo barcha sohalarda bo'lgani kabi ushbu turdagi innovatsiyalarni joriy etishda ham qator qiyinchiliklar mavjud. Xususan, malakali kadrlarning etishmasligi hamda uni joriy etish uchun ma'lumotlarning kamligi. Sababi ma'lumotlar qanchalik ko'p bo'lsa, sun'iy intellekt bashoratlarning aniqligi shunchalik yuqori bo'ladi.

Mamlakatimizda sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish uchun bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinmoqda. Shulardan biri 2021 yilning 17 fevral kuni "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarordan ko'zlangan maqsad — "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasiga muvofiq sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatini va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratishdir.

Shuningdek, ushbu hujjat sun'iy intellektni qo'llashning asosiy yo'nalishlari va tamoyillarini, shuningdek, yaqin va uzoq istiqbolda ushbu sohani kompleks shakllantirish uchun shart-sharoitlarni belgilovchi Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish, iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada, davlat boshqaruvi tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va ulardan foydalanishda yagona talablar, javobgarlik, xavfsizlik va shaffoflikni belgilovchi normativ-huquqiy bazani ishlab chiqish, aholi manfaatlari yo'lida davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilashni nazarda tutadi. O'z navbatida, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlarining samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanish, foydali texnologik yechimlarni ishlab chiqish bo'yicha fundamental va amaliy ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va ularni keyinchalik tijoratlashirishni rag'batlantiruvchi sun'iy intellekt sohasida innovatsion ishlanmalarning mahalliy ekotizimini yaratish kabi maqsad-vazifalar amalga oshiriladi.

Qarorda sun'iy intellekt texnologiyalarining qaysi sohalarda qay tarzda qo'llanilishi, bu borada ko'zda tutilgan vazifalar ham to'liq o'z aksini topgan.

Masalan, Bank sohasida esa tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari (SubTech va RegTech) bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik identifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt

texnologiyalarini qo'llash vazifasi belgilangan.

Moliya sohasida esa byudjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlarini tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash nazarda tutilmoqda.

Soliq sohasida yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to'lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash, transport sohasida esa lokomotivlarni boshqarish jarayonida ularning harakatini kuzatib borish va xavfli vaziyatlarda mashinistlarni ogohlantirishda, jamoat transporti harakatini tahlil qilish va ularning optimal yo'nalishlarini aniqlashda, shuningdek, avtomobil harakatini va transportdagi tirbandliklarni monitoring qilishda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash vazifalari belgilangan.

SUN'IY INTELEKTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR JIHATLARI

Abdixalimova Ozoda Ikramidin qizi
Toshkent Moliya instituti talabasi

Sun'iy intellekt shubhasiz bugungi dunyoning eng asosiy texnologiyalaridan biri bo'lib, u bizning kundalik hayotimizda katta o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Sun'iy intellektning ideal xususiyati – bu aniq maqsadga erishish uchun eng yaxshi imkoniyatga ega bo'lgan harakatlarni baholay olish va amalga oshirish qobiliyatidir. Sun'iy intellekt – informatikaning asosiy sohasi bo'lib, odatda inson ongi bilan bog'liq imkoniyatlar: tilni tushunish, o'rgatish, muhokama qilish, masalani yechish, tarjima va shu kabi imkoniyatlarga ega kompyuter tizimlarini yaratish bilan shug'ullanadi. Sun'iy intellektning kuchi hozirgacha ko'plab sohalarda, jumladan moliya, marketing, media, reklama, IT, robototexnika kabi sohalarda o'z yechimlarini taklif qilmoqda.

Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy loyihalarni qo'llab quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "Raqamli O'zbekiston-2030" Strategiyasiga muvofiq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish va ularni mamlakatimizda keng qo'llash, raqamli ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati

va ularning yuqori sifatini ta'minlash, ushbu sohada malakali kadrlar tayyorlash uchun qulay shart-sharoit yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 17-fevraldagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini jadal joriy etish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-4996 qarori⁵¹ qabul qilindi. Unga ko'ra quyidagilar belgilab berildi:

bank sohasida: tijorat banklari faoliyatini monitoring qilish samaradorligini oshirish va ular tomonidan tartibga solish talablari bajarilishini soddalashtirish, shuningdek, bank xizmatlari ko'rsatish sifatini tahlil qilish, foydalanuvchilarni masofadan biometrik idinsifikatsiyalash (Face-ID) va kredit tavakkalchiliklarini baholash uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

moliya sohasida: byudjet xarajatlari, pensiya, ijtimoiy va sug'urta to'lovlari, shuningdek, nafaqa to'lovlari tahlil qilish va samaradorligini oshirish uchun sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

soliq sohasida: yuridik shaxslarning soliq tushumlarini tahlil qilish, soliq to'lovlaridagi tafovutlarni aniqlashda sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash;

Hozirda yurtimizda aholi manfaatlarini ko'zlab ko'rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatini oshirish, shuningdek, ma'lumotlarni qayta ishlashda davlat organlari faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida sun'iy intellekt texnologiyalaridan keng foydalanilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiya dunyoning shu jumladan yurtimizning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy modelini tubdan o'zgartirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sun'iy intellekt texnologiyalari ish jarayonini optimallashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish, yuqori ishlab chiqarish hajmi va shu bilan birga mahsulot sifatining yuqori darajasini ta'minlash imkonini beradi.

Sun'iy intellekt texnologik sohalarda keskin o'zgarishlarni keltirib chiqarmoqda. Bir so'z bilan aytganda sun'iy intellekt – texnologik rivojlanish asosini tashkil qilmoqda. Sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va qayta ishlash tizimini takomillashtirish maqsadida hozirda yurtimizda ushbu sohada malakali kadrlarni tayyorlash, mazkur yo'nalishdagi ilmiy-loyihalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Sun'iy intellekt sohasida ilmiy-texnik tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalarni qo'llab-quvvatlash doirasida umumiy qiymati 15,1 milliard so'm bo'lgan, davomiyligi 2021-2024 yillarga mo'ljallangan 9 ta loyiha amalga oshirilmoqda.⁵² Shu bilan birga, so'nggi yillarda axborotlashtirish va ilg'or

⁵¹ <https://lex.uz/docs/-5297046>

⁵² <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt--texnologik-rivojlanish-asosi>

texnologiyalarni turli sohalarda tadbiq etish borasidagi chora-tadbirlar natijasida O‘zbekistonda AKT va sun’iy intellekt sohasida o‘ziga xos salohiyat asoslari yaratildi. Sun’iy intellekt va zamonaviy axborot texnologiyalari yo‘nalishida Farg‘ona shahridagi maktablarda “Aqlli maktab” dasturi, Andijon viloyatida “Monterra” ekin maydonlarining holatini baholovchi onlayn platforma joriy etilgan bo‘lsa, Toshkent viloyatining Nurafshon shahrida “Aqlli shahar”, Toshkent shahrida esa “Xavfsiz shahar” va “Raqamli Toshkent” loyihalarini amalga oshirish rejalashtirilgan. Prezident qaroriga ko‘ra, sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish va rivojlantirish departamenti tuzildi. Shuningdek, sun’iy intellektni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma alyans tashkil qilinib, unga jami 200 milliard so‘m mablag‘ ajratilishi belgilangan.⁵³ 2021-2022 o‘quv yilidan boshlab 5 ta OTMda grant asosida “Sun’iy intellekt” yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlash boshlandi.

O‘z navbatida sun’iy intellektni ilm-fanga joriy etish uchun malakali kadrlar sonini oshirish talab etiladi. Negaki aynan o‘z kasbining ustasi bo‘lgan mutaxassislar barcha jabhalarga sun’iy intellekt kirib borishida asosiy omil bo‘ladi.

O‘zbekistonda yangi texnologiyalar, jumladan, sun’iy intellektning ijtimoiy himoya dasturlari va boshqa sohalarga keng joriy qilinishi davlat va xususiy sektorda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishni rag‘batlantirib, mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish hamda har bir sohaga innovatsiyalarni kiritish imkoniyatlarini amalga oshiradi. Shu bilan birga, zamonaviy ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanilishiga olib keladi.

Har bir ilg‘or texnologiyaning afzalliklari va kamchiliklari mavjud. Sun’iy intellekt ham bundan mustasno emas. Muhimi, biz oldimizda turgan muammolarni aniqlab olishimiz va imtiyozlardan to‘liq foydalanishimiz va salbiy ta’sirlarni kamaytirishimiz uchun o‘z mas’uliyatimizni tan olishimizdir.

Sun’iy intellekt kelajakning muhim jihatiga aylandi va deyarli har bir sanoat va har bir insonning kelajagiga ta’sir qiladi. Sun’iy intellekt katta ma’lumotlar, robotexnika kabi rivojlanayotgan texnologiyalarning asosi hisoblanib, yaqin kelajakda texnologik innovator sifatida harakat qilishda davom etadi.

O‘ZBEKISTONDA SUN’IY INTELLEKTNING RIVOJLANTIRISH ISTIKBOLLARI

⁵³ <https://m.kun.uz/uz/news/2021/02/23/ozbekistonda-suniy-intellektni-rivojlantirish-boyicha-chora-tadbirlar-tasdiqlandi>

Toshkent moliya instituti talabasi Mavlonov Sunnatbek Xamza o'gli

Sun'iy intellekt bizga bir tomondan ko'plab yangi imkoniyatlar va potentsiallarni taqdim etsa, ikkinchi tomondan global xavflarni taqdim etadi. Agar mas'uliyat bilan ishlab chiqilgan bo'lsa, sun'iy intellekt farovonlikni oshirish va jamiyatda foyda keltirishi mumkin. Global miqyosda katta davlat va xususiy investitsiyalar kiritildi, ular sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish, joriy etish va joriy etishga yo'naltirildi. Sun'iy intellekt sohasidagi yutuqlarga javob sifatida, bir qator mamlakatlar sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqish va tartibga solishda raqobatdosh ustunlik va etakchilikni yo'lga qo'yish uchun milliy strategiyalarni ishlab chiqdilar. Sun'iy intellekt texnologiyalari va investitsiyalarining jadal rivojlanishi xalq orasida "Sun'iy intellekt poygasi" deb nomlanadi.

2021-2022 yillarda O'zbekistonda sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasiga oid prezident farmoni loyihasi muhokamaga qo'yildi. Unda O'zbekistonda sun'iy intellektni 3 bosqichda rivojlantirish rejalashtirilmoqda (rasm 1)



Rasm 1. O'zbekistonda sun'iy intellektni 3 bosqichda rivojlantirish rejalari⁵⁴

Strategiyaning maqsadi – sun'iy intellekt sohasida milliy ilmiy tadqiqot va rivojlantirish faoliyatlarini tizimli tarzda yo'lga qo'yish hamda ta'limni samarali isloh etishdan iborat.⁵⁵

Sun'iy intellektni rivojlantirishga strategik sarmoya kiritish kelajakdagi milliy o'sish uchun hal qiluvchi va ahamiyatga ega omildir. Sanoat inqilobi kabi texnologik

⁵⁴ Muallif tomonidan o'rganilgan adabiyotlar asosida tuzilgan

⁵⁵ <https://kun.uz/uz/24828946?q=%2Fuz%2F24828946>

taraqqiyotning boshqa bosqichlarida bo'lgani kabi, ishlanmalar ham butun dunyo xalqlari manfaati uchun taqsimlanishi va moslashtirilishi mumkin.

Yangi texnologiyalarni o'rganishning yangi usullari sun'iy intellektni ilovalarida misli ko'rilmagan o'zgarishlarga turtki bermoqda. Yangi avlod robototexnikasini ishlab chiqarish, infratuzilma va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini o'zgartirishga katta turtki beradi; tabiiy tilni qayta ishlash sohasidagi yutuqlar klinitsyenlarning diagnostika testlari natijalarini sharhlash va bemorlarni davolash usullarini inqilob qilmoqda; chatbotlar va avtomatlashtirilgan yordamchilar aloqasi, tahlil va mijozlarga xizmat ko'rsatishning yangi dunyosini ochmoqda; uchuvchisiz avtonom avtomashinalar mudofaa, xavfsizlik va favqulodda vaziyatlarga javob berish imkoniyatlarini o'zgartirmoqda; aqlli moliyaviy texnologiyalar yanada mas'uliyatli, shaffof va tavakkalchilikdan xabardor moliyaviy sektorni yaratmoqda; avtonom transport vositalari esa transportda inqilob qiladi.

Sun'iy intellekt allaqachon ko'plab sohalarda qo'llanilmoqda va tobora ko'proq qurilmalarni ishlatish, ma'lumotlarni uzatish va tahlil qilish imkonini beruvchi asosiy texnologiya bo'ladi. Sun'iy intellekt yanada rivojlangani sayin, uning ilovalari tobora murakkablashadi va bizning hayotimizga, ish joylarimizga, sanoatimizga va bir-birimiz bilan o'zaro munosabatimizga keng ta'sir qiladi. Bu O'zbekistonda va qo'shnilarimiz uchun doimiy farovonlik va global raqobatbardoshlik uchun imkoniyatlar taqdim etadi. Sun'iy intellekt bilan qanday munosabatda bo'lishimiz va uni qabul qilishimiz kelajakda uning qanday rivojlanishini tubdan belgilaydi.

Agar sanoat, fuqarolik jamiyati, hukumat va jamoatchilik texnologiya rivojlanishini qo'llab-quvvatlash, uning salohiyatiga chuqur e'tibor qaratish va xavflarni boshqarish uchun birgalikda ishlasa, sun'iy intellekt iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy omili bo'lishi mumkin. Hukumat bir nechta vazifalarni bajaradi. U muhim masalalar bo'yicha suhbatlar o'tkazishi va jamoatchilik muhokamasi kun tartibini belgilashga yordam berishi kerak. U ilovalar ishlab chiqilayotganda xavfsizligi va adolatligini nazorat qilishi va jamoatchilikni himoya qilgan holda innovatsiyalarni rag'batlantirish uchun me'yoriy bazalarni moslashtirishi kerak. U asosiy tadqiqotlarni va AI ni jamoat tovarlariga qo'llashni, shuningdek, malakali, turli xil ishchi kuchini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlashi kerak. Hukumat esa aholiga tezroq, samaraliroq va arzonroq xizmat ko'rsatish uchun sun'iy intellektdan foydalanishi kerak.

5-секция.
БОШҚА ЙЎНАЛИШЛАР

ELEKTRON TIJORATDA MA'LUMOTLAR BAZASINI BOSHQARISH

Ilxamova Yodgoraxon Saidaxmedovna
Toshkent moliya instituti "Elektron tijorat va
raqamli iqtisodiyot" kafedrasini mudiri, i.f.n.prof.
Amanullaev D.Sh.
TATY talabasi

Annotatsiya. Internetning rivojlanishi va yuqori darajada kirib kelishi yangi biznes modellari uchun juda ko'p imkoniyatlar yaratdi va elektron to'lov tizimlarini yoki elektron pullarning Internetda to'lovlar uchun mo'ljallangan maxsus bank to'lov kartasi sifatida qo'llash imkoniyatini yaratmoqda va elektron to'lov tizimlari foydalanuvchilar uchun juda ko'plab imkoniyatlar va qulayliklarni taqdim etmoqda shuningdek to'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-noyabrdagi O'RQ-578-son qonuni hamda O'zbekiston respublikasida kripto-birjalar faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 2018-yil 2-sentabrdagi PQ-3926-son qarori qabul qilingan.

Ushbu maqolada elektron to'lov tizimlarini va elektron pullarning Internetda to'lov imkoniyatini beruvchi eng zamonaviy to'lov usullarini va Quyidagi Qonunning amal qilishi to'lov xizmatlarini yetkazib beruvchi va to'lov xizmatlaridan foydalanuvchi bo'lgan jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida to'lovlarni amalga oshirish hamda to'lov xizmatlari ko'rsatish chog'ida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishi haqida to'xtalib o'tamiz.

1. Xalqaro Mehnat Tashkilotining "Ijtimoiy himoyaning minimal darajalari to'g'risida"gi tavsiyalari №202. Jeneva. 14 iyun 2012 yil.
2. Доклад о Целях в области устойчивого развития. ООН.-Нью Йорк. 2019.-с.23.
3. Averting the old age crisis. A World Bank Policy Research Report. Published for the World Bank Oxford University Press. New York.1994 y.

<http://documents.worldbank.org/curated/en/973571468174557899/pdf/multipage.pdf>)

4. United Nations, Department of Economic and Social Affairs, Population Division (2019). World Population Prospects 2019: Highlights (ST/ESA/SER.A/423).

5. <https://population.un.org/wpp/>-интернет сайти маълумотлари.

6. А.А.Сильчук “Повышение финансовой устойчивости пенсионной системы Российской Федерации” Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва. 2016 г. С.10-11.

7. Sh.K.Xamdamov “Pensiya ta’minotining xorij tajribasi”. “Logistika va iqtisodiyot” ilmiy elektron jurnali №4 2021 y. Toshkent.

UMUMIY O’RTA TA’LIM MUASSASALARINI BUDJETDAN TASHQARI MABLAG’LAR HISOBIDAN RIVOJLANTIRISH

Narbekov D.E.

Buxgalteriya hisobi “kafedraasi dotsenti

Narbekova G.D.

TMI mustaqil izlanuvchisi

Bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, umumiy o’rta ta’lim tizimida ilg’or xalqaro tajriba va jamiyatning zamonaviy talablariga muvofiq sifatli ta’lim olish imkoniyatlarini yaratish, xalq ta’lim muassasalarini budjetdan moliyalashtirish va budjetdan tashqari mablag’ bilan ta’minlashning samaradorligini oshirish, yoshlar ta’lim-tarbiyasi uchun qo’shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish, xalq ta’limi tizimi muassasalarini moddiy-texnik bazasini ta’minlash mehanizmini mukammallashtirish, ularning faoliyatiga zamonaviy me’yoriy yechimlar, innovatsion ishlanmalarni va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ularning samarali ishlashi uchun munosib sharoitlarni yaratish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Davlat budjeti o’lchovsiz emas, mablag’larni qattiq tejash, maqsad uchun va oqilona ishlatishni ta’minlash zarur. Bu hammaga ma’lum va rad etib bo’lmaydigan belgilangan haqiqatlardan biri hisoblanadi. O‘zbekistonda bugungi kunda 10 mingga yaqin maktab faoliyat yuritmoqda, ularning 60 foizini moddiy-texnika bazasi mustahkamlanishi kerak. O‘zbekistondagi maktablarning faqat 37 foizi kompyuter sinfiga ega bo‘lib,

ularning 7 foizi Internet tarmog'iga ulangan. Umumta'lim muassasalarini moliyalashtirish mamlakat qonunchiligi doirasida budjet mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi kerak. Har bir maktab yil davomida tasdiqlangan xarajatlar smetasi doirasida mablag' oladi. Mazkur mablag'ning asosiy qismi maktab hodimlarining oylik ish haqi va u bilan bog'liq to'lovlarga yo'naltiriladi. Mablag'ning qolgan qismi esa kommunal hamda aloqa (telefon, internet) uchun to'lovlar, maktabni joriy ta'mirlash (remont) uchun qog'oz, kanselyariya va xo'jalik mollari, kompyuter texnikalari va boshqa turli tegishli xarajatlarga ajratiladi. Bugungi kun talablaridan kelib chiqib, hukumatimiz tomonidan maktablarning infratuzilmasini yaxshilash uchun mablag'lar ajratilmoqda. Ammo qisqa vaqt ichida belgilangan maqsadlarga erishish uchun budjetdan tashqari mablag'larni topish yo'llarini shakllantirish va takomillashtirishimiz lozim bo'ladi. Bugungi kunda iqtisodiyotning rivojlanishi va marketing samarasi bois umumiy o'rta ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari moliyalashtirishning yangidan-yangi manbalari o'rganilmoqda. Hozirgi vaqtgacha umumiy o'rta ta'lim muassasalari faqatgina davlat tomonidan moliyalashtiriladi, budjetdan tashqari jamg'arma mablag'larining deyarli o'sishi kuzatilmagan. Yurtimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish sharoitida budjet mablag'lari bilan bir qatorda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Umumta'lim maktablarining budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'lari maktab xarajatlarini moliyalashtirish manbalaridan biri bo'lib, uni shakllantirishda maktab direktori tashabbus ko'rsatishi talab qilinadi. Chunki qonunchilikda jamg'armani shakllantirishning bir necha daromad yo'nalishlari belgilangan bo'lsada, umumta'lim maktablari ushbu imkoniyatlardan to'liq foydalanmaydilar. Umumta'lim maktablari direktorlari budjetdan tashqari jamg'armani tartibga solish yuzasidan me'yoriy xujjatlar bazasi mazmuni bo'yicha yetarli darajada ma'lumotga ega emas. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag'larni jalb etish orqali biz maktablardagi shart-sharoitlarni yaxshilash, farzandlarimizning ta'lim olishlari va har tomonlama rivojlanishlari uchun qulay sharoitlar yaratishimiz mumkin. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida budjetdan tashqari mablag' topish yo'llari Respublikamiz qonunchiligida o'z aksini topgan. budjetdan tashqari jamg'armasi mablag'laridan samarali va to'g'ri foydalanish yo'llari ko'rsatib o'tilgan. Umumiy o'rta ta'lim muassasasida budjetdan tashqari mablag' topishning manfaatli tomonlari ota-onalarning tanlovi asosida o'quvchilarga pullik ta'lim xizmatlari ko'rsatish orqali ularga sifatli ta'lim berishni yo'lga

qo'yish, ta'lim muassasalari o'rtasida sog'lom raqobatni yuzaga keltirish, ta'lim muassasalarning mustaqilligini oshirishga imkon yaratadi.

XALQ TA'LIM TIZIMI MUASSASALARIDA BYUDJETDAN TASHQARI MABLAG'LARNI YO'LGA QO'YISH

Narbekov D.E.

“Buxgalteriya hisobi “kafedrasi dotsenti

Narbekova G.D.

TMI mustaqil izlanuvchisi

Mamlakatning kelgusidagi jadal taraqqiyoti umumiy o'rta ta'limni sifat jihatidan yuqori darajaga ko'tarish, yosh iste'dodlarni aniqlash, har tomonlama yetuk bo'lgan kelajak avlodni tarbiyalash uchun bugungi kun talablaridan kelib chiqqan holda, xalq ta'lim tizimi muassasalarida moddiy texnik bazani ta'minlash mehanizmini mukammallashtirish, yosh avlod uchun munosib sharoitlar yaratish bo'yicha muhim vazifalar qo'yilgan. Ushbu vazifalardan biri umumta'lim muassasalarida byudjetdan tashqari jamg'armalarni shakllantirish amaliyotini joriy etishdir. Xususan, umumiy o'rta ta'lim maktablarining faoliyat yo'nalishlari ko'p bo'lib, ularda byudjetdan tashqari mablag' topish va sarflashga oid boshqaruv faoliyatini to'g'ri tashkil etish va takomillashtirish ta'lim muassasasi rahbaridan tadbirkorlik va omilkorlik qobiliyatlarini nazarda tutadi.

Eslatib o'tish joizki, 2018-yil 1-oktabrdan boshlab xalq ta'limi muassasalarini rivojlantirish uchun byudjetdan tashqari mablag'larni shakllantirish va sarflash tartibi o'zgartirilgan (2018-yil 5-sentabrdagi PF-5538-son).

Xalq ta'lim tizimi muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- davlat ta'limi muassasalarining ko'chmas mulk obyektlarini ijaraga berishdan tushgan mablag'lar;
- o'quv rejalarida nazarda tutilmagan qo'shimcha ta'lim xizmatlari turlarini ko'rsatishdan olingan daromadlar (davlat ta'lim standartlari bundan mustasno);
- xalq ta'limi muassasalari faoliyati bo'yicha tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) sotishdan olingan daromadlar;
- yuridik va jismoniy shaxslarning, shu jumladan O'zbekiston norezidentlarining homiylik tushumlari;

- xalqaro moliya institutlari va xorijiy davlatlarning grantlari va texnik yordam vositalari;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa vositalar

Byudjetdan tashqari mablag' topish yo'nalishlari ko'p bo'lib, ta'lim muassasasi faoliyatiga bevosita bog'liq yo'nalishlaridan biri pullik ta'lim xizmatlaridir. Ta'lim muassasasida pullik ta'lim xizmatlarini joriy etishda marketing xizmatini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'lib, uning asosiy maqsadi-ta'lim muassasaning raqobatbardosh ustunliklarini ishlab chiqish va ta'lim xizmatlari bozorida imidjni yaratish orqali reytingni oshirishdir. Ehtiyojlardan kelib chiqqan holda maktablarda ta'lim xizmatlari quyidagicha amalga oshiriladi:

- ta'lim oluvchilarni ota-onalarining qoshimcha pullik ta'lim xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish, so'ngra ushbu xizmatlarning xajmi, sifati, turlari va xizmatlarini hisobga olgan holda iste'molchilar uchun zarur bo'lgan xizmatlarni taqdim etishga e'tibor qaratish;

- qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlarini(moddiy-tehnika baza, o'quv metodik qo'llanmalar va boshqalar)taqdim etish sharoitlari va imkoniyatlarini tahlil qilish;

- ta'lim muassasasining pedagogik kadrlar salohiyatini o'rganish;

- pullik ta'lim xizmatlarini har bir turi uchun xarajatlar smetasini tayyorlash.

- qo'shimcha pullik ta'lim xizmatlari bo'yicha shtatlar jadvalini tuzish.

- pullik ta'lim xizmatlarining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini va o'quv dasturlarini tuzish.


- xizmatlar sifatini tashkil qilish maqsadida tizimli monitoring ishlarini olib borish.

To'g'ri tashkil qilingan marketing faoliyati bilimlar iqtisodiyotini vujudga kelishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida ta'limni rivojlantirish, maktablarda qo'shimcha shart-sharoitlarni yaxshilash, moddiy texnika bazani mustahkamlashga olib keladi. bundan ko'rinib turibdiki, ta'lim muassasasining pullik ta'lim xizmatlarini ko'rsatish orqali byudjetdan tashqari mablag' topish bilan bog'liq bo'lgan faoliyatni boshqarish mamlakat miqyosida eng muhim yo'nalishlardan biri bo'lib, ta'lim sifatining zaruriy darajasini ta'minlashga xizmat qiladi.

ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР БЎЙИЧА ДЕБИТОРЛИК ВА КРЕДИТОРЛАРЛИК МАЖБУРИЯТЛАР ҲИСОБИ

Тилаков Навруз Махмудович,
Тошкент молия институти

Олий таълим муассасалари фаолиятини амалга оширишда ходимлар ва стипендия олувчилар, бюджет ва бюджетдан ташқари жамғармалар ҳамда бошқа турли дебитор ва кредиторлар билан ҳисоб-китоблар амалга оширилади. Ушбу ҳисоб-китоблар дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар билан боғлиқ ҳисоб-китобларни ташкил этади (1-расмга қаранг).




1-расм. Олий таълим муассасаларида дебитор ва кредиторлар билан ҳисоб-китобларнинг таркиби⁵⁶

Муассасанинг фаолияти давомида вужудга келадиган мажбуриятлар 1-расмда келтирилгани каби дебиторлик ёки кредиторлик мажбурият кўринишида ҳисобда акс эттирилади. Бунда, бюджет ташкилотини молиялаштириш манбалари билан боғлиқ ҳолатда вужудга келадиган дебиторлик ёки кредиторлик мажбуриятларни алоҳида таркибга ажратиш зарурияти вужудга келади. Яъни, дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар бюджет маблағлари ва бюджетдан ташқари маблағлар бўйича вужудга келиши ҳамда ҳисоб-китоб қилиниши талаб этилади. Шунингдек, олий таълим муассасаларининг дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлари бўйича ҳисоб-китоблар бевосита даромалар ва харажатлар (ҳақиқий ва касса харажатлар) ҳамда пул маблағлари ҳаракати билан ҳам узвий боғлиқ саналади.

⁵⁶ Муаллиф томонидан тузилган

Олий таълим муассасаларининг бюджет ва бюджетдан ташқари маблағлари бўйича ҳисоб-китоблар ҳисобини юритишда 285-сон шакл «Айланма қайднома» ҳар бир молиялаштириш манбаси бўйича алоҳида юритилиши ҳамда дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар бўйича бухгалтерия ахборотларини шакллантириш заруриятини келтириб чиқаради.



2-расм. Бюджетдан ташқари маблағлар юзасидан дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятларнинг ҳисобда акс эттирилиши⁵⁷

Дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар бўйича ҳисоб-китоблар ўзаро бир-бири билан узвий боғлиқ саналади. Чунки, ҳар иккала мажбуриятлар ҳам пул маблағлари билан боғлиқ ҳолатда уларнинг ҳисоб-китоби амалга оширилади. Дебиторлик мажбуриятларнинг ундирилиши натижасида келиб тушган маблағлар кредиторлик мажбуриятларнинг тўланиши учун сарфланади.

Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар юзасидан дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар бўйича ҳисоб-китоблар ҳисобининг навбатдаги ўзига хос хусусияти кўзга ташланади.

⁵⁷ Муаллиф томонидан тузилган

Бунда, ҳисобварақлардаги бюджетдан ташқари маблағлар ҳисобга олиниши нуқтаи назардан алоҳида бухгалтерия счётларига ажаратилган. Дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятларни ҳисобга олувчи счётлар уларнинг турлари бўйича гуруҳлаштирилган, аммо, молиялаштириш манбалари бўйича ажратилмаган.

Олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар бўйича дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар ҳисобини такомиллаштириш юзасидан қуйидаги илмий таклиф ва амалий тавсияларни амалда ҳал этиш зарур:

дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар ҳисобини юритишда маблағлар манбаалари бўйича юзага келишини алоҳида бухгалтерия счётларида акс эттириш, яъни ҳисоб сиёсатида ишчи счётлар режаси таркибини аниқ белгилаб олиш ҳамда ҳисоб жараёнида ушбу таркибга қатъий риоя қилиш;

дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар ҳисобини амалдаги қонунчилик талаблари даражасида ташкил этиш ва муддати ўтган мажбуриятларга йўл қўймаслик бўйича чора - тадбирларни амалга ошириб бориш;

олий таълим муассасаларида бюджетдан ташқари маблағлар бўйича дебиторлик ва кредиторлик мажбуриятлар ҳисоби бўйича молиявий ҳисоботлар ва улардаги кўрсаткичларнинг таҳлилий ҳисоб ахборотлари билан мослигини таъминлаш.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Давлат олий таълим муассасаларига молиявий мустақиллик бериш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори. 2021 йил 24 декабрь, ПҚ-61-сон
2. “Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисида”ги Йўриқнома. 2010 йил 22 декабрь, 2169-сон.
3. Останакулов М. Бюджет ҳисоби. Тошкент. “Талкин”. 2008.
4. Мехмонов С.У. Бюджет ҳисоби. Ўқув қўлланма. - Т.: “Фан ва технология”. 2012.
5. Tuychiyev A.J., Ostonokulov A.A., Ibragimov K.Sh., Tursunov A.S. Byudjet hisobi. Darslik. – Т.: “Iqtisod moliya”. 2018. 428 b.

ИНСТИТУЦИОНАЛ ЎЗГАРИШЛАРНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ: МИЛЛИЙ ҚАРАШЛАР

Каландаров Р., ТМИ

Жаҳон миқёсида ишлатиладиган Иқтисодий эркинлик индекслари (Heritage Foundation иқтисодий эркинлик индекси, Freedom House иқтисодий либерализация индекси), қонун устуворлиги (Freedom House нинг қонун устуворлиги индекси), демократлаштириш даражаси ва бозор ислохотларининг тараққиёт кўрсаткичларига (Европа тикланиш ва тараққиёт банки (ЕТТБ) ислохотларининг ўртача кўрсаткичи) асосланган институционал ўзгаришларнинг иқтисодий ўсиш суръатларига таъсирини баҳолаш моделлари сифатида катта изоҳловчи кучга эга. Гарчи, ушбу кўрсаткичлар маълумотларини ўз тадқиқотларида ишлатган муаллифларнинг аксарияти таъкидлаганларидек, улар ривожланаётган мамлакатлар учун ҳар доим ҳам тўғри кўрсаткичлар ва эксперт баҳоларини тақдим этавермайди.

Мамлакатимиз олимлари ҳам институционал ўзгаришлар масаласига тўхталиб ўтишган, жумладан, аграр соҳадаги ислохотлар Ш.О.Олимжонова, Д.Тожибоева⁵⁸ томонидан тадқиқ қилинган. Д.Тожибоева дунёнинг турли мамлакатларида ЯИМ ҳажмини барқарор ўсишини таъминлаш, иқтисодиётнинг локомотив тармоқларини, жумладан аграр соҳани миллий озиқ-овқат хавфсизлиги талабларидан келиб чиқиб ривожлантириш, ишлаб чиқариш ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва ушбу жараёнларни самарали институционал ўзгаришлар воситасида ҳал этиш имкониятлари аҳолининг турли ижтимоий қатламларида амалга оширилаётган ислохотларга нисбатан бўлган ишончни мустаҳкамламоқда⁵⁹ деб маълум бир даражада реал секторни ўрнини ёритиб кетган. Шу билан бирга Д.Тожибоева институционал ўзгаришлар иқтисодий ва ижтимоий самарадорлик бирлиги эканлигини, миқдор ва сифат кўрсаткичлари, бошқаришнинг субъектив ва объектив ўлчовлари

⁵⁸ Олимжонова Ш.О. Аграр соҳада институционал ўзгаришларни амалга оширишнинг назарий жиҳатлари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2012. 56-б.; Тожибоева Д. Миллий иқтисодиётда институционал ўзгаришлар самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш (Ўзбекистон Республикаси аграр соҳа мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.:2020. 81-б.

⁵⁹ Тожибоева Д. Миллий иқтисодиётда институционал ўзгаришлар самарадорлигини оширишнинг назарий асосларини такомиллаштириш (Ўзбекистон Республикаси аграр соҳа мисолида). Иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.:2020. 5 б.

бирлигини ифодалаши билан классик, неоклассик қарашлардан фарқ қилишини ҳам кўрсатиб ўтиб кетади. Албатта мазкур фикрлар Д.Норт, К.Э.Янковский, С.Г.Кирдина ғояларини тўлдиради.

Ш.О.Олимжонова эса институтларнинг моҳияти, мавжудлиги ва ривожланиш усуллари иқтисодиётнинг бошқаришнинг аниқ шакллари билан боғлиқлигини айтиб, бу ўринда давлатни ўрнини алоҳида эканлигини таъкидлаб айтилади. Унингча, бу бозор жараёнларини тўғридан-тўғри бошқариш эмас, балки ушбу жараёнларда содир этиладиган доирадаги меёрлар ва қоидаларнинг белгиланишида намоён бўлишини айтади⁶⁰.

Мамлакатимиз олимларидан яна бири бўлган Б.Беркинов институционализмнинг тадқиқот марказида институтлар туришини айтиб, у инсонлар томонидан барпо этиладиган ва ўзаро ҳамкорликни таркибловчи сиёсий, иқтисодий ва ижтимоий меёрлар ва қоидалар туришини⁶¹ таъкидлайди. Худди шундай фикрлар У.Хўжамуратов, А.Ф.Расулев, А.К.Бедринцев, Х.Н.Мухитдинов, М.Т.Хайдаровлар⁶² ишларида ҳам таъкидланган.

Институционал ислохотларнинг муваффақияти тўғрисида кўплаб маълумотлар мавжуд бўлса ҳам, институционал тизимни шакллантиришнинг муайян механизмининг афзалликлари тўғрисида етарли даражада аниқлик билан хулоса чиқариш мумкин эмас. Аниқроқ айтганда, тизимни ижобий ёки салбий “институционал қолдиқ”⁶³ ҳолатига келтириш унинг эволюцияси жараёнида аралашмаслик орқали ҳам, мақсадли институционал ўзгаришларни амалга ошириш орқали ҳам мумкин дидир.

⁶⁰ Олимжонова Ш.О. Аграр соҳада институционал ўзгаришларни амалга оширишнинг назарий жиҳатлари. Иқтисодиёт фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. Т.: 2012. 6 б.

⁶¹ Беркинов Б. Институционал иқтисодиёт: Ўқув қўлланма. – Т.: “Иқтисодиёт” нашриёти, 2-нашр, қайта ишланган. 2013. 14 б.

⁶² Хўжамуратов У. Ўзбекистонда ширкат хўжаликлардаги муаммолар ва уларнинг тугатилиши. Volume 2. Scientific journal of the Fergana State University. №2, 2019.55-59-б.; Расулев А.Ф., Бедринцев А.К. Десять лет экономических реформ. Экономическая наука современной России. №4, 2001. 147-160 б.; Мухитдинов Х.Т. Инновацион салоҳият шаклланиши ва ривожланишини таҳлил қилишга институционал ёндашув. Иқтисод ва молия. №2, 2012. 2-6 б.; Хайдаров М.Т. Иқтисодий ислохотларнинг институционал жиҳатлари. Иқтисод ва молия. №6, 2012. 2-7 б.

⁶³ Д.Норт томонидан киритилган термин бўлиб, уни қуйидагича тавсифлайди “Ўша даврдаги институционал ўзгаришлар аралаш натижага олиб келган: баъзи институтлар унумдорлигини ошишига, бошқалари камайириш ҳисса қўшган. Институтлардаги ўзгаришлар деярли ҳар доим иқтисодий фаолликни ўсиши ҳамда пасайиши учун имконият яратади. Аммо XIX асрда АҚШ иқтисодиётидаги “институционал қолдиқ” иқтисодий ўсиш билан тавсифланди, чунки институционал тизими ишлаб чиқариш самарадорлигини ошишига олиб келди, гарчи тескари йўналишда ҳам ривожланиши мумкин эди” / Норт Д. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики. М.: Фонд экономической книги “Начала”. - 1997. – 25 б.

Юқоридаги фикрларни жамлаган ҳолда реал сектор билан боғлиқ институционал ўзгаришларни концептуал асослари қўйидагиларда деб билдик:

- институтлар ривожланиши билан реал секторга бўлган ёндашувлар ҳам ўзгариб борган;
- “имкониятлар-чеклашлар” дастлабки институционал тизимни кўриниши сифатида чиққан;
- ижтимоий гуруҳлар ва ҳаракатлар, фирмалар ва тадбиркорлар ҳаракати давлат таъсири остида ривожланиш хусусиятига боғлиқ;
- институтларни расмий ва норасмий шакллари пировардида аҳолининг иқтисодий ва ижтимоий ўсишга сабабчи бўлади;
- ҳозирги даврда иқтисодий субъектлар ақлий моделининг ўзгариши юзага келмоқда, бу асримизнинг технологиялашуви билан боғлиқ жараёнدير;
- инновациялар ва билимлар реал секторда норасмий институционал ўзгаришлар қаторига кириб бормоқда.

Бундан хулоса қилиш мумкинки, ушбу қонуниятлар деярли барча мамлакатларда бир хилда ишлайди - сиёсий, иқтисодий, ҳуқуқий ва мафкуравий соҳалардаги ижобий ўзгаришлар инвестицияларнинг юқори даромадлилиги ва барқарор иқтисодий ўсишга шароит яратади. Шунинг учун ҳар бир мамлакатнинг институционал муҳитида, унинг ички қарама-қаршиликларида, институционал ислохотлар жараёнида бошланган ўзига хос шарт-шароитлар, уларнинг кейинги динамикаси ва ушбу жараён давомида юзага келадиган қарама-қаршиликларда ушбу қонуниятларнинг муваффақиятсизлиги сабабларини излаш керак.

ИЖТИМОЙ СУҒУРТА ТИЗИМИНИ РАҚАМЛАШТИРИШ: МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР

Бекназаров Зафаржон Эргашевич
ТМИ “Суғурта ва пенсия иши” кафедраси доценти

Ижтимоий суғурта орқали аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш ҳозирги куннинг долзарб мусалаларидан бири ҳисобланади. Ижтимоий суғурта тизими орқали бериб келинаётган бола икки ёшга тўлгунга қадар уни парваришlash учун нафақа, ўн саккиз ёшгача бўлган болалари бор

оилаларга нафақа ва кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам хизматлари кўрсатиши келинмода.

Мамлакатимизда кўрсатилаётган ижтимоий хизматлар сифатини яхшилаш ва одамлар турмуш тарзини юқори савияга кўтариш, улар учун қулайликлар ва имкониятлар яратиш, муҳими инсонларнинг вақти ҳамда маблағларини тежаш, уларни сарсон-саргардонликдан халос этиш учун рақамли технологиялар ва инновацион ечимлар иқтисодиётнинг турли тармоқлари ҳамда жамият ҳаётига фаол жорий этиб, қўлланиб келинмоқда.

Ижтимоий суғурта тизими барча мамлакатлардаги фуқароларнинг оғирини енгил қиладиган муҳим соҳалардан бири ҳисобланади. Бу соҳага кейинги йилларда рақамлаштириш дастурларининг қўлланилаётгани эҳтиёжманд фуқароларнинг ижтимоий жихатдан ҳимоялаш учун олиб борилаётган кенг кўламли ишларнинг савиясини бутунлай юқори сифат босқичга кўтаришга хизмат қилмоқда. Шундай ижтимоий хизматлардан бири “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими ҳисобланади. Ягона реестр – бошланғич босқичда ижтимоий нафақаларни тайинлаш учун инсон омилисиз оиланинг (фуқаро) муҳтожлигини ўзи аниқлайдиган, нафақаларни тайинлаб, тўловларни амалга оширадиган ва назорат қиладиган, харажатлар ҳисобини юритадиган автоматлашган ахборот тизимидир. “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими нафақат ижтимоий хизматлар ва моддий ёрдамнинг манзиллилигини ошириш имконияти, балки ҳозирги кунда дунё бўйлаб кузатилаётган коронавирус пандемияси даврида аҳолининг эҳтиёжманд қисмини қисқа муддатларда аниқлашга ва уларга ижтимоий ёрдам хизмат кўрсатишга хизмат қилмоқда.

Ҳукуматимиз томонидан 2020 йил 4 августда “Аҳолига давлат ижтимоий хизматлари ва ёрдам тақдим этиш тартиб-таомилларини автоматлаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4797-сонли ҳамда 2021 йил 5 мартда Вазирлар Маҳкамасининг 122-сонли “Аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда соҳага замонавий ахборот-коммуникация технологияларини кенг жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилиниши ижтимоий хизмат кўрсатиш ишларини янада янги босқичга олиб чиқиш учун кенг имкониятлар эшигини очмоқда.

Ижтимоий ҳимоя реестри мамлакатимизда 2019 йилнинг 1 октябридан Сирдарё вилоятида тажриба лойиҳаси доирасида жорий этилди ва ушбу тажриба ўз самарасини бериб муваффақиятли тугалланди. 2020 йил охирларига келиб республикамизнинг барча ҳудудларида Ягона

ижтимоий реестр жорий этилди. Мамлакатимизда ягона реестр орқали ҳозирги кунда бола икки ёшга тўлгунга қадар уни парваришлаш учун нафақа, ўн саккиз ёшгача бўлган болалари бор оилаларга нафақа, ушбу нафақа боқувчисини йўқотган вояга етмаган оила аъзолари олий таълим муассасасида тахсил олаётганда йигирма уч ёшгача ҳамда кам таъминланган оилаларга моддий ёрдам хизматлари кўрсатилмоқда.

Ушбу тизим ижтимоий ҳимоя дастурларини самарали бошқаришга қаратилган бўлиб, ариза бериш, уни тасдиқлаш ва рўйхатдан ўтказишдан тортиб то ижтимоий нафақалар тўловларини амалга ошириш ва уларни мониторинг этишгача бўлган барча жараёнларни қамраб олган. Шунингдек, тизим ижтимоий нафақа олувчиларнинг умимий таснифи ва миллий ижтимоий ҳимоя тизимининг самарадорлиги тўғрисида тўлиқ маълумот беради. Ижтимоий ҳимоя ягона реестри мамлакатда ижтимоий ҳимоя тизимини ислоҳ қилишнинг умумий стратегиясининг бир қисми сифатида рақамли технологик платформанинг асоси ҳисобланади. Ижтимоий ҳимоя ягона реестри барча ижтимоий ҳимоя дастурларини амалга оширишнинг марказий механизми бўлиб ривожланиши кутилмоқда. Ушбу тизим молиявий ёрдамни давлат ижтимоий хизматлари, бандлик хизматлари, ногиронлик нафақалари ва бошқа ижтимоий имтиёзлар билан самарали боғ'лаш орқали ижтимоий ҳимояни инклюзив ва ҳар томонлама таъминлаш учун ажойиб имкониятни тақдим этади.

Ҳозирги кунда ягона реестр ахборот тизими 11 та вазирликнинг (Ички ишлар вазирлиги, Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги, Давлат солиқ қўмитаси, Кадастр агентлиги, Бюджетдан ташқари Пенсия жамғармаси, Соғлиқни сақлаш вазирлиги ва бошқа) идораларнинг электрон маълумотлар базалари билан маълумотлар алмашинуви йўлга қўйилган. Бу 23 турдаги маълумотларни олиш имконини беради. Ҳозирги кунда барча вазирлик ва идоралар тегишли электрон маълумотлар базаларини ягона ижтимоий реестрга интеграциялаш вазифаси кўриб чиқилмоқда. Сўнгги йилларда ягона ижтимоий реестр орқали 1 миллион 600 мингдан ортиқ болали оилаларга, хусусан, пандемия даврида кам таъминланганлик туфайли юзага келган қийинчиликларни енгиш учун ижтимоий нафақалар бериш имконини яратди. Шу билан бирга, тизимда барча иштирокчиларининг вазифалари ва мажбуриятларини аниқ тақсимлаш керак. Мазкур тизим давлат идоралари электрон базасида тўпланган маълумотлар асосида ишлайди шундай экан ҳар бир давлат

идролари маълумотларни тўғрилиги, аниқлиги ва тез-тез янгиланиб турилишига эътибор бериши лозим.

Ягона реестр ахборот тизими мамлакатимизда ривожланиш босқичида бўлганлиги боис бу борада баъзи бир муаммолар ҳам мавжуд. Жумладан, дастур hozirги вақтда жуда секин ишламоқда. Бу аризаларни ўз вақтида киритилишига тўсқинлик қилмоқда. Шунингдек, вазирлик ва идоралар тегишли электрон базалари билан маълумотлар алмашинуви жараёни жуда суст. Аризаларни дастурга юклаш вақтида дастурда носозликлар вужудга келиш ҳоллари кузатилмоқда.

Хулоса сифатида шунини таъкидлаб ўтиш лозимки, “Ижтимоий ҳимоя ягона реестри” ахборот тизими нафақат ижтимоий хизматлар ва ёрдамнинг манзиллилигини ошириш имконияти, балки жаҳонда бўлиб ўтаётган коронавирус пандемияси даврида аҳолининг эҳтиёжманд қисмини қисқа муддатларда аниқлаш ва уларни давлат томонидан манзилли қўллаб-қувватлашнинг шаффоф ва самарали инструментлари бўлиб хизмат қилади. Бугунги ахборот асрида рақамлаштириш давлат бошқаруви ҳамда турли соҳа ва тармоқлар фаолиятининг самарадорлигини оширишда муҳим аҳамият касб этади. Мазкур ахборот тизими “электрон ҳукумат” фаолияти самарадорлигининг ошишига ҳамда мамлакатимизда “рақамли иқтисодиёт” ривожланишига катта ёрдам бериши шубҳасиз.

ЎЗБЕКИСТОНДА УЮШГАН ҚИММАТЛИ ҚОҒОЗЛАР БОЗОРИНИНГ ШАКЛЛАНИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Ибодуллаев Аброр Ахрорович
ТМИ “Молия” кафедраси катта ўқитувчиси PhD

Мамлакатимизда қимматли қоғозлар бозорини ривожлантириш мақсадида ишлаб чиқариш фаолиятида рақобатбардошликни янада ошириш, миллий иқтисодиёт тармоқларини модернизация ва диверсификациялаш жараёнларини жаҳон стандартларига мувофиқ олиб бориш, иқтисодиётга инвестицияларни, биринчи навбатда базавий ва таркибий асосларни ташкил этувчи муҳим соҳаларга жалб этишга қаратилган кенг қўламли ислоҳотлар амалга оширилмоқда⁶⁴.

⁶⁴ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 январдаги “Давлат активларини бошқариш, монополияга қарши курашишни тартибга солиш тизимини ва капитал бозорини тубдан

Республикамиз кўплаб иқтисодчи олимлари томонидан қимматли қоғозлар бозорининг савдо тизимлари фаолияти, уларни ривожлантириш, фонд бозори орқали инвестициявий фаолликни ошириш, акциядорлик жамиятларида бошқарув фаолиятини такомиллаштириш орқали уюшган қимматли қоғозлар бозорида уларнинг фаоллигини янада ошириш каби муҳим масалалар ўрин олган. Лекин уюшган қимматли қоғозлар бозори ва унинг яхлит тузилмаси сифатида фонд биржалари, шу жумладан, “Тошкент” республика фонд биржаси (РФБ) фаолиятининг хусусий таҳлили, мамлакатимизда уюшган қимматли қоғозлар бозори тартибда электрон савдо тизимлари, валюта биржаларининг фонд бўлимлари фаолияти етарлича ўрганилмаган. Шу сабабдан бугунги кунда капитал бозорини ривожлантиришга бўлган талабнинг юқорилиги, уюшган қимматли қоғозлар бозорининг муҳим институционал тузилмаси сифатида “Тошкент” РФБ фаолиятидаги муаммоли масалаларни ҳал қилиш орқали уюшган қимматли қоғозлар бозори фаолиятини такомиллаштириш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Бизнингча, уюшган қимматли қоғозлар бозори бу – барча иштирокчиларга тенг шароитлар яратиш, талаб ва таклиф асосида объектив нарх шаклланишини таъминловчи, юқори даражада ташкиллашган ҳамда ўзининг институционал инфратузилмасига эга бўлган молиявий воситалар савдо майдонларининг яхлит тузилмаси ҳисобланади. Мазкур бозорда савдо битимларини амалга ошириш билан боғлиқ бўлган операцияларда савдо ташкилотлари томонидан олдиндан белгиланган тадбирлар ва тегишли қоидаларга бозорнинг профессионал иштирокчилари томонидан қатъий риоя этилиши талаб этилади⁶⁵.

Мазкур жараёнларда уюшган қимматли қоғозлар бозори фаолиятига доир бўлган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар, Ўзбекистон Республикаси Қонунлари, Президент Фармон ва Қарорлари, Вазирлар Маҳкамаси ва масъул вазирлик ва идораларнинг ҳуқуқий ҳужжатлари қабул қилинди. Фаолият механизмларини ташкил этиш тартибларининг ҳуқуқий асослари шакллантирилди.

Мамлакатимиз уюшган қимматли қоғозлар бозорини шакллантириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1994 йил

такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5630-сонли Фармони.

⁶⁵ А.Ибодуллаев. “Уюшган қимматли қоғозлар бозорининг таркибий тузилмасида “Тошкент” Республика фонд биржасининг тутган ўрни”

https://sbtsue.uz/frontend/web/sahifalar/Conference/To%27plam/SBTSUE_CONFERENCE_1_PART_compressed.pdf#page=120


8 июндаги “Тошкент” республика фонд биржасининг самарали фаолият кўрсатишини таъминлаш ва қимматли қоғозлар бозори инфраструктурасини ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 285-сонли қарори билан “Тошкент” республика фонд биржаси ташкил этилди.

Ўзбекистонда уюшган қимматли қоғозлар бозорининг шаклланиш жараёнлари мустақиллик йилларида ва ундан кейинги даврда олиб борилган хусусийлаштириш ва корпоратив бошқарув муҳитини шакллантириш билан бирга олиб борилди

Хусусийлаштириш жараёнлари ҳам айнан мазкур фонд биржаси орқали амалга оширилиши эса Ўзбекистонда уюшган қимматли қоғозлар бозорининг илк пойдевори хусусийлаштириш жараёнлари билан чамбарчас боғлиқ эканлигини англатади. Шу сабабдан ҳам дастлабки ва ундан кейинги йилларда (1994-2015 йилларга қадар) уюшган қимматли қоғозлар бозорини шакллантириш ва уни назорат қилиш бўйича хусусийлаштириш ва давлат мулкани эксплуатацияси билан шуғулланувчи давлат ташкилотлари масъул бўлганлигини кўрамиз.

Хулоса сифатида уюшган қимматли қоғозлар бозори тарихан биржа савдолари асосида шаклланганлиги, иқтисодий муносабатларнинг тобора чуқурлашиб, молиявий ресурслар ҳаракатининг жадаллашуви оқибатида қимматли қоғозлар савдо майдонларига бўлган эҳтиёжнинг ортиб бориши натижасида шаклланган, дейиш мумкин.

Ўзбекистонда уюшган қимматли қоғозлар бозорининг шаклланиш жараёнлари⁶⁶



⁶⁶А.Ибодуллаев. “Analysis of indicators of the republican exchange “Tashkent””
<https://uzjournals.edu.uz/interfinance/vol2020/iss1/12/>

RIELTORLIK XIZMATLARI BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

**Raimov X.M.,
Toshkent Moliya Institutik**

Bugungi kunda kundalik hayotimizda rieltorlik so'zini ko'p bora eshitmoqdamiz. Shu o'rinda rieltorlik nima? degan savolga qisqacha ma'lumot bilan tanishib olsak. Rieltorlik yuridik va jismoniy shaxslarning ko'chmas mulk obyektlari va ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlarni shartnoma asosida ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatidir deb tushunishimiz mumkin. Rieltor - har birini sotib olish va sotish bo'yicha vositachi yuridik xizmatlar ko'rsatadigan shaxs. Bu odamlar hujjatlarni rasmiylashtirishda qonunlarga rioya qilinishiga ishonch hosil qiladi, sotuvchilarni xaridorlarga, uy egalari ijarachilarga olib keladi va tuzilgan bitimning guvohi bo'ladi. Rieltorlik xizmatlari ko'chmas mulk bozorining samarali ishlashini ta'minlashga va aholining eng muhim ehtiyojlaridan biri - uy-joy sharoitlarini yaxshilashga bo'lgan ehtiyojni hal qilishga qaratilgan turli xil tadbirlarning butun majmuasini ifodalaydi.

Ko'chmas mulk bozorining rivojlanishi rieltorlik xizmatlarining kengayishiga yordam berdi. Shuning uchun ko'chmas mulk bozoridagi har qanday o'zgarishlar birinchi navbatda ko'chmas mulk bozoridagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Ko'chmas mulk bozori - bu ko'chmas mulkka kapital qo'yilmalar sohasi va ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalardan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi. Ushbu munosabatlar ko'chmas mulkni sotib olish va sotishda, ipoteka bilan, ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarni qo'llab-quvvatlashda, ko'chmas mulk ob'ektlarini ijaraga berishda paydo bo'ladi. Rieltor odatda ko'chmas mulk operatsiyalari amalga oshiriladigan xususiy shaxs yoki tashkilot deb ataladi. Kasbning nomi inglizcha ko'chmas mulk "ko'chmas mulk" atamasidan kelib chiqqan. Mamlakatimizning amaldagi qonunchiligida "rieltor" atamasi belgilanmagan, rasmiy tilda ushbu mutaxassislik bo'yicha ishlaydigan odamlar rieltorlar deb ataladi.

Rieltorlik xizmatlari bozorining rivojlanish istiqbollari talabning ortishi bilan bog'liq. Talabning sezilarli darajada kengayishi daromadlarni ko'paytirish va xaridorlarning asosiy yetkazib beruvchisi bo'lishga qodir bo'lgan keng "o'rta" qatlamni shakllantirish orqali yoki davlat (ipoteka) va professional ishtirokchilar tomonidan talabni faol rag'batlantirish orqali bo'lishi mumkin.

Bunday sharoitda rieltorlik kompaniyasi tomonidan mijozga ko'rsatilayotgan xizmatlar turlarini sezilarli darajada kengaytirish zarur: bank hisob-kitoblari, transport xizmatlari, notarial xizmatlar, ko'chmas mulkni ijaraga berishda ta'mirlashni amalga oshirish imkoniyati, bo'lib-bo'lib to'lovlarni taqdim etish va boshqalar. Ushbu vositalarning barchasi mijozlarni jalb qilishga yordam beradi. Shu bilan birga, mijozlarni o'z mablag'lari hisobidan jalb qilish va ushlab turish xarajatlarining oshishi rieltorlik kompaniyasini o'z byudjetidan tashqariga chiqishga majbur qilishi mumkin va bu daromad va xarajatlarning muvozanatini buzish, hatto moliyaviy nochorlik bilan tahdid qiladi. Shuning uchun, agar alohida firmalar uchun ushbu texnikalar zaruriy aylanma hajmini ta'minlashga qodir bo'lsa, unda, umuman olganda, ular ko'chmas mulk biznesini rivojlantirish muammosini hal qilmaydi.

Rieltorlik xizmatlarini kengaytirish shaharda ofis va savdo maydonchalari, mehmonxonalar va hokazolar yetishmasligini hisobga olgan holda tijorat ko'chmas mulki hisobidan amalga oshiriladi. Rieltorlik faoliyatini yanada rivojlantirishning navbatdagi yo'nalishi aholi mablag'larini umumiy qurilishga, shu jumladan, yangi shakllarda jalb etishda ularning faol ishtiroki bo'ladi. Masalan, shaharda hali ham qurilishi tugallanmagan, investorlar tomonidan tashlab ketilgan yoki hech qachon topilmagan turar-joy binolari kabi hodisa mavjud. Boshqa tomondan, uy-joyni yaxshilash uchun hali ham katta kutish ro'yxati mavjud. Navbatdagilar orasida kvartirani qurish uchun zarur bo'lgan to'liq miqdor bo'lmasa, uning bir qismini topa oladigan odamlar ham bor. Shu bois, rieltorlik firmalari nafaqat tayyor yoki qurilayotgan uy-joylarni sotish bo'yicha broker, balki bunday loyihalarni amalga oshirishda investitsiya brokeri, tashabbuskori va tashkilotchisi sifatida ham bu jarayonga tobora ko'proq jalb etiladi. Rieltorlik xizmatlari bozorini rivojlantirishning yana bir istiqbolli yo'nalishi bu elita ko'chmas mulk segmentini kengaytirishdir. Ko'chmas mulk bozori tomonidan taklif qilinadigan hashamatli ko'chmas mulk eng foydali investitsiyalardan biridir.

Mamlakatimizda rieltorlik xizmatlari bozorini rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirilgan izlanishlar natijasida quyidagi xulosa va taklif-tavsiyalar ishlab chiqildi.

Rieltorlik faoliyati deganda yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar manfaatdor shaxs bilan tuzilgan shartnoma asosida (yoki ishonchli vakil orqali) uning nomidan va uning hisobidan yoki uning topshirig'i bilan fuqarolik-huquqiy bitimlarni amalga oshirish bo'yicha amalga oshiradigan faoliyati tushuniladi, lekin yer uchastkalari, binolar, inshootlar, inshootlar, turar-

joy va noturar joy binolari hamda ularga bo'lgan huquqlar bilan manfaatdor shaxsning hisobidan amalga oshiriladi.

MULK QIYMATINI BAHOLASH XIZMATLARINING IQTISODIYOTDAGI ROLINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

Shomirov A.
Ilmiy rahbar, PhD
Muratova U., TMI talabasi

Kalit so'zlar: baholash, foiz, iqtisodiyot, tadbirkorlik, mulk bozori, mulkdor, mulkchilik, xususiylashtirish.

Key words: оценка, проценты, экономика, предпринимательство, рынок недвижимости, собственник, имущество, приватизация.

Ключвые слова: ценные бумаги, дивиденды, валюта, облигации, опционы, фьюшеры, эмиссии, финансирование, проценты, оценка.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunning rivojlanishida hamda taraqqiy topishida mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorining iqtisodiyotdagi roli hamda mulk baholanishining asl mohiyati ochib berilgan. Bugungi kunda mulk qiymatini baholash xizmatlarini yanada takomillashtirish choralari haqida qisqacha keltirilgan.

Annotation: This article reveals the role of the market of property valuation services in the economy and the essence of property valuation in today's development and progress. Today, a brief overview of measures to further improve property valuation services.

Аннотация: В данной статье раскрывается роль рынка услуг по оценке имущества в экономике и сущность оценки имущества в современном развитии и прогрессе. Сегодня приводится сводка мер по дальнейшему совершенствованию услуг по оценке имущества.

Har qanday davlatning taraqqiyoti ko'chmas mulk bozorining rivojlanganlik darajasi bilan uzviy bog'liq. Shu bois mamlakatimizda ko'chmas mulkka oid munosabatlarning huquqiy asoslarini yaratish va takomillashtirish, rivojlangan ko'chmas mulk bozorini shakllantirishga chuqur e'tibor qaratilmoqda.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning birinchi bosqichidayoq mulkchilikning hamma shakllari teng huquqli ekanligi konstitutsion tarzda e'tirof etildi va mulkni xususiylashtirish hisobiga ko'p ukladli iqtisodiyotni real shakllantirish vazifasi qo'yildi.

Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda⁶⁷.

Shu borada ko'chmas mulk qiymatini baholashda obyektlarning bozorini shakllantirish hamda ularga bo'lgan huquqlarga doir bitimlar tuzish bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ham imkoniyat yaratadi.

Baholash tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etish, rivojlantirish, pirovardida, mulkdan foydalanish samaradorligini va iqtisodiyotda pul mablag'lari harakatining faollashuviga ta'sir ko'rsatib, pirovardida, u iqtisodiy o'sishga ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatadi. Aynan ana shu eng muhim vazifalar iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalariga jiddiy o'zgartirishlar kiritish uchun poydevor bo'lishi kerak⁶⁸.

Yangi xizmatga bo'lgan talablarning o'sishi bilan birga bu borada baholash jarayonining qonuniy va uslubiy asoslari yaratildi, davlat organlari tomonidan baholash standartlari joriy qilindi. Mulkn baholash xususiylashtirish, ishonchli boshqaruvga o'tkazish, shuningdek, ijaraga berish va sotish jarayonlarida, milliyashtirishda, sotib olish, ipoteka kreditlashda va ustav jamg'armalarni ulushlar orqali shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida xususiy mulk huquqi va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlash, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes rivoji yo'lidagi barcha to'siq va cheklovlarni bartaraf etish, unga to'liq erkinlik berish tamoyilini amalga oshirish, sanoat korxonalarini va boshqa ishlab chiqarish obyektlarini joylashtirishga qulay shart-sharoitlar yaratish, xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish hamda aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida hududlarning ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.

⁶⁸ Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // www.uza.uz. 16.01.2017.

ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilishga qaratilgan⁶⁹.

Mulknı baholash quyidagi maqsadlarda amalga oshirilishi mumkin:

- tashkilot yoki firmani boshqarish samaradorligini oshirish;
- tashkilot obligatsiyalari va aksiyalarini bozor fondida sotish;
- asoslangan innovatsion qarorlar qabul qilish;
- tashkilotni yaxlit yoki uning ayrim qismlarini sotish;
- shartnoma bekor qilinishi yoki sheriklardan birining vafoti munosabati

bilan hamkorlarning ulushini belgilash;

– tashkilotning qayta tuzilishi;

– tashkilotning yo‘qotilishi, birini biri yutib yuborishi, ularning birlashtirilishi yoki xolding tarkibidan ayrim tashkilotlarning ajrab chiqishi uning bozor narxini belgilashni taqozo etadi. Shunday holatlarda aksiyalarni sotish yoki sotib olish narxi, konversiya narxi yoki birlashtirilgan tashkilot aksiyadorlariga beriladigan mukofot qiymatini aniqlash;

– tashkilotni takomillashtirish rejasini ishlab chiqish va h.k.

Mulk qiymatini baholash va boshqarishdan manfaatdor bo‘lgan mulkdor baholash va boshqarish maqsadlarini belgilaydi. Bunda baholash faoliyatining mazmuni to‘g‘risida quyidagilarni aytish mumkin. Mulk qiymatini baholash va narxini shakllantirish jarayoni turli omillarning ta‘siri qonuniyati va darajasini aniqlash imkonini beruvchi iqtisodiy tamoyillarga asoslanadi.

Bunday tamoyillar ilmiy, nazariy-metodologik va faktologik bazis bilan hamohang amal qiladi. Quyida berilganlar hamda baholash faoliyatining jahon va O‘zbekiston tajribalari tizimli tahlili asosida mulk qiymatini baholash tamoyillarini quyidagicha tasniflash mumkin⁷⁰:

1) bozor muhiti bilan bog‘liq tamoyillar;

2) mulkdor va baholovchining mulk to‘g‘risidagi adekvat tasavvuri bilan bog‘liq tamoyillar;

3) mulknı ishlatish xarakteri bilan bog‘liq tamoyillar;

4) mulk qiymati va bozor narxlari shakllanishi va uni (ya‘ni mulk qiymati va bozor narxi) milliy real iqtisodiyot (MRI) bilan regulyativ bog‘liqligi hamda qiymat va narxning ekvivalentligi, o‘zaro transformatsiyalanishi bilan bog‘liq tamoyillarni o‘z ichiga oladi.

⁶⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni.

⁷⁰ Mazkur tamoyillar O‘zbekiston Respublikasi mulknı baholash milliy standartida qabul qilingan (Davlat mulknı boshqarish qo‘mitasining 2006 yil 14 iyundagi №01/19-19-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi ro‘yxatidan 2006 yil 24 iyulda №1604-son bilan o‘tkazilgan).

Mulkni baholashda tashkilot yuridik shaxs bo'lgan holda bir vaqtning o'zida xo'jalik subyekti bo'lishi ham mumkinligini hisobga olish lozim. Shuning uchun obyektning baholash jarayonida ma'lum yuridik huquqlarning mavjudligini ham nazarda tutish lozim. Bu mulkning baholash obyekti sifatidagi o'ziga xos jihatini namoyish etadi. Baholanayotgan mulkning o'ziga xos tomonlaridan yana biri shundan iboratki, baholovchi baholanayotgan obyektning mulkiy kompleksi (moddiy-buyum)ning qiymatini ham, tashkiliy va rivojlanish samaradorligini (tashkilotning moliyasi, boshqarish tizimi va h.k.) ham aniqlashi lozim.

Baholash faoliyatini rivojlantirish iqtisodiyotda islohotlar o'tkazish va O'zbekiston Respublikasida huquqiy demokratik davlat barpo etish jarayonining ajralmas qismi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida bozor infratuzilmasining rivojlanishi bilan o'tgan yillar mobaynida baholash faoliyati shakllanish yo'lini bosib o'tdi va hozirgi kunda iqtisodiyotning mustaqil sohasiga aylandi. Baholash faoliyati haqidagi Qonunga asoslangan, baholash faoliyatini tartibga solishning davlat tartibi shakllantirilgan. U yuridik shaxslarni litsenziyalash, jismoniy shaxslarni sertifikatlash, litsenzion talab va shartlarning bajarilishini nazorat qilishni o'z ichiga oladi.

Mol-mulkdan xo'jalikda foydalanish natijalari, mahsulot va daromadlar, qonun yoki shartnomada boshqa tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa, shu mol-mulk egasiga tegishlidir⁷¹.

Baholash faoliyatini yanada rivojlantirish va unda mavjud kamchiliklarni bartaraf qilish uchun, avvalambor, unga yaxlit bir tizim sifatida qarash kerak. Ushbu fikr bilan ta'kidlangan muayyan yaxlitlikning o'zi tizim deb ataladi. Shunday qilib, tizim, bu – muammoni hal etuvchi narsa. Talab qilinayotgan va mavjud natijalar orasidagi tafovut bilan tavsiflanuvchi vaziyat esa, muammo deyiladi. Ushbu masalaning mohiyati shunday iboratki, mavjud natijani mavjud tizim beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ko'chmas mulk qiymatini baholash bo'yicha nazariy va amaliy faoliyat mahalliy hamda xalqaro tajribalar asosida rivojlanmoqda. Xalqaro tajribalar ko'chmas mulk qiymatini baholashning asosiy uch yondashuvi (xarajatli, qiyosiy (yoki bozor) va daromad)ga birlashgan ko'plab baholash usullarni o'z ichiga oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 24 apreldagi "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan

⁷¹ O'zbekiston Respublikasi mulkchilik to'g'risidagi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 6, 118-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda

xizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi 843-sonli Qarori

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947- sonli Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda, 20-son, 354-modda.

4. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. // www.uza.uz. 16.01.2017.

5. O'zbekiston Respublikasi mulkchilik to'g'risidagi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1995-yil, № 6, 118-modda; 1997-yil, № 2, 56-modda; 2003-yil, № 1, 8-modda.

6. Шохазамий Ш.Ш. Системное развитие рынка ценных бумаг в 107 регулятивной взаимосвязи с реальной экономикой/ Монография. - Т.: "Фан ва технология", 2012.

7. Abdikarimova D.R. Bank kreditlari garov ta'minotini baholash. Toshkent. "Iqtisod-moliya" nashriyoti. 2016 y.- 168

8. O'zbekiston Respublikasi mulkni baholash milliy standarti. Davlat mulkini boshqarish qo'mitasining 2006 yil 14 iyundagi №01/19-19-sonli qarori bilan tasdiqlangan va Adliya vazirligi ro'yhatidan 2006 yil 24 iyulda №1604-son bilan o'tkazilgan.

9. Shoha'zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. – Т.: "Iqtisod-moliya", 2015.

10. Shoha'zamiy Sh.Sh. Mulk nazariyasi, qiymati va narxi / Monografiya. – Т.: "Fan va texnologiya", 2012.

11. Шохазамий Ш.Ш. Трактат о собственности и её справедливой стоимости. – Т.: "Иқтисод-молия", 2014.

12. www.president.uz – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti.

13. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari milliy bazasi.

KO'CHMAS MULK BOZORINING HOLATI VA RIVOJLANISH MASALALARI

Shomirov A.
Ilmiy rahbar, PhD
Jalolov J., TMI talabasi

Kalit so'zlar: ko'chmas mulk, baholash, ko'chmas mulk bozori, rieltorlik, mulk bozori, xususiylashtirish, investitsiya.

Key words: real estate, appraisal, real estate market, real estate, real estate market, privatization, investment.

Ключвые слова: недвижимость, оценка, рынок недвижимости, недвижимость, рынок недвижимости, приватизация, инвестиции.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kundagi ko'chmas mulk bozorining holati hamda ayni shu masalada chet davlatdagi holat haqida qisqacha ma'lumotlar keltiriladi. Ko'chmas mulk bozorining rivojlanish masalalarigayam alohida etibor qaratiladi. Bugungi kunda ko'chmas mulk bozori xizmatlarini yanada takomillashtirish choralari haqida qisqacha keltirilgan.

Annotation: This article gives you a brief overview on the current state of the real estate market and the situation in a foreign country. Special attention will be paid to the development of the real estate market. Here are some suggestions on how to look or get an appointment for real estate services.

Аннотация: В этой статье дается краткий обзор текущего состояния рынка недвижимости и ситуации в зарубежной стране. Особое внимание будет уделено развитию рынка недвижимости. Вот несколько советов о том, как искать или записаться на прием к услугам в сфере недвижимости.

Respublikamizda shakllantirilib kelayotgan ko'chmas mulk bozorida hamda ko'chmas mulk obyektlari ishtirok etadigan barcha iqtisodiy jarayonlarda obyektlarni baholash va rieltorlik⁷² bilan bog'liq faoliyatni tashkil etish va uni respublikamizda iqtisodiyotning turli sohalari xususiyatidan kelib chiqqan holda takomillashtirish hozirgi kunning o'ta dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Shu sababli, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi jahondagi ko'plab rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga sezilarli zarar yetkazayotgan, hamda ko'chmas mulk

⁷² O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli [Qonuni](#) tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)

bozorida murakkab va o'zgaruvchan sharoitni yuzaga keltirib turgan hozirgi kunda

O'zbekiston sharoitida ko'chmas mulk qiymatini baholashning uslubiy asoslarini o'rganish, baholash va rieltorlik faoliyatlari bilan bog'liq jarayonlarni takomillashtirish respublikamizda erkin bozor infrastrukturasi rivojlantirishda o'ta dolzarb muammo hisoblanadi.

Ko'chmas mulk obyektlari va bozorini o'rganish ularning mohiyatini aks ettiruvchi so'z va iboralarning tahlilini nazarda tutadi. Fuqarolik kodeksida mulk obyekti sifatidagi ko'chmas mulk obyektining huquqiy munosabatlarini ko'chmas mulk belgilab beradi⁷³. «Mulk» atamasi aniq bir shaxsga tegishli mulkiy huquqlar yig'indisini ifodalaydi, ya'ni «mulk huquqi shaxsning o'ziga qarashli mol-mulkka o'z xohishi bilan va o'z manfaatlarini ko'zlab egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etishi» (O'zR FK, 164-m.) tushuniladi.

«Ko'chmas mulk jumlasiga yer uchastkalari, yerosti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar kiradi»⁷⁴.

Ko'pgina mamlakatlarning qonunchiligida korxonalar huquqning mustaqil subyekti bo'lib hisoblanmaydi. Unga alohida mulkka, o'z balansiga ega bo'lgan va yuridik shaxsning huquqlaridan foydalanadigan xo'jalik subyekti maqomi berilmaydi. Korxonalar moddiy va nomoddiy unsurlarini qamrab oladigan ma'lum mulkiy majmua sifatida qaraladi va u huquq obyekti bo'lib hisoblanadi.

Ko'chmas mulk obyektlarining mohiyatini aniqlovchi ko'rsatkichlar umumiy va ma'lum obyektga tegishli bo'lgan turlarga bo'linadi. Masalan, yer qishloq joylarda insonlarning yashashlarini va millatning ijtimoiy-hududiy rivojlanishini ta'minlovchi manfaat bo'lib xizmat qiladi.

Ko'chmas mulk obyektlarining mohiyati quyidagi uch ko'rsatkichlar birligida namoyon bo'ladi⁷⁵:

- moddiy (jismoniy);
- huquqiy;
- iqtisodiy.

Ko'chmas mulk obyektlari yuqori iqtisodiy qiymatga ega, chunki ular uzoq muddatli foydalanishga mo'ljallangan va foydalanish jarayonida iste'mol qilinib ketmaydi. Qoidaga ko'ra, ko'chmas mulk obyektlari konstruktiv

⁷³ O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining 2006 yil 14 iyundagi "Baholashni umumiy tushuncha va printsiplari" Mulkni baholash milliy standarti.

⁷⁴ O'zR FK, 83-modda.

⁷⁵ Alimov R.X., Berkinov B.B. va boshqalar. Ko'chmas mulkni baholash. – T.: «Fan», 2005.

murakkabligi bilan ajralib turadi va ularni faol holda saqlab turish katta xarajatlarni talab qiladi.

Ko'chmas mulk bozori mamlakat iqtisodiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatibgina qolmay, mamlakatning iqtisodiy salohiyatidan ham dalolat beradi. 2008-yilda ro'y bergan jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi ham aynan ko'chmas mulk bozorini ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan⁷⁶.

Jahon ko'chmas mulkni hisobga olish tizimlari haqida umumiy ma'lumot berilgan. Ko'chmas mulkni boshqarishning jahon amaliyotida qo'llaniladigan kadastr tizimlarining asosiy xususiyatlari va farqlari keltirilgan. Bozorda ko'chmas mulk aylanmasi jarayonini faollashtirish, shuningdek, ko'chmas mulk va kapital qurilish bilan bog'liq investisiya jarayonlarini jadallashtirish, ko'chmas mulk garovi bilan kreditlar olish va ipoteka kreditlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi. Qayd etilishicha, ko'chmas mulk egalari huquqlarining rivojlanishi va mustahkamlanishi hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq bitimlarning ishonchliligi investitsiya risklarining kamayishiga olib keladi va pirovardida investitsiya loyihalari va ko'chmas mulkning o'zi qiymatini belgilaydi. AQShda ko'chmas mulkni hisobga olish

Ingliz tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda ko'chmas mulk huquqlarini va tegishli yerlarni ro'yxatga olishni kuchaytirish tizimlari ko'p sabablarga ko'ra qiziqish uyg'otadi. Bu tizimlar Angliyaning sobiq mustamlakalari va hukmronliklari mamlakatlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Bundan tashqari, ular ko'p jihatdan kontinental Evropa tizimlaridan farq qiladi. Ko'pincha, bu inventar ingliz tilida so'zlashadigan dunyoda yaqin vaqtgacha deyarli noma'lum bo'lganligi bilan bog'liq. Qo'shma Shtatlarda mulk huquqini oshirishning rasmiy tizimi o'ziga asos bo'lgan aktlarni shaxsiy topshirish va ro'yxatdan o'tkazishga asoslangan.

Iqtisodiyotning zamonaviy holati investitsion loyiha ishtirokchilaridan aniq qurilish loyihasini amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigini jadallashtirishni talab qiladi, bunday harakatlar tanlangan tadbirkorlik faoliyati yo'nalishidagi loyiha natijalari mumkin qadar tezroq foyda keltirishi uchun amalga oshiriladi. Shuning uchun qurilish ishlarini loyihalash bosqichidayoq (loyihani ishlab chiqish to'liq yakuniga yetmay) boshlanadi, bu esa loyihaning barcha ishtirokchilari harakatlari yuqori darajada muvofiqlashtirilgan bo'lishini talab qiladi. Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda keng tarqalgan qurilishni boshqarish turlaridan biri – bu loyihani boshqarishdir.

⁷⁶ Isamuxamedova Sh.A., Yodgorov V.U. Ko'chmas mulkni boshqarish va uning ekspertizasi. – T.: "TAQI", 2011.

Bunday boshqaruv turi butun qurilish muddatini, ya'ni qurilish loyihasi maqsadini tanlashdan to uning ekspluatatsiyasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga qamrab oladi.

Mamlakatimizda amalda ko'proq pudratchilik tamoyiliga asoslangan obyekt qurilishi keng tarqalgan, bunda pudrat shartnomasi bo'yicha bir taraf (pudratchi) ikkinchi taraf (buyurtmachi)ning topshirig'iga binoan ma'lum bir ishni bajarish va uning natijasini buyurtmachiga belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa ish natijasini qabul qilib olish va buning uchun haq to'lash majburiyatini oladi. Agar qonun hujjatlarida yoxud taraflar kelishuvida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, ishni bajarish uchun pudratchi tavakkal qiladi⁷⁷.

Mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan baholash tashkilotlari uyushmasi xalqaro baholash uyushmalari va fondlari bilan o'zaro aloqasini yo'lga qo'yishi, bu soha bo'yicha xalqaro amaliyotda ro'y berayotgan samarali tajribalarini milliy amaliyotda joriy etishi maqsadga muvofiq hisoblanadi⁷⁸. Fikrimizcha, mamlakatimizda baholash standartlari bilan bog'liq ishlarning yuqoridagi tartibda amalga oshirilishi, birinchidan, baholash standartlarining amaliy izchilligini ta'minlansa, ikkinchidan, ushbu munosabatlarda ishtirok etayotgan tomonlarning manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni mustahkamlashni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning jahon tajribasi, barcha xilma-xil milliy amaliyotlar bilan ularning barchasini huquqlarni mustahkamlashning huquqiy mexanizmining faqat ikkita tizimiga qisqartiradi: ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni ro'yxatga olish tizimi yoki ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjatlarni ro'yxatga olish tizimi.

Xulosa qilib aytganda, ko'chmas mulk bozoridagi munosabatlarni tartibga soluvchi yangi huquqiy me'yorlarning joriy etilishi ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirib, rieltorlik faoliyatining alohida shartlar va talablar asosida rivojlanishida muhim omil bo'ladi.

Ko'chmas mulk bozorining iqtisodiyotdagi o'rni asosan markaziy o'ringa ega bo'lishi, mulkiy munosabatlar orqali amalga oshirilishi va kerakli xulosalar chiqarilishi lozim.

⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi birinchi qismining tasdiqlanishi haqida». №163-1. 21-dekabr 1995-y. 631-modda.

⁷⁸ To'ychiyev N.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. Ko'chmas mulkni baholash asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: «Adolat», 2000.

Ko'chmas mulk bozorining roli bozorda sotilgan mulklar hajmini YaIMga nisbatan (%) ko'rsatkichi bilan aniqlash, ko'chmas mulk bozori hajmi qancha ortsa YaIM miqdori ham shunga qarab ko'payadi.

Foydalanilgan adabiyot

1. O'zbekiston Respublikasi Qonuni. «O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi birinchi qismining tasdiqlanishi haqida». №163-1. 21-dekabr 1995-y.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasining 2006-yil 14-iyundagi “Baholashni umumiy tushuncha va printsiplari” Mulknini baholash milliy standarti.
3. *O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 12-oktabrdagi O'RQ-721-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.10.2021-y., 03/21/721/0952-son)*
4. To'ychiyev N.J., Mirxoshimov A.M., Plaxtiy K.A. Ko'chmas mulknini baholash asoslari. O'quv qo'llanma. – T.: «Adolat», 2000.
5. Isamuxamedova Sh.A., Yodgorov V.U. Ko'chmas mulknini boshqarish va uning ekspertizasi. – T.: “TAQI”, 2011.
6. Alimov R.X., Berkinov B.B. va boshqalar. Ko'chmas mulknini baholash. – T.: «Fan», 2005.
7. www.gov.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati portal
8. www.aro.uz – Rieltorlik tashkilotlar assotsiatsiyasi
9. www.olx.uz – Ko'chmas mulk savdosiga
10. www.wikipedia.ru Ma'lumotlar qidiruv portali
11. www.gki.uz O'zbekiston Respublikasi Davlat mulk qo'mitasi.

QIMMATLI QOG'OZLARNI BAHOLASH TOG'RISIDAGI HISOBOTNI TAKOMILLASHTIRISH

Shomirov A.
Ilmiy rahbar, PhD
Salayev O., TMI talabasi

Kalit so'zlar: qimmatli qog'ozlar, dividend, valyuta, obligatsiya, opsiyon, fyuchers, emissiya, moliyalashtirish, foiz, baholash.

Key words: securities, dividend, currency, bond, option, fyuchers, emissions, financing, interest, evaluation.

Ключвые слова: ценные бумаги, дивиденды, валюта, облигации, опционы, фьючеры, эмиссии, финансирование, проценты, оценка.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunning rivojlanishida hamda taraqqiy topishida qimmatli qog'ozlarni baholash to'g'risidagi hisobotni yanada takomillashtirish haqida keltirib o'tilgan bunda hisobotning tuzilishi, rasmiylashtirilishi, ekspertizasi tamoyillarini va xulosasini qamrab oladi.

Annotation: This article discusses the principles and conclusions of the report's structure, design, and expertise, as well as how to further improve the report on securities valuation in today's development and progress.

Аннотация: В данной статье обсуждаются принципы и выводы по структуре, дизайну и экспертизе отчета, а также способы дальнейшего улучшения отчета об оценке ценных бумаг в сегодняшнем развитии и прогрессе.

2008-yil 22-iyulda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi qonuniga muvofiq "qimmatli qog'ozlar – hujjatlar bo'lib, ular bu hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulqiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi. Qimmatli qog'ozlarning qiymati O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida ifodalanadi"⁷⁹.

O'zbekiston Respublikasida baholash faoliyatini "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 26-apreldagi PQ-335-sonli "O'zbekiston Respublikasi Davlat mulki qo'mitasi

⁷⁹ «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2008-yil 22-iyul.

faoliyatini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida" va 2008-yil 24-apreldagi PQ-843-sonli "Baholovchi tashkilotlar faoliyatini yanada takomillashtirish va ko'rsatilayotgan hizmatlar sifati uchun ularning mas'uliyatini oshirish to'g'risida"gi qarorlari huquqiy tartiblashtiradi⁸⁰.

Mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorining vujudga kelishi va rivojlanishi nafaqat yangi moliyaviy qurollarning vujudga kelishiga, balki qimmatli qog'ozlar jarayonlari bilan bog'liq, emissiya, birlamchi joylashtirish, listing, kotirovka, ikkilamchi bozorda savdo-sotiq bitimlarini amalga oshirish, qimmatli qog'ozlar portfelini saqlash va shakllantirish kabi jarayonlarning ham amalga oshirilishida asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilari ayniqsa, xo'jalik yurituvchi sub'ektlari amaliyotdagi moliyaviy bitimlarning ko'pligini to'g'ri anglash va buxgalteriya hisobi va hisobotlarida to'g'ri aks ettirishlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida ma'lumotlardan foydalanuvchilari uchun korxonalar moliyaviy faoliyati to'g'risida ma'lumotlarga ega bo'lishning o'zi yetarli bo'lmaydi. Ushbu ma'lumotlardan foydalanuvchilar, ayniqsa aktsiyadorlar o'zlarining manfaatlari nuqtai nazaridan kelib chiqib, tegishli boshqaruv qarorlarni qabul qilishda foydalanishi zarur hisoblanadi.

Baholash haqida hisobot baholovchining baholash faoliyati natijasi hisoblanadi. Siz oladigan hisobot rasmiy hujjat maqomiga ega bo'ladi. Baholash haqida hisobotdan sudda ko'chmas mulk, biznes va mulkchilikning boshqa shakllari qiymatini yoki mulkka etkazilgan zararni baholash qiymatini aniqlash bilan bog'liq ishlarni ko'rib chiqish jarayonida amalda qo'llash imkoniyati mavjud.

Hisobotni baholash faoliyati to'g'risidagi qonun talablariga muvofiq rasmiylashtiriladi va qimmatli qog'ozlar baholanadi.

Foydalaniladigan baholash standartlari⁸¹:

O'zR DMQ tomonidan tasdiqlangan baholash faoliyati subyektlari tomonidan qo'llanilishi majburiy baholash standartlari mavjud.

Baholash haqida hisobot mazmuni baholash obyekti, aniqlanayotgan qiymat turi, baholash maqsadiga bog'liq bo'ladi, lekin ularning barchasida qator majburiy ma'lumotlar mavjud bo'lishi talab etiladi ya'ni⁸²:

⁸⁰ [Законодательство Республики Узбекистан \(кодексы, законы, указы, постановления, нормативные акты, книги\). Правовой портал. НОРМА | NORMA.UZ](http://www.norma.uz)

⁸¹ O'zbekiston Respublikasining —Baholash faoliyati to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.

⁸² Бутиков И.Л. Qimmatli qog'ozlar bozori. – T. Konsauditinform, 2001

1. Tuzilgan sana va Hisobotning tartib raqami;
2. Baholovchi tomonidan baholash obyektida baholash o'tkazish uchun asoslar;
3. Baholash objekti qiymatini belgilash sanasi;
4. Baholash maqsad va vazifalari;
5. Qiymat turi;
6. Baholovchi haqida ma'lumot;
7. Baholash obyektining aniq tavsifi, yuridik shaxsga tegishli baholash obyektiga nisbatan esa – yuridik shaxs rekvizitlari va mazkur baholash obyektining balans qiymati;
8. Baholash obyektining mutanosib qiymat turini aniqlash uchun baholash Standartlari, mazkur baholash obyektida baholash o'tkazishda ulardan foydalanish asoslari, manbalari ko'rsatilgan holda baholash obyektida baholash o'tkazish uchun qo'llanilgan ma'lumotlar ro'yxati, shuningdek, baholash obyektida baholash o'tkazishda qabul qilingan farazlar;
9. Baholash objekti qiymatini aniqlash ketma-ketligi va uning yakuniy miqdori, shuningdek, olingan natijani qo'llashdagi cheklov va chegaralar;
10. Baholovchi tomonidan foydalaniladigan va baholash obyektining sifat va miqdoriy tavsiflarini belgilovchi hujjatlar ro'yxati, baholash objekti suratlari, baholovchi hujjatlardir.

Baholash haqida hisobotning namunaviy mundarijasi⁸³:

1. Umumiy ma'lumotlar
2. Baholash jarayonining asosiy tushunchalari va metodologiyasi
3. Baholash objekti va uni o'rab turgan muhit tahlili
4. Bozor vaziyati tahlili
5. Eng yaxshi va eng samarali foydalanish tahlili
6. Baholash obyektining bozor qiymatini aniqlash
7. Baholash natijalarini muvofiqlashtirish
8. Qiymat haqida yakuniy xulosa
9. Baholash haqida ariza
10. Foydalanilgan manbalar ro'yxati.

Baholash haqida hisobot doimo raqamlanadi, sahifama-sahifa tikiladi, imzolanib, tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining Baholash faoliyati to'g'risida qonuni baholash ob'ektining bozor qiymati va bozornikidan farqlanuvchi qiymati

⁸³ Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik. T.Iqtisod- moliya, 2008.

belgilab bergan. Shunga muvofiq, baholash ob'ektining bozor qiymati deganda eng ehtimol tutilgan narxi tushunilib, unga ko'ra mazkur baholash ob'ektining ochiq bozorda raqobat sharoitida, bitimning taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan holda o'z manfaatlarini yo'lida oqilona va ixtiyoriy ravishda harakat qiladi, bitim narxining baland-pastligida esa biron-bir favqulodda holatlar, shu jumladan taraflardan birining ushbu bitimga qo'shilish majburiyati aks etmaydi.

Baholash haqida hisobot doimo raqamlanadi, sahifama-sahifa tikiladi, imzolanib, tashkilot muhri bilan tasdiqlanadi. Uslubiy tavsiyalar baholash haqida hisobotlar ekspertizasi o'tkazish tamoyillarini, shuningdek, ekspert xulosasi mazmuni va rasmiylashtirilishiga talablarni belgilab beradi.

Uslubiy tavsiyalar baholovchilarning o'zini-o'zi boshqaruvchi tashkilotlarining ekspert kengashi a'zolari, shuningdek, baholash haqida hisobotlar ekspertizasini amalga oshiruvchi boshqa jismoniy va yuridik shaxslar, ekspertiza buyurtmachilari, baholovchilar va ekspertiza natijalaridan foydalanuvchilar foydalanishi uchun mo'ljallangan⁸⁴.

Baholash haqida hisobotlar ekspertizasi tamoyillari ham mavjud bo'lib, ekspert xulosasiga rioya etish va rioya etmaslik haqida qaydlar kiritilgan holda baholash faoliyati to'g'risida qonunchilik va baholash shartnomasida baholash haqida hisobotga qo'yilgan talablar ro'yxatini o'zida aks ettiruvchi nazorat varag'i kiritilgan bo'lishi mumkin.

Ekspert xulosasiga ilovalarda baholash haqida hisobotda mavjud bo'lmagan, ekspert xulosasida qilingan xulosa va qaydlarning to'g'riligini tasdiqlovchi hujjatlar va boshqa materiallarning nusxalari keltirilgan bo'lishi talab qilinadi. Ekspert xulosasi sahifama-sahifa yoki varaqma-varaq raqamlangan, tikilgan va ekspert-baholovchi tomonidan imzolangan bo'lishi lozim.

Xulosa o'rnida qimmatli qog'ozlarni baholash to'g'risidagi hisobotni(xulosani) bugungi kun talablari asosida yanada takomillashtirish uchun eng muhim vazifa sifatida qimmatli qog'ozlar bozorini shakillantirish va baholovchi ekspertlarning malakasini qattiy nazoratda saqlashlik kerakligini va shu o'rinda qimmatli qog'ozlarni baholash to'g'risidagi xulosani iloji boricha oddiy va hamma ma'lumotlarni qamrab olishini taminlash jozi, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish uchun

⁸⁴ Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalariga qo'yiladigan umumiy talablari haqidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining 2008-yil 15-sentyabrdagi qarori.

berilgan amaldagi litsenziyalarni yanada kengaytirish muhim masala deb qaralishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. «Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida». O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2008-yil 22-iyul.
2. O'zbekiston Respublikasining —Baholash faoliyati to'g'risidagi qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.
3. Baholovchilar ishi sifatini nazorat qilishning ichki qoidalariga qo'yiladigan umumiy talablari haqidagi O'zbekiston Respublikasi davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasining 2008-yil 15-sentyabrdagi qarori.
4. Berdnikova T.B. Osenka sennix bumag: Ucheb. posobie. -M.: INFRA-M, 2006.
5. Byulleten bankovskoy statistiki. №10 (185) ot 31.10.2008 g. – izdanie Sentralnogo banka RF
6. Kolodyajniy A. Sbornik OAO KB "Aktsept", g.Novosibirsk. 2010 g.
7. И.Бутиков. Фондовый рынок Узбекистана в условиях кризиса мировой финансовой системы. Рынок, Деньги и Кредит.2009 г
8. Бутиков И.Л Qimmatli qog'ozlar bozori. – T. Konsauditinform, 2001
9. Shoxa'zamiy Sh.Sh. Moliya bozori va qimmatli qog'ozlar. Darslik. T.Iqtisod- moliya, 2008.
10. Шохазамий Ш.Ш. Финансовый рынок и ценные бумаги. Книга II. Учебник. Т. Iqtisod-moliya, 2005.
11. <http://www.auver.ru>
12. Законодательство Республики Узбекистан (кодексы, законы, указы, постановления, нормативные акты, книги). Правовой портал. НОРМА | NORMA.UZ
13. <https://stat.uz/>

МИЛЛИЙ ХУНАРМАНДЧИЛИК РИВОЖЛАНИШИДА ХАЛҚАРО ТУРИЗМНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ

З.Р.Давлатова, ТМИ ўқитувчиси
Жуманова И. , ТМИ талабаси

Мамлакатимизда хунармандчилик ва туризм соҳаларида кўпгина тадқиқотлар амалга оширилган, шу кунгача хунармандлар учун мўжалланган бир қанча веб саҳифалар мавжуд бўлсада, уларда маҳсулотлар бренди ҳимояланмаган, жозибадорлиги етарлича эмас. Яъни хунармандлар маҳсулотлари орқали сайёҳларни жалб қилиш механизмлари мавжуд эмас. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17 ноябрдаги ПФ-5242-сон «Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб қувватлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ва шунинг билан бирга 2021 йил 31 декабрда “Хунармандчилик фаолиятини қўллаб-қувватлаш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги президент қарори қабул қилинди. Қарорга кўра, 2022 йилда оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида ажратилаётган маблағларнинг 500 млрд сўмни хунармандчилик лойиҳаларини молиялаштиришга йўналтирилди ҳамда мазкур фаолиятга тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада хизмат қилади. Жаҳон иқтисодиёти глобаллашувининг чуқурлашуви, рақобат даражаси ошиши ҳамда ишлаб чиқариш диверсификациясининг кучайиши таъсирида хунармандчилик соҳасининг имкониятларидан кенгроқ фойдаланиш, жумладан, аҳоли бандлиги ва даромадлари даражасини ошириш, халқаро ва ички туризмни ривожлантиришга алоҳида эътибор қаратилмоқда

2019 йил давомида Ўзбекистон Республикасига хорижий мамлакатлардан 5 миллиондан ортиқ туристлар ташриф буюрган. Шунингдек, ушбу йилда туризм фаолиятида хунармандчилик маҳсулотлари экспорти 15,2 миллион АҚШ долларини ташкил этган. Шундан, хунармандчилик маҳсулотлари савдосининг 45% кирувчи туристлар ҳисобига, 25% халқаро кўргазмалар доирасида, 25 % тўғридан-тўғри шартномалар асосида ҳамда 5% савдо эса онлайн тарзда амалга оширилган. 2020 йилда кирувчи туристларнинг камайганлиги, ҳамда хорижий мамлакатларда бўлиб ўтадиган фестиваль, ярмарка ва

кўрғазмаларда ҳунармандлар иштироки ўтган йилнинг мос даврига нисбатан 90 фоизга қисқарганлиги сабабли ҳунармандчилик маҳсулотларининг савдо ҳажми тахминан 70% га тушиб кетди. Фақатгина 2020 йил биринчи чорагида 4 миллион долларлик маҳсулот экспорти ҳажмини ташкил этаган ҳолос, шундан 20 % халқаро кўрғазмалар, 25 % шартнома асосида, 15 % электрон савдо ҳамда 40 % туристлар ҳисобига тўғри келди.

Ўзбекистонга кирувчи туристларни жалб қилиш ҳамда туризм соҳасини ривожлантиришга қаратилган кўплаб платформалар мавжуд, лекин туризм соҳасида ҳунармандчилик қай даражада ривожланганлигини кўрсатиб берадиган платформалар етарлича эмас. Шундан келиб чиқиб, яратиладиган платформалар ҳунармандчилик маҳсулотларининг савдо тизимида онлайн савдо улушини оширишга хизмат қилиши ва ҳунармандчиликни тарғиб қилиш орқали туризм жозибадорлигини ҳамда маҳсулот брендини индивидуаллигини оширишга олиб келиши керак. Халқаро тажрибалар шуни кўрсатадики, бугунги кунда ҳунармандлар янги авлодини тайёрлашни рағбатлантиришда, шунингдек, мазкур соҳада бандлик даражасини оширишда, шу билан бирга меҳнатни ташкил этишда замонавий талабларидан келиб чиққан ҳолда миллий брендли маҳсулотларни ишлаб чиқишнинг касбий маҳоратини ва рақобат муносабатларини кучайтириш имконини беради.

Туризм соҳасида фаолият юритаётган ҳунармандларнинг маҳсулотларига дастурий таъминотни яратишда ахборот технологиялари янги усуллари ишлатиш, қўллаш ҳамда фойдаланиш самарали ҳисобланади. Ахборот тизимларининг таъминоти ахборот объекти тузилиши, унинг ишлаши учун фойдаланиладиган, платформани яратишни ифодаладиган тушунчалар, унинг воситалари тўплами комплексига киради. Тўпланган маълумотлар базаси, матнни таҳлил қилиш, қайта ишлаш, сақлашга оид дастурлар ишлаб чиқиш долзарблигини билдиради. Миллий маҳсулотлар базасида яратилган электрон маълумотларда маҳсулотлар сотувини амалга ошириш механизми, истеъмолчилар учун реклама роликлари, туризм соҳасида фаолият юритувчи ташкилотлар билан боғланиш имкониятларини берадиган платформалар шакллантириш зарур. Хулоса қиладиган бўлса, дунё бозорларида миллий ҳунармандчилик маҳсулотларини савдосидаги талаб-таклифларни, маҳсулотларга бўлган қизиқишларни ўрганиб бориш имконини берувчи

платформалар яратишда куйидагиларни эътиборга олиш мақсадга мувофиқ:

-Миллий хунармандчилик маҳсулотларининг онлайн савдодаги улушининг ортишига эришиш;

-Халқаро миқёсда миллий хунармандчилик маҳсулотлари брендининг кенг ёйилиши олиб келиши;

-Туризм жозибадорлигини ошириб, кирувчи туристларни янада кўпроқ жалб қилинишига ҳамда иқтисодиётда туризм ўрнини ошишига;

-хорижий истеъмолчилар миллий хунармандчилик маҳсулотини сотиб олганда, Ўзбекистон туризм салоҳиятини тарғиб қилиш яъни реклама қилиниши;

-туризм соҳасида фаолият юритувчи ташкилотлар билан боғланиш имкониятини берадиган тизим интеграциясини ташкил этиш;

-туризм соҳасида фаолият юритаётган хунармандлар иштирокидаги фестиваль, ярмарка ва кўرғазмалар тўғрисидаги эълонлар такдим қилувчи маълумотлар базасини шакллантириш;

-дунё бозорларида миллий хунармандчилик маҳсулотларининг савдоси ва талаб-таклифлари, қизиқишлари статистик таҳлил этиш имкониятининг яратилиши зарур.

KORXONALARDA MOLIYAVIY RESURSLARNING O'RNI

Xaydarova Dilfuza

Chilonzor 2-son kasb hunar maktabi

“Maxsus fanlar” kafedrasi o'qituvchisi:

Davlat va korxonalarining moliyaviy resurslari moliyaviy boshqarishning bevosita ob'ektlari, ya'ni ularni shakllantirish, ulardan foydalanish va pul oqimlarini boshqarishdir. Yetarli moliyaviy resurslarning mavjudligi, ulardan samarali foydalanish korxonaning yaxshi moliyaviy holatini, to'lov qobiliyatini, moliyaviy barqarorligini, likvidligini oldindan belgilab beradi. Shu munosabat bilan korxonalarining eng muhim vazifasi o'zlarining moliyaviy resurslarini ko'paytirish uchun zaxiralarni topish va umuman korxonada samaradorligini oshirish uchun ulardan eng samarali foydalanishdir. Moliyaviy resurslarni samarali shakllantirish va ulardan foydalanish korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlaydi va ularning bankrot bo'lishiga yo'l qo'ymaydi” deya keltirib o'tilgan. Bizning fikrimizcha ham moliyaviy resurslarni to'g'ri va

oqilona boshqarish xo'jalik yurituvchi korxonalarining bankrot darajasiga yetib borishini oldini oladi, agarda u haqiqatdan ham to'g'ri boshqarilsa.

Shunday qilib, korxonada moliyaviy boshqaruv hisobida boshqarish obyekti sifatida nafaqat moliyaviy resurslar, balki aylanma va aylanmadan tashqari mablag'lar ham maydonga chiqadi. Moliyaviy resurslarni tashkil etish ularni boshqarish samaradorligini oshirish muammolari ichida belgilovchi o'rinni egallaydi.

Moliyaviy resurslarni tashkil etishning asosiy tamoyillariga quyidagilar kiradi:

- moliyaviy resurslar tarkibi va tuzilishi;
- moliyaviy resurslarning tashkil topish manbalari;
- moliyaviy resurslardan maqsadli foydalanish;
- moliyaviy resurslar saqlanishini ta'minlash.

Korxonalarda mahsulot (ish, xizmat) sotishdan tushumning taqsimlanishida

birlamchi moliyaviy resurslar (amortizatsiya fondi, foyda va boshqalar) shakllanadi. Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish zarur ligi tufayli moliyaviy resurslar qayta taqsimlanadi: ularning ma'lum qismi budjet va budjetdan tashqari fondlarga ajratiladi. Umumdavlat moliyaviy resurslari, o'z navbatida, qayta taqsimlanadi va ularning ma'lum qismi korxonalar ixtiyoriga kelib tushadi. Moliyaviy resurslarning tashkil topish manbalari turli-tuman bo'lib, korxonaning ishlab chiqarish, investitsion va moliyaviy faoliyati ko'lamlariga bog'liq.

Bozor munosabatlarining taraqqiyoti sharoitida korxonalarining samarali faoliyatiga ularning ixtiyorida yetarli miqdordagi moliyaviy resurslarsiz erishib bo'lmaydi. Korxonalarda moliyaviy resurslarning yetarliligi – uning hamkor sifatida mol yetkazib beruv chilar bilan munosabatlarida to'lovga layoqatliligi garovi hamda xaridorlar oldida majburiyatlarini o'z vaqtida bajarish, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga to'lovlarning va kreditlarning o'z vaqtida qaytarilishini ta'minlash kafolatidir. Darhaqiqat, moliyaviy resurslarning tashkil topish shakllari va usullari (daromadlar va tushumlar) ulardan foydalanish shakllari va usullari (pul mablag'lari fondlari) singari, korxonada moliyaviy resurslari o'sishi uchun bir xilda muhim ahamiyatga ega. Biroq pul mablag'lari fondlari – korxonada moliyaviy resurslarini ishlatishning yagona yo'nalishi emas. Ularning bir qismi mazkur fondlar doiraviy aylanishining uluksizligini ta'minlashga xizmat qiladi. Bundan tashqari, moliyaviy resurslar butunlay ishlatilmasligi yoki fondlar tashkil qilinmasdan ham ishlatilishi

mumkin. Mahsulot yuklab jo'natish bo'yicha sotish operatsiyasini buxgalteriya hisobida aks ettiruvchi korxonalar moliyaviy resurslarning muhim manbayi bo'lgan foydaga ega bo'lishlari mumkin, biroq bu hali korxonaning budjetga, budjetdan tashqari fondlarga, mol yetkazib beruvchilarga to'lovlarining o'z vaqtida o'tkazilishini kafolatlamaydi.

Shunga alohida e'tibor berish lozimki, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida «pul mablag'lari» tushunchasi ostida korxonaning bevosita uning kassasi va bank hisob raqamlaridagi pul mablag'lari hamda qimmatli qog'ozlarda ifodalanuvchi qisqa muddatli yuqori likvid sarmoyalar sifatidagi pul ekvivalentlari tushuni ladi. Albatta, moliya bozorining rivojlanib borishi bilan bizning mamlakatimiz iqtisodiyotida ham qimmatli qog'ozlarning qisqa muddatli va yuqori likvid turlari o'z o'rnini egallaydi. Qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi korxonalar_moliyaviy resurslarining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Biroq asosiy muammo korxonalarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi faol ishtirokini ta'minlashdadir. Shunday qilib, moliyaviy resurslarning shakllanishi korxonaning o'z va unga tenglashtirilgan mablag'lari hisobiga, moliya bozorida resurslarni jalb etish hisobiga va moliya-bank tizimidan qayta taqsimlash tartibidagi mablag'larning tushishi hisobiga amalga oshiriladi.

Moliyaviy resurslarning dastlabki shakllanishi korxonalar ta'sisчилari tomonidan uning ustav kapitali tashkil etilayotgan vaqtga to'g'ri keladi. Korxonalar ustav kapitalining tashkil topish manbayiga xo'ja lik yuritishning tashkiliy-huquqiy shakllariga ko'ra quyidagilar kiradi:

- shaxsiy (oilaviy) jamg'armalar (xususiy korxonalar uchun);
- aksiyadorlik kapitali;
- shirkatlar yoki mas'uliyati cheklangan jamiyatlar a'zolarining pay badallari;
- jismoniy shaxslarning shaxsiy mablag'lari.

Korxonaning ustav kapitali korxonalar boshlang'ich aktivlarining (asosiy fondlar va aylanma mablag'lar) shakllanishiga qanday mablag'lar ishlatilishini va ishlab chiqarishga sarmoyalar jalb qilinishini ko'rsatadi. Moliyaviy resurslarning asosiy qismi, ayniqsa, yangi tashkil etilayotgan korxonada moliya bozoridan jalb qilinishi mumkin. Moliya bozoridan mablag'larni jalb qilish shakllariga korxonalar chiqargan aksiyalar, obligatsiyalar va qimmatli qog'ozlarning boshqa turlarini sotish kiradi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonada moliyaviy resurslar takror ishlab chiqarish jarayonida tashkil topadi, ularning shakllanish manbayi – mahsulot

sotishdan kelgan tushum yoki tushumni taqsimlash jarayonida pul daromadlari va jamg'armalari shaklini oladigan sotishdan olingan daromad hisoblanadi. Shuningdek, ishlab turgan korxonalarda moliyaviy resurslar asosiy va asosiy bo'lmagan faoliyat turlaridan olingan foyda hisobiga hamda amortizatsiya ajratmalari hisobiga shakllanadi.

MENEJMENTNING OB'YEKTI VA SUB'YEKTI, ULARNING O'ZARO ALOQADORLIGI

Djumayeva Gulnora
Chilonzor 2-son kasb hunar maktabi
“Maxsus fanlar” kafedrası o'qituvchisi

Bozor iqtisodiyotida turli mulkchilikka asoslangan minglab korxonalar faoliyatini tasavvurga sig'dirish qiyin emas. Korxonalar faoliyatini u yoki bu darajadagi boshqaruvini tashkil etish, shu korxonada rahbarining boshqaruv qobiliyatiga bog'liq. Uning qobiliyati esa menejment sohasidagi bilimlarni qanchalik darajada egallanganligi bilan o'lchanadi. Shu nuqtai nazardan menejment so'zi bizning hayotimizda bozor iqtisodiyoti bilan bog'liq kirib kelgan so'zlar qatoridan joy oldi.

Menejment inglizcha («management») so'z bo'lib, u o'zbek tilida - boshqarishni idora qilish, tashkil etish, rahbarlik qilish ma'nolarini anglatadi. Bozor iqtisodiyotida korxonalarni boshqarish shakli hisoblanadi. Menejment inson hayotidagi iqtisodiy-ijtimoiy sohalarni ishbilarmonlik asosida tashkil etish hamda boshqarishni bildiradi.

Inglizcha «menejment» so'zi, boshqaruv degan ma'noni anglatganda, dastlab asov otlarni tushovlash ma'nosini bildirgan. Keyinchalik bu atama ikki gildirakli aravaga nisbatan qo'llanila boshlangan. Bugungi kunda esa gap odamlarni, jamoalarini boshqarish xususida boryapti. Bu o'rinda odamlar mehnati, xohish irodasidan foydalanib mo'ljaldagi maqsadlarga erishish tushuniladi. Lekin menejmentni faqat odamlarni boshqarish jarayoni deb tushunmaslik kerak. Ingliz tilida «Menejment» so'zining ma'nosi nihoyatda murakkab. Ingliz tilining fundamental Oksford lug'atida bu so'zning quyidagi talqinlarini uchratish mumkin:

1. odamlar bilan muomala qilish usuli, tarzi;
2. xokimiyat va boshqaruv san'ati;

3. ishbiarmonlikning o'ziga xos turi;
4. ma'muriy vazifa.

Shunday qilib, «Menejment» atamasi quyidagi ma'nolarni anglatadi:

- boshqaruv;
- inson organidagi bilimlar sohasi;
- boshqaruvni amalga oshirganlarning ijtimoiy qatlami.

Menejment - bu professional faoliyatning mustaqil qo'rinishi bo'lib, bozor sharoitida firmaning ixtiyoriy xo'jalik faoliyati natijasida moddiy va mehnat resurslardan unumli foydalanib mo'ljallangan maqsadga erishishdir.

Bu maqsadga menejment iqtisodiy mexanizmining prinsiplari va usullari asosida erishiladi.

Menejment deganda, bozor sharoitida bozor iqtisodiyotini boshqarish tushuniladi, ya'ni:

- firmani bozorning talabi va ehtiyojiga, aniq talabgorlarning ehtiyojiga yo'naltirish va shu asosda firmaga mo'ljallanayotgan foydani keltiradigan mahsulotlarni ishlab chiqarishni tashkillashtirish;
- optimal natijalarga erishgan holda minimal harajatlar bilan ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doim intilish;
- xo'jalik faoliyatining mustaqilligi;
- bozor holatini e'tiborga olgan holda maqsad va rejalarni doimiy takomillashtirish;
- bozorda, almashish jarayonida firmaning yoki uning xo'jalik faoliyati mustaqil bo'lgan bo'lim va qismlarning yakuniy natijasi namoyon bo'ladi;
- asoslangan va optimal qarorlarni qabul qilishda ko'p variantli hisob - kitoblarni amalga oshirish uchun hozirgi zamon ma'lumotlar bazasi va kompyuterlardan keng foydalanish.

Boshqarish so'zi keng ma'noda ishlatiladi, masalan: davlatni boshqarish, mashinani boshqarish, biron bir biologik jarayonni boshqarish va hokazo. Menejment so'zi esa asosan firma darajasida bozor sharoitida ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni boshqarishda ishlatiladi. Menejment har hil mustaqillikka ega bo'lgan ishlovchilarni o'z ichiga birlashtiradi, ya'ni muhandislarni, loyihachilarni, iqtisodchilarni, statistlarni, psixologlarni, buxgalterlarni. Ana shularni hammasining faoliyatini menejer boshqaradi.

Menejer ishlayotgan firmaning kapitaliga mulkdorlikdan erkin, demak u firmaning aksiyasiga ega bo'lishi yoki ega bo'lmasligi mumkin.

Menejmentning ta'rifini berganda firmaning xo'jalik faoliyati quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- iqtisodiyotning ixtiyoriy tarmog'ida, ya'ni sanoat korxonalarida, bankda, transportda va h.k.

- firmaning ixtiyoriy faoliyat doirasida, ya'ni ishlab chiqarishda, ilmiy izlanishda, moliyada, ta'minotda va h.k.

Firma xo'jalik faoliyatining maqsadi ishlab chiqarish jarayonini kerakli bo'lgan hamma resurslar bilan ta'minlash va texnik davrni (siklni) tashkillashtirishdir, bu degani ilmiy izlanishlar natijalarini ishlab chiqarishga tadbik qilish, ishlab chiqarish texnologiyasini yaratish va takomillashtirish, mahsulotning sifat darajasini ko'tarish, tijorat ishlarini amalga oshirish, tovar harakati amallarini bajarish, har hil hisob-kitoblarni amalga oshirish, ishlab chiqarish jarayonini moddiy texnik ta'minlash, moliya resurslari bilan ta'minlash va boshqalar. Menejmentning asosiy masalalaridan biri - firmaning maqsadlarini yaqin yoki uzoq kelajakga, ya'ni istiqbolga mo'ljallash. Buning uchun firmaning imkoniyatini baholash va resurslar bilan ta'minlanganligini bilish zarur.

Moddiy va mehnat resurslaridan rasional foydalanish natijasida minimal harajat va maksimal samaradorlik bilan boshqarish jarayonida o'zaro hamkorlik qilayotgan kishilar yoki guruhlar maqsadga erishishi mumkin. Xo'jalik faoliyati jarayonida paydo bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy, texnik, ijtimoiy-psixologik masalalarni yechish uchun menejment o'zining xususiy iqtisodiy mexanizmiga ega. Menejmentning ana shu iqtisodiy mexanizmi 3 qismdan iborat:

- firma ichidagi boshqarish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- xodimlarni boshqarish.

Xulosa o'rnida shuni ayta olamizki, iqtisodiyotni boshqarish bu muayyan doirada tashkilotlar, muassasalar, korxonalar va firmalarni boshqarish tushuniladiki, bunda mehnat jamoasi, personal (xodimlar) va ishchilarni boshqarish o'ziga xos muhimlikni bildiradi. Iqtisodiyotni boshqarishning ana shunday muhim qismi menejment sohasi bilan albatta bog'liqdir.

АКЦИДОРЛИК ТИЖОРАТ БАНКЛАРИДА КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎЛЛАРИ

Халмурадов Э.Д.
ДБА мустақил изланувчиси

Мамлакатимизда сўнгги йилларда олиб борилаётган иқтисодий ислохотларда акциядорлик тижорат банкларида корпоратив бошқарувни самарали ташкил этишга катта эътибор қаратилмоқда. Чунки мамлакатимизда амалга оширилаётган йирик ишлаб чиқаришлар, экспорт-импорт операциялари, қурилиш ишларини амалга оширишда молиявий хизматлар билан таъминлаш асосан акциядорлик тижорат банклари томонидан амалга оширилмоқда. Йирик акциядорлик жамиятлари мингдан ортиқ ишчи ва хомларни ишга қабул қила олиши билан диққатга сазовордир. Аммо, ҳозирги кундаги кўплаб акциядорлик жамиятларида молия бозорлари ва қимматли қоғозлар савдосида иштирок этишида кўплаб муммолар мавжуд. Шу сабабли бугунги кунда акциядорлик жамиятлари фаолиятини тубдан янгилаш, миллий ва халқаро бозорларда тўлақонли фаолият юрита оладиган, шунингдек, замон талабларига жавоб бера оладиган акциядорлик жамиятларини ташкил этишга алоҳида эътибор берилиб келинмоқда. Фикримизнинг далили сифатида Президентимиз томонидан 2022 йил 28 январдаги “2022-2026 йилларга мулжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”⁸⁵ ПФ-60-сонли Фармони қабул қилиниб, Фармоннинг III. Миллий иқтисодиётни жадал ривожлантириш ва юқори ўсиш суръатларини таъминлашнинг 25-мақсадида Рақамли иқтисодиётни асосий “драйвер” соҳага айлантириб, Иқтисодиётнинг реал секторида ҳамда молия ва банк соҳаларида ишлаб чиқариш ва операцион жараёнларни рақамлаштириш даражасини 2026 йил якунига қадар 70 фоизгача ошириш ва 27-мақсада ... Иқтисодиётда молиявий ресурсларни кўпайтириш мақсадида, келгуси 5 йилда фонд бозори айланмасини 200 миллион АҚШ долларидан 7 миллиард АҚШ долларига етказиш. Мамлакатимизда капитал ҳаракатини босқичма-босқич эркинлаштириш ҳамда йирик корхоналарни ва улардаги улушларни (акцияларни), шу жумладан фонд биржаси орқали хусусийлаштириш. Давлат улушига эга тижорат банкларида

⁸⁵Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январь “2022-2026 йилларга мулжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони.

трансформация жараёнларини якунлаб, 2026 йил якунига қадар банк активларида хусусий сектор улушини 60 фоизгача етказиш” вазифалари қўйилгандир.

Акциядорлик тижорат банкларида корпоратив бошқарув – бу акциядорлик жамиятларида бошқарувнинг энг маъсулиятли бўғини бўлиб, ўз ичига корпоратив муносабатларни самарали ташкил этиш, дивиденд сиёсатини амалга ошириш, компания акцияларининг бозор қийматини ошириш, бошқарувнинг қуйи бўғинида самарали бошқарувни ташкил этиш, акциялар эмиссия қилиш жараёни ва молия бозорларидан қўшимча мабалағлар жалб қилиш кабиларни олади. Корпоратив бошқарувнинг асосий мақсади бўлиб, акциядорлик тижорат банкларида самарали бошқарув тизимини яратиш, жамият акцияларининг бозор қийматини максималлаштириш, дивиденд бўйича акциядорлар фойдасини максималлаштириш кабилар бўлиб ҳисобланади. Корпоратив бошқарувнинг иқтисодий моҳияти унинг қуйидаги вазифаларида тўлароқ намоён бўлади:

- акциядорлик тижорат банкларида бошқарув механизминини ташкил этиш;
- акциядорлар ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш;
- акциядорлик тижорат банкларининг бошқарув органлари ваколатларини аниқ белгилаган ҳолда шакллантириш;
- акциядорлик тижорат банкларининг инвестицион жозибадорлигини ошириш;
- дивиденд сиёсатини амалга ошириш;
- маълумотларни тезкорлиги ва ҳақиқийлигини таъминлашдир.

Акциядорлик тижорат банкларида корпоратив бошқарувни самарали ташкил этиш унинг шаффофлик ва ҳаллоллик, ҳисобдорлик ҳамда маъсулиятлиликдан иборат тамойилларига қанчалик таянилишига боғлиқ. Чунки жаҳон амалиётидан маълумки дунё миқёсида турли акциядорлик жамиятларида корпоратив бошқарув структураси турлича бўлиб, уларнинг ривожланиши ушбу структурага боғлиқ эмас, балки корпоратив бошқарув субъектларининг тажрибалари, интеллектуал қобилиятлари, маҳорати ҳамда ушбу тамойилларга таяниш ҳолатига боғлиқдир. Шунинг учун юқорида келтирилган Фармон ижросини бажариш мақсадида мамлакатимизда корпоратив бошқарув топ менежерларининг малакасини мамлакатимизда ва кейинчалик эса ривожланган давлатларда, хусусан, Германияда тажриба ортириш учун ўқишга юбориш мақсадга мувоффиқ

бўлади. Бу эса ўз навбатида келгусида корпоратив бошқарувнинг сифати ошишига ўз таъсирини кўрсатади. Хусусан, акциядорлик жамиятларида ишлаб чиқариш ҳажми миқдор ва сифат жиҳатдан яхшиланади, пул маблағларидан фойдаланиш самарадорлиги ошади, меҳнат унумдорлиги кўтарилади, жамият акцияларининг жозибадорлиги ошади, шунингдек, хорижий инвестицияларни жалб қилиш имконияти ошади.

Акциядорлик тижорат банкларида дивиденд сиёсатини самарали ташкил этиш ҳам корпоратив бошқарув самарадорлигига ижобий таъсир кўрсатади. Бугунги кунда акциядорлик тижорат банкларида чет эл инвесторлари капиталини жалб этишни дивиденд ҳажми ва тақдим этиш муддатларини тўғри белгилаш орқали таъминлаш мумкин. Чунки, чет эл инвесторлари ўз капиталини мамлакатимизда фаолият юритаётган акциядорлик жамиятларига киритишда асосан иккита масалани ўрганиб чиқади. Биринчиси – инвестор киритган ўз капитални ҳисобига келгуси қайси даврларда ва қанча миқдорда дивиденд олиши, иккинчиси – инвестор киритган капитални ҳисобига акциядорлик жамиятини бошқаришда қандай даражада иштирок этиши бўлиб ҳисобланади.

